



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

IMOMOVA NOZIMAXON AVAZXONOVNA

**O‘ZBEKISTONDA MEHNAT MIGRATSIYASINING IJTIMOIIY
TRANSFORMATSIYALASHUVI JARAYONLARIGA TA’SIRI**

M O N O G R A F I Y A

Toshkent 2024

UDK: 325.1/.3+331.024

Imomova Nozimaxon Avazxonovna

O‘zbekistonda mehnat migratsiyasining ijtimoiy transformatsiyalashuvi jarayonlariga ta’siri

G-14 N.Imomova-Farg‘ona: “Classik”, 2024-198 b.

Monografiyada globallashuv davrida alohida dolzarblik talab etgan mehnat migratsiyasi bilan bog‘liq jarayonlar tahlili, uning ijtimoiy jarayonlarning inson kapitaliga, milliy mintalitetga ta’siri, shuningdek, ijtimoiy jarayonlarga ta’sirining etnomadaniy jihatlari sabablari, turlari, oqibatlari tahliliga bag‘ishlangan. Mehnat migratsion jarayonlarni tahlil etishda uning muhim muammolari mavjudligi inobatga olinib, xususan, mehnat potensialini aniqlash uning mehnat migratsiyasining ijtimoiy transformatsiyalashuvi jarayonlariga ta’sirining o‘rganish va uning ijobiy va salbiy oqibalarini oldini olishga qaratilgan. Shuningdek, aksariyat hollarda migrantlar ekspluatatsiya qilinishi, ularning huquqlari poymol etilishi, unda O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida mehnat migrantlarni davlat tomonidan himoya qilish tizimini takomillashtirish vazifalari tadqiq qilingan.

Monografiya ta’lim tizimi professor-o‘qituvchilari, tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrlar va migratsiya jarayonlar taxlili bilan qiziquvchilar ommasiga mo‘ljallangan.

Mas’ul muharir:

Sotsiologiya doktori, professor M.B.Bekmurodov

Taqrizchilar:

Sotsiologiya doktori, professor T.Б.Матибаев

Falsafa doktori, dotsent B.S.G‘aniev

Sotsiologiya doktori, dotsent M.M.Abduraxmonova

Ushbu monografiya Farg‘ona davlat universiteti Ilmiy Kengashining 2024 yil yig‘ilishida muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan

MUNDARAJA

| | | |
|--|---|---------|
| | KIRISH | 4-5 |
| I BOB. MEHNAT MIGRATSIYASI JARAYONLARINI O‘RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI | | |
| 1.1. | «Mexnat migratsiya» tushunchasining mazmun-mohiyati hamda uni tadqiq etishning ilmiy-nazariy asoslari | 5-24 |
| 1.2. | Mehnat migratsiyasi vujudga kelishining ijtimoiy omillar va shart-sharoitlari | 25-40 |
| 1.3. | Jaxonda mehnat migratsiyasi masalasi, uning asosiy yo‘nalishlari va muammolari | 41-56 |
| II BOB. JAMIYATDA FAROVONLIKKA ERISHISH MEZONLARINI TADQIQ ETISHDA MEHNAT MIGRATSIYASINING O‘RNI. | | |
| 2.1. | Jamiyat farovonligi tushunchasi va uning o‘ziga xos ijtimoiy- xususiyatlari | 57-64 |
| 2.2. | Jamiyat farovonligini ta‘minlashda mehnat migratsiyasining sotsial mohiyati | 65-76 |
| 2.3. | Mehnat migratsiyasining jamiyat farovonligiga ta‘siri va ijtimoiy dinamikasi | 77-88 |
| III BOB. O‘ZBEKISTONDA AHOLI MEHNAT MIGRATSIYASINING SOTSIALOGIK TAHLILI | | |
| 3.1. | Mamlakatda migratsion harakatlarning joriy holati va o‘zgarish tendensiyalari | 89-100 |
| 3.2. | Respublikamizda mehnat migratsiyasi vujudga kelishining o‘ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy omillari | 101-114 |
| 3.3. | Jamiyatimizda mexnat migratsiyasini tartibga solishning samaradorligi taxlili | 115-128 |
| IV BOB. JAMIYAT FAROVONLIGINI OSHIRISH HAMDA MIGRATSION JARAYONLARNI TARTIBGA SOLISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI | | |
| 4.1. | Jamiyat farovonligini oshirish bo‘yicha davlat siyosatining ustivor yo‘nalishlari | 129-147 |
| 4.2. | Jamiyat hayotida migratsion jarayonlarning salbiy ta‘siri va ijtimoiy muommalarni oldini olish bo‘yicha tavsiyalar | 148-161 |
| 4.3. | O‘zbekistonda jamiyat farovonligini ta‘minlash va unda mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solishni takomillashtirish istiqbollari | 162-175 |
| XULOSA | | 176-178 |
| FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI | | 179-192 |
| ILOVALAR | | 193-198 |

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning globallashuvi dunyodagi barcha davlatlar rivojlanishiga jumladan, xalqaro migratsiyaning ahamiyati sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Dunyo miqyosida demografik o'sish, bandlik va ishchi kuchiga bo'lgan talab, migrantlar miqdorining ko'payishiga va migratsiya ko'lamining kengayishida asosiy rolni o'ynamoqda.

Xalqaro mehnat tashkilotining ma'lumotlarga ko'ra, "sayyoramizda xalqaro migrantlar soni 281 million kishini ularning aksariyati mehnat muhojirlari tashkil etib, 1990 yilga nisbatan 119 millionga oshgan.¹ Bu esa, rivojlanayotgan mamlakatlarda tashqi migratsiyani demografik o'sishida va ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida migratsiyani boshqarishga xizmat qilmoqda.

Xususan, axoli migratsiya jarayoni ham globallashuvi, o'z navbatida, davlatlarning inson huquqlari bo'yicha xalqaro konvensiyalarga rioya etishligiga, migrantlarning siyosiy va ijtimoiy maqomlarini saqlab qolishga, ularning mehnatga oid huquqlari qay darajada himoya qilinayotganiga va ishchi kuchiga bo'lgan talabni legal tartibga solish bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

Mamlakatimizda axolining farovon yashashlari uchun mehnat qobiliyatiga ega fuqarolarni ishsizlikdan himoya qilish, yangi ish o'rinlarini yaratish, mehnat migratsiyasi sohasida xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalanish, ular bilan hamkorlik qilish, yangi kasblarga qayta tayyorlash, oilaviy va xususiy tadirkorlikka keng yo'l ochib berish, aholi o'zini o'zi band qilishini ta'minlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, mehnatga munosib haq to'lash, mutaxassislik kasblari bo'yicha mos ishni topishi, qarovsiz qolgan migrant ota onalarning bolalarini qonuniy ximoyalash kabi masalasiga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

Shuningdek, «Mamlakatimizda har yili 600-700 ming aholi mehnat bozoriga kirib keladi. Qariyb 200 ming kishining bandligini tashqi mehnat migratsiyasi orqali ta'minlashga to'g'ri kelmoqda. Qaerda mehnat migratsiyasi to'g'ri tashkil etilgan bo'lsa,

¹ Доклад о миграции в мире 2022, Международная организация по миграции ISBN 978-92-9068-078-7 (PDF) <https://publications.iom.int/books/world-migration-report-2022> Дата загрузки 1 декабря 2021 г.

bandlik, oilalar daromadi, malakali mutaxassislar ko‘paygan»².

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoni, 2018 yil 5 martdagi PQ-3584-son «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun respublika tashqarisiga transportda chiqish vaqtida xavfsizligini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2018 yil 5 iyuldagi PQ-3839-son «O‘zbekiston Respublikasining tashqi mehnat migratsiyasi tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida», 2020 yil 15 sentabrdagi PQ-4829-son “Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, xamda 2021 yil 30 iyuldagi PQ-5205-son “Xorijga tashkilashtirilgan mexnat migratsiyasiga ketayotgan fuqarolarni rag‘batlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari va boshqa me‘yoriy- huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda mazkur dissertatsiya ishi ma’lum darajada xizmat qiladi.

I-BOB. MEHNAT MIGRATSIYASI JARAYONLARINI O‘RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Migratsiya bugungi kunda murakkab global hodisasiga aylandi. Hozirgi kunda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida migratsion xarakterlarga aloxida e‘tibor qaratilib kelinmoqda. Emigrantlarning aksariyati mehnat migrantlarini tashkil qiladi. Buning oqibatida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Shu o‘rinda, mehnat migratsiyasi ishchi kuchini yoshartirish, qishloq xo‘jaligi, qurilish va maishiy xizmat ko‘rsatish kabi ko‘plab mehnat talab qiladigan sohalarni qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, aholini turmush darajasini oshirish va kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni qondirishga yordam beradi. O‘z navbatida, muhojirlarni o‘z oilalariga yuborgan mablag‘lar mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga ko‘maklashadi.

Dissertatsiyaning mazkur bobi jaxonda mehnat migratsiyasi masalasi, uning asosiy yo‘nalishlari va mamlakatimizda mehnat migratsiyasini vujudga kelishining ijtimoiy omillar ta’sirini va shart-sharoitlari sabab bo‘layotganligini o‘rganishning nazariy, metodologik asoslarini tadqiq etishga bag‘ishlangan. Ushbu bobda mexnat migratsiyasi tushunchasi va uni jamiyat ravnaqiga ta’sirini sotsial mohiyati, shuningdek aholi migratsiyasining zamonaviy tendensiyalari, globallashtirish davrida mehnat migratsiyasini

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 17 августда Хорижда меҳнат килаётган фуқароларни қўллаб-қувватлаш масалалари муҳокамасига бағишланган видеоселектор йиғилишидаги маърузаси. <https://president.uz/uz/lists/view/3780>

va u bilan bog‘liq migratsiya muammolarini bartaraf etishga qaratilgan ilmiy xulosalar va migratsiya tufayli yuzaga kelayotgan ma’naviy axloqiy muammolar oqibatlarini o‘rganish, etnik diasporalarni shakillanishi va ular bilan mustahkam aloqani o‘rnatish natijasida migrantlarning ma’naviy ongini zaxarlanishi, turli xil yod g‘oyalarga qarshi kurashishda mafkuraviy imunitetni shakillantirishga qaratilgan tadbirlarga e’tibor qaratilgan.

1.1. «Mehnat migratsiya» tushunchasining mazmun-mohiyati hamda uni tadqiqetishning ilmiy-nazariy asoslari

Qadimgi dunyo tarixidan xabardor bo‘lgan kishilar Yunoniston, Rimda fan va madaniyat taraqqiy etganini yaxshi biladi, albatta. O‘sha davr boshlarida qariyb barcha bilimlar falsafa fani doirasida jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va sotsiomadaniy xususiyatlar rivojlanib kelgan edi. Inson jamiyat muhiti bilan ishtimoiylashuvi natijasida bilim va mehnat unumdorligiga bo‘lgan intilishi muayyan davrga kelib, ma’naviy, iqtisodiy va sotsial nazariy bilimni tarixiy zaruratga aylantirdi. Buning natijasida aqliy va jismoniy mehnat taqsimotining dastlabki shakli vujudga keldi va fanning nazariy jihatlarini o‘rganuvchi kishilar toifasi paydo bo‘ldi ³ . Inson harakati – jamiyatni rivojlanishi va shaxs farovonligiga erishuvchi omil shakli bo‘lib, moddiy va ma’naviy hayotning barcha shakillariga tegishli bo‘lgan eng ommabop hususiyatlaridan biri hisoblanadi. Aynan insonlar harakati, ya’ni bir joydan ikkinchi bir xududga iqlim, yer unumdorligi omillari ta’sirida ko‘chib o‘tishi ijtimoiy hayot rivojining asosiy shartlaridan biri sifatida qaralgan. Bu xodisa migratsiya jarayonlarning shakillanishida asosiy omili sifatida talqin etilgan. Ba’zida, ijtimoiy muammolar migratsiya tanazzuliga asos bo‘lgan. Tarixga nazar solsak savdo sotiq, sayohatlar, ko‘chishlar umuminsoniy jamiyatning bir qismi bo‘lgan xalqimiz taraqqiyotiga katta hissa qo‘shganligidan dalolat beradi.

Migratsiya jarayoni qadimiy rivojlanish tarixiga ega bo‘lib, turli davrlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlarini birlashtirib unda insonlar harakati va xodisalarining mohiyatini anglash bilan bir qatorda, ularga munosabat bildirishni ham anglatadi.

Hozirda insonlar tafakkurning yangilanishi natijasida ma’naviy muxit va jamiyat faoliyatchilarining ruhiy olami va ehtiyojlarini o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatadi.

³ Q.Nazarov /Falsafa asoslari.— T., «O‘zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2005.B.27 -28

Jamiyatimiz farovonliga erishishda buyuk allomalar orzu qilgan fozil odamlarning komil fazilatlarini shakllantirish uni ommaga targ'ib qilish, bu hislatni chet mamlakatga chiqqan paytda millat sha'ni deb xarakatlanishi hamda millatga munosib xarakter xususiyatga ega bo'lish har bir yurt farzandini burchi sifatida qaraladi.

Shu o'rinda migratsiyaning shakllanish tarixiga e'tibor qaratsak, insoniyat paydo bo'lgandan to bugungi kungacha davom etib kelayotgan jarayon hisoblanadi. Unda insonlar o'zining doimiy istiqomat qilib turgan joyidan ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy, geografik tomondan qulay bo'lgan joylarga ko'chib o'tishi, o'zlarining turmush tarzini munosib ravishda o'zgartirishga intilishini ko'rishimiz mumkin. Bugungi kunda ham aynan mana shundek migratsion jarayonlarning globallashuv tendensiyasini ortib borayotganini guvohi bo'lmoqdamiz. Demak, mamlakatimizning barcha hududlarida aholi migratsiyasi jarayonini ortishi turli xil ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy omillar ta'sirida shakllanmoqda.

Aholi migratsiyasi – bu, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotining turli jihatlari, ulardagi o'zgaruvchan tendensiyalarning shakllanishi va namoyon bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayon deyishimiz mumkin. Shu o'rinda, migratsiyani o'rganar ekanmiz, uning ikki jihatini ajratib ko'rsatish va chuqur taxlil qilib chiqish zaruriyati tug'iladi. Mehnat migratsiyasi bir necha omillar ta'sirida turkumlanadi va xarakat turlariga qarab 2 ko'rinishda namoyon bo'ladi:

19-asrning ikkinchi yarmida Yevropada sodir bo'lgan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va demografik o'zgarishlar aholining turmush tarziga jiddiy zarar ko'rsatdi. Yevropa mamlakatlarida aholining haddan tashqari ortib ketishi dehqonlarning doimiy yashash joylarini tark etib, qaerdan ish topishsa, hoh shaxar bo'lsin hoh boshqa davlat bo'lsin ko'chib ketishga majbur bo'lgan.

20-asr boshlarida ko'plab tadqiqotchilar mehnat migratsiyasi va uning omillariga e'tibor qarata boshladi. Mana shunday sharoitda, ijtimoiy fanlardagi birinchi maktablardan biri Amerikada yuqori mavqega ega bo'lgan Chikago maktabi tashkil etildi. Ushbu sotsiologiya maktabi tadqiqotchilari tomonidan ishlab chiqilgan aholi migratsiyasini o'rganish metodologiyasi bugungi kunda ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Chikago maktabi 1915 yildan 1935 yilgacha Amerika sotsiologiyasida ustun mavqeni egalladi va jamiyatda

sotsiologiya rivojlanishiga o‘z ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu maktab vakillari aholi migratsiyasi muommolarini empirik sotsiologik tadqiqotlar orqali o‘rganganlar.

XIX asr oxiri XX asrning boshlarigacha Sharqiy Yevropadan kelgan irlandlar, italiyaliklar, yahudiylar Qo‘shma Shtatlardagi eng yirik immigrant guruhlar tashkil qilib, migrantlarning yangi jamiyatga moslashishi asosiy masala hisoblanib. Mamlakatda mehnat migratsiyasi bilan bog‘liq, etnik nizolarni hal qilish, muhojirlarning deviant xatti-harakatlari oldini olish va boshqa muammolarni o‘rganish orqali migratsiya jarayonlarini tartibga solish mehanizmlarini ishlab chiqishga imkon berdi⁴.

Shuningdek, AQSh tarixida birinchi marotaba F.Ruzvelt (AQShning 32- prezidenti) ishsizlikni jamiyat muommosi sifatida e’tibor qaratgan. Ishsizlarga favqulodda yordam ko‘rsatish uchun Vaqtinchalik boshqarma tashkil etildi. Keyinchalik u zamonaviy Amerikani o‘zgarishiga sabab bo‘lgan mashhur «Yangi yunalish»ga poydevor yaratib bergan davlat dasturlarini ishlab chiqishga erishdi. F.Ruzvelt ishsizlarga davlat tomonidan yordam ko‘rsatish exson, xayriya emas, balki mamlakat aholisini ma’naviy hayot kechirishiga umid qilishiga asos bo‘ladigan “ijtimoiy adolat”⁵ deb hisoblagan.

Migratsiya tushunchasni demografik ensiklopediyasida (lotin tilidan - ko‘chirish) - bu insonlar(migrantlar)ning doimiy yashash joyini boshqa bir xududga o‘zgarishi, ko‘chib o‘tishi, xarakatlanishi⁶, - deb izohlandi.

Migratsiya jarayoni barcha zamonlarda, insoniyatning dastlabki paydo bo‘lgan davridan to bugungi kungacha odamlar bilan birga shakillandi va umumiy holda talqin qilinganda, jamiyat fuqarolarining ichki va tashqi migratsiya jarayonini, turli maqsadlarda xarakatlanishi deb tariflanadi.

Shuningdek, migratsiyasi – ko‘p qirrali jarayon. Uning turlaridan mehnat migratsiyasi ijtimoiy iqtisodiy tuzilma va ishlab chiqaruvchi kuchlar joylashuvining

⁴Ситникова Идеи Чикагской школы социологии в современных исследованиях миграции населения // Вестник Нижегородского университета им. Н.И.Лобачевского. Серия: Социальные науки. 2009. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/idei-chikagskoy-shkoly-sotsiologii-v-sovremennyh-issledovaniyah-migratsii-naseleniya> (дата обращения: 08.02.2021).

⁵ Социальная работа как профессия (аналитическая обзор) // Ж. Социологические исследования. – М., 1993.№3. – С. 91.

⁶ Акаев А.А. Миграция жизни населения // Международный журнал гуманитарных и естественных наук. 2017. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/migratsiya-formy-i-rol-v-uluchshenii-kachestva-zhizni-naseleniya> (дата обращения: 25.10.2020).

o'zgarishi, aholining ijtimoiy va mehnat harakatchanligining oshishi bilan bog'liq bo'lgan murakkab ijtimoiy jarayon⁷ hisoblanadi.

Shunday ekan, migratsiyani tushuntirishda tuzilmalar (barqaror, institutsional, ijtimoiy tuzilmalar va me'yorlar) va agentlik (individual va jamoaviy iroda) o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni inobatga olish eng samarali hisoblanadi. Shuni ham aloxida ta'kidlash joizki, migratsiya aniq tarixiy va geografik sharoitlarda ishlaydigan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlar birikmasida shakillanadi. Shunday qilib, migratsiya juda selektiv va notekis jarayonlar bo'lib, unda ba'zi ijtimoiy guruhlariga kuchliroq ta'sir ko'rsatadi⁸.

Shu o'rinda, mehnat migratsiyasini o'rganish ham dolzarb muommalardan sanaladi. Unda aholining bir xududdan ikkinchi makonga ko'chish sabablari, xarakatlanishi mobilligi, harakatchanlik modellari va iqtisodiy, siyosiy tizimlar, jamoalarning shakllanishi bilan bog'langan holda tahlil qilinadi. Mehnat migratsiya jarayoni vaqtinchalik yoki doimiy, qisqa (chegara oldi mamlakatlardan old xududga bir kun yoki bir hafta davomida) yoki uzoq muddatli, ixtiyoriy yoki majburiy (siyosiy qochoqlar, sog'lig'i tufayli) bo'lishi mumkin.

Mehnati migratsiyasi turli xil fanlar va juda keng miqyosdagi jarayonlarni o'zida umumlashtiradi. Migratsiyani o'rganishda har bir fan o'z nazariyalarini yaratadi, jumladan, iqtisodiy nazariyalarda neoklassik iqtisodiy, neo marksistik va feministik, insonlar harakatchanligi va harakatsizligini tushuntirishga uringanlar, ba'zilari ish haqi differensialiga alohida to'xtalgan bo'lsa, ba'zilari esa aholi xarakatchanligini boshqarishda ishchi kuchiga talab ko'p davlatlar va institutlar ahamiyatli deb ta'kidladilar.

Mehnati migratsiyasi jarayonlarni o'rganishda uning o'ziga hos xususiyatlari va turlariga alohida e'tibor berish talab etiladi.

Tadqiqotchi olimlardan A.Smit 18 asrda migratsiya to'g'risida o'zining "Xalqlar boyligining tabiati va sabablari" («An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of

⁷ Акаев А.А. Миграция: формы и роль в улучшении качества жизни населения // Международный журнал гуманитарных и естественных наук. 2017. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/migratsiya-formy-i-rol-v-uluchshenii-kachestva-zhizni-naseleniya> (дата обращения: 25.10.2020).

⁸ Caroline Nagel, Paul Boyle. Migration. Editor(s): Audrey Kobayashi. International Encyclopedia of Human. Geography (Second Edition). Elsevier. 2020, Pages 81-88.

Nations»)⁹ asarida mehnat bozoridagi muttanosiblik va tengsizlik oqibati migratsiya jarayoni shakillanishiga sabab deb ko‘rsatgan.

Adam Smitning bu boradagi fikri, «Hamma odamlarda, — bitta xohish, istak mavjud, ya’ni o‘z yashash sharoitlarini va turmush tarzini yaxshilash kabi orzusi insonlarda hech qachon yo‘qolmaydigan istak bo‘lib qolaveradi»¹⁰ deydi.

Demak, olimni fikrini tasdiqlagan holda, mehnat migratsiyasini shakillanishidagi asosiy omillardan biri insonlar o‘z turmush darajasini yaxshilan, o‘zlari orzu qilgan sharoitlarni yaratish, eng kerakli ehtiyojlarini qondirish kabi istaklari ortidan yuqori daromatga intilib boshqa mamlakatlarga ko‘chib ketadilar. Shu o‘rinda A.Smit aytgan ushbu gaplarini keltiramiz, «... agar inson o‘z foydasini ko‘zlab faoliyat yuritsa ham, beixtiyor ravishda jamiyat manfaati va aholi farovonligi uchun hizmat qila boshlaydi»¹¹. Bizningcha ham, migrantlar potentsiali cheklangan hududni tark qilib, muvaffaqiyatlarga erishish darajasi yuqori bo‘lgan mintaqalarga ko‘chib o‘tadilar. Bu migrantlarning har birini oilasi yashash sharoiti va turmush darajasini yuqoriligi jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy rivojiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Respublikamizda olib borilayotgan bir qator islohatlar natijasi sifatida davlatimiz fuqarolariga keng imkoniyatlar berilishi mehnat migratsiyasini (ichki va tashqi) keng ko‘lamda ortib borishiga imkon berdi. Migrantlar orqali davlatda iqtisodiy rivojlanish, ya’ni pul aylanma, investitsiya kirib kelishi, turli hil innavatsiyalarni shakillanishi, zamonaviy uskunarlar va ulardan to‘g‘ri foydalanishga erishildi. Bularning barchasi oilaviy tadbirkorlik va ishlab chiqarish salmog‘ini ortishi oilalarni daromadi ko‘tarilishi sezilarli darajada jamiyatimiz farovonligi, aholini boy qatlamlar sonini ortib borishiga sabab bo‘ldi.

19-asr oxirida mashxur olim E.G.Ravenshteyn tomonidan asoslangan («The Laws of Migration») ¹² «Migratsiya qonunlari» nazariyasiga migratsiya qonunlarini kiritadi, unga ko‘ra quyidagilar etib belgilanadi:

1. Migrantlar asosan, o‘z uylariga yaqinroq masofaga joylashishni xohlaydilar.
2. Migratsiya bosqichma-bosqich sodir bo‘ladi.
3. yirik savdo va sanoat markazlariga qaratilgan migratsiya uzoq vaqtни tashkil qiladi.
4. Migratsiya ko‘rsatkichi emigratsiya ko‘rsatkichiga tengdir.

⁹ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/falsafa/adam-smitning-korinmas-qoli/>

¹⁰ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/falsafa/adam-smitning-korinmas-qoli/>

¹¹ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/falsafa/adam-smitning-korinmas-qoli/>

¹² <https://nic-pnb.ru/analytics/migratsionnye-protsessy-v-kontekste-geopolitiki/>

5. Qishloq odamlariga qaraganda shaxarliklarda migratsiya istagi ko‘prog‘ kuzatiladi.
6. Asosan erkaklarda tashqi migratsiya kuzatiladi, lekin ayollarni moyilligi ko‘proq xisobladi.

7. Mamlakatda oilasi bilan ko‘chib ketish xollari kam kuzatiladi, bunga sabab migrantlarning aksariyatini yoshi kattalar tashkil qiladi.

8. Ayrim davlatlar aholisini tabiiy o‘sishi migrantlar salmog‘idan kamrog‘ bo‘ladi.

9. Migratsiyaning oqimini ortishiga yana bir sabab, infratuzilmalar taraqqiyoti , texnikani taraqqiy etishi, transport xizmatini yaxshilanishi va savdo sohasini rivojlanishi orqali amalga oshadi.

10. Sanoat va savdo markazlariga asosan qishloq xo‘jaligi rayonlaridan migrantlar xarakatini ortishi kuzatiladi.

11. Migratsiyaga ta‘sir etuvchi omillarning asosiysi iqtisodiy sabablardir.

E. Ravenshteyn tomonidan nafaqat qonunlar, balki mehnat migratsiyasi turlari va intensivligi o‘rtasidagi bog‘liqlik ham aniqlangan. Migratsiyani bilish uchun uning turlarini ham yaxshiroq o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Demak, migratsiyaning asosiy turlari quyidagicha tafsiflanadi:

1. Geografik qamrab olinishiga ko‘ra

- ✓ Tashqi migratsiya
- ✓ Ichki migratsiya
- ✓ Tranzit migratsiya

2. Vaqti bo‘yicha

- ✓ Doimiy
- ✓ Vaqtinchalik
- ✓ Mavsumiy
- ✓ Tebranma

3. Maqsadiga ko‘ra

- ✓ Mehnat migratsiyasi
- ✓ Ta‘lim migratsiyasi
- ✓ Rekreatsion migratsiya

4. Shakliga ko‘ra

✓ Tashkillashtirilgan

✓ Mustaqil

5. Jalb etish usuliga ko‘ra

✓ Ixtiyoriy

✓ Majburiy

6. Qonuniyligiga ko‘ra

✓ Legal

✓ Nolegal

Bugungi kunga kelib Xalqaro migratsiya tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, dunyodagi jami xalqaro mehnat migrantlarining soni 272 million kishiga 147 yetgan bo‘lib, ular tomonidan amalga oshirilgan pul o‘tkazmalarining hajmi 689 milliard AQSh dollariga yetgan¹³.

Bu borada taniqli ingliz demografi va statistik olimi U.Farr XIX asrda yozib qoldirgan gipotezasida shunday fikrni bildiradi. “Har qanday migratsiya jarayoni hech qanday qonuniylikka bo‘ysunmaydi, oddiygina ibtidoiy hatti - harakatlardan iborat¹⁴” deb hisoblagan.

Iqtisodchi olim D.R.Xiks 1932 yilda o‘zining birinchi “Ish haqi nazariyasi” (“Theory of wages”)¹⁵ asarida migratsiya jarayonini tahlil qilib uning asosiy omili sifatida ish haqidagi farqni ko‘rsatadi.

Shuningdek, 20 asr tadqiqotchilari V.Tomas va F.Znaneskiyning birgalikdagi samarali faoliyatlaridan hisoblangan «Yevropada va Amerikada polyak dehqoni» (1918-1920)¹⁶ asari migratsiya jarayonlarining birinchi sotsiologik tadqiqodi edi. Darhaqiqat bu asarni empirik sotsiologiyaga oid mumtoz asarlardan desak hato bo‘lmaydi. Shuningdek bu asarni yaratishda olimlar polshalik dehqon oilalarini Amerika jamiyati hayotiga integratsiyalashuvi natijasiga e’tibor qaratadi.

V.Tomas va F.Znaneskiyning asarida tadqiqotning yangi “Biografik”¹⁷ usuli qo‘llangan, tadqiqotga ko‘ra polshalik dehqonlarning shaxsiy maktublari, kundaliklari

¹³ International migration report 2020.UN. N.Y. 2020. P. 3.

¹⁴Корицкий А.В. Влияние человеческого капитала на экономический рост: учеб. пособие. – Новосибирск: НГАСУ (Сибстрин), 2013. – 244 с.

¹⁵ Qarang: <https://seinst.ru/page1251>

¹⁶ https://geum.ru/kurs/sotsiologicheskoe_nasledie_znanetskogo_tomasa.php

¹⁷Я.В.Екатерина. **тема диссертации**/ Флориан Знанецкий и его интерпретация модернизационных процессов конца XIX - начала XX в. в среде польского крестьянства Царства Польского/Россия.2006. С.278-289.

va ma'lumotnomalarini (avtobiografiya) to'plash, orqali qiyosiy tahlil qilishga erishganlar.

Bizning fikrimizcha, ushbu asar falsafiy talqin qilinsa, olimlar birgalikda olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarida shaxs ijtimoiy hulqini o'z-o'zini boshqarishining dispozitsion nazariyasida shaxs hayotidagi ijtimoiy munosabatlar va qadriyatlarning normativ omillarga asosiy e'tibor qaratganlar. Bunda, shaxs ongi uning hayotiy mavqeini belgilaydi. Shaxs dunyoqarashi, ijtimoiy qadriyati, tafakkuri, g'oyaviy va ma'naviy normalari, ahloqiy prinsiplari insonlar hatti harakatini aniqlovchi asosiy omillardir deb yuritilgan. Shunday ekan, shaxs haqidagi bu nazariyada shaxsning psixologik (deviant xatti-harakatlarning sabablarini aniqlaganlar), sotsiologik (ijtimoiylashuvi jarayoni muommolari) va ijtimoiy-falsafiy (inson ongi, dunyo qarashi, tafakkuri, qadriyatlar) hususiyatlari umumlashtirilgan holda talqin qilingan.

Shuningdek tadqiqotning yana bir muhim jihati shundaki, ish amaliy xarakterga yega. Bu migratsiya bilan bog'liq ravishda paydo bo'layotgan ijtimoiy jarayonlarni optimallashtirish va individual ijtimoiy jamoalarning yangi hayot sharoitlariga moslashishiga qaratilgan. Odamlarning sub'ektiv fikrlari va hayotning ob'ektiv jihatlarini aniqlash orqali yangi yashash muhitini tahlil qilish ijtimoiy soha vakillariga tadqiqotning bir necha asosiy muammolarini aniqlash imkonini yaratdi:

- ✓ individualizatsiya (bu ijtimoiy birlashishga qanday to'g'ri kelishi);
- ✓ samaradorlik (individual va ijtimoiy samaradorlik, shaxsiy va kasbiy muvaffaqiyat o'rtasidagi farqi qanday);
- ✓ deviant xatti-harakatlar (jinoyatchilik, beparvolik, fohishabozlik, alkogolizm);
- ✓ ish bilan ta'minlash;
- ✓ jinslar o'rtasidagi munosabatlar;
- ✓ ijtimoiy baxt (ijtimoiy muassasalar va tashkilotlar faoliyatidan qoniqish hosil bo'lishi);
- ✓ irqalar (millatlar) va madaniyatlarning muttanosibligi;
- ✓ madaniyatni ideal deb qarash

Ushbu muammolarni hal etilishida avvalo insonlarning asosiy hohish istaklarini amalga oshirish kerak. Olimlar 4ta istakni belgilab beradi:

- yangi tajribaga erishish orqali imtiyozlarga erishish;
- tan olinishga intilish (umumiy ijtimoiy ma’qullash, jinsiy munosabat va boshqalar);
- hukmronlik istagi (mulkka bo‘lgan intilish, ichki zulm, siyosiy despotizm va boshqalar);
- xavfsizlikka intilish kabilardir.

Haqiqatdan ham, davlat ko‘plab istaklarni amalga oshirish uchun yagona vosita bo‘lib xizmat qiladi.

V.Tomas va F.Znaneskiylarning mehnat migratsiyasi jarayonlarida ijtimoiy tashkilot va shaxs hayotini tashkil qilish o‘rtasida uzviy bog‘liq holatini o‘rgangan sotsiologlar ijtimoiy belgilar tipologiyasini ishlab chiqdilar¹⁸.

Sharq mutafakkirlarining boy meroslari hisoblangan o‘z asarlari va tadqiqotlarida jamiyat farovonligini ta’minlanishi, aholini turmush sharoitini yaxshilashga sababchi bo‘lgan migratsiya hamda ijtimoiy tahlillarga oid xulosalarni ko‘rishimiz mumkin.

Antik davr faylasufi Aristotel¹⁹ harakat xaqida teran anglagan holda, harakatni bilmaslik sabablarni-bilmaslikka olib keladi deb hisoblagan va borliqning turlari qancha bo‘lsa harakat va o‘zgarishlarning turlari ham shuncha deb qayd etgan. Uning fikricha:

- miqdor uchun- ko‘payish va kamayish
- sifat uchun-‘o‘zgarish
- makon uchun -ko‘chib yurish
- mohiyat uchun-‘-vujudga kelish va yo‘q bo‘lish mavjud²⁰ deb qaragan.

Demak, qadimgi dunyo tarixidan ma’lumki jamiyatni taraqqiyotiga aholi xarakati, zamonaviy terminda ifodalasak mintaqada ichki va tashqi mehnat migratsiyasini shakillanishi va keng ko‘lami, mamlakat farovonligi, turmush tarzi sifatini o‘zgarishi, aholini demografik o‘sishi yoki kamayishi va iqtisodiy kapitalni shakillanishiga olib keluvchi muhim omillardan biri sifatida qaraladi.

¹⁸ https://studme.org/116404015993/sotsiologiya/sotsiologicheskoe_nasledie_znanetskogo_tomasa

¹⁹ Аристотель Органон-М:1990.-С.150

²⁰ Н.Шермухаммедова /Фалсафа.— Тошкент., «Ўзбекистон» нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2009.Б.194 -195

Buyuk qomusiy olimlardan biri Abu Ali Ibn Sino o'z o'tmishdoshlari bo'lgan Aristotel, Platon, Al-Kindiy, Farobiyning asarlarini o'rganib va ularning nazariyalari asosida o'zining ijodini rivojlantiradi.

Jamiyat taraqqiyotini, aholi farovonligining asosini faqat aqliy mehnatdagina emas, balki harakatda ya'ni, moddiy ishlab chiqarish shakllari xunarmandchilik va dexqonchilikda deb bildi. U insonlarning tafakkurni til bilan ifodalanishini, kishilarning ishlab chiqarish faoliyatlari va munosabatlar sohasini atroflicha tadqiq etdi. Olimning fikricha kishilar o'rtasidagi ijtimoiy ziddiyatlarni keltirib chiqaruvchi omil sifatida, insonlarning xulq-atvori, tabiiy-geografik va siyosiy ko'rinishlar oqibatida yuzaga keladi deb hisobladi. Shu o'rinda Ibn Sinoning o'z xayotiy tarixida ham migratsion xarakatni kuzatishimiz mumkin. Allomaning bu xarakati Xorazmdagi osoyishta hayot barham bergan, g'azna hukmdori Mahmud G'aznaviy²¹ Xorazmga tahdid solishi bilan bog'liqdir. Shuning uchun alloma Xorazmni yashircha tark etishga majbur bo'ladi. Demak, Ibn Sino umrining oxirigacha muxojirlikda, o'z vatanidan uzoqda hayot kechirgan.

Ibn Sinoning ijtimoiy-siyosiy ta'limoti markazida inson va uning ijtimoiy-individual xususiyatlari, inson va jamiyat to'g'risidagi ijtimoiy falsafiy g'oyalar yotadi²².

Markaziy Osiyoda mashhur mutafakkiri Abu Rayxon Beruniy (973-1048 y.y)ning ham ijtimoiy-siyosiy qarashlari alohida o'rin tutadi.

Beruniy ilmiy ijodini katta qismini ijtimoiy hayot masalalariga qaratdi. Olimning «Hindiston», «O'tmish ajdodlar yodgorligi» asarlarida sotsiologik qarashlarni mavjud bo'lib, jamiyat va shaxslar hayotida geografik omilning o'rni va ijtimoiy jarayonlarga ta'sirini ilmiy asoslagan. Musulmon va hind xalqlari o'rtasida milliy qadriyatlardagi tafovutlarni geografik sharoitlar bilan tadqiq etdi, hatto xalqlarning so'zlashuvi o'rtasidagi farqni ham geografik omillar bilan bog'ladi.

Yana bir mutafakkir olim Forobiy qarashlarida inson va jamiyat hayotida kishilarning moddiy ehtiyojlari hal qiluvchi vazifani bajarishini ko'rsatgan²³.

Shu o'rinda O'rta Osiyo xalqlari tarixida buyuk sarkarda Amir Timur, davlatini barpo etilishida, qo'shni mamlakat xalqlari bilan bo'lgan munosabatlar, savdogar va

²¹ Qarang: <https://arboblar.uz/uzkr/people/abu-ali-ibn-sina>

²² Paul Strathern. A brief history of medicine: from Hippocrates to gene therapy (англ.). — Running Press (англ.) русск., 2005. — P. 58. — ISBN 978-0-7867-1525-1.

²³ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Toshkent-2016. 230-b.

sayyohlarga aloxida e'tibor qaratilishi, Temur davlatida migratsion jarayonlar ta'sirida mamlakat ijtimoiy, iqtisodiy ayniqsa ma'naviy xayotiga katta ta'sir ko'rsatganini ko'rishimiz mumkin.

Mehnat megratsiyasini muommolarini o'rganishning zamonaviy ko'rinishi Humanitarian and Social Research Center (INSAMER), Turkiya) tomonidan muntazam ravishda o'tkazilayotgan tadqiqotlarda aholining sotsial adaptatsiyasi va integratsiyasiga, rivojlanayotgan mamlakatlar xususan, Yevropa Ittifoqi mehnat migratsiyasining asosiy ko'rinishlariga e'tibor qaratiladi²⁴.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti ²⁵ va Xalqaro Migratsiya Tashkiloti ²⁶ ta'rifga ko'ra, mehnat-migrantlari bu aholining o'zi istiqomat qiladigan mamlakat miqyosida (ichki migratsiya) yoki ruxsat beriladigan mamlakatga (xamkor davlatlarga) ko'chib o'tib, daromadga ega bo'lishi mumkin bo'lgan iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanadigan toifasi tushuniladi.

Mehnat migratsiyasi deganda, mehnat salohiyatiga va mehnat qilish xuquqiga ega fuqarolar qatlami turmush sharoitlarini yaxshilash va yuqori daromatga ega bo'lish bilan bog'liq makoniy ko'chib yurishi tushuniladi.

Aholining shunday qatlami migratsion jarayonda faol xarakatni talqin qilishda 2xil usuldan foydalaniladi:

- yondashuvni birinchi ko'rinishi umumiy va keng holda xarakatlanib, unda migratsion xarakat faqat makonda amalga oshiriladi.
- usulning ikkinchisidi esa migratsion xarakatning aniq va qisqa shakilda, belgilangan turlari bilan olib boriladi. Bunda aynan migratsiya (lotincha «migratio» «ko'chib yurish», «joyini o'zgartirish») so'zining dastlabki ma'nosiga mos keladi.

Ishchi kuchi migratsiyasining, butun aholi migratsiyasi kabi, makonda xilma-xil ko'chib yurish turlaridan ajratishning umumiy qabul qilingan mezonlari mavjud. Ularga doimiy yashash joyini o'zgartirish, hududining majburiy chegaralarini kesib o'tish, migrantning yangi yashash joyida uzoq muddat yoki doimiy turishi kiradi. Mehnat migratsiyasi vujudga kelishining asosiy motivlaridan biri, mehnatga yaroqli aholining

²⁴ https://insamer.com/en/the-eu-values-and-the-trapped-refugees-between-death-and-hope_2825.html

²⁵ International labour organization. <https://www.ilo.org/global/regions/lang--en/index.htm>

²⁶ International organization of migration. <https://www.iom.int/>

yuqori ish haqi olish maqsadida o‘zi uchun qulay sharoitli ish joyiga ega bo‘lishi hamda o‘zining eng yaxshi mehnat faoliyatiga erishish istagi hisoblanadi.

Mehnat migratsiyasini xarakatlanishi mamlakatda ikki tomonlama emigratsiya va imigratsiya jarayonini hosil qiladi.

Emigratsiya – chegara ortiga chiqib ketish xarakati.

Immigratsiya – chegara ortidan kirib kelishni bildiradi.

Bir mamlakatni tark etib, boshqasiga ko‘chib ketgan inson, eski mamlakat uchun muhojir hisoblanadi. insonning bir mamlakatdan boshqasiga ketishi esa immigratsiya deb ataladi.

Migrantlar uchun mamlakatni tark etish juda oson, ammo boshqa mamlakatga kirish juda mushkul (ko‘pincha immigratsiyani ta’qiqlash faqat jinoyat sodir etgan yoki katta qarzdor bo‘lgan odamlar uchun belgilanadi).

Emigratsiya va Immigratsiyani keltirib chiqaruvchi asosiy omillari ta’lim, ish, nizolar va boshqa holati bir xil bo‘ladi.

Aslida, emigratsiya va immigratsiya bir xil vaziyatni turli nuqtai nazardan tavsiflovchi antonimlardir. Aytaylik, bir kishi Fransiyadan Germaniyaga ko‘chib o‘tgan - bu holda, Fransiya uchun u immigrant bo‘ladi, va Germaniya uchun - emigrant.

Immigratsiya jarayoni 3 yo‘nalishda namoyon bo‘ladi:

✓ mehnat resursini rotatsion immigratsiyasi, bu holda immigrantlar yashash muddati aniq belgilangan bo‘ladi.

✓ bu jarayonda hohlagan vaqtda oila a’zolari bilan birga yashash imkoni mavjud bo‘ladi.

✓ assimilyatsiya immigratsiyasida migrantlarning doimiy yashashlari va fuqarolikni olish imkonini mavjudligi.

Assimilyatsiya ²⁷ (lotincha *assimilatio* — o‘xshatish, o‘zlashtirish) degan ma’noni anglatib- bunda bir xalqning boshqa bir etnik gurux bilan integratsiyalashuvi natijasida ulardan birini (mamlakatga ko‘chib kelgan muxojirlarni) tili, madaniyati, milliy qadriyatini yo‘qolishi bilan izoxlanadi.

²⁷Демографический понятийный словарь /Под ред. А.А. Рыбаковского; Центр социального прогнозирования. М., 2003. С. 11 — 13; Юдина Т.Н. Социология миграции: к формированию нового научного направления. М., 2003. С. 29-30.

Bizning fikrimizcha, bugungi kunda mehnat migratsiyasini ijtimoiy falsafiy tahlil qilsak, barcha davlatlarda mehnat migratsiyasi natidajasida yuzaga kelgan xalqlarning assimilyatsiyasini ko‘rishimiz mumkin. Migrantlar assimilyatsiyasi ta’sir etuvchi asosiy omillardan biri sifatida millatlararo nikohni misol qila olamiz.

Masalan: Respublikamizdan Rossiya Federatsiyasiga pul topish ilinjida ketgan ko‘plab migrantlarimizda ham assimilyatsiyatsiyalashish holati mavjud bo‘lib, ya’ni russ millatining kiyinish madaniyati, turmush tarzi, tili, an’analarini o‘zlashtiribgina qolmasdan, o‘sha millat vakillari bilan oila qurmoqda. Natijada etnik kelib chiqishi o‘zbek, lekin russ davlati fuqarosi deb sanaladi. Bu esa o‘zbek millati uchun salbiy oqibat sifatida qaralib, ayrim shaxslarning butunlay milliy o‘zlik, qadriyat, urf odat, mehr oqibat degan tushunchalardan yiroqlashishiga olib keladi.

Shuningdek, assimilyatsiyalashgan migratsiyani yana bir ko‘rinishi mavjud bo‘lib, unda ayrim xalqlarning assimilyatsiya jarayonida o‘z tilini, qadriyatlarini, urf odatlarini unitishi mumkin ammo, diniy e’tiqodlari va ba’zi kundalik an’analarini saqlab qolishi mumkin (xususan, Amerika millatining yaratilish tarixi buni tasdiqlaydi). Yana bir muhim jixatida shundaki, yangi jamiyatni tashkil etayotgan xalqlar o‘z tillarini (Belgiya millatini yaratish tajribasi) saqlab qolishga intilishlari kuzatilgan²⁸.

“Assimilyatsiyalashgan immigratsiya” asosan AQSh, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiyada va yuqoridagi 2 ko‘rinishi esa G‘arbiy Yevropa davlatlarida keng tarqalgan.

Shu o‘rinda, migrantlarni o‘ziga jalb qilayotgan mamlakatlardan Avstraliya, Kanada va AQShda Multikulturalizm etnomilliy siyosat ta’limoti sifatida 1970-yillarda rasman e’lon qilingan²⁹.

Ushbu siyosat mehnat muhojirlarining ma’naviy dunyoqarashini himoyalovchi omildir.

“Multikulturalizm”³⁰ - bu muayyan mamlakat halqlarining turli madaniyatini asrash va rivojlantirishga qaratilgan siyosat. Keng doirada *multikulturalizm assimilyatsiyasiz integratsiyadir*. Bu shuni anglatadiki, bitta davlatda turli madaniyatlar, dinlar va tillar

²⁸ Костенко В.В. Теории миграции: от ассимиляции к транснационализму. [Журнал социологии и социальной антропологии](#). Москва. С.62-66.

²⁹ <https://iphras.ru/page47243156.htm>

³⁰ Полезную информацию относительно российской специфики в постановке и обсуждении затронутых проблем читатели найдут в сборнике: *Мультикультурализм и трансформация постсоветских обществ* / Под ред. В.С. Малахова и В.А. Тишкова. М.: Институт этнологии и антропологии РАН, 2002. 356 с.

erkinligi mavjud bo‘lib, millatlararo tatuvlik, dinlararo bag‘rikenglik tamoyili asosida fuqarolar o‘zlari hohlagan tarzda yashashi shakillanadi. Shu tarzda mamlakatning muayyan muammolarimni hal qilishga harakat qilgan. Masalan:

- Avstraliya uchun - bu mamlakatning immigratsiya jozibadorligining oshishi
- Kanada uchun - davlatning yaxlitligini saqlashga harakati bilan bir qatorda, fransuzabon va ingliz tilida so'zlashadigan xududlarni belgilanishi
- AQSh uchun - Amerikada "oq" va "qora" tanlilar o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etishga qaratilgan edi.

Ushbu siyosatni amalga oshirishga yuzlanayotgan barcha mamlakatlarning asosiy maqsadi ijtimoiy totuvlik va integratsiyani ta’minlanishiga qaratilgan edi.

Shu bilan birga, insonlarning bir mamlakatdan ikkinchisiga harakatlanish holatini aholining davlatlararo migratsiyasi deb atash mumkin.

Jamiyatimiz farovonligini ta’minlashda mehnat migratsiyasi muhim vazifani bajaradi. Xarakterning ushbu turi orqali insonlar o‘zlari uchun eng yaxshi ishni topadilar va turmush darajasini yaxshilaydilar, ammo ba’zida bunday madaniy almashinuv etnik va milliy nizolarga olib kelishi kuzatiladi³¹.

Immigratsiya va emigratsiya o‘rtasidagi farq migratsiya saldosini beradi. Shuningdek, «remigratsiya» atamasi ham mavjud bo‘lib, immigrantlarning o‘z makoniga qaytishini bildiradi.

Qonuniy migrantlarning yana bir turi mavjudki,

Migrantlarning alohida turi mavjud bo‘lib, ular chegaraga yaqin xududlarda yashaydi deyarli har kuni qo‘shni davlat chegarasini kesib o‘tib boshqa xududga ishlashga boradiganlar. Masalan, meksikalik ishchilarning har kuni AQSh hududiga o‘tib ishlashini yoki belgiyaliklarning Fransiya hududiga o‘tib ishlashini keltirishimiz mumkin.

Shu o‘rinda, mehnat migratsiyasini asosiy yo‘nalishlarini o‘rganishda:

- Russ sotsiologi P.Sorokin nazariyasiga tayangan holda Migratsiya jarayonlarini o‘rganamiz. Olim tomonidan 20asrning boshlarida «Sotsial mobillik» tushunchasi sotsiologik tadqiqotlar doirasiga ilk marta fanga kiritilgan.

³¹ Иммигрант и эмигрант — в чем разница. <https://migranty.org/novosti/immigrant-i-jemigrant-v-chem-raznica/>

Sotsial mobillik (harakatchanlik) individlarning bir sotsial qatlamdan boshqasiga o'tishini ifodalaydi. Ushbu xarakter natijasida individning sotsial maqomi va roli ijobiy yoki salbiy ko'rinishda shakillanadi.

Sotsial mobillik:

– intergeneratsion sotsial mobillikda sotsial holatning otadan o'g'ilga, onadan qizga yoki otadan qizga, onadan o'g'ilga o'tishi;

– intrageneratsion mobillik esa sotsial holatning quyidan yuqoriga yoki yuqoridan pastga o'zgarishi shakllari mavjudligi bilan ifodalanadi.

Individlarning harakter hususiyatiga ko'ra 2 turga bo'linadi:

– mobil (harakatchan, o'zgarishlarga intiluvchi: o'z yashash joyi va kasbini, sotsial ahvolini o'zgartirishni istaydigan) shaxslar

– stabil (o'zgarishni hohlamaydigan: yashash joyini va kasbini o'zgartirishini istamaydigan) shaxslardir.

Olib borilgan tadqiqot jarayonida mobillikka intiluvchi va stabillikni hohlovchi individlarga nisbatan indeks ko'rsatkichi orqali manfiy yoki musbatini aniqladik. Tadqiqotga ko'ra sotsial mobil shaxsning millati, ma'lumoti, irqi, turar joyi, jinsi, «aqillilik koeffitsienti»ni hisobga olgan holda miqdoriy ko'rsatkichlar o'rtasidagi korrelyatsiya (farqlanuvchi) koeffitsientini miqdoriy usuldan foydalanish orqaliniqladik.

Russ sotsiologi P.Sorokin sotsial mobillikni 2 turga ajratadi: vertikal va gorizontal sotsial mobillik³²ga.

Vertikal mobillik bir qatlamdan boshqasiga o'tishni nazarda tutadi. Vertikal sotsial mobillik shaxslar mavqeini quyiga, quyi statusning yuqori darajadagisiga qo'tarilishi bilan izohlanadi. Masalan, oddiy o'qituvchi maktab direktori darajasiga yoki uning aksi holati.

Gorizontal (sohalararo integratsiyalashuv) mobillikning bu turi yashash joyi (migratsiya)ni o'zgartirishi yoki boshqa dinni qabul qilishni (dinini o'zgartirishi) bildiradi.

Bizning fikrimizcha, Sorokin tomonidan aniqlangan mobillikning gorizontal ko'rinishida xarakterlanishi asosan shaxslar migratsiyasi oqibatida muhojirlarning assimilyatsiyalashishi yuzaga keladi. Bu jarayonda aynan aholining millatlararo integratsiyalashuvi jarayoniga guvox bo'lamiz.

³² Qarang: Пятирим Сорокин и социокультурные тенденции нашего времени. Материалы к международному научному симпозиуму, посвященному 110-летию со дня рождения П. А. Сорокина. — СПб. 1999.

➤ A.I.Kuzmin ilmiy qarashlarida quyidagi fanlar kesimida migratsiyani tahlil qildi. Demografik, sotsiologik, tarixiy, huquqiy, psixologik, falsafiy va iqtisodiy sohalar bilan migratsion jarayon bog‘lig‘ligini tadqiq qildi. Unda asosan muhojirlarning yangi ijtimoiy, madaniy va etnik muhitga moslashishi bilan bog‘liq muammolarga qaratilgan nazariyalar ilgari surilgan. Donor va ratsipiet mamlakatlarning aholi potentsiali asosan migrantlarning shaxslararo munosabatlariga, vatandoshlar jamoalarining mavjudligiga (diaspora), oilaviy va do‘stlik rishtalariga, etnik guruhning migrant xalqining tarixiy an‘analariga bog‘liqligi yoritilgan.

➤ A.Sovi, A.Landrilar ³³ demografik holatni taxlil qilib, migratsion jarayonni aholi populyatsiyalarini (umumiy axoli soni) ortishi bilan bog‘liq muommolarni o‘rgangan.

➤ Tarixiy yondashuv barcha davlatlar, mintaqalar va butun dunyoda migratsiya harakati tarixiga oid manbalar, shuningdek, mexnat migratsiyasi sohasidagi ilmiy tadqiqotlarda migratsion xarakterning rivojlanish tarixiga oid nazariyalar D.S. Shelestov, V.M. Kabuzan, V.A.Ionsev ³⁴ kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Rossiyalik olim V.A.Ionsev o‘z qarashlarida «Migratsiya aholining takror ko‘payishiga sabab bo‘ladi, uni demografik jarayon sifatida aholining doimiyga ko‘chib ketishi migratsiya shaklida namoyon bo‘ladi va ushbu shaklda u demografiya predmetiga aloqadordir»³⁵.

➤ Psixolog V.I.Perevedentsev, T.I.Zaslavskaya, V.M.Moiseenkolar ³⁶ ilmiy yondashuvida migratsiya xarakteriga ta’sir etuvchi omillar bilan bir qatorda shaxs **va guruh** o‘rtasida sodir bo‘ladigan munosabatlar, migrant psixologiyasi, ularning xulq-atvorini o‘rganishga urg‘u berdi.

➤ V.I. Mukomel, E.S. Painlarning huquqiy yondashuvi turli toifadagi muhojirlarning huquqiy ximoyalanganligini aniqlashga qaratilgan. Halqaro va ichki huquq normalariga tayangan holda migrantlarning huquqlarini tartibga soluvchi huquqiy normalar, qonun hujjatlarini ishlab chiqish va har ikki tomon manfaatlarini himoya qiluvchi siyosatni amalga oshirish imkoniyatlar darajasiga e’tibor bergan.

³³ Сови А. Общая теория населения. Т. 2: Жизнь населения / Пер. с франц. Ф.Р. Окуневои. М.: Прогресс, 1977. 435— 519 с.

³⁴ Ионцева В.А. Миграция населения: экономика и политика // Международная миграция населения: Россия и современный мир / под ред. – Вып. 18. – М.: ТЕИС, 2006. – С. 28–29.

³⁵ Ионцев В.А., Субботин А.А. Современные сценарии демографического будущего мира (на примере России и Германии) // Балтийский регион. 2018. Т. 10, № 3. С. 4–18.

³⁶ М.В.Моисеенко.Внутренняя миграция населения / В. М. Моисеенко ; Моск. гос. ун-т им. М. В. Ломоносова. Экон. фак. Центр по изучению проблем народонаселения. - Москва : ТЕИС, 2004. - 285 с.

➤ Iqtisodiy yondashuv universal hisoblanib, ushbu yondashuv doirasida migratsiyani o‘rgangan rossiyalik mutaxassislardan L.A.Abalkin, G.S.Vitkovskaya, J.A.Zaionchkovskaya, L.L.Ribakovskiy, A.V.Topilinlar hisoblanadi. Ularning ilmiy tadqiqotlarida migratsiya jamiyat aholisining ehtiyojlariga muvofiq shakillanadi. Asosan mehnatga layoqatli qatlamlarni tartibga soluvchi omil sifatida ularning malaka darajasiga qarab taqsimlash katalizatori mehnat bozorida raqobatni oshirishga sabab bo‘ladi.

Biz, migratsiya harakatining qaysi turlari haqida o‘rganmaylik, unda mehnat migratsiyasi jarayoniga ta’sir etuvchi asosiy omil sifatida iqtisodiy ehtiyoj turadi. Shunday ekan, iqtisod migratsiyasi birinchi navbatda mehnat migratsiyasini tashkil etadi. Mehnat migrantlari orqali beihyor davlat iqtisodiy rivojlanishi, yangi texnologiyalarni kirib kelishi asosida aholini daromadini oshishi oqibadida ularning turmush sharoitlari yaxshilanadi jamiya farovonligiga sezilarli hissa qo‘shadi.

Zamonaviy jamiyatda, mehnat migratsiyasiga Xalqaro Mehnat Tashkiloti va Xalqaro Migratsiya Tashkiloti tomonidan ta’rif ishlab chiqilgan.

Shu o‘rinda, 2023 yilning 21 fevralida O‘zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi hamda Xalqaro mehnat tashkiloti hamkorligida “O‘zbekistonda ijtimoiy adolatni mustahkamlash maqsadida munosib mehnatni targ‘ib qilish” mavzusidagi xalqaro konferensiyada, Milliy komissiyasi tomonidan mehnat munosabatlarini takomillashtirish, majburiy mehnatga chek quyish va munosib mehnat tamoyillarini asosida Xalqaro mehnat tashkiloti bilan xamkorlikda tizimli choralar ishlab chiqilishi natijasida aniq natijalarga erishildi. Aynan, O‘zbekistonda munosib mehnat tamoyillarini shakillantirishda Xalqaro mehnat tashkiloti bilan xamkorlikda 2021 yilda O‘zbekistonda munosib mehnat bo‘yicha 2021-2025 yillarga mo‘ljallangan yangi milliy dasturi qabul qilindi³⁷.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti va Xalqaro Migratsiya Tashkiloti tarifiga ko‘ra «mehnat migrantlari –aholining o‘zi istiqomat qiladigan mamlakat miqyosida yoki ruxsat etiladigan davlatga ko‘chib o‘tib iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanadiganlar qismi»³⁸.

³⁷ <https://mehnat.uz/uz/news/halqaro-mehnat-tashkiloti-uzbekiston-izhtimoiy-adolatni-ilmari-surish-va-ehnatkashlar-huquqini-taminlashda-yuqori-natizhalarga-erishdi>

³⁸ А.И. Евдокимов. Международное экономики отношения. Учебник. Москва «Проспект» 2004. С. 480.

Shuni takidlash muhimki, ilmiy adabiyotlarda mehnat migratsiyasini tushuntirib beruvchi dominant konsepsiya mavjudligi yoki ba'zi konsepsiya ham migratsion xarakterning empirik fenomenlarini to'raligicha izohlagan deyish mushkul. Ba'zan tadqiq etilgan ayrim nazariyalar rivojlangan davlatlar migratsion jarayonini tushuntirib bera oladi, boshqalari esa faqatgina iqtisodiy omil ta'sirida yuzaga kelgan migratsiya muommolarini ochib berishga erishgan³⁹.

Shuningdek, Xalqaro Mehnat Tashkiloti zamonaviy mehnat migratsiyasining asosiy yo'nalishini ko'rsatib o'tadi:

- shartnoma asosida ishlovchilar (kelish va ketish muddati aniq yozilgan, malakasi past mavsumiy migrantlar)
- malakali migrantlar (bilimli, tajribali, intellektual qobiliyatli ishchilar)
- qonuniy migratsiya (qonuniylikka rioya qilish bo'yicha)
- yarim qonuniy migratsiya (chegara xududlarida yashovchi aholi qo'shni davlat xududida biror maqsad bilan o'tib faoliya yuritish)
- noqonuniy migratsiya⁴⁰ (talab etilgan xujjatga ega bo'lmagan ishchilar)
- vaqtinchalik migratsiya (tashqi migratsiyaning belgilangan muddatga shartnoma bo'yicha ishlashga borganlar misol bo'la oladi)
- tebranuvchan migratsiya (aholini bir punktdan boshqasiga muntazam ravishda ishga borishi va yana qaytib kelishini o'z ichiga oladi.)
- qochoqlar (taqib ostidagilar)
- istiqomat joyini o'zgartiruvchilar (doimiy yashash uchun kelganlar)

Jahon tajribasida mehnat migratsiyasining hududlararo migratsiya ko'rinishlarida namayon bo'ladi. Bunda shahar va qishloq o'rtasidagi, shaharlararo va qishloqlararo mehnat migrantlar oqimi ichki migratsiyani tashkil etadi. Shuningdek, tashqi migratsiya ham mavjud bo'lib, unda davlat chegarasini kesib o'tish bilan sodir bo'ladi. Mehnat migratsiyasi jarayonining yana bir muhim jihati, mamlakat ichida bir xududdan

³⁹ Massey, Douglas S., et al. "Theories of International Migration: A Review and Appraisal." *Population and Development Review*, vol. 19, no. 3, 1993, pp. 431–466. *JSTOR*, www.jstor.org/stable/2938462 (oxirgi kirish: 23/09/2019).

⁴⁰ Максакова Л.П. Миграция населения Республики Узбекистан. – Т.: ЦЭЭП, 2000. Джунайдуллаев Д.А. Законодательно-правовое регулирование миграционной системы США. // Глобализация шароитида ўтиш иктисодиёти мамлакатларининг ижтимоий-иктисодий ривожланиши. -Тошкент: ЎзМУ.-2007.- Б. 172-174.

boshqasiga doimiy ravishda qatnashi tebranuvchan migratsiyani xarakati hisoblanib, asosan urbanizatsiya sharoitida rivojlangan. Asosan qishloqdan shaharga, shahar oldi hududdan aglomeratsiya o'zagi tomon xarakatlanadi. Shu o'rinda, transport tizimining shaxar yaqiniga qatnovini tezlashi bu turdagi migratsion harakatni kuchaytiradi.

Bizning fikrimizcha, mehnat migrantlari harakatini aniq tizimli shakllantiruvchi, shu bilan birga ularning individual faoliyatini tartibga soluvchi iqtisodiy va har tomonlama himoyalaydigan tarkibiy kuchlarni chuqur o'rganish, migrantlar faoliyatining sabab-oqibat mexanizmini belgilab beruvchi nazariyani yaratish masalasi ayniqsa bugunning dolzarb talabi hisoblanadi.

1.2. Mehnat migratsiyasi vujudga kelishining ijtimoiy omillar va shart-sharoitlari

Mehnat migratsiyasi va ishchi kuchi mobilligi, shu jumladan qochoqlar oqimi murakkabligi jihatdan hozirgi davrning global hodisasiga aylandi. Ko'plab mamlakatlarda mehnat bozorining tartibsiz shakllanishi va **boshqaruv tizimining zaifligi** tufayli mamlakatda noqonuniy migratsiya, mehnatga layoqatli aholidan unumli foydalanmaslik, mavjud bo'sh ish o'rinlariga mutahassislik diplomlarni va malakalarni mos kelmasligi, diskriminatsiya, ishga qabul qilishdagi tengsizlik va **ekspluatatsiyaning kuchaytirilishiga olib kelmoqda**. Bu esa mamlakatda mehnat migratsiyasini noqonuniy shakllanishiga sabab bo'lmoqda.

Bunday holatlarning mavjudligi ham donor va ratsipient mamlakatlarda o'z vaqtida to'g'ri tartibga solinmasa, mehnat migrantlari va ularning oila a'zolari uchun munossib ish taqchilligi, shu o'rinda muhojirlarning boradigan mamlakatlarida uzoq muddatli salbiy ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shuningdek, ishchi kuchini qabul qiluvchi va yetkazib beruvchi davlatlar o'rtasidagi mintaqaviy, siyosiy ikki tomonlama hamkorligi mehnat migratsiyasidan foyda olish ehtimolini ortiradi.

O'z navbatida, migrantlarning vataniga, ya'ni o'z oila a'zolari va yaqinlariga yuboradigan pul o'tkazmalari, chet elga qaytib ketgan migrantlar jamg'armasidan olinadigan investitsiyalar va ular o'z vatanlariga olib kirgan texnologiyalar mamlakatga

katta iqtisodiy manfaat keltiradi. Jumladan, 2020 yilda XMT ma'lumotlariga⁴¹ ko'ra dunyo bo'yicha mamlakat yalpi ichki mahsulotida pul o'tkazmalarining eng yuqori bo'lgan birinchi beshtalikka kiruvchi davlat aniqlandi: bular, Tonga – 37,7 %, Livan – 32,9 %, Gaiti – 30,7 foiz, Shimoliy Sudan – 29,5 %, Qirg'iziston – 29,4 %, Nepal – 28%, Tojikiston – 27,2%ni tashkil qildi. Yuqori o'rin egallagan mamlakatning ikkitasi O'zbekiston bilan chegaradosh davlat hisoblanadi.

Shuningdek, mehnat migratsiyasi ishchi kuchini yoshartirishga, qishloq xo'jaligi, qurilish va shaxsiy xizmatlar kabi mehnat talab qiladigan sohalarni qo'llab-quvvatlashga, tadbirkorlikni rag'batlantirishga, ijtimoiy xavfsizlik tarmoqlarini qo'llab-quvvatlashga va ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojni qondirishga yordam beradi.

Mehnat migratsiyasi bo'yicha so'nggi o'n yilliklarda O'zbekiston tug'ilish soni bo'yicha jadal o'sib borayotgan mamlakatlardan sanalib, MDH davlatlari orasida 3-o'rinni, dunyoda esa 40-o'rinni egallamoqda. 2023-yil holatiga ko'ra, mamlakat aholisi 36,024⁴² million kishini tashkil etdi. BMT⁴³ning pragnoziga ko'ra, O'zbekiston aholisi 2030-yilga borib 37,5 million kishi, 2050-yilda esa 43,2 milliondan ortiq aholiga ega bo'lishi mumkin. (1991 yilda 20,61 million kishini tashkil qilgan). O'tgan yillar davomida O'zbekiston aholisi 12,08 milliondan 35,3 million kishigacha ortdi (2021 yil boshida) ya'ni aholi soni 2,9 barobar ortganini ko'rishimiz mumkin. Mamlakatda aholi sonini o'sishi mehnat migratsiyasi harakatini ortib borishiga sabab bo'ldi. Mehnat migrantlari donor va ratsipient mamlakatlar uchun mamlakat iqtisodiyoti o'sishi va rivojlanishiga ulkan hissa qo'shsada, migratsiya jarayonini boshqarishda uchraydigan murakkab muommolarni hal etish, mehnat muhojirlarini himoya qilish va xalqaro hamkorlik aloqalarni rivojlantirish kabi masalalarni hal etishni talab etadi.

Barcha mamlakatlarda migratsiya jarayonlarini tartibga solish maqsadida xalqaro darajada migratsiya xizmatlari ko'rsatish zarurati Xalqaro migratsiya tashkilotiga asos soldi.

⁴¹ https://publications.iom.int/system/files/pdf/final-wmr_2020-ru.pdf

⁴² Демографическая ситуация в Республике [Узбекистан](https://stat.uz/ru) в 2022 году, данные Государственного комитета по статистике Республики Узбекистан. <https://stat.uz/ru>

⁴³ Department of Economic and Social Affairs, Population Dynamics // Population Division. World Population Prospects 2019. <https://population.un.org/wpp/Download/Standard/Population/>

Xalqaro migratsiya tashkiloti 1951 yilda (XTM) ta'sis etilganidan so'ng mehnat muhojirlarini himoya qilish, ya'ni «Chet elda ishlayotgan ishchilarning manfaatlarini himoya qilish» uning ustuvor vazifalaridan biri hisoblandi. Shu o'rinda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2013 yil oktabr oyida tegishli deklaratsiya qabul qilinib, unda ilk marotaba migratsiya jarayoni ijobiy tendensiya ekanligi va insonning harakatchanligi jamiyatning barqaror rivojlanishning asosiy omillaridan biri ekanligini tasdiqladi. Bu esa migratsion jarayonni jadal harakatlanishiga turtki bo'ldi.

XMT Konstitutsiyasida nazarda tutgan maqsad va vazifalar asosan mehnat muhojirlari huquqlarini himoya qilishni hamda mehnat migratsiyasini adolatli boshqarish, Mehnat migrantlari to'g'risidagi Konvensiya⁴⁴da aks etadi. Konvensiyada ko'rsatilgan. Adolatli migratsiya dasturida quyidagi vazifalar belgilangan:

- kelib chiqish mamlakatlarida munosib ish imkoniyatlarini yaratish orqali mehnat migratsiyasini zarurat emas, balki tanlov masalasiga aylantirish;

- inson huquqlariga, shu jumladan, barcha migrantlarning ishlash huquqiga rioya etilishini ta'minlash;

- mehnat muhojirlarini ekspluatatsiya qilishdan qochish, qabul qilinadigan mamlakat fuqarolari bilan teng huquqli bo'lishlari uchun adolatli ish sharoitlarini ta'minlash va ularga nisbatan teng huquqlilikni ta'minlash;

- mintaqaviy integratsiya jarayonida migratsiyaning adolatli tartibini o'rnatish;

- a'zo davlatlar o'rtasida tartibli va adolatli migratsiya bo'yicha ikki tomonlama kelishuvlar qabul qilishiga ko'maklashish;

- ishdagi asosiy prinsiplar va huquqlarga umumiy hurmatni shakllantirish orqali umuminsoniy tamoyillar bo'yicha qabul qilinmaydigan amaliyotga qarshi kurashish;

- mehnat vazirliklari, kasaba uyushmalari va ish beruvchi tashkilotlarni migratsiya sohasida qarorlar qabul qilish jarayonlariga jalb qilish orqali ijtimoiy muloqotni rivojlantirish;

- xalqaro huquqlarga asoslangan ko'p tomonlama migratsiya kun tartibini shakllantirishga hissa qo'shish.

⁴⁴ Мигрант меҳнаткашлар тўғрисидаги (қўшимча қоидалар киритилган).143-конвенция [https://nrm.uz/content/doc.151100_migrant_mehnatkashlar_torisidagi_\(qoshimcha_qoidalar_kiritilgan\)_143-konvenciya_\(jeneva_1975_yil_24_iyun_hmt_bosh_konferenciyasining_60-sessiyasida_qabul_qilingan_1978_yil_9_dekabr_dan_kuchga_kirgan\).](https://nrm.uz/content/doc.151100_migrant_mehnatkashlar_torisidagi_(qoshimcha_qoidalar_kiritilgan)_143-konvenciya_(jeneva_1975_yil_24_iyun_hmt_bosh_konferenciyasining_60-sessiyasida_qabul_qilingan_1978_yil_9_dekabr_dan_kuchga_kirgan).)

XMT belgilagan vazifalari mehnat bozorida barcha malakali ishchilarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilishda adolatli migratsiya dasturi bo'yicha umumiy pozitsiyani ishlab chiqish orqali - mehnat vazirliklari, ish beruvchilar, ishchilar tashkilotlari va fuqarolik jamiyatini birlashishiga asos bo'ladi. Shuningdek, XMT ekspertlarining fikricha, migratsiyani boshqarish - bu migratsiya muammolarini samarali hal qilish uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlardan biri migratsiyani tartibga solish siyosati bo'lib, muhojirlar, jamoalar va hukumatlar uchun o'zaro manfaatli jarayon hisoblanib bu siyosat orqali nazorat qilish imkoni paydo bo'ladi.

Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasida ham mehnat migrantlarini qonuniy himoya qilish maqsadida 1992 yilda Xalqaro mehnat tashkilotiga a'zo bo'lib, uning 14 ta konvensiyasini ratifikatsiya qilgan.

Bizning fikrimizcha, 2018-2020 yillarda Xalqaro mehnat tashkilotining O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan konvensiyalarini amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi hukumat qarori qabul qilinganligi O'zbekiston hukumati migratsiya jarayonini boshqarish bo'yicha uning migratsiya bo'yicha xalqaro tashkiloti ishlab chiqqan va Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan umume'tirof etilgan konsepsiyalarga tayanib faoliyat olib borishidan dalolat beradi.

Shuningdek, migratsiya jarayoniga tasir etuvchi turli omillarni o'rganish uning turli jihatlari, ya'ni harakatlantiruvchi va cheklovchi omillarini, shu jumladan mehnat taqsimotini O'zbekiston sharoitida tizimlashtirish, ko'plab muammolarni hal etishda bilim, tajriba va imkoniyatlarning muhim yo'nalishlarini aniqlash uni samarali amalga oshirish imkonini beradi.

Mehnat migratsiyasining yuqoridagi tasnifidan kelib chiqib, mehnat migratsiyasi omiliga alohida e'tibor qaratdik. Aynan, bizning tadqiqotlarimiz natijalariga ko'ra, mehnat migratsiyasi vujudga kelishining ijtimoiy omillari unga ta'sir etuvchi salbiy va ijobiy tomonlarini, shuningdek migratsiyaning turlari va ularni shakillantiruvchi omillarning ilmiy taxlil qilishga qaratdik.

Shunday qilib, Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) xalqaro mehnat migratsiyasi sub'ektlarining beshta turini aniqlaydi:

- doimiy yashash uchun ketgan migranlar

- shartnoma asosida ishlaydigan migrantlar
- yuqori malakali mutaxassis migrantlar
- noqonuniy mehnat muhojirlari
- majburiy tarzda ketgan migrantlar hisoblanadi.

• Demak, doimiy yashash uchun mamlakatni tark etgan migrantlar asosan boshqa davlatning iqtisodiyoti rivojlangan va turmush darajasi yuqori bo'lgan mamlakatni tanlaydi. **Shu o'rinda, migrantlar** doimiy yashash va ishlash joyini muqim qilish bilan birga, eski joyini butunlay tark etadi, ya'ni boshqa davlatga yoki qishloqdan shaharga ko'chib kelishi bilan belgilanadi.

• Mehnat migratsiyasini keyingi shakli shartnoma asosida ishlaydigan muhojirlar sanalib bular mamlakatda ma'lum bir muddat yashash xuquqiga ega hisoblanadilar. Bu turdagi emigrantlarni malakasiz yoki malakasi past ishchilar tashkil qiladi. Bunday ishchilar o'zlarini tabiiy sharoitidan kelib chiqib quyidagicha turlanadi:

- ✓ mavsumiy ishchilar
- ✓ vaqtincha ishlaydiganlar (loyihada ishlovchilar)
- ✓ shartnoma asosida ishlaydiganlar
- ✓ aniq bir kasbiy faoliyatni amalga oshiruvchi (belgilangan muddatda) ishlovchilar
- ✓ mamlakat fuqaroligini olish imkoniyatiga ega ishchilar
- ✓ yuqori malakaga ega ishchilar (xunarmand)

Navbatdagi mehnat migrantlari – oliy ma'lumotga ega mutahassisarlardan tashkil topadi. Masalan, jahon universitetlaridan boshqa oliygohga ko'chib yuruvchi talabalar. Shu o'rinda:

• Akademik harakatchanlikni ham misol qilishimiz mumkin-unda olimlarning xalqaro harakatlari va oliy ma'lumotli o'qituvchilarning ilmiy va pedagogik tajriba almashishi, shuningdek, boshqa professional maqsadlar tufayli migratsiya

• Mehnat migratsiyasida noqonuniy mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchilar navbatdagi shaklini egallaydi.

• So'ngi shakli ma'lum bir sabablarga ko'ra majburiy ketgan muhojirlar sanaladi. Bularga asosan qochoqlar kiradi.

Bizningcha, yuqorida keltirilgan tasniflar bizning tadqiqotimiz vazifalarini aniqlashda eng muhim omillar ekanligiga qaratiladi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, mehnat migratsiyasi holatlarini tahlil qilish o'ta murakkab jarayon hisoblanib, unda olib borilgan tadqiqot natidalari mamlakat statistik ma'lumotlarni to'plash va mehnat migratsion jarayonlarini tartibga solish bo'yicha ijtimoiy huquqiy normalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Albatta, mehnat migratsiyasini amalga oshirishda qonuniy migratsiya shaxsni xafsizligi va turli salbiy oqibatlardan himoyalovchi mehnat kelishuvlaridan biri hisoblanadi. Unda ish beruvchi tomonidan ishchi kuchini ijobiy qabul qilganligini anglatib, ikkala tomonlar o'rtasida bitim asosida mehnat faoliyat yuritiladi.

O'tkazilgan taxlillarga ko'ra, 2022-yilda O'zbekiston Respublikasi aholisidan Rossiya Federatsiyasiga mehnat muhojirlari oqimi 35,1⁴⁵ foizdan oshkanligi aniqlandi. Shu yilning oxiriga kelib Rossiya mamlakatiga kelgan mehnat muxojirlari soni 3,47⁴⁶ million kishiga yetdi, bu 2021 yilga nisbatan uchdan bir qismi yoki 871 ming kishidan ortiqni tashkil qiladi. Demak, olingan ma'lumotlarga ko'ra, jami mehnat muhojirlarining 90 foizdan ortig'i O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'izistondan kelgan migrantlar tashkil etgan.

Shu o'rinda, O'zbekistondan borgan mehnat migrantlari ko'lami 2021 yil davomidan eng ko'p – 35,1 foizga yoki 377,7 ming kishiga oshganligi tadqiqot natijasida ko'rindi.

Ko'plab mamlakatlarda migratsiya jarayoni noqonuniy amalga oshirilishini kuzatishimiz mumkin. Mehnat migratsiyasini nolegal ko'rinishi ancha kam harajat xisoblanib, asosan muayyan kasb egasi darajasiga chiqa olmagan, o'zining individual salohiyatiga ega bo'lmagan, balki xorijga birga ketgan jamoaning salohiyati va yordamiga tayanuvchi, ba'zilar esa mamlakat tili hamda madaniyatidan yetarli xabardor bo'lmagan mehnat migrantlarini tashkil etadi. Shu o'rinda ishchi kuchi atamasi ishlatilganda ham, nolegal mehnat muhojirlari so'zini ishlatganda ham yuqoridagi ta'rifga mos keluvchi migrantlar xaqida gap ketadi. Bunday muhojirlarga chora ko'rish maqsadida rivojlangan mamlakatlar dastur ishlab chiqdi, unga ko'ra

⁴⁵ <https://kun.uz/ru/news/2023/02/20/v-2022-godu-pritok-trudovyx-migrantov-iz-uzbekistana-v-rf-vyros-na-351>

⁴⁶ <https://kun.uz/ru/news/2023/02/20/v-2022-godu-pritok-trudovyx-migrantov-iz-uzbekistana-v-rf-vyros-na-351>

tekshirish davomida aniqlangan noqonuniy migrantlar o'z vatanlariga deportatsiya qilinadi.

Mehnat migratsiyasining yuqoridagi tasnifiga ko'ra, mehnat migratsiyani yuzaga keltiruvchi sabablardan biri «tortish kuchi»⁴⁷ omili (migrantlarni «jalb etuvchi, qiziqtiruvchi omil» sifatida migrantlarni qiziqishlariga qarab saralash imkonini beradi, shuningdek, aholini turli sharoitlari tufayli yashash darajasi avvalgi muhitiga nisbatan yuqori bo'lgan makonga ko'chishga sabab bo'lgan omillardan xisoblanadi), yoki turtki omillari (doimiy yashash joylarida yuzaga kelgan tabiiy yoki iqtisodiy xarakterdagi muommolar tufayli yashash imkoni yo'qligidan turtki beruvchi omil) hisoblanib, ularning almashinuvi yakuniy natijani hosil qiladi. Har ikkala omillar bir paytda xarakatlansada, ammo ratsipiet mamlakat jalb qilish omillari tufayli hal qiluvchi o'rinda ekanligi bilan ahamiyatlidir.

Shu o'rinda Belarus olimi A.Fedorako mehnat migratsiyasini iqtisod bilan bog'laydi. Unda mehnat muhojiri o'z mehnatini o'sha mamlakatga sotadi, o'zlari esa, ya'ni migrantlar mamlakatning tovarlarini sotib oladi⁴⁸.

Shunday qilib, olib borilgan o'rganishlar natijasida mamlakatlarda sodir bo'layotgan har qanday migratsion jarayonlarning ijobiy tomoni. har ikkala davlatga ham iqtisodiy foyda olib keladi. Mehnat migratsiyasini quyidagicha turlarga ajratib, tahlil qilish mumkin:

✓ ***Hududiy chegaralar mezoniga ko'ra*** mehnat migratsiyasi ikkiga ajratiladi, davlat tashqarisida (tashqi) va mamlakat ichkarisidagi (ichki) migratsiya ko'rinishida amalga oshiriladi. Shuningdek, vaqtinchalik ichki mehnat migratsiyasi bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlari uchun ob'ektiv haqiqatga aylandi. Jahonda yangi davrining o'ziga xos xususiyati sifatida yangi iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi bilan bog'liqdir. O'zbekistonda ham aholi orasida o'zga davlatdan ish izlayotgan mehnat migrantlari ko'lami katta miqdorni tashkil qiladi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, vaqtinchalik mehnat qilayotgan muhojirlar hozirda qariyb 300 ming kishini tashkil etadi⁴⁹.

⁴⁷ Е.Е. Письменная. Социология миграции и адаптации. Учебное пособие. Москва, 2018. ст. 4-15.

⁴⁸ А.Федорако. Теория трудовой миграции. Журнал.Вестник Алтайской академии экономики и права. – 2019. – № 2 (часть 1) – С. 137-145

⁴⁹ CRIA-full-uzb-in-uzb.pdf

Xalqaro mehnat migratsiyasi (tashqi migratsiya) –mamlakat chegarasini kesib o‘tuvchi aholi harakati tushuniladi. Unda mehnatga layoqatli aholining bir yildan ortiq muddatga bir davlatdan ikkinchi mamlakatga ko‘chib ketishi bilan izohlanadi. Bunda har doim chet el ishtiroki bilan munosabatlar shakillanadi, ya’ni chet ellik ish beruvchi va mehnat muhojiri.

Shu o‘rinda *immigratsiya va emigratsiya* atamasi ham mavjud bo‘lib, immigratsiya mehnatga layoqatli aholining ishlash maqsadida mamlakatga kirib kelishini bildirs, emigratsiya – esa mamlakatdan chiqib ketishini anglatadi.

Shuningdek, HMT mehnat migrantlari huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi konvensiyada, "mehnat migranti"⁵⁰ atamasi har qanday mamlakatga mehnat migranti sifatida qonuniy ravishda kirgan shaxslar mehnat migratsiyasining ishtirokchilari sifatida, ya’ni mehnat muxojirlari deb tariflanadi.

Mamlakat ichida xarakatlanayotgan aholi migratsiyasi odatda vaqtincha pul topish maqsadida respublika ichkarisada xududlar aro, tumanlar aro, shaxarlar aro amalga oshiriladi. Biroq, ichki mehnat migratsiyasi, halqaro mehnat migratsiyasi kabi qonuniy ximoyalanmagan. Shunday bo‘lsada aholini xarakatlanishi mehnat bozori muommolarini hal etibgina qolmay, aholi bandligini ta’minlanishi va turmush darajasini yaxshilanishiga yordam beradi.

✓ Vaqt mezoniga ko‘ra, doimiy va vaqtinchalik mehnat migratsiyasi ko‘rinishida shakillanadi. Bu ko‘rinish bir biridan tubdan farq qiladi. Ya’ni agar shaxs doimiy yashash va ish joyini o‘zgartirgan bo‘lsa, mehnat migrantini ortga qaytarib bo‘lmaydi.

Agar shaxslar shartnoma yoki kelishuv asosida ishlash uchun bir necha yilga mamlakat tashqarisiga chiqib ketgan bo‘lsa, vaqtinchalik mehnat migratsiyasini amalga oshirgan hisoblanadi. Bu jarayon migrantni xarakatini davomiyligini cheklaydi.

Mavjud adabiyotlarda berilgan tasnifga ko‘ra, vaqtinchalik mehnat migratsiyasi o‘z ichiga mavsumiy, mayatnik, chegaraoldi, epizodik va tijoriy (savdo) migratsiyasini qamrab oladi⁵¹. Aynan mehnat migratsiyasini faoliyatiga qarab, qisqa muddatli va uzoq muddatli (bir yildan ortiq) migratsiyani hosil qiladi.

⁵⁰ <https://vaael.ru/ru/article/view>

⁵¹ https://unece.org/fileadmin/DAM/stats/publications/RUS_International_Migration_Statistics_Practical_Guide.pdf
(Статистика международной миграции. Практическое руководство для стран Восточной Европы и Центральной Азии ООН).

Migratsiyaning mavsumiy turi (qisqa muddatli) migratsiya hisoblanib, ya'ni ma'lum bir davrda (mavsum) ishchi kuchiga talabning ortishi uni ish bilan ta'minlanishiga imkon beradi. Migratsiyaning bu turi bir necha oyga, bir yilga yetmasdan davom etib, albatta doimiy yashash joyiga qaytib kelishi bilan kuzatiladi. Bunga misol tariqasida, muzdek musqaymoq va ichimlik sotuvchilar, animatorlar, yoz mavsumida dam oluvchilarga (kurort) xizmat qilish, shuningdek qishloq xo'jaligida ekin va o'rim-yig'im davrlarida, baliqchilikda, qurilish ishlari kabi mehnat faoliyati bilan shug'ullaniladi.

Chegara oldi migratsiyasi mehnat migratsiyasida ko'p uchraydigan turlaridan hisoblanib, aholining o'zi yashash joyidan boshqa davlat xududiga chegaradan o'tib ishlaydi (masalan, O'zbekiston xududiga kiruvchi Andijonning Jalolobod tumanidan, Qirg'iziston davlati xududiga o'tishi) migrantning bu xarakati kundalik faoliyat ishi hisoblanib, o'z mamlakatida odatiy yashash joyini saqlab qoladi va xar kuni yoki haftada bir qaytib keladi. Ular "old ishchilar" ham deb ataladi⁵².

Shu o'rinda, ushbu turdagi mehnat migratsiyasining mayatnik migratsiyasi kabi xarakat tushunchasining mohiyatini anig'roq yoritilishiga imkon beradi.

Shunday qilib, Yu.Yu.Shitova⁵³ mayatnik migratsion harakatini – bunda aholi o'z makonidan o'qishga yoki ish joyiga doimiy tarzda borib qaytish doimiylikdir. Mayatnik migratsiyaning bir qismi sifatida chegara oldi migratsiyasini ko'rsatish mumkin.

Mehnat migratsion xarakati epizodik migratsiyasi ko'rinishida ham olib boriladi. Ya'ni, epizotik migratsiya aholining tijoriy, turistik, dam olish (rekreatsiya) maqsadida kelib-ketuvchilar hisoblanadi⁵⁴.

Shu o'rinda, XX asr o'zbek adabiyotining yirik vakili Abdurauf Fitrat o'z asarlaridan birida: "Tijorat masalasi bashariyatning hayot-mamot masalasidir⁵⁵, degan fikrni ilgari surgan...

⁵² <https://old.bigenc.ru/economics/text/3545303>

⁵³ Шитова Ю.Ю. Маятниковая трудовая миграция в Московской области: методический и прикладной анализ // Экономический журнал ВШЭ. 2006. № 1.

⁵⁴ https://unece.org/fileadmin/DAM/stats/publications/RUS_International_Migration_Statistics_Practical_Guide.pdf (Статистика международной миграции. Практическое руководство для стран Восточной Европы и Центральной Азии ООН).

⁵⁵ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Учинчи нашр.- Тошкент "O'zbekiston" нашриёти, 2022.- 355-359-бетлар.

Darhaqiqat, kambag'allikning salbiy oqibatlarini oldini olishga qaratilgan imkoniyatlardan biri sifatida, savdo sotiqlik migratsiyasini ko'rsatishimiz mumkin. Unga ko'ra, tijoriy (savdo) migratsiyasi aholini tijorat maqsadidagi faoliyati bo'lib, unda bozor iqtisodiyotini vujudga kelishi va jamiyat taraqqiyotiga ijobiy natijasini beruvchi muhim omil hisoblanadi.

Bizningcha, mehnat migratsion jarayonni tashkil etish usuliga ko'ra ikki shaklda tashkil etiladi:

- tashkillashtirilgan

- tashkillashtirilmagan holda amalga oshiriladi. Mehnat migratsiyasining tashkillashtirilishi davlat organlari tomonidan belgilangan xududga mehnat migrantlarini jalb etilishi, hamda iqtisodiy ko'magi yordamida amalga oshiriladi deb atashimiz mumkin. Shu o'rinda aholini tashkillashtirilmagan qatlami esa ular yakka tartibda mehnat migrantlarining o'z kuchlari va mablag'lari hisobidan amalga oshirilishini misol qila olamiz. Har ikki ko'rinishda ham mehnat migranti yaxshiroq mehnat sharoitlarida ishlashni maqul ko'radi. Bundan tashqari, tashkillashtirilgan va tashkillashtirilgan migratsiya shakllari shahslar tomonidan mustaqil qabul qilingan qarorining natijasi hisoblanadi. Ularning o'rtasidagi asosiy farq asosan, birinchi holatdagi migratsiya davlat organlari tomonidan individning xavfsizligi kafolati va qo'shimcha choralar bilan qo'llab-quvvatlanadi.

Shunday ekan, biz tadqiqotimiz sub'ekti sifatida "mehnat sharoitlari" holati nimani anglatishini aniqlashga xarakat qildik, chunki mehnat muxojirlari mehnatini asosiy unumini oshirishga ta'sir etuvchi omil sifatida ta'sir qiladi. Ayrim mutahassislar jumladan iqtisodchi olimlar uchun, mehnat sharoiti deganda "mehnat jarayoni va inson faoliyatini amalga oshirishga ta'sir etuvchi omillar majmuyi va mehnat migratsiyasi faoliyati migratsiyaning iqtisodiy sabablarini o'rganishga" qaratiladi.

Mehnat sharoitini migrant faoliyatiga ta'sirini to'rt guruhda tahlil qilishimiz mumkin:

- inson ruhiyatiga ta'siri (havo harorati, shovqin, tebranish)
- kimyoviy moddalar ta'siri (zaharli moddalar, ekologiyani buzilishi changli havo);
- biologik holatiga ta'siri (yuqumli kasalliklar, mehnatning og'irligi, striotiplar).

– mehnat migratsiyasining intensivligi (intellektual, hissiy, ruhiy holat stress, mehnat tartibi).

Mehnat muhojiri uchun asosan mehnat sharoiti muhim hisoblanib, ish sharoitining yaxshi holati muhojirning xavfsizligini ta'minlovchi va migrant ruhiyatidagi stressni oldini oluvchi omil vazifasini bajaradi.

Jamiyatda aholini mehnat migratsiyasiga ta'sir etuvchi quyidagi omillarni ajratib ko'rsatish mumkin: demografik, etnik, siyosiy, iqlimiy, iqtisodiy va boshqalar.

Demografik omillarning aholining jinsi, yoshi, oilaviy ahvoli, tug'ilish va o'lim ko'rsatkichi bilan bog'liq hisoblanib, ayrim demograflarni fikriga ko'ra migratsiya dunyo aholisining umumiy soniga hech qanday ta'sir o'tkazmaydi, chunki u doimo nolga teng, ya'ni immigrantlarning soni emigrantlar sonida teng deb hisoblashadi. Etnik omillar deganda esa turli xalqlarning milliy urf-odatlarini, an'ana va qadriyatlarini o'ziga hosligi ta'siri tushuniladi. Aholi orasida hudud ichida ko'chirilganlar va qochqinlar siyosiy omil ta'sirida shakillanadi. Migratsiyaning yana bir ko'rinishi iqlim sabab amalga oshadi. Bunda asosan iqlim sharoitlari qulay bo'lgan mintaqalar migrantlar guruhlarini o'ziga tortadi. Migrantlarning katta guruhi iqtisodiy omil ta'sirida harakatlanadi, chunki moddiy daromad aholini mehnat migratsiyasidagi jarayonda hal qiluvchi rolni o'ynaydi va mehnat muhojiri qancha ko'p pul topishi uning oila a'zolari, yaqinlari turmush sharoitini yaxshilanishi garovi hisoblanadi. Har qanday davlatning fuqorolari boy badavlat yashasa o'sha jamiyatni taraqqiy etishiga sezilarli hissa qo'shadi.

Darhaqiqat jamiyatni farovonligi aholining turmush sharoitini yaxshilanishi bilan bog'liqdir. Yashash sharoitini yaxshilash maqsadida mamlakat aholisi daromadini ortirish maqsadida, iqtisodiy rivojlangan, mehnat qilish imkoniyati yuqori bo'lgan, ishchi kuchiga talab kuchli bo'lgan davlatlarga intiladilar. Fuqarolarning bu intilishi migratsiya jarayonini tezlashtirdi. Natijada, migrantlarning faoliyatini osonlashtirish va ularni xuquqlarini himoya qilish maqsadida migratsiya siyosatini tartibga solish talab etiladi. Migratsiya siyosatini turli maqsad va usullaridan kelib chiqib emigratsiya va immigratsiya siyosatiga ajraladi"⁵⁶.

⁵⁶ Международные экономические отношения в глобальной экономике. Под общ. ред. проф. Платонова И.Н. Учебник. Москва. "Юрайт", 2019 с. 192 .

Davlatning emigratsiya siyosati – migrantlar faoliyatini tartibga solish, ya'ni emigrantlar uchun maqul bo'lgan muhitni yaratish va faoliyatlarini tartibga solish, shuningdek muhojirlar oqimi va ularning tarkibini maqsadli amalga oshishini ta'minlash siyosati hisoblanadi.

Mamlakatning immigratsiya siyosati holati – bu davlatning milliy mehnat bozorini tartibsiz faoliyati, hamda noto'g'ri taqsimlanishi bilan birga ulardan noto'g'ri foydalanishni oldini olish siyosatidan iboratdir.

Tadqiqotimizda ushbu faoliyatni o'rganar ekanmiz turli rivojlangan davlatlarning, asosan donor mamlakatlarning mehnat bozori, mehnat muhojirlariga nisbatan diskriminatsiya, kamsitishlarni yo'qligi, migrantlarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, har ikki davlatlarning (donor va ratsipiet) ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini o'rganish bilan birga migrantlarning qabul qiluvchi davlat muhitiga integratsiyalashuvi kabi ko'rsatkichlari o'rganiladi.

Shu o'rinda halqaro tajribani kuzatar ekanmiz, bunga rivojlangan mamlakatlardan AQSh davlatini misolida keltirsak, ushbu davlat migratsiya siyosatiga binoan mehnat migratlari oilasida tug'ilgan bolakay ushbu mamlakatning fuqarosi hisoblanadi. Bu siyosat orqali mamlakat demografik rivojlanishiga ta'sirini ko'rishimiz mumkin. Ba'zi bir mamlakatlar ommaviy migratsiyasi aynan eksporter-mamlakatning emigrantlari oilasidagi tug'ilish va nikoh jarayonlariga salbiy ta'sirini ko'rishimiz mumkin. Bunga misol tariqasida (Rossiya, Fransiya, Germaniya, Italiya va b.) kabi mamlakatlarda aholining tug'ilishiga nisbatan past bo'lgan, aholining qarish muammosi yuzaga kelgan mamlakatlar demografiyasiga salbiy ta'sirini ko'ramiz. Ushbu mamlakat ijtimoiy iqtisodiy tarmoqlari ishchi kuchi, ya'ni mehnat muhojirlari hisobidan hal etilmoqda. Hamda ishchi kuchiga bo'lgan talab migrantlar hisobidan qondirilmoqda. Shunday ekan mehnat migratsiyasi har ikki davlatga (salbiy va ijobiy) o'z ta'sirini o'tkazadi.

AQSh davlat tomonidan olib borilgan migratsiya siyosatining asosiy ko'rinishlari quyidagilarni tashkil etadi:

- ✓ Mamlakatning hududiy chegaralari xavfsizligini belgilash
- ✓ Migrantlarni ro'yxatdan o'tkazish tizimini joriy qilinishi
- ✓ Nolegal mehnat muhojirlari faoliyatini cheklash

✓ Yangi ish o‘rinlarini yaratish
✓ Yuqori investitsiyalarni jalb qilinishi;
✓ Mehnat muhojirlarini himoya qilish siyosati kabi holatlar belgilangan. Quyidagi qo‘llangan siyosat orqali AQShda migratsiya jarayonlarini tartibga solinishida asosiy vazifani bajargan:

1. Fuqarolik ishlari bilan shug‘ullanuvchi idora orqali migrantlar integratsiyalashuvi ta‘minlanishi va mahalliy nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlik aloqalarini shakillanishi;

2. Migrantlar farzandlarini integratsiyalashuvini ta‘minlash maqsadida AQShning ta‘lim vazirligi tomonidan maxsus dasturlar ishlab chiqadi;

3. Muhojirlarni himoya qiluvchi AQSh mamlakat qonunlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, davlatning milliy xavfsizlik departamenti tomonidan amalga oshiriladi;

4. AQSh chegara va bojxona tartibotini o‘rnatish;

5. Migrantlarni fuqarolikni olish uchun ularni madaniyati va tilini o‘rganishga asoslangan ;

6. Qochoqlarga ko‘mak berish idoralari;

7. Mamlakatda migrantlar kamsitilishidan va mehnat faoliyatidagi adolatsizliklardan himoya qilish;

8. Davlat tomonidan migrantlarga imtiyozlarni berilishi (grant migrant farzantlarini ta‘lim olishiga qaratilgan dastur)

Shunday qilib, ushbu vazifalar keng qamrovli migratsiyani tartibga solish uchun imkon beradi. Shu o‘rinda, 2011-yil 11- sentabrdagi terroristik xurujlaridan zarar ko‘rgan AQSh davlati, keyinchalik migratsiya siyosatini keskin cheklov darajasida o‘zgartirildi.

Fikrimizcha, ushbu mamlakatda olib borilgan migratsiya siyosati, davlatga bo‘lgan muhojirlarni intilishni rag‘batlantirdi va AQShning migratsion jarayonlarini tartibga solish mexanizmi hamma sohalarda ham isloh qilinishi maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Shu o‘rinda, jadal rivojlanib borayotgan mehnat migratsiyasini falsafiy tahlil qilishda rus olimi L.N.Gumilyov ham o‘z ilmiy tadqiqotlari orqali o‘rganib, olim

migrantlarning faoliyatiga ta'sir etuvchi asosiy omil bu ulardagi passionarlik hususiyatidir degan qarashlarni bildiradi.

*Passionarlik*⁵⁷ (kuchli hohish) bu xulq-atvorning o'ziga xos xarakter bo'lib, u shaxsning faol harakati, maqsad sari intilish hissining kuchliligi bilan ifodalanadi. Gumilyov fikriga ko'ra insondagi kuchli hohish istak uning geni bilan bog'liqdir, unga ko'ra ayrim insonlarning xarakatidagi kuchli hohishni uning migratsion harakatini oshiradi. Bunga misol; Buyuk Migratsiyaning⁵⁸ boshlanishi, arab istilolari⁵⁹, Viking⁶⁰ yurishlari va boshqalar.

Olib borilgan izlanishlar va o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida mehnat migratsiyasi jarayonining asosiy mohiyatini olti bosqichli modelda ifodalashga harakat qildik:

- 1-bosqich: yoshlar mehnat migratsiyasi qatnashuvchilarini vaqtinchalik mehnat bilan ta'minlashni, ularning ishlab topgan pullarini pul o'tkazmalari orqali o'z uylariga yo'naltirilishini ta'minanishi;

- 2-bosqich: migrantlarning o'z oilalari bilan ratsipient mamlakatga ko'chib kelishini muhimligi, ularning yashash muddatini belgilanishi va ular qabul qiluvchi mamlakatga adaptatsiya qilinishi bilan birga o'zining etnik jamoalarini paydo bo'lishi

- 3-bosqich: qabul qiluvchi mamlakatda uyushgan etnik jamoalarning o'z diasporalarini shakillanishi va uni o'sha mamlakatda istiqomat qiluvchi migrantlar tomonidan doimiy birgalikda davom ettirilishi. Shu o'rinda millatga hos uyushmalar, do'konlar, kafelarni yuritilishi

- 4-bosqich: millatlarning kelib chiqishining umumiy xususiyati va o'zaro qarindoshlik aloqalarini (turmush qurishi) shakillanishi yangi hududda o'zaro yordam zarurligini inobatga olgan holda ijtimoiy aloqalarni, migrantlarning yashash sharoitini yaxshilanini ta'minlanishi

⁵⁷ **Passionarlik** – biror maqsadni amalga oshirishga qaratilgan faoliyatga bo'lgan kuchli ichki hohish.

⁵⁸ Xalqlarning buyuk ko'chishi — IV-VII asrlarda Yevropada ommaviy etnik xarakatining nomlanishi bo'lib, asosan, Rim imperiyasining bir qismiga IV asr o'rtalarida sharqdan hunlar bosqini natijasida amalga oshgan.

⁵⁹ Arab istilolari. Arablarning 6 asrda Arabistondan tashqaridagi Osiyo, Afrika va Yevropadagi ulkan hududlarni: Yaqin Sharq mamlakatlari, O'rta Osiyo, shimoli-g'arbiy Hindiston, Shimoliy Afrika, Kavkazning bir qismi, Ispaniya, Janubiy Italiya, Sitsiliya, Malta, Rodos, Krit orollarini bosib olganlari.

⁶⁰ Vikinglar 8—11-asrlarda ilk o'rta asrlardagi skandinaviya dengizchilari bo'lib, ular hozirgi Shvetsiya, Daniya va Norvegiya hududida yashovchi qabilalar (danlar, sveylar, gotlar, gutslar va boshqalar) hisoblanadi. Aholining haddan tashqari ko'payishi va ochlik tufayli ular o'zlarining chegaralaridan tashqariga ham kenгайиб борганлар.

- 5-bosqich: hukumat siyosati va qabul qiluvchi mamlakat aholisining xatti-harakatlariga qarab, huquqiy maqomi o‘z ixtiyoriga binoan fuqarolikka o‘tishi, ijtimoiy-iqtisodiy marginallashtirishiga va doimiy etnik ozchiliklarning shakllanishiga olib keladigan kelishuvga yo‘nalishi⁶¹.

- 6-bosqich: migrantlarning farzandlarini ruhiy xolatini inobatga olib, ularning bog‘cha va maktabda tahsil olishida mamlakat xukumati tomonidan xuquqiy qo‘llanish siyosatini mustahkamlanishi

Bizning fikrimizcha, taqdim etilgan model katta miqyosdagi migratsiyalarni va bu o‘z navbatida malakali kadrlar migratsiyasini xarakterlanishini to‘g‘ri tushunish imkonini beradi. Barcha xolatlar analitik ahamiyatga ega xisoblanib, unda har qanday migratsiya harakati mohiyatiga binoan, oila instituti mazmunini o‘zlashtirishi va etnik jamoalarning shakllanishiga olib keladigan migratsiya tarmoqlarini yaratishi mumkin. Shuningdek, bunday nazariyalar migratsiya jarayonlarini har xil tahlil etilishi usullarini (individual, oilaviy, milliy va xalqaro) yordamida va turli uslubiy yondashuvlardan foydalangan holda tushuntirishga imkon beradi. Bu tushunchalar har qanday davrda ham bir birini to‘ldirib boradi.

Bizning fikrimizcha, ishga doir tafovutlarga javoban migratsiya hodisasi to‘liq mexanistik yondashuvni nomoyon etadi, bu boradagi neoklassik yondashuvning asosiy muammosi va uning ilgari surayotgan xulosalari taxminlarga asoslangandir.

Migratsiya siyosatini rivojlantirish xalqaro markazi (ICMPD) ⁶² tomonidan olingan ma’lumotlarga tayangan holda xalqaro tajribada Tojikiston, Afg‘oniston, Bangladesh, Iroq va Pokistondan kelgan migrantlar uchun biz quyidagi onlayn modul platformasini **taklif qilamiz**.

Migratsiya siyosatini rivojlantirish xalqaro markazi (ICMPD) 2023 yil may holatiga ko‘ra ⁶³ 20 nafar davlatlar a‘zo bo‘lib, 90 dan ortiq mamlakatlarda mehnat migratsiya bo‘yicha samarali hamkorlik munosabatlarini yo‘lga qo‘yish faoliyatini yuritadi. Uning asosiy hamkor davlatlari qatoriga Afrika, Sharqiy Yevropa va Markaziy

⁶¹ Bodvarsson, O. The economics of immigration. Theory and policy / Ö. Bodvarsson, H. Vandenberg. – Berlin: Springer, 2013. – 459 p

⁶² <https://www.icmpdsilkroutesmodules.com/ru/>

⁶³ https://knowledge4policy.ec.europa.eu/organisation/icmpd-international-centre-migration-policy-development_en.

ICMPD - International Centre for Migration Policy Development.2023.

Osiyo, O'rta yer dengizi, Ipak yo'li, G'arbiy Bolqon va Turkiya mamlakatlari kiradi. Olib borilayotgan ushbu faoliyat butun dunyo bo'ylab migratsiya siyosatini yaxshilanishiga yordam beradi. Asosiy tashkiloti Avstriyaning Vena shahrida joylashgan bo'lib, Bryusselda ham vakolatxonasiga ega. Ushbu tashkilot asosan o'zining hamkor davlatlari Yevropa Komissiyasi hamda BMT davlatlari tomonidan iqtisodiy qo'llab quvatlanadi⁶⁴.

Chet elda ishlash, katta maosh olish imkoniyati aholi mehnat migratsiyasi xarakterini tezlashishiga sabab bo'ladi. Albatta boshqa mamlakatga ko'chib o'tish uchun insonda amaliy tayyorgarlik va yaxshi rejani tuzilishi uni xavfsizligini kafolati hisoblanadi.

Shunday ekan, biz taklif o'rnida tavsiya qilgan ushbu onlayn modul 3ta qismdan iborat hisoblanib, mehnat migratsiyasini qamrab oluvchi uchta asosiy bosqichdan hosil bo'ladi:

✓ **migratsiyadan oldin**, chet mamlakatga ishga joylashishdan oldin, ya'ni mehnat migratsiyasini amalga oshirishga qadar, yoki chet mamlakatda yashash va ishlashga qaror qilinganidan so'ng (RBPODV).

✓ **chet mamlakatga jo'nab ketishdan oldin**, chet elga ishlash uchun ketmoqchi bo'lgan mehnat migrantlari, asosiy talablarni bajarishi ya'ni pasportda davlat muhri bosilishi sharti (Pokiston uchun) kabi umumiy talablarni bajargan holda (RSPVPO)

✓ **kelgandan so'ng**, mehnat muhojirlarini yangi mehnat va yashash sharoitlariga moslashish jarayoni (PAOS).

Ushbu uchta modul Afg'oniston, Bangladesh va Pokiston uchun o'zlarining milliy tillarida (Dari, Bengal va Urdu) faoliyat yuritiladi. Tojikiston uchun esa - ushbu 2 ta modulga binoan yuritiladi:

– **migratsiyadan oldin**

– **chet mamlakatga jo'nab ketishdan oldin** (russ va tojik) tillarda yuritiladi.

Iroq mamlakati uchun esa yagona arab tilida mavjud **kelgandan so'ng** moduli orqali olib boriladi.

Ushbu modul orqali fuqarolar mehnat migratsiyasini amalga oshirishdan oldin nimalarga e'tibor berish kerakligi, boradigan mamlakatni yoki ishga qabul qilish

⁶⁴ <https://reliefweb.int/organization/icmpd>

agentligini qanday tanlash bo'yicha maslahatlar; chet elda ishlashda nimani "bajarish va bajarmaslik kerakligi" haqida tushunchalar; shuningdek, noqonuniy migratsiya, noqonuniy ishga yollash, odam savdosi xavf-xatarlari va oqibatlari hamda shu bilan bog'liq masalalar va boshqa muammolar to'g'risida batafsil ma'lumot olinadi. Shuningdek, mehnat muxojirlari uchun chet elda yashash va ishlashning barcha holatlari bo'yicha foydali maslahatlar hamda ishga joylanishlari, ruxsatnomalar, vizalar, turar joy va oziq-ovqat, aloqa va moliyaviy xizmatlar, sog'liqni saqlash va ijtimoiy sug'urta, qonunlar va qoidalar, davlat xizmatlari, qo'llab-quvvatlash tarmoqlari va boshqa masalalarni qamrab olgan muhim masalalar bilan tanishtiradi.

Ushbu onlayn modulni afzalligi ham shundaki, modul doimiy amal qilinadigan xujjatdir. Modul Tojikiston, Afg'oniston, Bangladesh, Iroq va Pokistonga tegishli yangi ma'lumotlar, siyosiy habarlar, tavsiya etilgan xizmatlar mavjud bo'lganda muntazam ravishda batafsil ma'lumot berib boriladi yoki yangilanib turiladi.

Bizning fikrimizcha, ushbu modul chet elga ishlashga qaror qilgan fuqarolarga kerakli ma'lumotlarni taqdim etadi va mehnat muhojiri sifatida ishlash va yashashda yangi muhitga qanday moslashish kerakligi, hamda ushbu mamlakatga qanday munosabatda bo'lish haqida ongli qarorlar qabul qilishida yordam beradi.

1.3. Jaxonda mehnat migratsiyasi masalasi, uning asosiy yo'nalishlari va muammolari

Olib borilgan ilmiy izlanishlarga ko'ra rivojlangan davlatlar o'rtasidagi xalqaro mehnat migratsiyasi esa asosan noiqtisodiy sabablarga ko'ra amalga oshiriladi. Bunday holda, ish yoki kompaniyaning obro'si, kasbiy o'sish, martaba, madaniy ehtiyojlar muhim rol o'ynaydi.

Migratsiya oqimi, yuqorida qayd etilganidek, rivojlanayotgan mamlakatlardan rivojlangan mamlakatlarga yo'naladi. Rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy bilim, ta'lim va madaniy holati yuqori bo'lgan aholining yuqori tajaurmush darsi migratsion omilga kuchli ta'sir o'tkazadi.

Ishsizlik darajasi yuqori, ish haqi kam bo'lgan mamlakatlarda, hayotni ta'minlovchi asosiy zarurati bo'lgan birlamchi ehtiyojlarni qondirish, oilani moddiy-iqtisodiy ta'minlash muommosi ham rivojlangan mamlakatlarga ko'chishga turtki beradi.

Mehnat migratsiyasining davlat va jamiyat taraqqiyotiga zarar keltiruvchi yo'nalishi malakali mutaxassislar va olimlarning rivojlangan mamlakatlarga ketib qolishi bo'lib, vatanparvarlik hissining sustligi bilan izohlanadi.

Ammo shu tipdagi migrantlar bu hodisalarni ko'pincha iqtisodiy omillar, yetuk mutaxassis bo'lish, yangi sohalarni o'zlashtirish, imkoniyatlarini yangi ish sharoitida sinash istagi bilan bog'laydilar.

Migratsiya davr nuqtai nazaridan kuchayish-pasayish tendensiyasiga ega.

Migratsiya jarayoni yuqorida qayd etilganidek, rivojlanayotgan mamlakatlardan rivojlangan mamlakatlarga yo'naltiriladi. Rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy bilim, ta'lim va madaniy holati yuqori bo'lgan aholining yuqori turmush darajasi va shu bilan birga, migratsion omilga kuchli ta'sir o'tkazadi.

Professor B.Umurzoqovning «tabiyki, dastlab ishchi kuchi eksportiga qarshi bo'lganlar uchrashi mumkin. Biroq, hozircha, aholi bandligi va yangi ish o'rinlarini yaratish jarayonlari barqaror xarakterga ega bo'lmas ekan, mehnat migratsiyasi davom etadi»⁶⁵, degan fikrlariga sotsiologik jihatdan migratsiya masalalarini tartibga solish va ratsional boshqarish, real holatini aniqlash, sotsial-iqtisodiy munosabatlari, huquqiy tomonlarini takomillashtirish hamda axborotlar almashinuvini tizimli joriy qilish zaruriyati tug'ildi.

Ishsizlik darajasi yuqori, ish haqi kam bo'lgan mamlakatlarda, hayotni ta'minlovchi asosiy zarurati bo'lgan birlamchi ehtiyojlarni qondirish, oilani moddiy-iqtisodiy ta'minlash muommosi ham farovon mamlakatlarga ko'chishga turtki beradi.

Migratsiya jarayonlarini mazmuniga ko'ra ikki xil turga:

1) iqtisodiy mo'ljallar va;

⁶⁵ Умурзаков Б. Организационно-правовые основы регулирования трудовой миграции в Узбекистане // Халқаро munosabatlar. №2. 2008. 53-6.

2) ma'naviy-intelektual hamda siyosiy omillar asosida vujudga keladigan migratsiyaga ajratish mumkin.

Xalqaro iqtisodiy va siyosiy jarayonlarda mehnat migratsiyasi murakkab muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Hozirgi paytda migratsiya jarayoni jadal rivojlanayotgan mamlakatlarning katta qismini shimoliy mamlakatlar tashkil etmoqda.

Ushbu paragrafda xorijiy mamlakatlardan Germaniya, Kanada va Avstraliyada mehnat migrantlari va ularning mamlakatda yashashi uchun ijtimoiy sharoitlar va migratsiya jarayonlarining mamlakatga ta'siri o'rganilgan.

Germaniya Yevropada immigratsiya bo'ladigan mamlakatlaridan biri hisoblanadi. Yevropa Ittifoqining bu eng katta mamlakatining aholisi tarkibida har o'ndan biri Germaniya fuqaroiga ega bo'lmagan chet el fuqarolari bor.

XX asr 50-yillarida taxminan 30 million ligchet elliklar va nemislar Sharqiy Germaniyadan, Germaniya Federativ Respublikasiga ko'chib ketishgan.

2002 yil oxirida Germaniyada qonuniy ravishda yashayotgan chet elliklar soni 7,3 million kishini yoki jami aholining 8,9 foizini tashkil etgan bo'lsa ⁶⁶, 2020 yil ma'lumotlariga ko'ra, bu ko'rsatkich 1,36 million qochoq bilan boyidi, bu Yevropa davlatlari uchun o'rtacha ko'rsatkichdan (5,1%) sezilarli darajada oshdi⁶⁷.

Ko'pgina hollarda, immigrantlarning asosini, bu Yevropa davlatlari uchun o'rtacha asosini 1950-1960 yillarda tuzilgan mehnat shartnomalarida ishtirok etuvchi mamlakatlarning fuqarolari tashkil etadi.

2003 yildagi statistik ma'lumotlarga ko'ra, 28 foizi Turkiyadan, 16,2 foizi sobiq Yugoslaviyadan, 8,4 foizi Italiyadan, 5 foizi Gresiyadan va 4 foizi Polshadan kelganlar tashkil etadi⁶⁸.

⁶⁶ Статистика международной миграции Практическое руководство для стран Восточной Европы и Центральной Азии. О. О. Н. 2011. https://unesce.org/fileadmin/DAM/stats/publications/RUS_International_Migration_Statistics_Practical_Guide.

⁶⁷ Российская газета (https://rg.ru/2020/07/29/v_germanii_podveli_itozi_krizisa_migrantami.htm.)

⁶⁸ Статистика международной миграции Практическое руководство для стран Восточной Европы и Центральной Азии. О. О. Н. 2011. https://unesce.org/fileadmin/DAM/stats/publications/RUS_International_Migration_Statistics_Practical_Guide.

2020 yil ma'lumotlariga muvofiq, bular qatoriga Yaqin Sharq mamlakatlaridan kelganlar qo'shib, 1,36 million qochoqning faqat 80 foizigina Germaniya hukumati tomonidan rasmiy himoyani olgan⁶⁹.

So'nggi paytlarda Yaqin Sharqdan keluvchi migrantlar oqimi kuchaymoqda, buni quyidagi omillar bilan izohlash mumkin:

- Yaqin Sharq mamlakatlari iqtisodiyotini isloh qilish va o'zgartirish sharoitida ko'plab iqtisodiy tarmoqlarda iqtisodiy va ijtimoiy beqarorlikning yuzaga kelganligi;

- Siyosiy beqarorlik, etnik nizolar va jinoyatlarning ko'payishi aholining Yaqin Sharq mamlakatlaridan chiqib ketishiga olib kelganligi;

- atrof-muhitning ekologik jixatdan yomonlashishi, qurg'oqchilik, qishloq xo'jaligining rivojlanmaganligi yoki tabiiy ofatlar tufayli tuproqning yemirilib borayotganligi;

- Yaqin Sharq mamlakatlarining rivojlangan Yevropa mamlakatlari bilan yaqinligi, ya'ni geosiyosiy omillar sababli muhojirlar ko'chib o'tish jarayonini nisbatan soddalashtirganligini kuzatish mumkin.

2017 yil ma'lumotlariga ko'ra, Germaniya aholisining 24 foizini migratsion o'tmishga ega bo'lganlar tashkil qilar edi. Ammo 2018-2019 yillarda ushbu oqimning pasayish tendensiyasi kuzatildi⁷⁰.

Germaniyada o'tkazilgan so'rovnomalar natijasida ⁷¹ Germaniya aholisining 24 foizi fikriga ko'ra, mamlakatdagi asosiy ijtimoiy, ma'naviy va siyosiy muammolardan biri migrantlar va qochoqlar hisoblanadi.

Migratsiya hodisasi jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotiga salbiy va ijobiy jihatdan ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda immigratsiyaga doir qonun va tartiblarning buzilishi, shuningdek, Yevropa davlatlari tub joy axolisi o'rtasida ishsizlikning kuchayishi muayyan ziddiyatli xolatlarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, Germaniyada boshqa muammolar bilan bir qatorda, nemislar boshqa millatlar fe'l-atvoriga, madaniyatiga murosasizligining

⁶⁹ Российская газета (<https://rg.ru/2020/07/29>).

⁷⁰ Численность населения Германии в 2019 году достигла рекордного уровня. <https://www.dw.com/ru>.

⁷¹ <https://www.tupa-germania.ru/zhizn/problemy-germanii.htm>.

kuchayishi va bu xolatni ular ekstremizmga qarshi kurash bilan bog'layotganlarini aytish mumkin.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Germaniyadagi xorijliklar bilan integratsiya faoliyati 1978 yilda boshlangan, mamlakat hukumatining immigrantlar va ularning oilalarining integratsiyasini qo'llab-quvvatlash uchun Komissar idorasini ochish bo'yicha qarori ham aynan shu yil qabul qilingan. 2005 yilda kuchga kirgan yangi qonunga ko'ra esa, doimiy yashash huquqini olgan barcha muhojirlar maxsus integratsiya kurslarida qatnashishlari shart hisoblanadi.

Shu bilan birga, zamonaviy Germaniyaning migratsiya siyosati muhojirlarni ijtimoiy himoya qilishdagi javobgarlik funksiyasini nodavlat maqomga ega bo'lgan ijtimoiy agentliklarga topshirishi bilan tavsiflanadi.

Zamonaviy nemis integratsiyasi modelining ajralib turadigan eng muhim xususiyati bu mamlakatning ijtimoiy institutlari, shu qatorda mehnat bozori, ta'lim tizimlari, qochoqlarni joylashtirish va muhojirlarni nodavlat sektorlardan davlat ijtimoiy himoyasi va ijtimoiy-siyosiy tizimiga kiritish zarurati ortib bormoqda. Ayni vaqtda migrantlar, siyosiy sotsiologik nuqtai nazardan yondashilganda, nemis jamiyati tarkibiga rasman kiritilamaydi.

Migrantning fuqarolikni olish faktisiz davlat ijtimoiy himoya qilish tizimiga kira olmasligi amaldagi Germaniya migratsion modeli migrantlarning identifikatsiya integratsiyasini amalda rad etishini anglatadi.

Ammo 2000 yilga kelib, Germaniyada tug'ilgan chet elliklarning farzandlariga nisbatan «tuproq qonuni» tamoyilidan foydalangan holda fuqarolik to'g'risidagi yangi qonun qabul qilindi.

1.3.-jadval

1991-2017 yilda Germaniyaga kelgan migrantlar soni⁷²

| Yillar | Germaniyaga kelgan nemislar (kishi) | Germaniyaga kelgan xorijiy migrantlar (kishi) |
|---------------|--|--|
| 2017 | 164 199 | 1 381 439 |

⁷² Численность русских мигрантов, беженцев и переселенцев в Германии, а также мигрантов из других стран <https://ru-geld.de/statistik/how-many-migrants.htm>.

| | | |
|------|---------|---------|
| 2010 | 114 752 | 683 530 |
| 2000 | 191 909 | 649 249 |
| 1991 | 273 633 | 925 345 |

Germaniyada migratsiya qonunchiligining yangi vazifalari quyidagilar edi⁷³:

- migratsiya idoralari va Germaniya migratsiya qonunchiligini buzadigan har qanday xarakatga qarshi turish, shu jumladan, chegaralarni noqonuniy kesib o'tish, rasmiy tashkilotlar ruxsatisiz ishga joylashish, shuningdek, soxta nikohlarni tuzish, holatlariga qarshi kurashni kuchaytirish;

- muhojirlarning mehnat malakasi va umumiy moddiy ta'minoti darajasiga qo'yiladigan talablarni oshirish orqali immigratsiya sub'ektlarini o'qitish, kasb berish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarini kamaytirish;

- muhojirlarga, shuningdek, boshpana izlayotganlarga beriladigan ijtimoiy to'lovlarni kamaytirish orqali Germaniyaga kiradigan va yashab qoladigan muhojirlik jozibadorligini pasaytirish;

- Germaniyada nemis tilini, shuningdek, Germaniya tarixi, davlat va fuqarolik tuzilishini bilish talablarini oshirish orqali ijtimoiy tarqoqlikning oldini olish.

Germaniya migratsiya siyosatining XXI asrdagi jadal evolyusion islohotlari natijalari o'laroq quyidagi asosiy yo'nalishlarni ko'rsatish mumkin:

- 1) xavfsizlik masalalarining o'ta muhim ahamiyat kasb etishi;
- 2) migratsiya siyosatining tabiatga ko'proq foyda keltiruvchi xususiyatga ega bo'lishi va e'tiborni iqtisodiy foyda olishga qaratila boshlashi;
- 3) evolyusiyalar muhojirlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni qisqartirish, shuningdek, migratsiya siyosatining huquqiy jihatlariga zarar yetkazish hisobiga ta'minlandi.

Germaniyaning migrantlar integratsiyalashuvi sohasidagi tajribasini o'rganish natijasida quyidagi ahamiyatli jihatlarni ajratib ko'rsatish o'rinnidir:

⁷³ Карачурина Л. Иммиграционная политика Германии: успешный – неуспешный опыт // Мировая экономика и международные отношения. 2008. № 7. С. 55 – 65.

- Germaniyada migrantlarning integratsiyalashuvi va moslashuvi sohasidagi vakolatlarining to'liq holdagi faoliyati huquq-tartibot vazifalarini bajarishga bevosita bog'liq bo'lmagan bo'lsa-da, davlat hokimiyati organlari va davlat hokimiyati sub'ektlarining tasarrufiga kirishi;

Bunday yondashuv dastlabki bosqichdayoq ijtimoiy yo'nalishdagi integratsiyalashtirish faoliyati hamda jamiyat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha faoliyat o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi paydo bo'lishining oldini oladi.

- mehnat migrantlarining integratsiyalashuvi va ijtimoiy moslashtirilishi bo'yicha mehnat va ijtimoiy murabbiylik institutining qo'llanishi. Ya'ni bunda migrantga yangi sharoitlarga moslashtirish integratsiya qilish uchun zarur bilimlarni tezroq egallash uchun mahalliy fuqarolar qatoridan korxonalar ishchisini rasmiy tarzda birlashtirish nazarda tutiladi.

- mehnat migrantlarining integratsiyalashuvi va ijtimoiy moslashtirilishi sohasida vakolatli ijro hokimiyati respublika organi rahbarligida va nazorati ostida hamda fuqarolik jamiyati institutlari va nodavlat notijorat tashkilotlarni faol jalb qilgan holda migrantlarga maslahat berish xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha axborot va ta'lim tarmog'ining yo'lga qo'yilishi. Bunday tarmoqni yaratish asosida adaptiv boshqaruv prinsipi nazarda tutilgan. Unda taqdim etilayotgan xizmatlar hajmi ularga bo'lgan talabdan kam bo'lmasligi lozim, shu bilan birga davlat tomonidan sifat va mazmun bo'yicha qo'yilgan talablarga javob berishi, migrantlarning ehtiyojlarini hisobga olishi, ular faoliyatini takomillashtirish va rivojlantirishda yordam berishi kerak.

- kommunikatsiya elektron vositalarining yosh fuqarolar orasida keng tarqalishini hisobga olgan holda migrantlar uchun mehnat bozoriga kirish, tahsil olish istiqbollari, qonunchilikni buzish uchun javobgarlik haqida batafsil, aniq va to'g'ri axborotni olishga mo'ljallangan bepul elektron ilovalar hamda chet tili, qabul qiluvchi mamlakatning tarixi va qonunchiligini mustaqil o'rganishda ixtisoslashgan elektron o'quv ilovalarni ishlab chiqish va joriy qilinishi⁷⁴.

Bizningcha, bugungi kunda yuqorida ko'rib chiqilgan Germaniya tajribasidan foydalangan holda O'zbekistonda migratsiya sohasida islohotlar olib borish,

⁷⁴ Хулосалар муаллиф томонидан мустақил шакллантирилган.

muvaffaqiyat qozongan va amalda qo'llanilgan tashabbuslar tajribasidan viloyatlar miqyosda foydalanish, mamlakat viloyatlarini mahalliy o'ziga xosliklarni hisobga olgan holda migrantlarning integratsiyalashuvi va moslashuvi bo'yicha loyihalar va dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, bu o'rinda Kanadaning reintegratsiya sohasidagi yondashuvini tahlil etish muhim ahamiyatga egadir. Kanada migrantlarning yuqori darajadagi immigratsion faolligi va ijtimoiy integratsiyalashuvi qo'llab-quvvalaydi, shu bilan birga o'z jamiyatining ijtimoiy birdamligiga bo'lgan xavf-xatarlarning oldini olishga harakat qiladi.

Ko'p yillar davomida Kanadaning integratsion modeli moslashuvchan bo'lib, doimiy ravishda o'zgarib turuvchi «migratsion landshaft» sharoitida ishlashini ta'minlaydi.

Kanadaning migratsion siyosati mehnat migrantlarini jamiyat va ijtimoiy hayotga jalb qilish, diskriminatsiyaga qarshi ilg'or qonunchilikni qabul qilish, Kanada jamiyatining migrantlarni qabul qilishga faol rag'batlantirish hisobiga tezkor va muvaffaqiyatli reintegratsiyasi uchun sharoitlarni yaratishda jahonda yetakchilik qilishga imkon beradi.

Kanadada migrantlar davlat va mahalliy moliyalashtirish hisobiga joylashish huquqiga ega. Markaziy hukumat va mahalliy hokimiyat organlari miqyosida madaniy xilma-xillikni qo'llab-quvvatlash siyosati nafaqat migrantlarni Kanada bilan o'z taqdirini bog'lashni rag'batlantiradi, balki fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga katta hissa qo'shishiga sabab bo'ladi.

Bundan tashqari, bunday yondashuv Kanada jamiyatiga migrantlar ehtiyojlarining o'ziga xosliklarini tushunish, to'g'ri va o'z vaqtida munosabat bildirishga yordam beradi.

Shu o'rinda, Kanada integratsion modelining quyidagi xususiyatlariga e'tibor berish maqsadga muvofiq:

- moslashtirish va integratsiyalash bo'yicha faoliyat. Ushbu faoliyatning negizida ham migrantlar, ham jamiyat tomonidan majburiyatlarni bir xil bajarishni ko'zda tutgan bir xillik tamoyili yotadi;

- jamiyat va migrantlar o'rtasida konstruktiv ishlash. Bunda birga yashash uchun qulay sharoitlarni yaratish maqsadida migrantlarni moslashtirish va integratsiyalash bo'yicha faoliyatni ta'minlash uchun maxsus diskriminatsiyaga qarshi qonunchilikni ishlab chiqish imkoniyati masalasi ko'rib chiqiladi;

- migrantlarni tayyorlash va xabardor qilish. Migrantlarga turli moslashtirish va integratsiyalashuv, bandligini ta'minlash xizmatlarini ko'rsatishda turli nodavlat tashkilotlarning davlat va xususiy hamkorlik imkoniyatlaridan foydalanish imkoniyati beriladi;

- migrantlarni moslashtirish va integratsiyalashda asosiy urg'u mehnat munosabatlarga faol jalb qilish. Bu Kanada tajribasida mahalliy jamiyatga tez va chuqur moslashish uchun samarali vosita hisoblanadi;

- migrantlar ko'p hududlarda ular bilan ishlashni tashkil qilish bo'yicha mahalliy organlar ishini yo'lga qo'yish;

- ijro hokimiyati markaziy organlari va mamlakat viloyatlarining sohalar bo'yicha ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda hokimiyat organlariga migrantlarni qabul qiluvchi jamiyatga moslashtirish va integratsiyalashuviga ko'maklashishga qaratilgan maqsadli dasturlarni o'z faoliyati doirasida ishlab chiqish va joriy qilish;

- migrantlarni muvaffaqiyatli moslashtirish va integratsiyalashga rag'batlantirish va ularga qulay sharoitlarni yaratish maqsadida o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi olish, shuningdek tegishli test sinovlarni o'tkazish bepul bo'lishi;

- migrantlarni keyinchalik ham tegishli dasturlar kurslardan foydalanish hisobiga o'z kasbiy mahoratini oshirish imkoniyati bo'lishi.

Ko'rib chiqilgan Kanadaning migratsion siyosati tajribasidan o'rinli foydalanish bugungi kunda O'zbekiston migratsiya sohasidagi ijobiy o'zgarishlar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda xalqaro migrantlarni o'ziga jalb qilayotgan xalqaro mehnat bozorlaridan yana biri bu Avstraliyadir.

Aholi turmush darajasi bo'yicha uchinchi o'rinda turuvchi iqtisodiy rivojlangan Avstraliya davlat ko'plab xalqaro migrantlarni jalb qiladi va bu borada xukumat tomonidan mamlakat aholisi sonini oshirish va mehnatga jalb qilish maqsadida maxsus

migratsiya dasturi ishlab chiqilgan. Uning asosiy yoʻnalishi migrantlarni jalb qilish va oilalarni birlashtirishdir. Ushbu dastur davlat tomonidan uzoq vaqtdan beri muvaffaqiyatli amalga oshirib kelinmoqda.

Har yili oʻrtacha 150 ming kishi Avstraliyaga doimiy yashash uchun kirib keladi. Statistik maʼlumotlarga koʻra, har toʻrtinchi avstraliyalik xorijda tugʻilgan boʻlib, mamlakatdagi jami migrant oilalarning 28 foizida ikkinchi avlod vakillari dunyoga kelgan. Kelajakda mamlakat aholisi soni aynan migrantlar evaziga koʻpayishi ham bashorat qilinmoqda.

Birgina 2018 yilning oʻzida Avstraliyaga uzoq muddatga tashrif buyurgan migrantlar soni 832 560 kishini tashkil etgan. Ushbu koʻrsatkich 2017 yilga nisbatan 7 foizga koʻpdir. 2019 yil maʼlumotlariga koʻra, Avstraliya biznes migrantlarni eng koʻp qabul qilgan mamlakatga aylangan. 2017-2018 yillarda Avstraliyaga uzoq muddatga kelgan ishchi kuchi migrantlari orasida hindistonliklar yetakchilik qiladi⁷⁵.

Avstraliyada fuqaro maqomini olish jarayoni murakkabligi tufayli, migratsiya masalalarini hal qilishni osonlashtiradigan vaqtinchalik vizalar, huquqiy va boshqa xizmatlar maxsus roʻyxatdan oʻtgan migratsiya agentlari tomonidan amalga oshiriladi.

Mavjud Avstraliya qonunchiligiga muvofiq, migratsiya agentliklariga sertifikatlash va tegishli MARA litsenziyasiga ⁷⁶ ega boʻlmasdan turib, agentlikka tegishli boʻlgan faoliyat bilan shugʻullanishga ruxsat etilmaydi. Litsenziya har yili yangilansada, har bir agentning roʻyxatga olish raqami oʻzgarmaydi.

Bunday roʻyxatning dastlabki ikki raqami – birinchi marta agentlik litsenziyasini olgan yilni anglatadi.

Shuning uchun tajribali agentni izlashda eng kichik sonni tanlash maqsadga muvofiq boʻladi.

Migratsiya agentligining faoliyat darajasi boʻyicha maʼlumotlarni onlayn tarzda tekshirilishi mumkinligi⁷⁷ migratsiya bilan bogʻliqdir.

Avstraliyaga kirib keluvchi asosiy yoʻnalishlar:

⁷⁵ Бизнес - иммиграция в Австралию 2019: факты, советы и статистика. <https://internationalwealth.info/residence-permit-abroad/business-immigration-to-australia-2019-facts-tips-and-statistics>.

⁷⁶ Особенности получения лицензии ЕМІ в Австралии <https://iqdecision.com/licenzija-emi-v-avstralii-kak-poluchit-licenziju-na-jelektronnye-dengi>.

⁷⁷ <https://selfmadetrip.com>.

- 1) malakali kadrlar xarakati
- 2) biznesning ko‘chishi
- 3) nikoh (kelin vizasi)
- 4) qochoqlar yoki muayyan gumanitar dastur doirasidagi ishlar

Avstraliya immigratsiya dasturlari: Mehnat, biznes, ta’lim, oila, qochoqlarni qabul qilishni o‘z ichiga oladi.

Avstraliya hududida viza dastur olishning quyidagi turlari mavjud.

1. Mustaqil ish vizasi. Ushbu dastur Avstraliyada ishlash va o‘qish, doimiy yashash uchun, oilani olib kelish va kelajakda mamlakat fuqarosi bo‘la olish imkoniyatini beradi.

2. Nominal ish vizasi. Ushbu dasturning birinchi dasturdan farqi Avstraliya hududlarida amal qiluvchi migrantlar bajarishi zarur bo‘lgan turli xil majburiyatlarni qabul qilish qoidasiga to‘g‘ri keladi.

3. Xududiy (vaqtinchalik) ish vizasi. Ushbu dastur Avstraliyada 4 yilgacha vaqtinchalik band bo‘lish imkonini beradi.

Avstraliyada immigratsiya dasturini odamlarga qulaylashtirish doirasida SkillSelect ⁷⁸ loyihasi faoliyat ko‘rsatadi. Loyihaning mohiyati mamlakatning ishchi kuchiga bo‘lgan o‘zgaruvchan ehtiyojiga qarab xorijdan yuqori malakali mutaxassislarni izlash va jalb etish ishlarini soddalashtirishdir. Bu muhojirlarga qisqa muddatda ishlash uchun kirish vizasini olish va Avstraliyaga doimiy yashash uchun moslashish imkoniyatidir.

Shuningdek, ma’lum kasbiy mahoratga ega bo‘lgan, ish tajribasi va ingliz tilini yaxshi biladigan kishilarni maxsus biznes dasturlari yordamida Avstraliyada immigratsiya qilish imkoniyati ham mavjud.

Bunday migrantlarga dastlab 4 yil muddatga vaqtinchalik viza beriladi va agar bu muddat davomida migrantning biznesi muvaffaqiyatli rivojlansa, ular doimiy yashash uchun davlat idoralariga murojaat qilishi mumkin.

⁷⁸ Особенности получения лицензии ЕМІ –МАРА в Австралии. [tps:// iqdecision.com](https://iqdecision.com).

Mintaqaviy biznes dasturlarini rivojlantirish orqali Avstraliya hukumati mamlakatning turli hududlarini, shu jumladan, kam rivojlangan hududlarni ham mutanosib tarzda rivojlantirishni rejalashtirgan.

Nikox bilan bog‘liq bo‘lgan va oilani bog‘lashga doir vizalarning quyidagi turlari mavjud.

1. Avstraliya fuqarosining umr yo‘ldoshi xorijlik fuqaro bo‘lsa, nikoh shartnomasi kamida 1 yil muddat o‘tgandan so‘ng kuchga kiradi;

2. Avstraliya fuqarosining bo‘lajak xotini yoki eri chet elda yashab turgan bo‘lsa, viza Avstraliyadan tashqaridagi shaxslarga beriladi.

3. Hamkorlik. Birgalikda faoliyat yuritib adolatli foyda ko‘rib kelayotgan Avstraliya fuqarosi bilan yaqin aloqada bo‘lgan xorijliklarga kamida 12 oy vaqtga beriladi.

4. Ota-onalarning mamlakatga kelib doimiy yashash vizasi Avstraliyada yashovchi shaxslarga beriladi.

5. Bolalar vizasi. Maktab yoshidagi farzandlarini Avstraliyada ta‘lim olish uchun oila a‘zolari yoki yaqin do‘stlari orasida Avstraliya fuqarosi bo‘lsa, 12 oygacha qit‘aga tashrif buyurish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Odatda oilaviy vizalar mamlakatda insonning ikki yil mobaynida uzluksiz istiqomat qilganidan keyingina Avstraliyada doimiy yashovchi maqomini olish imkonini beradi.

Avstraliya qochoqlarni himoya qilish Xalqaro tashkiloti Suriya va Iroqdan kirib keluvchilarni faol himoyalaydi. Mamlakatda jiddiy zo‘ravonlik yoki inson huquqlarining buzilishi holatlari bo‘lgan taqdirda, xorijlik fuqaro Avstraliyada qochqin maqomini olishi mumkin.

Shunga qaramay, migratsiya inqirozi oqibatida 2015-2017 yillarda bunday talabnomalar soni jami berilgan vizalar soniga nisbatan sezilarli darajada ko‘p ekanini ta‘kidlash joiz.

O‘zbekistonning xorij mamlakatlardagi vakilliklarini migratsiya masalalarini hal qilishda ko‘mak berish maqsadida rivojlantirish⁷⁹ muhim ahamiyatga ega.

⁷⁹ Исакулов Ш. Диверсификация направлений миграционных потоков//Халqaro munosabatlar. №1. 2013.64-с.

Kuzatish asosida olib borilgan tadqiqot natijalarining tahliliga ko‘ra shuni qayd etish mumkinki, migrantlar xarakteriga ishbilarmonlik va harakatchanlik xususiyati xosdir.

Shu sababli, migratsiya jamiyatdagi iqtisodiy taraqqiyot, madaniyatlar transformatsiyasi hamda millatlar assimilyatsiyasiga katta ta‘sir ko‘rsatadi⁸⁰.

Bunga J.Ochilovning «Global texnogen sivilizatsiyaning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari» nomli monografiyasida madaniy omillarning tarixiy merosga vorislik munosabati texnogen sivilizatsiya globallashtiruviga asos bo‘lgan:

1) ijtimoiy-ruhiy muhit;

2) retrospektiv asos;

3) intellektual imkoniyat; institutsional tizim kabi omillar va asoslar yordamida shakllanadi ⁸¹, degan fikrini migratsiya jarayonlarining integratsiyalashuvi ijtimoiy-madaniy omillarga ta‘sirini ko‘rsatadi va rivojlanishiga ham turtki bo‘ladi.

Mazkur muammolarni tahlil etish ikki taraflama yondoshuvni talab etadi.

Shuni alohida ta‘kidlash joizki, mehnat migrantlari qabul qiluvchi mamlakatda turli ijtimoiy o‘zgarishlarning ham yuz berishiga sabab bo‘ladi:

- turli ma‘naviy, diniy va madaniy qarashlarga ega bo‘lgan qatlamlarning shakllanishiga olib keladi;

- mamlakatda ruhiy holatning o‘zgarishiga va turli qo‘rquvlarning paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

Ekspertlarni fikriga ko‘ra mamlakatlar uchun mehnat migrantlari arzon ishchi kuchi vazifasini bajarishi bilan birga, aholini tez qarishi yuz berayotgan Germaniya va Avstraliya singari mamlakatlarda mehnat migrantlari aholi sonini oshirishning choralaridan biri hisoblanadi.

Germaniyada mehnat migrantlari arzon ishchi kuchi hisoblansada, migrantlarning nemis madaniyati va tiliga nisbatan munosabati nemis xalqi uchun muhim o‘rin egallaydi.

⁸⁰ Парманов Ф. Миграция мезони ва урбанизация. <http://www.adolatgzt.uz/society/5425>

⁸¹ Очиллов Ж. Глобал техноген цивилизациянинг шаклланиши ва ривожланиш bosqichlari. – Тошкент: Turon zamin ziyo”. 2017. 55 бет (159).

Shuningdek, boshqa rivojlangan mamlakatlardan farqli ravishda Germaniyada mehnat migrantlarini qo‘llab-quvvatlashning alohida ijtimoiy tizimi qo‘llaniladi.

Avstraliyada olib borilgan ko‘chib yurish omillarini tahlil qiladigan bo‘lsak, tashabbuskorlikka ega bo‘lgan va ta‘lim olish salohiyati yukori xorijliklar uchun mamlakat hukumati ko‘chib o‘tish va uni doimiy yashash sharoitlarini soddalashtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratdi.

Xalqaro mehnat migratsiya jarayonlarida ishtirokchilar sonining uzluksiz oshib borayotganligi davlatlarning iqtisodiy yuksalishi va xalqaro integratsiyalashuvi uchun qulay imkoniyat yaratdi.

O‘zbekistonda ishchi kuchi migratsiyasining ijtimoiy omillarga ta’siri hamda transformatsiyasini funksional vazifalari tahlil natijalari asosida qo‘yidagi chiqarilgan xulosalar:

birinchidan, bugungi kunda ishchi kuchi migratsiyasining globalizatsiya jarayonida dunyo manzarasi, xalqaro mehnat munosabatlari hamda inson resurslariga bo‘lgan extiyojlarini, korrelyatsion bog‘liqligi ta’sirini paradigmal mexanizmini kompleks tarzda yaratilishiga asos bo‘lishi mumkin;

ikkinchidan, jahon hamjamiyatining rivojlanish bosqichlari mehnat bozorida hamkorlik qilish uchun qonuniy asoslarini hamda migratsiya jarayonlarini erkinlashtirishi differensiallashgan muqobil xalqaro standartlarini joriy qilish muhim ahamiyatga ega;

uchinchidan, Jamiyat sotsial-iqtisodiy rivojlanishida jalb etilayotgan investitsiyalar asosida yangidan-yangi ishlab chiqarish (maishiy xizmat ko‘rsatish) sohalarni joriy etish bilan aholi soni ko‘payishi o‘rtasida nomutanosiblik mavjud.

turtinchidan, rivojlangan davlatlarda ham kam ta‘minlangan sotsial qatlamlari mavjud. Shuningdek, bu holat bo‘yicha taxminan aholimizning 12-15 foizni, hamda 4-5 millionlik vakillari haqida bormoqda ⁸² «Kambag‘allikni kamaytirish, hududlarda ish o‘rinlari tashkil etish bo‘yicha kompleks chora tadbirlarni amalga oshirish, kerak».

Migratsiyaning tobora o‘sib borish tendensiyasidan ularning soni kelajakda yanada ortishini prognoz qilish mumkin.

⁸² <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>

Kuzatish natijasida shuni qayd etish mumkinki, migrantlar uchun ishbilarmonlik va harakatchanlik xususiyati xos bo‘lib, migratsiya jamiyatdagi iqtisodiy rivojlanish, madaniyatlar transformatsiyasi va millatlar assimilyatsiyasiga (xalqlarning bir - biri bilan qo‘shilishiga) katta ta‘sir ko‘rsatadi⁸³.

Shu boisdan ham jahondagi iqtisodiy jihatdan rivojlangan Turkiya, Xitoy, Hindiston, Filippin, Yaponiya kabi mamlakatlarda XX asrning ikkinchi yarmidan migratsiyaga oid muammolarni sotsiologik jihatdan tadqiq etishga katta e‘tibor qaratildi. Bunday tadqiqotlar natijasida olingan xulosalarga tayangan mamlakatlarda ijobiy samaralarga erishildi.

Hozirgi paytda rivojlanib borayotgan boshqa davlatlarda ham mazkur tadqiqotlarni amalga oshirish kuzatilyabdi.

Tarixiy davrning o‘zgarishi, bir ijtimoiy tuzumning boshqasi bilan almashinuvi migratsiya jarayonlariga ta‘sir ko‘rsatadi.

Hozirgi, dunyodagi migratsiyaning ko‘lami, geografik xususiyati, transformatsiya va integratsiya bo‘yicha dinamik ko‘rsatkichlari, ijtimoiy-demografik tarkibi nuqtai nazaridan bir necha yillar avvalgi tendensiyadan farqlanadi.

Mamlakatlarda migratsiya ko‘lami tobora kengayib bormoqda. Birgina O‘zbekiston misolida shuni aytish mumkinki, mamlakatimiz fuqarolari migratsiyasi uzoq AQSh, Yevropa, Arab mamlakatlari (asosan, BAA, Misr, Bahrayn, Quvayt, Saudiya Arabistoni)ga, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari Janubiy Koreya, Tailand, Malayziya)ga hamda yaqin xorijiy davlatlar (Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi tarkibiga kiruvchi mamlakatlar)ga nisbatan amalga oshirilmoqda.

Migratsion jarayonlarni tahlil qilishda migratsiya bilan bog‘liq muhim muammolarni o‘rganish lozimdir.

Mazkur muammolarni tahlil etishga ikki taraflama yondoshish maqsadga muvofiqdir.

Birinchidan, migratsiya holatini keltirib chiqaradigan davlat va jamiyatdagi muammolar (kambag‘allik, ishsizlik, inson huquqlarining poymol qilinishi, kelajakka

⁸³ Парманов Ф. Миграция мезони ва урбанизация. <http://www.adolatgzt.uz/society/5425>

nisbatan ishonchsizlik va umidsizlikka tushish, turli xil nizolar, doimiy qo‘rquv) kabi muommolarning mavjudligi.

Ikkinchidan, migratsiya jarayoni yuzaga kelganidan so‘ng ro‘yobga chiqadigan muammolar (migrantlarning ekspluatatsiya qilinishi, huquqlarining poymol etilishi, yangi maskan bo‘lgan davlatdagi xalq turmush tarzi va madaniyatiga adaptatsiyalashish jarayonidagi qiyinchiliklar, tub aholining ishsiz qolishiga sabab bo‘ladigan migrantlarga nisbatan salbiy munosabatlar).

Shuni alohida ta’kidlash joizki, mehnat migrantlari qabul qiluvchi mamlakatda turli ijtimoiy o‘zgarishlarning ham yuz berishiga sabab bo‘ladi:

- turli ma’naviy, diniy va madaniy qarashlarga ega bo‘lgan qatlamlarning shakllanishiga olib keladi;
- mamlakatda ruhiy holatning o‘zgarishiga va turli qo‘rquvlarning paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

Birinchi bob bo‘yicha xulosalar:

«Ishchi kuchi migratsiyasi jarayonlarini o‘rganishning nazariy-metodologik jihatlarini» nomli 1- bob bo‘yicha quyidagilarga xulosalarga keldik:

Migratsiya – aholining, shu jumladan, ishchi kuchining bir hududdan ikkinchi hududga ko‘chib o‘tish harakati bo‘lib, uning miqyosi va sur’ati har bir xudud va mamlakatdagi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy vaziyat hamda mehnat bozori sig‘imi bilan bevosita bog‘liqdir. Migratsiya atamasining birinchi marta nazariy jihatdan izoxlanishi ingliz geografi Rovensteynga mansub bo‘lib, u XIX asrning oxirlarida «migratsiya qonunlari»ning zarurligi konsepsiyani taklif qilgan. Ishchi kuchi migratsiyasining, makonda xilma-xil tarzda ko‘chib yurish turlaridan ajratishning umumiy qabul qilingan mezonlari mavjud. Ammo bu jarayonning etno-madaniy o‘ziga xosligiga ilmiy e’tiborni kuchaytirish zarurdir. Mehnat migratsiyasiga millatning jamoaviylik tabiati ham kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Bu xususiyatlar bizga yashash yoki ish joyini o‘zgartirishga ham ta’sir ko‘rsatadi. Ularga doimiy yashash joyini o‘zgartirish, hududining majburiy chegaralarini kesib o‘tish, migrantning yangi yashash joyida uzoq muddat yoki doimiy turishi kiradi.

Mehnat migratsiyasi intensivligining asosiy motivlaridan biri, mehnatga yaroqli aholining yuqori ish haqi olish maqsadida o'zi yoki jamoasi uchun qulay sharoitli ish va yashash joyiga ega bo'lishidir.

Migratsiya jarayonlari individlarning bir sotsial guruh va qatlamdan boshqasiga o'tishi yoki bir sotsial tabaqa doirasida sotsial status, rol va dunyoqarashining o'zgarish tendensiyasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Dissertatsiyada sotsial mobillikni tushunchasini ijtimoiy guruhlarning va yaxlit jamiyatlar «ochiqligi» yoki «yopiqligi»ni ifodalash uchun ishlatib, bu jarayonni intrageneratsion (avlodlar o'rtasida) va ingeneratsion (avlodlar ichidagi) sotsial xarakatchanligiga qarab ajratib tadqiq etildi. Shuningdek, sotsial jarayon otadan o'g'liga o'tishini generatsion sotsial mobillik, sotsial holatning quyidan yuqoriga yoki yuqoridan pastga o'zgarishi bilan bog'liq ijtimoiy xolatlarni intrageneratsion sotsial mobillik tarzida tasnif etilib, tahlil qilindi.

Sotsial mobillikning ikki shakli mavjud bo'lib vertikal va gorizontal deb tasniflandi. Sotsial xarakatchanlikning empirik ko'rsatkichini aniqlashda mobil (harakatchan, tub o'zgarishlarga moyil) shaxslar va stabil (o'zgarishlarni xohlamaydigan, barqarorlikka moyil) shaxslar holatini to'g'ri belgilash imkonini berdi.

Dissertatsiyada mehnat migratsiyasiga ta'sir etuvchi omillarni ikki katta guruhga: iqtisodiy va noiqtisodiy omillarga ajratib tadqiq etildi.

Bunda iqtisodiy omillar mamlakatning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi; mehnat bozorining holati; iqtisodiyotning liberallashuvi darajasi; mamlakatdagi tovar va kapital harakatiga ko'ra, noiqtisodiy omillar siyosiy-huquqiy omillar; madaniy omillar; milliy omillar; diniy omillar; irqiy omillar; oilaviy munosabatlar rakursida tasniflanib, tadqiq etildi.

II-BOB. JAMIYATDA FAROVONLIKKA ERISHISH MEZONLARINI TADQIQ ETISHDA MEHNAT MIGRATSIYASINING O‘RNI

Hozirgi davr insoniyat tarixining burilish davrlaridan biridir. Davrning ushbu xususiyatini jahonda, xususan mamlakatimiz hayotida ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlarda yaqqol ko‘rish mumkin. Dunyoda va mamlakatimizda sodir bo‘layotgan hodisa - jarayonlarni tushunish, ularga to‘g‘ri munosabatni shakllantirish, ularni hozirgi kunning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib baholash, voqelikdan oqilona xulosa chiqarish, pirovard natijada olam va odamni anglash falsafa fani sohalaridan biri bo‘lgan ijtimoiy falsafa haqida chuqur bilimga ega bo‘lishi talab etadi. Ijtimoiy borliq haqida haqqoniy bilimga ega bo‘lish uchun, avvalo, “ijtimoiy falsafa” tushunchasining mohiyati va mazmuniga alohida ahamiyat berish lozim. Bu tushuncha ba’zan “jamiyat falsafasi”, “sotsial falsafa” “inson falsafasi” shaklida xam qo‘llaniladi. “Ijtimoiy falsafa” tushunchasi “ijtimoiylik”, “ijtimoiy xodisa” “ijtimoiy jarayon” tushunchalari bilan uzviy bog‘liqdir. Bu tushunchalar jamiyatdagi voqea va hodisalar jarayonlarini ifodalaydi.

2.1. Jamiyat farovonligi tushunchasi va uning o‘ziga xos ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning yangi bosqichi bugun xalqimizning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini tubdan yaxshilashda asosiy zamin bo‘lmoqda. Bugungi kunda bozor munosabatlari sharoitida aholining ish bilan bandligini ta‘minlash ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning bosh maqsadlaridan biri hisoblanadi. Chunki, ish bilan bandlik aholi daromadlari va turmush darajasini oshirishning eng muhim shartidir.

Respublikamizda bozor munosabatlari samarali tadbiq etish, aholini ish bilan ta‘minlash va bu orqali ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishish, eng avvalo, mavjud ishchi kuchi unumli foydalanishga bog‘liq.

Mehnatsevarlik o‘zbek xalqining eng ajoyib va go‘zal fazilatlaridan biridir. U qanday tuzumda yashamasin yaratishdan, mehnat qilib kun ko‘rinshdan, farzandlarini

ham yehnat qilishga o'rgatishdan to'xtamagan. Aholini mehnat migratsiyasi bozor iqtisodiyoti va jamiyatimiz farovonligi ta'minlanishini siyosatimiz talablariga mos ravishda yangi ko'rinishga ko'taradi va mehnatga yangi munosabatlarni shakllantiradi.

Jamiyatimiz sohalaridagi tarkibiy o'zgarishlarning migratsiya jarayonlarining rivojlanishiga ta'siri, Prezident Shavkat Mirziyoev taqdim etgan Yangi O'zbekistonning strategik ustuvor yo'nalishlari "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" da belgilab berilgan. Shuningdek, O'zbekistonda keyingi islohotlarning muhim va maqsadli vazifalarini aks ettiruvchi 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi loyihasida belgilab berilgan ustuvor yo'nalishlardan biri "**Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari**" tamoyili ilgari surilayotgani bejiz emas. Avvalo, Harakatlar strategiyasidagi har bir yo'nalishni taraqqiyotning yangi ko'rinishida mantiqiy asosda rivojlantirish hamda **jamiyat farovonligini yangi** ustuvor natijalarga erishish nazarda tutilmoqda.

Taraqqiyot strategiyasida ko'zda qonun ustuvorligini taminlash, konstitutsiyaviy islohotni hayotga izchil tatbiq etish, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, manaviyatni rivojlantirish, shuningdek, global muammolarga O'zbekistonning munosabati, xavfsizlik va tashqi siyosat borasidagi muhim vazifalar qamrab olingan bo'lib, mazkur yo'nalishda olib borilayotgan islohotlar xalqimizni rozi qilishga hamda Yangi O'zbekistonning xalqaro maydonda keng e'tirof etilishiga xizmat qilmoqda. Bu esa mamlakatda amalga oshirilayotgan yangi bosqichdagi islohotlar, olib borilayotgan pragmatik ichki va tashqi siyosatning qanchalik to'g'ri va samarali ekanidan dalolat beradi.

Shu o'rinda yurtboshimizning "bir hayotiy haqiqatni ta'kidlamoqchiman – bugun zamon har qachongidan ham tezlashdi. Farovonlik oshgani sayin aholimizning talab va ehtiyojlari ham ortib bormoqda"⁸⁴ degan tamoyil asosida xalqimiz hayotini tubdan yaxshilash bo'yicha olib borayotgan keng ko'lamli ijtimoiy islohotlarga guvoh bo'lamiz.

⁸⁴Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. 20.12.2022

Mamlakatimizda axoli ehtiyojlarini ortishi mexnat migratsiyasini jadal suratda ortishiga sabab bo'lmogda. Aholi migratsiyasi o'z navbatida jamiyatimiz iqtisodiyotiga va jamiyat farovonligiga sezilarli darajada xissa qo'shmoqda.

Hozirgi kunda mehnat migratsiyasini yangi ijtimoiy munosabatlarning tarkib topishi jarayonida ijtimoiy muhit falsafiy jihatdan tahlil qilish masalasi muhim ilmiy ahamiyatga egadir.

Xalqaro mexnat migratsiya jarayoni ishtirokchilarini tavsiflovchi asosiy tushunchalarni talqin qilishda, aholi harakatining mohiyati va rolini tushunishda yagona yondashuvning yo'qligi turli nazariyalarni har tomonlama ko'rib chiqish va ulardan eng aniq ilmiy nazariyalarni aniqlashni taqozo etadi.

Bizning fikrimizcha migratsiya jarayonini talqin qilishda jamiyatning barcha soxalari nuqtai nazardan ilmiy taxlil etilishi davomida migratsiya mustqail fan (migratsiologiya) sifatida shakillanishi barcha soxalar migratsiyani ijtimoiy iqtisodiy, siyoaiy, ma'naviy, demografik xususiyatlari talqin etib, ular xar tomonlama ilmiy taxlil qilinib tadqiqot natijalari, boshqa tarmoq soxalar o'rtasidagi aloqalarni ochib berishga xizmat qiladi.

Shu o'rinda, mexnat migratsiyasini asosiy yo'nalishlarini o'rganishda:

➤ A.I. Kuzminni ilmiy tasnifiga nazar solsak, migratsiyani yettita asosiy yondashuvini – demografik, sotsiologik, tarixiy, huquqiy, psixologik, falsafiy va iqtisodiy yo'nalishlarini kuzatishimiz mumkin. Unda asosan muhojirlarning yangi ijtimoiy, madaniy va etnik muhitga moslashishi bilan bog'liq muammolarga qaratilgan nazariyalar ilgari surilgan. Donor va ratsipiet mamlakatlarning axoli potensiali ko'p jihatdan migrantlar shaxslararo munosabatlarga, vatandoshlar jamoalarining mavjudligiga (diaspora), oilaviy va do'stlik rishtalariga, etnik guruhning migrant xalqining tarixiy an'analariga bog'liqligi yoritilgan.

➤ A.Sovi, A.Landrilar demografik xolatni taxlil qilib, migratsion jarayonni axoli populyatsiyalarini (umumiy axoli soni) ortishi bilan bog'liq muommolarni o'rgangan.

➤ Tarixiy yondashuv barcha davlatlar, mintaqalar va butun dunyoda migratsiya harakati tarixiga oid manbalar, shuningdek, mexnat migratsiyasi sohasidagi ilmiy

tadqiqotlarda migratsion xarakterning rivojlanish tarixiga oid nazariyalar D.S. Shelestov, V.M. Kabuzan, V.A. Ionsev kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

➤ Shu o'rinda O'rta Osiyo xalqlari tarixiga oid sarkarda Amir Timur boshqaruvida, aniqrog'i, 1342—1405 yillar orasida Temur davlatini barpo etish, qo'shni mamlakatlar va xalqlar bilan bo'lgan munosabatlar, savdogar va sayyohlarga aloxida e'tibor qaratilishi o'sha davrda shakillangan migratsiyaning barcha ko'rinishidagi xarakterlar Movarounnahrning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

➤ Psixolog V.I. Perevedentsev, T.I. Zaslavskaya, V.M. Moiseenkolar ilmiy yondashuvida migratsiyani xarakterlantiruvchi omillari bilan bir qatorda **Shaxs va guruh** o'rtasida sodir bo'ladigan munosabatlar, ularning xulq-atvorini o'rganishga urg'u berdi.

➤ V.I. Mukomel, E.S. Painlarning huquqiy yondashuvi turli toifadagi muhojirlarning huquqiy ximoyalanganligini aniqlashga qaratilgan. xalqaro va ichki huquq normalarini tayangan holda migrantlarning asosiy huquqlarini tartibga soluvchi huquqiy normalar, qonun hujjatlarini ishlab chiqish va har ikki tomon manfaatlarini himoya qiluvchi siyosatni amalga oshirish imkoniyatlarini ishlab chiqishga qaratilgan.

➤ Iqtisodiy yondashuv universal hisoblanib, ushbu yondashuv doirasida migratsiyani o'rgangan rossiyalik mutaxassislardan L.A. Abalkin, G.S. Vitkovskaya, J.A. Zaionchkovskaya, L.L. Rybakovskiy, A.V. Topilinlar xisoblanadi. Ularning ilmiy tadqiqotlarida migratsiya jamiyat ehtiyojlariga muvofiq mehnatga layoqatli aholining tartibga soluvchi omillaridan biri sifatida mehnat resurslarini ularning malaka darajasiga qarab qayta taqsimlash katalizatori, mehnat bozorida raqobatni oshirish va rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Biz, migratsiya harakatining qaysi turlari haqida so'z yuritmaylik, migratsion jarayonlarning baarchasida birlamchi ehtiyojlariga (tirikchilikka) bo'lgan iqtisodiy ehtiyoj bilan uzviy bog'liqligi ifodalani, ya'ni iqtisod migratsiyasi birinchi navbatda mehnat migratsiyasini tashkil etadi. Mehnat migratsiyasi jarayoning mehnat bozorida taqsimlanadi.

Taraqqiyotning hozirgi bosqichida iqtisodiyotning oldida turgan dolzarb muammolardan biri mehnat bozorini shakllantirish va samarali rivojlantirishdir.

Tadqiqotchi V.A.Pavlenkovning fikricha, bozor iqtisodiyotida mehnat bozori yollanib ishlashga loyiq kishilarning barchasini: ham yollanma mehnat bilan band bo'lganlar, ham band bo'lmaganlarni qamrab oladi. Ba'zi bir tadqiqotchilar mehnat bozorini ish haqi va daromadlarning erkin harakati orqali mehnatga talabni va ishchi kuchi taklifini o'zini-o'zi tartibga soluvchi mexanizm sifatida talqin qiladilar.

Jamiyat farovonligining o'ziga xos jihati shundaki, mamlakatdagi islohotlarning navbatdagi bosqichlaridan biri iqtisodiyotni rivojlantirish; iqtisodiyotni tiklash va yangi ish o'rinlari yaratishning mustahkam poydevori sifatida mahalliy xomashyo asosida mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirishga qaratilgan. Mamlakatda jamiyatning hozirgi rivojlanishi ishchi kuchining iqtisodiyot tarmoqlari va jamiyat bo'yicha taqsimlanishi bilan tavsiflanadi, bu esa mehnat resurslarining davomiy taqsimlanishiga olib keladi.

Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, 2000 yilda aholi orasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida ish bilan band bo'lganlar soni 4,5 million kishidan ko'prog'ini tashkil etgan bo'lsa, 2010 va 2021 yillarda esa bu ko'rsatkich 8,6 va 10,6 million kishini tashkil etdi. 2000 yilga nisbatan ushbu sohada band bo'lganlar soni 6,1 million kishiga, ya'ni 2,35⁸⁵ marotaba ortdi. Mamlakat iqtisodiyotida band bo'lganlarning umumiy sonida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 2020 yilda 73,8 foizni tashkil etdi, 2000 yilda esa bu ko'rsatkich 49,7 foiz band bo'lganlarni tashkil qilardi.

Jamiyatimizni farovonligiga ulkan xissa qo'shgan qurilish sohasida 2020 yil oxirida 71 foizni (2000 yilda esa 38,4 foiz), sanoatda 25,8 foizni (2000 yil - 12,9 foiz) tashkil etdi. Bunda ishchi kuchiga bo'lgan potensialni ortishi natijasida ichki migratsiya xarakati ortishi bandlikning yuqori darajada ta'minladi. Ushbu faoliyatining barqarorligi hozirgi va kelajakda tashqi mehnat migratsiyasini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin.

Jamiyatimizda mehnat migratsiyasi jaddalik bilan ortib borishini sabablaridan biri aholi zichligi xisoblanadi. 2022 yil chorak holatiga ko'ra, O'zbekistonda doimiy aholi soni 35,4 mln kishini tashkil etib, 2021 yilga nisbatan 738,3 ming kishiga yoki 2,1

⁸⁵ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi, <https://stat.uz/ru/ofitsialnaya-statistika/small-business-and-entrepreneurship> Davlat statistika qo'mitasining statistik ma'lumotlari

foizga o‘sdi⁸⁶. 2023 yil xolatiga ko‘ra mamlakatimizda doimiy aholi soni 36,372,276⁸⁷ tashkil qilmoqda.

Mamlakatimizda aholi zichligi — har kv. km.ga 78,9 nafar kishiga teng. Bu 2021 yilning 2022 yilning yakuniga (77,3 kishi) nisbatan 1,6 kishiga ko‘pdir. Hududlar kesimida taxlil qilsak; (2.2. tablitsa)

2.2. tablitsa⁸⁸

2022 yilda xududlar kesimi bo‘yicha aholini zichligi ko‘rsatkichi

| № | Xududlar | har kv. km.ga |
|----|----------------------|---------------|
| 1 | Toshkent shahrida | 6428,2 |
| 2 | Andijon viloyatida | 760,1 |
| 3 | Farg‘ona viloyatida | 578,9, |
| 4 | Namangan viloyatida | 395,8 |
| 5 | Samarqand viloyatida | 241,5 |
| 6 | Navoiy viloyatida | 9,3 |
| 7 | Qoraqalpog‘istonda | 11,7 |
| 8 | Buxoro viloyatida | 49,3 |
| 9 | Jizzax viloyatida | 68,4 |
| 10 | Qashqadaryoda | 119,8 |

** Jadval muallif tomonidan ishlab chiqilgan*

Demak, aholining eng yuqori zichligi Toshkent shahrida har kv. km.ga 6428,2 nafarni tashkil etadi. Eng past ko‘rsatkichlar Navoiy viloyatida — 9,3 kishida qayd etilgan.

2022 yilning boshida aholi soni 35,27 mln kishini tashkil etgan bo‘lsa, ikkinchi yarmida 130 mingga bordi. Aynan, shaharda aholi soni 18,02 mln kishini (jami aholining 50,9 foizi), qishloq aholisi esa 17,4 mln kishini (49,1 foiz) tashkil qildi. Mamlakatimizning zamonaviy taraqqiyoti, jadal suratlarda sanot markazlarini rivojlanishi natijasida qishloq aholisining migratsiyasi yangi ishchi kuchiga bo‘lgan talabni ortishiga olib keldi.

Shu o‘rinda, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatining bir qator tumanlaridan mamlakatimiz poytaxti Toshkent shaxri va Toshkent viloyatlariga sezilarli

⁸⁶ <https://www.gazeta.uz/uz/2022/05/06/population/>

⁸⁷ Ўзбекистон республикаси давлат статистика қўмитаси маълумоти.2023й. <https://stat.uz/uz/>

⁸⁸ <https://www.gazeta.uz/uz/2022/05/06/population/>

darajada aholi oqimi kirib keladi, bu esa ichki migratsiyani shakillantiradi va jamiyat iqtisodiy ijtimoiy sohasini rivojlanishiga olib keladi.

Shuni aloxida takidlash kerakki, respublikamizda 70-80 ming nafar yoshlar oliy o'quv yurtini tamomlamogda, lekin mutaxassisligi bo'yicha ish o'rinlarni yetarli emasligi, nisbatan ish xaqqini pastligi, mehnat bozorini torligi oliy ma'lumotli yoshlarni xorijiy mamlakatlarda ish izlashiga sabab bo'ladi. Mashxur iqtisodchi, ham faylasuf tadqiqotchi Adam Smit "Mehnatsevarlik har qanday insoniy xususiyatlarda bo'lganidek, rag'batning miqdoriga qarab o'sib boradi. Shu bois, yuqori ish haqi berish orqali biz hamisha tashabbuskor, tirishqoq, fahm-farosatli kishilarni istaganimizcha topa olamiz. Past ish haqi bilan esa bunga erishib bo'lmaydi»⁸⁹, — deydi olim.

Darhaqiqat, olimning fikrlariga isbot tariqasida bugun barcha mamlakatlarda kuzatilayotgandek bizning davlatimizda ham oliy ma'lumotga ega bo'lgan shifokor va muhandislar, dasturchi hamda texnologlar chet mamlakatda mehnat migratsiyasini amalga oshirishi, intellekt ko'chishi «brain drain») jarayonlariga ⁹⁰, ya'ni mamlakat ziyolilarining muxojirlikka ketishiga sabab bo'lmoqda. Misol uchun, Yevropa yoki Amerika Qo'shma Shtatlarida axborot texnologiyalari sohasida dasturchining o'rtacha maoshi taxminan 6-10 mingdan ortiqni tashkil qilsa, Rossiyada bunday mutaxassisning oylik maoshi taxminan 1,5-2 ming dollarga boradi.

Respublikada keng ko'lamli investitsiya siyosati olib borilmoqda. Iqtisodiyot tarmoqlarni modernizatsiya qilish, jalb qilingan investitsiyalarning samaradorligini oshirish yo'lga qo'yilmoqda. Jumladan, tashqi (xorijiy kreditlar, migrantlar o'z oilalariga yuborgan mablag'lar va boshqalar) va ichki **mablag'** (axolining shaxsiy mablag'lari, tijorat banklari kreditlari, xususiy tadbirkorlik va boshqalar) hisobidan mamlakat yalpi ichki mahsulotida investitsiyalar ulushining ortishi kuzatilmoqda. Investitsiyalar ulushi 2020-yil natijalariga ko'ra mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi 37 foizga yetdi va dinamik o'sish tendentsiyasi kuzatildi⁹¹, bu ko'rsatkich o'z navbatida jamiyatimizni turli sohalari rivojiga katta xissa qo'shmoqda.


⁸⁹ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/falsafa/adam-smitning-korinmas-qoli/>

⁹⁰ https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/migration/uz/un_uzb_Labour_Migration_in_Uzbekistan_rus.pdf

⁹¹ Shavkat Mirziyoyev: yalpi ichki mahsulotdagi investitsiyalar ulushi 37 foizga yetdi. <https://review.uz/post/savkat-mirzиеev-dola-investicij-v-vvp-dostigla-37>

Dissertant O‘zbekistondagi bandlik darajasi, tashqi va ichki mehnat migratsiyasi jarayonlariga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim ijtimoiy-iqtisodiy omillarni tizimlashtirgan. Jamiyatimiz farovonligini ta’minlanishida mehnat migratsiyasi xarakatchanligini ko‘tarilishi va pasayishiga ta’sir etuvchi omillar tahlili o‘tkazildi.

2.1. Jadval



**Jadval muallif tomonidan ishlab chiqilgan*

“2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi”ning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mamlakatda bandlik va ishsizlik darajasini sezilarli darajada pasayishi, farovonlik darajasini oshirishi, tashqi mehnat migratsiyasini kamayishiga erishish kutilmoqda.

Mamlakatlarda migratsiya jarayonlarining rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilish natijasida quyidagicha xulosalarga kelish mumkin:

-2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi loyihasida belgilab berilgan ustuvor yo‘nalishlardan biri **“Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari”** tamoyilidagi iqtisodiy o‘zgarishlar, yangi ish o‘rinlarni yaratish, yoshlar bandligini ta‘minlash, aholi farovonligini oshirish, mehnat migratsiyasini tartibga solish orqali xarakatni kamayishiga imkon berdi;

- O‘zbekiston bilan tashqi mexnat migratsiyasi bo‘yicha ishonchli hamkorlik qilayotgan mamlakatlar bilan yanada mustaxkam aloqalrni yo‘lga qo‘yilishi talab etiladi. Shu o‘rinda, xukumatimiz tomonidan chet eldagi mehnat muhojirlarimiz huquqlarini himoya qilishni takomillashtirish;

- O‘zbekiston global migratsiya jarayonlari faol ishtirokchisi xisoblanadi. Shuni kuzatishimiz mumkinki, oxirgi 30 yil ichida O‘zbekistonni doimiy yashash uchun tark etgan axoli soni 1,67 million kishini tashkil etadi

O‘zbekistondan mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish, qonuniy migratsiyaning aniq va qulay mexanizmlarini yaratish orqali aholini noqonuniy migratsiyadan saqlashga, mamlakatda emigratsiya hajmini kamaytirishga imkon beradi;

- Tadqiqotda migratsiya xarakatini ijobiy va salbiy jixatlari yoritilgan. Mamlakatda migratsiyani salbiy oqibatlarini, jumladan “aqlning ko‘chishi”, migrant bollarini psixologik xolati, ayrim oilalar er ko‘p yillar uzoqda yashaganligi oqibatida ajrimlarni ko‘payishi kabi xafni kamaytirish va ijobiy ta’sirlarni maksimal darajada oshirishga qaratilgan chora tadbirlarni kuchaytirish lozim;

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, mamlakatdagi mexnat migratsiyasi jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari va tendentsiyalari, ularning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatiga ta’siri va uning oqibatida yuzaga keladigan ijobiy va salbiy xolatlar har tomonlama tizimli ilmiy tahlilni talab qiladi. Muallifning fikricha, jamiyatimiz istiqboli uchun mexnat migratsiyasini davlat tomonidan tartibga solinishi, mamlakatning demografik rivojlanishi, mutaxasislarni yo‘qotish, pul aylanmasini oshirish, migrant bolalari psixologiyasidagi o‘zgarishlarni o‘rganish kabi ko‘plam masalalar bugungi kunning dolzarb muommolaridan xisoblanadi.

2.2. Jamiyat farovonligini ta‘minlashda mehnat migratsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati

Bugungi kunda mehnat migratsiyasi mamlakat aholisi uchun quyidagicha ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishga olib keladi. Asosan, ishchi kuchini yoshartirishga, qishloq

xo'jaligi, qurilish va shaxsiy xizmat ko'rsatish kabi ko'p mehnat talab qiladigan tarmoqlarni qo'llab-quvvatlashga, tadbirkorlikni rag'batlantirishga, ijtimoiy himoya tarmoqlarini qo'llab-quvvatlashga va ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojni qondirishga yordam beradi.

Shu o'rinda, mehnat muxojirlarini o'z oilalariga yuborgan pullari, investitsiya shaklida, yangi texnologiya va ko'nikmalarga ega bo'lib xorijdagi vatandoshlar jamoalari (diaspora) oldidan o'z mamlakatiga qaytgan migrantlardan jamiyat aholisi har tomonlama katta foyda ko'radi.

Bugungi kunda, davlatning olib borayotgan migratsion siyosatida umuminsoniy va milliy, axloqiy qadriyatlar, insonparvarlik, millatparvarlik, vatanparvarlik, xalqlararo hamjihatlik, bag'rikenglik kabi axloqiy tamoyillariga asoslanganligiga guvohmiz. Aynan, respublikamizning mehnat muhojirlari va migratsiya bilan bog'liq qonunchilik tizimida ham millatparvarlik, vatanparvarlik kabi axloqiy prinsiplar asosida shakllantirilganligi bejiz emas.

Butun dunyo xamjamiyatida odamlarning chet mamlakatga ishlash uchun xakatlanishi aholining katta ulushini tashkil qiladi. Bunda O'zbekiston respublikasi fuqarolari ham faol xalqaro mehnat bozori ishtirokchisiga aylandi. 2023 yilning chorak ma'lumotiga ko'ra ⁹² mehnat migratsiyasini asosan 20% ni respublikada mehnatga layoqatli aholi tashkil qiladi.

Xalqaro mehnat migratsiyasining asosiy omillari mamlakatda daromat olishning imkoniyatlarining tengsizligi, ba'zi mamlakatlarda ortiqcha ishchi kuchini mavjudligi mehnat muhojirlarini o'ziga jalb etishi bilan birga, qabul qiluvchi mamlakatlarda ularning mehnatiga arzon haq to'lanishi kabi imkoniyatlarni beradi. Shu o'rinda, donor mamlakatlar uchun mehnat bozoridagi demografik ko'rsatkichni kamayishi kabi xolatlar bilan belgilanadi. Ko'plab davlatlar kabi aholini samarali ish bilan ta'minlash muammosi va ratsipient mamlakatga nisbatan ish xaqqi maoshining nisbatan kamligi muammosi O'zbekiston aholisining ham tashqi mehnat migratsiyasi xarakatining tezlashishi mamlakat aholisining iqtisodiy motivi bo'lib xizmat qiladi.

⁹² Открытые данные в соответствии с законодательными актами о бюджете // Агентстве по внешней трудовой миграции при Министерстве занятости и трудовых отношений Республики Узбекистан : [сайт]. URL: <http://www.migration.uz/post/view/33> (дата обращения: 31.03.2023).

O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2023 yilning birinchi choragi ma’lumotiga ko‘ra respublikada tashqi mehnat migratsiyasi 3-4 million kishini tashkil etib, bu ko‘rsatkich pandemiya boshida 2,6 million kishini tashkil yetgan yedi. Mehnat migratsiyasining asosiy hamkorlari Rossiya – 71%, Qozog‘iston – 12%, Janubiy Koreya – 4%, Turkiya – 3%⁹³ mamlakatlari sanaladi. Shuningdek, Isroil, AQSh, BAA va Yaponiya mamlakatida ham o‘zbekistonlik mehnat muxojirlari mavjud.

Mehnat migrantlarining asosiy ko‘rsatchiki Rossiya davlatiga to‘g‘ri kelmoqda. Bunga asosiy sababi russ madaniyati, tili, urf odati nisbatan bizning millatga yaqinligi, o‘rta yoshni tashkil qilgan har bir mehnat muxojirining bolalik yillaridan russ xalqini ma’naviy qarashlari ularga tanishligi, hamda uzoq muddatli davlatlararo aloqalar mavjudligi bilan izohlanadi.


Biz tadqiqotimizda Rossiya davlatida mehnat muxojirlarining asosiy ish faoliyati yo‘nalishini sotsiologik tadqiqotlar orqali aniqladik. Unga ko‘ra migrantlarning katta qismi 48,2 foizni qurilish sohasi amalga oshiradi, shuningdek sanoat sohasi 15,3%, savdo sotiqa esa 5,4%, transport sohada 8,2%ni tashkil qilsa, 8,3% umumiy ovqatlanish, xizmat ko‘rsatish sohasi 9,8%, qishloq xo‘jaligi 4,4% va boshqa sohalar 1,3%ni tashkil qildi.

Hayotning eng muhim jihatlaridan biri insoning yahshi yashash omillaridan biri sifatida yuqori ish xaqqi insonni o‘zi yashab turgan hududda mehnat faoliyatini olib borishida muhim mativatsiya funksiyasini bajaradi. Shuning uchun ham respondentlarning 65,7 foizi migrantlarning yashash hududida ish haqining nisbatan past ekanligini ta’kidlab, bu omil chet elga ish izlab ketishga turtki bo‘lmayotgan jihatlardan ekanini aytishdi.

2.2.1. Diagramma.

⁹³ Агентстве по внешней трудовой миграции при Министерстве занятости и трудовых отношений Республики Узбекистан : [сайт]. URL: <http://www.migration.uz/post/view/33> (дата обращения: 31.03.2023).

Rossiya davlatida pul topish maqsadida qaysi sohada mehnat faoliyatingizni olib borgansiz?



**Tadqiqot Rossiya davlatida mehnat muxojirlarining asosiy ish faoliyati yo'nalishini aniqlash maqsadida muallif tomonidan olib borildi.*

Yuqoridagi diagrammada Rossiya mamlakatida mehnat muxojirlarining asosiy ish faoliyati qurilish sohasida ekani ko'rinib turibdi. Shuningdek, olingan rasmiy ma'lumotlarga ko'ra ularning ish haqqi, ya'ni Rossiyadagi migrantlar oyiga o'rtacha 47,1 ming rubl (taxminan 640 dollar) maosh oladi. Eng yuqori daromadga qurilish va ta'mirlash sohasida ishlayotgan muhojirlar 54 ming rublga ega bo'lishmoqda, undan keyin transport, omborlarda ishlaydigan migrantlar - 52 ming rubl maosh olishsa, eng past maosh esa uy-joy, kommunal va qishloq xo'jaligida ishlaydigan migrantlar 40,1 yoki 36,8 ming rublni tashkil etadi⁹⁴.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda 2023 yilning yanvar-iyun oylarida o'rtacha oylik ish haqi 4,3 mln so'm⁹⁵, 250 AQSh dollarni tashkil etgan. Bu yesa ish beruvchi, mehnat muhojirlarini qabul qiluvchi davlat daromaddan sezilarli darajada kamdir. 2021 yilda Rossiyada qonuniy ishlayotgan O'zbekistonlik mehnat migrantlarining o'rtacha ish haqqi 640 AQSh dollariga teng bo'lgan^{96, 97}.

⁹⁴ Россияда мигрантларнинг ўртача маоши – 47,1 минг рубл // Газета.uz : [сайт]. 15.12.2021. URL: <https://www.gazeta.uz/ru/2021/12/15/migrants/> (дата обращения: 31.03.2023).

⁹⁵ <https://www.gazeta.uz/uz/2023/08/02/salary/>

⁹⁶ Средняя зарплата мигранта в России – 47,1 тысячи рублей // Газета.uz : [сайт]. 15.12.2021. URL: <https://www.gazeta.uz/ru/2021/12/15/migrants/> (дата обращения: 31.03.2023).

Mehnat muhojirlarining daromadlari ularning oilalarining turmush darajasini yaxshilashga yordam beradi. Hattoki oiladan bir kishi mehnat muxojiri bo'lsa ham ularning oilaviy holatini yaxshilanishiga yordam beradi.

Olingan sotsiologik so'rov natijalariga ko'ra, 2020 yilda migrantlarning o'rtacha ish xaqqi 710 AQSh dollar bo'lsa, 2022 yilga kelib esa ko'tarilish 763 AQSh dollarni tashkil etdi. 1000 QASh dollar va undan ortiq maosh oladigan muxojirlar esa 15,3 foizni tashkil qildi.

Zamonaviy mehnat migratsiyasining asosiy xususiyatlaridan biri bandlikning qonuniy shakillanishi hisoblanadi. Mehnat migrantlarning 71 foizi qonuniy (legal) ish bilan band hisoblanib, 29 foizi esa noqonuniy (nolegal) tarzida faoliyat yuritmoqda. Garchi nolegal ishchilarning jamiyatda huquqiy maqomning yo'q bo'lsa ham, uning ish haqqiga umuman ta'sir etmaydi, lekin yashash va ish joyida xatarlar legal ishchilarga nisbatan sezilarli darajada bilintiradi. Har qanday holatda ham, mehnat migratsiyasi har ikki mamlakatlar, qabul qiluvchi va yuboruvchi mamlakatlar uchun o'ziga hos ijobiy natijalarni beradi. Donor mamlakat aholisining tajribalari migrantlarga yangi ko'nikmalar, yangi bilimga ega bo'lish imkonini beradi. Shu o'rinda, mehnat migratsiyasi orqali ko'plab oilalar farovonligini yaxshilanadi, o'z biznesiga yo'lga qo'yadi, ular kelajakda o'z vatanlariga foyda keltiradigan tajriba va bilim, ko'nikmalarga ega bo'ladilar, hamda oilasiga farovon hayot va farzandlariga sifatli ta'lim olishga imkon beradi. Asosiy jihati shundaki, mehnat migratsiyasi ayollar o'z shaxsiy mablag'iga (sarmoyasiga) ega bo'lishi bilan birga, o'ziga bo'lgan ishonchini ham ortiradi. Shu bilan birga o'z juftini topa olmagan yolg'iz ayol va erkaklar oila qurish kabi holatlari ham kuzatiladi.

Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi hukumati mehnat migratsiyasi muammolariga katta e'tibor qaratib, migratsiya siyosatida davlatlararo munosabatlarni mustahkamlash uchun olib borilgan harakatlar sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatilib, bular, mamlakatlar o'rtasidagi do'stona hamkorlik, mehnat migrantlari va ularning oila a'zolarining ijtimoiy xuquqiy himoyasini ta'minlashga qaratilgan harakatlar, kasbi va malakasiga ko'ra munosib ishni taklif yetilishi kabi holatlar kuzatilmoqda.

⁹⁷ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga// Газета.uz : [сайт]. 08.02.2023//<https://www.gazeta.uz/uz/2023/08/02/salary>.

Respublikamizda Rossiya, Janubiy Koreya, Turkiya va g'arb davlatlari bilan mustaxkam hamkorliklar o'rnatilib buning natijasida mehnat migrantlarini turli ishonchli usullar orqali ishga yuborilmoqda.

Olib borilgan empirik sotsiologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Mehnat bozorini o'rganish instituti tomonidan 2022-yilda o'tkazilgan sotsiologik so'rov natijalaridan ma'lum bo'lishicha, respublikada migratsiyaning yangi tendensiyasi aniqlandi. Sotsiologik tadqiqot Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shaxrining 52 ta tumanlarida, tadqiqotning tanlanma usuli orqali 2500 kishidan o'tkazildi. Bu yesa tanlangan xududlarning umumiy aholi soni va uy xo'jaliklarning 0,3% ni tashkil etdi⁹⁸.

Shu o'rinda bizning tadqiqotimiz Respublikamizning voaha xududi, vodiy shaxar tumanlari va poytaxtimiz Toshkent shaxrida sotsiologik tadqiqotning anketa so'rov orqali tanlanma usulidan foydalanilgan holda quyidagi maqsadlarda amalga oshirildi:

- mehnat migratsiyasining keltirib chiqaruvchi asosiy omillari va sabablarini o'rganish;
- mehnat migrantlarini jalb yeuvchi mamlakatlarni aniqlash;
- mehnat migratsiyasini turlarini aniqlash;
- mehnat muxojirlarining qabul qiluvchi mamlakat taqdim qilayotgan sharoitlarni o'rganish;
- respublikada mehnat migratsiyasi bo'yicha ma'lumotlar bazasini tayyorlash;
- mehnat migrantlarini, ayniqsa, yoshlarni xorijda ishlashga sabab bo'layotgan omillarni aniqlash;
- mehnat migrantlari orasida ayollar migratsiyasini mamlakat uchun salbiy tomonlarini ochib berish;
- yoshlarning o'z hududida mehnat faoliyatini amalga oshirishiga to'sqinlik qilayotgan asosiy muammo va kamchiliklarni aniqlash;
- mehnat migratsiyasini tartibga solish bo'yicha tavsiyalar tayyorlashdan iborat.

⁹⁸ <http://www.migration.uz/post/view>

Shu o‘rinda, ushbu bobda mehnat muhojirlari sotsiologiktadqiqotning ob’ekti sifatida tanlanib, mehnat muhojirlari o‘rtasida individual so‘rov O‘zbekiston aholisi mehnat migratsiyasining asosiy xususiyatlarini batafsilroq aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot ishimizdagi respondentlarning milliy tarkibini yetnik o‘zbeklardan iborat bo‘lib, mehnat migrantlarning 84,5 foizini yerkaklar, 15,5 foizini ayollar tashkil yetdi. Ayol migrantlarining ko‘pchiligi turmushga chiqqanlar, ozrog‘ qismi turmushdan ajragan ayollardan iborat bo‘ldi. Shuningdek, so‘rovda qatnashganlarning 18-30 yoshdagi fuqarolar 40,4 foizni, 31 yosh va undan kattalar – 59,6 foizni tashkil yetdi. Mehnat migrantlarining 0,2 foizini 19 yoshdan kichik bo‘lgan fuqarolar tashkil yetib, bu ko‘rsatkichning nisbatan kichik ulushi hozirda xukumatimiz tomonidan olib borilayotgan siyosat bilan bog‘liqdir. O‘zbekiston Respublikasida 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi ⁹⁹, hamda “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi¹⁰⁰ “Aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish”¹⁰¹, “Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish”¹⁰² masalalariga alohida ye’tibor qaratilib, ushbu qarorlardan kelib chiqib hududlarda yangi ish o‘rinlarini yaratish, yeng avvalo respublika yoshlari bandligini ta’minlash, mehnat bozori mutanosibligini va infratuzilmasi rivojlanishini ta’minlash choralari, aholining ishsizlik darajasini kamaytirish, mehnatga layoqatli aholining asosan yoshlarning mehnat va tadbirkorlik faolligini kuchaytirish uchun kerakli sharoitlarni yaratish, ish bilan band bo‘lmagan ma’lumoti yo‘q aholini kasbga tayyorlash, mehnat sifatini oshirish uchun yegallagan kasblarini malakasini oshirish tizimini kengaytirish masalalarini hal etish ko‘zda tutilgan.

Shu o‘rinda. rivojlangan mamlakatlar bilan olib borilgan halqaro shartnomalar mehnat migrantlarini xuquqiy tomonlaman ximoya qilib, mehnat yoshiga yetmagan yoshlarni mehnatga jalb etish kabi holatlarni oldini olishga izmat qiladi. Bunga misol

⁹⁹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли фармони-www.lex.uz

¹⁰⁰ <https://president.uz/uz/pages/view/strategy.menu>

¹⁰¹ Ўзбекистон Республикаси “Аҳоли бандлиги тўғрисида”ги ЎРҚ-642-сонли Қонуни / Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 20.10.2020 й., 03/20/642/1396-сон - <https://lex.uz/docs/5055690>

¹⁰² Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатини 2025 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида/ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 18.01.2021 йилдаги 23-сон қарори.

tariqasida, 2022 yilda Amerika Qo‘shma Shtatlari Xalqaro Taraqqiyot Agentligi (USAID) Xalq ta’limi departamenti bilan hamkorlikda O‘zbekistonda 5 yillik 10 million dollarlik yoshlarni ish bilan ta’minlash ko‘nikmalari (Youth Employment Skills, YeS) dasturini rasman boshladi. Ushbu dasturga ko‘ra, 8-11-sinf o‘quvchilariga malakali mutaxassislar va tadbirkorlar tomonidan iqtisodiy savodxonligini oshirish va tadbirkorlik faoliyatini o‘rganishga qaratilgan zarur ko‘nikmalarni o‘rgatish orqali ularni ishga joylashtirishga tayyorligi va salohiyatini oshirishga qaratilgan bilim va amaliy tajribalarni o‘rgatdi¹⁰³

Shu o‘rinda zamonaviy migratsiya - murakkab, har tomonlama, o‘zgaruvchan jarayon hisoblanadi. Biz mehnat migratsiyasining iqtisodiy, moddiy daromadi bilan birga mehnat muxojirlarini ahloqiy etikasidagi o‘zgarishlarni, «migratsiya axloki» tushunchalarini ham tahlil qilish muhim vazifa sanaladi. Jarayonning barcha ahloqiy qoidalari, me’yorlari, tamoyillarini mujassamlashtirgan migratsiya ahloqi turli omillar ta’sirida transformatsiyasini kuzatishimiz mumkin.

Bu esa o‘z navbatida «migratsiya axloki» tushunchasini tahlil qilishga asos bo‘ladi. Ushbu tushunchani paydo bo‘lishi, migratsion jarayonlarni axlokiy jihatida, muhojirlarning xatti-xarakatlari yondashuvi tufayli vujudga keladi va ijtimoiy ongda o‘zgarishlarni axlok spektridan o‘tkazib, migratsiya jarayonlarining axlokiy motivlari va axlokiy oqibatlarini o‘rganadi.

Shu o‘rinda, shaxslarning bir joydan ikkinchi joyga har qanday maqsadda ko‘chib o‘tishi bilan bog‘liq barcha ahloqiy munosabatlarini unda odamga hos ahloqiy fazilati, xarakter xususiyati, turli mamlakatlarning aholi migratsiyasi bilan bog‘liq jarayonlari va albatta siyosiy qarashlardagi holatlardan biri muhojirlarning ahloqiy tamoyillarni tartibga soluvchi qarorlar, xulq atvordagi normalari va mezonlarining umumiy lashgan jarayonini bildiradi.

Migratsiya axloqining bir necha tamoyillarini ko‘rsatish mumkin:

- Bagrikenglik tamoyili
- Insonparvarlik

¹⁰³ <https://uz.tafsilar.info/novosti-uzbekistana/usaidd-zbekistonda-joshlarni-ish-bilan-taminlash-uchun-10-million-dollar-azhratadi/>

- farovonlikka intilish
- Ijtimoiy adolat
- Bag‘rikenglik tamoyillarini mavjudligi insonni har qaysi mamlakatda yashashidan

qattiy nazar ezgu maqsad, istak, va o‘z xoxishiga binoan olib boriladi. Masalan: farovonlikka intilish tamoyili xususiyatida inson har kanday holatda ham, chet mamlakatga ketish istagi, eng avvalo o‘zining ixtiyoriy erkinligining namoyon bo‘lishi bilan aks ettiriladi. Bunda insonlar maqsadi birgina pul topish yoki moddiy boylikka erishish istagi emas, balki turmush sharoitini yaxshilash, baxtga erishish, farovonlikka intilib migratsiya xarakatini amalga oshiradi.

Shuningdek, yunon faylasuf olimi Aristotel siyosat va axloq bir guruxga kirishini¹ takidlab, o‘zining «Katta axloq»¹⁰⁴ asarida «Etika – axloq muammolari xakida fikr berishimizda, eng avval axloq nimaga ta’luqli ekanligini aniqlab olishimiz lozim. Bir so‘z bilan aytqanda axloq siyosatning tarkibiy qismi, axloqni siyosat deb atash mumkin»¹⁰⁵ deb izoxlaydilar.

Shu o‘rinda, migratsiya axloqi va migratsiya siyosatining uzviy bog‘liqligi xaqida to‘xtalib o‘tsak.

Avvalo globallashuv sharoitida tashqi mehnat migratsiyasini siyosatida uni samarali tartibga solish strategiyasi hamda xalqaro hamkorlik aloqalarining jamiyatimiz farovonligiga ta’siri alohida ahamiyatlidir.

Bugungi kunda, mamlakat hukumati tomonidan migratsiya jarayonlarini tartibga solish, xukumat a’zolari bilan aholi o‘rtasida ochiq muloqotni ta’minlashga qaratilgan imkoniyatlar mamlakat fuqarolari bilan o‘zaro hamkorlik tizimini yo‘lga qo‘yilishi natijasida mehnat migrantlari bir qancha qulayliklarga ega bo‘ldi. Mehnat muxojirligini tanlagan fuqarolarni xuquqiy tomonlama ximoyalash maqsadida, mehnat migratsiyasi yo‘nalishlarini diversifikatsiya qilish va ularni xorijda ishga joylashtirilishida amaliy jihatdan ko‘maklashish yo‘lga qo‘yish bo‘yicha samarali ishlar olib borilmoqda. Aynan fuqarolarga qulaylikni ta’minlash maqsadida, mamlakatlar o‘rtasida xorijiy shartnomalar tuzish, aholini xavfsiz ish bilan ta’minlanishi uchun kvotalarni ko‘payishi

¹⁰⁴ Абдулла Шер/Ахлоқшунослик дарслик/Тошкент.2003й/Шартли босма табоғи 16,5. нашр табоғи 16,0. адади 5000. <http://library.navoiy-uni.uz/files/abdulla%20sher.%20axloqshunoslik..pdf>

¹⁰⁵ <http://library.navoiy-uni.uz/files/abdulla%20sher.%20axloqshunoslik..pdf>

noqonuniy migratsiyani qonuniylashtirishga erishilishi orqali, mehnat muxojirlariga davlat tomonidan amaliy yordam ko'rsatish ayrim muommolarga yechim vazifasini bajaradi. Yana bir ijobiy omillardan biri, fuqarolarni xorijda ishlashlari uchun "elektron ariza" berish imkoniyatini mavjudligi, "elektron navbatni" joriy etilishi va ishonch raqamlarini faoliyati samarali natijalarni bermoqda.

Hususan, mamlakatimiz prezidentining 2018-yil 5-martda "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun respublikadan tashqarida transportda harakatlanishi vaqtida xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorni qabul qilinishi mamlakat aholisini mehnat migratsiyasi jarayonlarida har tomonlama xavfsiz mehnat faoliyati garovi xisoblanad.

Bizning olib borgan sotsiologik tadqiqotlarimiz davomida, mamlakatimiz aholisining 2018, 2021, 2022 yillar davomida, mehnat muhojirlarining muommolari va extiyojlari, ularga davlat tashkilotlari tomonidan kerakli ko'maklarni taqdim qilish xususiyatlarini o'rganish natijasida, mehnat muxojirlarining katta potensialiga davlatdan kutilayotgan ijtimoiy iqtisodiy yordam dinamikasini ortishi kuzatilmoqda.

2022 yildagi tadqiqotlarimizda, respondentlarning 41,1% hujjatlarni rasmiylashtirish va kerakli ma'lumotlarni yig'ib olishda muommolar borligi va bu faoliyatni bajarish uchun ko'mak kerakligini qayd etgan bo'lsa, mehnat muhojirlarini tashvishga solayotgan yana bir muhim muommolardan biri "ratsipient (qabul qiluvchi) mamlakatlarda mehnat muxojirlarning huquqlarini himoya qilinishi" masalasi muxojirlarning 50,9 % ortig'ini tashvishga soldi. Bu holatning oldini olishda, bizning fikrimizcha, O'zbekistonda mehnat migrantlarining kasaba uyushmalari tashkilotlarining barcha sohada xuquqlarini himoya qilishga qaratilgan harakatlarini faollashtirish bilan birga xorij kasaba uyushma tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirish kengaytirish dolzarb ekanini anglatadi.

Biz respondentlarning javoblaridan xulosa qilgan holda o'zimizni fikr va takliflarimizni keltiramiz.

Tadqiqotimizda olib borilgan sotsiologik so'rovlar natijasidan kelib chiqib, mehnat migrantlarini huquqiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha "Huquqiy ko'mak maslaxatxonalari"ni (Legal assistance offices) tashkil etishni taklif etamiz.

Mamlakatimiz mehnat migrantlari oqimini katta qismini tashkil qilgan mamlakatda, hamda O'zbekiston xududlarida ushbu markazlarni tashkil etilishi, migrantlarning har tomonlama aniq va ishonchli har tomonlama ma'lumotga ega bo'lishini ta'minlaydi. Bunday markazlar huquqiy ko'mak berishi, kerakli maslahatlarni berish, o'qitish, muhojirlarni chet mamlakatga moslashish choralari amalga oshirish, mehnat muxojirlarining muhtojlariga ijtimoiy yordam ko'rsatishi kabi yordamlarni ko'rsatish mumkin.

Haqiqatdan ham mehnat migratsiyasining davlat tomonidan tartibga solish strategiyasining muhim tomoni shundaki, u migratsiya turlarini diversifikatsiya ¹⁰⁶ qilinishida faol bo'lib, natijada inson kapitali va mehnat resurslarining ortib borishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shu o'rinda, asosan mehnat migrantlarini yuqori ish haqqi ya'ni, o'rtacha bir yilda 30 ming AQSh dollaridan kam bo'lmagan maosh olish imkoni mavjud bo'lgan mamlakatga yo'naltirilsa, ham mehnat migrantlari yuqori daromadga, turmush darajasini yaxshilanishiga va albatda mamlakatga pul o'tkazmalarining barqaror ko'rsatkichiga ega bo'lishimiz mumkin.

Bundan tashqari, O'zbekiston viloyatlaridan ixtiyoriy ishchi kadrlarni ish o'rganishi yoki kasbga qayta tayyorlash maqsadida zamonaviy xorijiy korxonalariga yo'naltirilishi natijasida, mehnat muxojirlari mamlakatga qaytib kelgandan so'ng, bunday ishchilar malakali kadrlarga aylanib, O'zbekistonning ijtimoiy iqtisodiy sohasini rivojlantiradi. Shuningdek, aholi farovonligini oshishiga munosib xissa qo'shib, mehnat bozori talablariga mos keladigan, samarali ishchi kuchi sifatida bardosh berishi bilan birga, inson kapitalini oshirishdagi asosiy omil sifatida ahamiyatli sanaladi. Bu esa tashqi mehnat migratsiyasi orqali mamlakatda mehnat bozorini takomillashtirish va optimallashtirish bo'yicha davlatning ishonchli strategik dasturini shakillanishi talab etiladi.

O'zbekiston migrantlari uchun mamlakatimizda va xorijiy mamlakatlarda sug'urta kompaniyalarini yo'lga qo'yilishi, rivojlantirilishi natijasida migrantlar xavf-xatarlardan himoya bo'lishini ta'minlab, sug'urta shaptnomalarini imzolanishi ish beruvchilar

¹⁰⁶ **Диверсификация** (лот. diversificatio — ўзгариш, хилма-хил тараққиёт) — **корхона** (бирлашма) ларнинг фаолияти соҳалари ва ишлаб чиқарадиган маҳсулотлари турининг кенгайиши, янгилашиб туриши. / <https://qomus.info/encyclopedia/cat-d/diversifikatsiya-uz/>

zimmasiga ma'lum sug'urta bilan bog'liq mas'uliyatni yuklaydi.

2.3. MEHNAT MIGRATSIYASINING JAMIYAT FAROVONLIGIGA TA'SIRI VA IJTIMOY DINAMIKASI

Mehnat migratsiyasi jarayonlari eng kup ta'sir etuvchi sub'ekt sifatida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga katta ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Asosan ushbu jarayon ishtirokchilari sifatida mamlakat aholisiga hos bo'lgan diasporalar, ijtimoiy katlam va xalkaro migrantlar guruxlari hisoblanadi. Ushbu harakatlanayotgan guruxlar mehnat migratsiyasining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, xukukiy, axlokiy va madaniy okibatlariga duchor bo'lishi kuzatiladi.

Harakatlanayotgan mehnat muhojirlari hayotida axlokiy va madaniy muxit bilan ijtimoiy moslashuvi, adaptatsiya jarayoni asosiy muommolaridan biri xisoblanadi.

Odatda migrantlar kanchalik ijtimoiy faol xarakatda bo'lmasinlar, chet mamlakatning ijtimoiy-axlokiy muxitdagi imkoniyatlardan foydalanishlari, yangi xayot tarzida yashashi oson bo'lmaydi. Migrantlarning til, ta'lim, an'analar xaqida tasavvur, axloqiy me'yorlarini o'rganganligi an'analarga moslashuvi, ijtimoiy ximoyaga ega bo'lishlari migrantlar assimilyatsiyasi uchun eng yaxshi yechim xisoblanadi. Ularni qabul qiluvchi mamlakat tilida mukammal mulokot qila olishi, ratsipient mamlakatning mutaxislik diplomiga ega bulishi migrant uchun integratsiyalashuviga va adaptatsiya qiyinchiliklarini yengishga ko'mak beradi.

Adaptatsiya jarayonining iktisodiy, xukukiy, ijtimoiy kiyinchiliklari bilan bir katorda marginallashuv, diskriminatsiya, rasizm, ksenofobiya kabi ijtimoiy-axlokiy muammolari kam mavjud bulib, migrant va uni kabul kiluvchi jamiyat ushbu muammolarni birgalikda yengishlari lozim.

Migratsiyaning bunday axlokiy muammolari fakatgina mukojirlar jamoasi va resipient jamiyatning axlokiy mukitiga emas, balki migrantlar oldin yashagan jamiyatlarning kam etosferasiga ta'sir etadi. Bunday muommolar mehnat muhojirlarini qabul qiluvchi mamlakat muhitiga moslashishini cheklaydi. Natijada inson ahloqiy xususiyatlarida salbiy xulq atvorni shakillashi bilan birga, muhojirlarning ma'naviy

qarashlaridagi assimilyatsiya holatini paydo bo'lishi bilan izoxlanadi. Buning oqibatida migrantlarda marginal xulq atvorni paydo bo'lishi va uning ta'sirida millatga hos an'ana va qadriyatlar butkul yo'qolish xavfi bilan namoyon bo'ladi.

XX asrning ikkinchi yarmida, Amerikalik sotsiolog olim Robert Parkning fikricha ¹⁰⁷, marginal ¹⁰⁸ hulq atvor shaxs yoki shaxslar guruhining bir jamoadan boshqasiga o'tishi oqibatida shakillanadigan xususiyat bo'lib, u o'zining turmush tarzi va usuli bilan boshqasidan farq qiladigan madaniy qadriyatlar va axloqiy me'yorlar xarakteriga ega bo'lgan shaxslarga alohida e'tibor qaratdi. R.Park marginallikni mehnat migratsiyasi jarayonlari bilan bog'liq holda o'rganar ekan, u o'zining "Aholi migratsiyasi va marginal shaxs" maqolasida, mehnat muhojirlarining yangi muhitga moslashishi qiyin degan xulosaga keladi. Bu esa ijtimoiy-psixologik xarakterdagi oqibatlarga olib keladi. Natijada ular axloqiy va ijtimoiy jihatdan – oraliqda turuvchi shaxslarni, eski qadriyat va ahloqiy meyorlardan voz kechgan, lekin yangi ahloqiy meyorlar to'liq jamiyat talablariga moslasha olmagan immigrantlarning madaniy ziddiyatlari misolida tariflaydi. Xuddi shundek, insonlar moddiy daromad topish maqsadida o'z vatanini tark etish oqibatida kelib chiqadigan marginal xulq bir vaqtning o'zida bir nechta "xalqlar" madaniyatlarga tegishli bo'lgan ma'naviy qarashlar, qadriyatlar va axloqiy prinsiplar bir-biriga zid holda namoyon bo'lishi mumkin, bu esa shaxsning pozitsiyasiga katta xavf to'g'irishi mumkinligini ifodalagan.

Bizningcha, Amerika sotsiologiyasida, muhojirlarning yangi ijtimoiy sharoitlarga moslasha olmasligi holatini ko'rsatish uchun paydo bo'lib, Chikago sotsiologik maktabi vakillari tomonidan keng talqin qilingan. Buning yaqqol misoli sifatida R.Parkning ilmiy izlanishlari bilan bir qatorda, Tomas va Znanesskiy asarlarida ("Polyak dehqonlarining amerikaga maktubi ") empirik tadqiqotlar orqali namoyon etgan.

Ushbu jarayonni R.Park nafaqat jamiyat farovonligiga tahdid sifatida, balki ijobiy hislatini ham ifoda eta oldi. Unga ko'ra "marginal shaxs" turli jamoalar, xalqlar va

¹⁰⁷ Ш.Н.Алексеевна/Диссертация/ Социальная маргинальность: характерологические свойства и типологические признаки/ Ростов - на - Дону – 2012.С.224. <https://www.dissercat.com/content/sotsialnaya-marginalnost-kharakterologicheskie-svoistva-i-tipologicheskie-priznaki>

¹⁰⁸ Маргинал шахс (лот. marginalis — аросатдаги шахс) — муайян ижтимоий гуруҳлар ўртасидаги оралиқ маданий қарашларга эга бўлган индивид ёки бирор бир ирқга мансуб бўлмаган шахсни ифодаловчи атама. XX асрнинг иккинчи ярмида мулатларга нисбатан Р.Парк томонидан илк бор қўлланилган.

irqlarning turli madaniyatlariga hos bo'lgan nizolarida, bular oson chiqib ketishini oqibatida bir vaqtning o'zida ikki mamlakat mavjud bo'lishga imkon beradi, natijada esa ularni har ikki davlatga nisbatan kosmopolit va begona rovida qabul qilishiga majbur bo'ladi. Bunday shaxslar o'zining madaniy muhitiga nisbatan kengroq dunyoqarashga, nafis intellektga, mustaqil va oqilona qarashlarga ega bo'lgan shaxsga aylanadi¹⁰⁹.

Bizning fikrimizcha, marginallashtirish tufayli jamiyatning an'anaviy qarashlari, qadriyatlarini yo'q bo'lish jarayoni, ijtimoiy guruhlarining yemirilishi, kishilar o'rtasidagi an'anaviy aloqalarning uzilishi, umuminsoniy me'yorlar va qadriyatlarning yakson bo'lishi, shaxslarning ma'lum bir ijtimoiy guruhga tegishli bo'lgan ob'ektivlikni yo'qotilishi, estetik, ijtimoiy-madaniy va ijtimoiy munosabatlarning notug'ri shakillanishi sifatida ta'riflash mumkin.

Ushbu bo'limda asosiy ob'ekt sifatida mehnat migratsiyasining jamiyat farovonligiga ta'siri va ijtimoiy dinamikasini ko'rsatkichini ochib berishda, avvalo mehnat migratsiyasi ko'rinishlarini iqsodiy o'sish dinamikasi (pul jo'natmalari), global yalpi ichki mahsulot (YaIM), aholining ijtimoiy ko'rsatkichi (ishsizlik darajasi, savdo tarkibi), shuningdek, ishchi kuchini to'g'ri taqsimlanishi, mehnat bozorini tartibga solinishi hamda migratsiya qonunchiligidagi o'zgarishlarga javob berishi kabi dinamik ko'rsatkichlarga qaratildi. Jahonda ishlab chiqarish sohasi jaddalshib ishchi kuchiga bo'lgan talabning ortishi natijasida, shuningdek, mamlakatlararo integratsion aloqalar kuchayib borishi oqibatida, mehnat migratsiyasi ham tobora intensivlashib bormoqda.

Rivojlangan mamlakatlar va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi mavjud farqlarning tobora ortishi ham bu jarayonlarni jadallashtirishga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Shu sabab, mehnat migratsiyasi jamiyat aholisining ijtimoiy farovonligining hozirgi bosqichida migratsiyaning o'ziga munosib ish topishi va yuqori daromad olish maqsadida amalga oshirilgan alohida turi hisoblanib, iqtisodiyoti rivojlanmagan mamlakatlarda ish o'rinlari yetarli emasligi va ish haqining nisbatan kam ekanligi muammolarini hal etishning asosiy jixatiga aylandi.

Mehnat migratsiyasini tahlil etar ekanmiz, birinchi navbatda inson kapitalining davlat iqtisodiy rivojlanishining ichki ta'siri haqida to'xtalamiz. Bunday yondoshuv

¹⁰⁹ Напсо М.Д. — "Маргинальный человек" Р. Парка и современность // Социодинамика. – 2016. – № 5. – С. 58 - 63. DOI: 10.7256/2409-7144.2016.5.17979 URL: https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=17979

xalqaro mehnat almashinuvi bo'yicha mutaxassis, rus iqtisodchisi Yu.A.Yanovskiy¹¹⁰ fikriga ko'ra, mehnat migrantlarining daromadi o'zini va oila a'zolarini moddiy jihatdan ta'minlaydi, demak, bu orqali mamlakat iqtisodiy o'sadi, shu bilan birga mutahassisligi va sohasi buyicha malakaga ega bo'ladi.

Shuningdek, mehnat migratsiyasining donor mamlakatlar uchun avfzalliklari shundan iboratki, mehnat bozoridagi keskinlikning kuchayishi (ish o'rinlari uchun raqobatning kuchayishi; mahalliy ishchilarning ish haqining qisqarishi; past malakali ishchilarning marginallashuvi; mehnat bozorida damping, xizmat ko'rsatish sohasi va boshqalar).

Bugungi kunda migratsiyani keltirib chiqaruvchi omil dunyoning barcha davlatlarini qamrab olgan. Undagi ijtimoiy-madaniy, siyosiy, iqtisodiy o'zgarishlarning ta'siri tashqi mehnat migratsiyasini shakillantiruvchi omillari O'zbekistonda ham mehnat migratsiyasini jadallik bilan o'sib borishiga sabab bo'ldi. Shuning uchun, O'zbekiston xorijda mehnat migratsiyasining yuqori ko'rsatkichlari qayd etilgan davlatlar qatoriga kiradi. Ayni vaqtda O'zbekiston Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, tashqi mehnat migrantlari mamlakat umumiy mehnat resurslarining qariyb 22 foizini tashkil qiladi. 1991 yildan 2023 yilgacha O'zbekistonda xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining mustaqillikdan keyin rivojlanish davri 4 bosqichga ajratib, ularning har biri ma'lum demografik, iqtisodiy, siyosiy va boshqa omillar makro (yuqori) darajada tashqi mehnat migratsiyasining shakllanishiga ta'sir etishi bilan tavsiflandi:

1) 1990-2000 yillarda doimiy yashash uchun rus, yahudiy, tojik millatiga mansub fuqarolarning xorij tomon intilishi migratsiya oqimining ortishi natijasida sodir bo'lgan. Shu o'rinda O'zbekiston iqtisodiyotidagi ilk rivojlanish bosqichidagi inqirozlar sababli ko'plab O'zbekiston fuqarolarining majburan xorijga tirikchilik tufayli ketishi bilan ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

2) 2000 yilda iqtisodiy o'sishning tezlashish davri bo'lib, 2001 yilda o'zbekistonliklarning aksariyat qismi Rossiyaga mehnat muxojiri ko'lami bo'yicha ikkinchi o'rinni egalladi. Mehnat migrantlari vatanimizga yiliga o'rtacha 4 mlrd. AQSh

¹¹⁰ Яновский Ю.А. Международный Конгресс “Евразия: занятость в XX I веке” Международный семинар по трудовой миграции. М: 2001

dollari miqdorida pul mablag‘lari yuborib, O‘zbekiston iqtisodiyotining muhim bir bo‘lagi bo‘lib shakllandi.

3) 2010-2015 yillarda mamlakat iqtisodiyotining sekinlashuv davri kuzatilib, bandlik va investitsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan tarkibiy islohotlarni amalga oshirilishi natijasida yalpi ichki mahsulotning o‘sishi, mehnat migratsiyasining tabiiy ko‘tarilishiga yordam berdi. 2011-2013 yilda jami migrantlar soni 2,3 mln.ga yetgan, bu esa mamlakat fuqarolarining aksariyati aynan ish izlab mamlakatni tark etishi bilan izoxlandi.

4) 2016 yildan hozirga qadar bo‘lgan davrni o‘z ichiga olib, ya’ni «Yangi O‘zbekiston»da demokratik o‘zgarishlar, yangi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar bosqichi va boshqaruvning jadal tarzda kuchayishi, keng imkoniyatlar va amaliy ishlarning transformatsiyasi jamiyatning demokratik tamoyilining mustaxkamlanishi bilan izohlanadi. Jumladan, 2017 yilda davlat raxbari tomonidan O‘zbekistonda mehnat migratsiyasi muammosiga e’tibor qaratila boshlanib, bunda mamlakat fuqorolarini chet elga vaqtincha ishlash uchun Migratsiya agentligi orqali qonuniy yo‘l bilan Rossiyaga ishlashga rasman yuborila boshlandi.

XMT ma’lumotlariga ko‘ra, 2020-yilda pul o‘tkazmalarining yillik umumiy soni 702 milliard AQSh dollariga yetdi, eng ko‘p xalqaro pul o‘tkazmalari rivojlangan davlatlardan rivojlanayotgan mamlakatlarga o‘tkazilishi kuzatildi¹¹¹.

Shuningdek, 2021-yilda respublikada mehnat resurslari soni 19,3 million kishini tashkil etdi, shundan 1,67 million kishi tashqi mehnat migrantlari – mehnatga layoqatli aholining 8,6 foizini tashkil etdi¹¹². Mehnat migratsiyasining asosiy oqimi Rossiyaga - 71%, Qozog‘istonga - 12%, Janubiy Koreyaga - 4% va Turkiyaga - 3% to'g'ri keladi¹¹³. 2021-yilda O‘zbekistonga xalqaro pul o‘tkazmalari tizimi orqali tushayotgan mablag‘ 8,1 milliard AQSh dollarini tashkil etadi¹¹⁴ yoki mamlakat yalpi ichki mahsulotining 13 foizi. Bu 2019 va 2020-yillarga nisbatan 34 foizga ko‘p – 6 milliard

¹¹¹ Доклад о миграции в мире 2022, Международная организация по миграции ISBN 978-92-9068-078-7 (PDF) <https://publications.iom.int/books/world-migration-report-2022>

¹¹² <https://www.gazeta.uz/ru/2019/09/16/migration/>

¹¹³ Ўзбекистон Республикаси камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги.2023 йил маълумоти/
<https://mehnat.uz/uz>

¹¹⁴ O‘zbekistonda mehnat migratsiyasi sohasidagi tadqiqotlar takomillashtiriladi, Gazeta.uz, <https://www.gazeta.uz/ru/2019/09/16/migration/> <https://mehnat.uz/uz>

dollar ¹¹⁵.

2.3.1. Jadval

Mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari dinamikasi 2000-2020 yillarda dunyoning ba'zi mamlakatlarida.

| № | Nomlari | Xalqaro pul o'tkazmalar AQSh dollarda | | |
|----|--------------|---------------------------------------|---------|---------|
| | | 2000 y | 2010 y. | 2020 y. |
| 1 | Xindiston | 12,9 | 53,5 | 83,15 |
| 2 | Xitoy | 2,2 | 52,5 | 59,51 |
| 3 | Mekcika | 7,5 | 22,7 | 42,88 |
| 4 | Filippin | 6,9 | 21,6 | 34,91 |
| 5 | Egipet | 2,9 | 12,5 | 29,60 |
| 6 | Pokicton | 1,1 | 9,7 | 26,11 |
| 7 | Fransiya | 8,9 | 19,9 | 24,48 |
| 8 | Bangladesh | 2,0 | 10,9 | 21,75 |
| 9 | Germaniya | 3,6 | 12,8 | 17,90 |
| 10 | Nigeriya | 1,4 | 19,7 | 17,21 |
| 11 | O'zbekistan | 1,5 | 3,4 | 7,01 |
| 12 | Todjickton | 0,15 | 2,01 | 2,23 |
| 13 | Qyrg'iziston | 2,20 | 1,33 | 2,44 |

Manba: 2022 yilgi Jahon migratsiya ma'lumotiga ko'ra
<https://www.migrationdataportal.org/international-data>

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda O'zbekistonga xorijdan pul o'tkazmalari hajmi 2,1 baravarga oshib, rekord darajadagi 16,9 milliard dollarni tashkil etgan bo'lsa, uning 85% Rossiyadan kelgan ulushga to'g'ri keladi¹¹⁶.

Jamiyatimiz aholisi farovolgini ta'minlanishi maqsadida, yurtboshimiz tomonidan olib borilgan tub isloxlardan biri sifatida, tashqi mehnat migrantlarini davlat tomonidan qo'llab quvatlanishi insonparvarlik siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi. O'zbekistonda xalqaro-huquqiy tamoyillar va normalar qabul qilingan bo'lib, bu boradagi mamlakatimiz milliy qonunchiligi ham takomillashtirilmoqda.

Insonparvarlik tamoyili asosida, davlatimiz rahbarini olib borgan siyosati 2018-yilda respublika Xalqaro migratsiya tashkilotiga a'zo bo'ldi va XMT Konstitutsiyasini

¹¹⁵ https://cbu.uz/ru/press_center/reviews/584766/

¹¹⁶ Объём денежных переводов в Узбекистан за 2022 год составил рекордные \$16,9 млрд, <https://www.gazeta.uz/ru/2023/01/26/transfers>

ratifikatsiya qilindi, unga ko'ra "Xorijda yashovchi va mehnat qilayotgan vatandoshlar bilan hamkorlik qilish bo'yicha davlat siyosati konsepsiyasi" hamda O'zbekiston Respublikasi bilan hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha ustuvor chora-tadbirlar dasturi qabul qilindi. Bu dastur mamlakatimiz fuqarolarini chet eldagi mehnat muxojirlarimiz, vatandoshlarimiz uchun birinchi marotaba tashqi mehnat migratsiyasi sohasini tartibga soluvchi eng muhim hujjatlar biri sifatida ifoda etildi.

Shu o'rinda, Respublikamiz raxbaari tomonidan, tashqi mehnat migratsiyasini qo'llab quvatlash va xuquqiy ximoyalash borasida olib borilgan muhim qaror va xujjatlar qo'yidagicha amalga oshirilgan:

✓ *O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 16-oktabrdagi "Xususiy bandlik agentliklari to'g'risida"gi qonuni.*

✓ *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasining tashqi mehnat migratsiyasi tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni*

✓ *Prezidentimizning 2019-yil 20-avgustdagi "Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyati bilan shug'ullanayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va ularning oila a'zolarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori*

✓ *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-avgustdagi "Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.*

✓ *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 15-sentabrdagi "Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni*

✓ *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-iyuldagi "Xorijga uyushgan mehnat migratsiyasiga ketayotgan fuqarolarni rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ni qabul qilinishi chet eldagi vatandoshlarimizni o'ziga bo'lgan ishonchini ortishiga sabab bo'ldi.*

Mamlakatimizda olib borilayotgan ushbu siyosatning tub mohiyati, tashqi mehnat

migratsiyasi mutahasislarini qiynayotgan uchta asosiy muammoni hal qilishga qaratilgan:

- noqonuniy mehnat migratsiyasiga qarshi kurash
- fuqarolarni xorijda tashkiliy ravishda ishga joylashtirish muammolari
- mehnat migratsiyasidan qaytgan aholi bandligini ta'minlash.

O'zbekiston respublikasining rasmiy ma'lumotlariga qaraganda, yildan-yilga O'zbekistonlik mehnat migrantlarining mamlakatdan chiqib ketishi emas, balki yurtimizga qaytib kelish soni ham ortib borayotkanligi bilan izohlanadi. Bugungi kunda migrantlar 2 mlndan ortiq nafarni tashkil etib, ularning jami aholi sonidagi ulushi esa 5,5 foizni tashkil etadi. 2022–2023 yillarda tashkiliy tarzda 60 ming kishi rasmiy tarzda ishlash uchun chet mamlakatga jo'natilgan va ularning o'rtacha maoshi miqdori 1200 AQSh dollarni tashkil etgan¹¹⁷.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mehnat muhojirlarini mamlakatimizga qaytishi, reintegratsiya qilinishi bugunning eng dolzarb muommolaridan biri sifatida qaratilish lozim. Ya'ni, mehnat migratsiyasidan qaytgan aholi bandligini ta'minlash ichki mehnat bozoriga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi eng dolzarb muammo hisoblanadi. Birgina 2020-yilda pandemiya tufayli O'zbekistonga 232,2 ming nafar mehnat muhojiri qaytdi¹¹⁸. Barcha donor mamlakatlarga hos bo'lgan mehnat bozorining keskinligi, mehnatga xaq to'lashning nisbatan kamligi tashqi mehnat migratsiyasining xarakterlanishiga turtki beruvchi asosiy omil xisoblanadi.


Mamlakatimizga qaytib kelgan, kamida 3 yildan ortiq mehnat muxojiri sifatida chet mamlakatda ishlagan fuqarolardan o'tkazilgan tadqiqot natijasiga ko'ra, respondentlarning 48,1% mehnat migratsiyasini chet elda davom ettirishni rejalashtirayotganini aytishsa, 32,4 foizi O'zbekistonda qolib tadbirkorlik faoliyatini davom ettirishini rejalashtirayotganini bildirishdi, 12,3 foizi aniq rejasi yo'q 8,2 % esa javob berishga qiynalishini aytishdi. (2.3.1.d.)

2.3.1 Diagramma

¹¹⁷ <https://www.gazeta.uz/uz/2023/07/07/migration/>

¹¹⁸ <https://mehnat.uz/uz>

Mehnat faoliyatingizni qaerda davom ettirishni hohlaysiz?



Yuqoridagi diagrammaga ko'ra mamlakatimizda reintegratsiya masalasiga ham muhim muommalardan biri sifatida qaralishi uchun talab ortib borayotganini ko'rishimiz mumkin, ya'ni bugungi kunda aholining bir qismi chetga qaytish to'g'risida rejalashtirayotgan bo'lsa, shuncha axoli salmog'iga yaqin fuqarolar respublikamizda qolishini bildirishdi. Bu esa mamlakatda ish o'rinlariga va ishchi kuchiga bo'lgan talab ortishidan dalolat beradi.

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining rasmiy kun. Uz. saytiga bergan ma'lumotiga ko'ra, mamlakatning o'zida mehnat bozori shiddat bilan shakllanayotgani sabab, yangi ish o'rinlarini kupayishi natijasida bo'sh ish o'rinlar o'zimizning xorijdan qaytgan migrantlarimiz reintegratsiya qilinishi hisobiga qoplab kelinishini¹¹⁹ izoxlagan.

Bizning fikrimizcha, tashqi mehnat migratsiyasi jamiyatimiz farovonligiga ta'siri avvalo ijtimoiy iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'sishi, pul aylanmalar, pul o'tkazmalar va mamlakatning o'zida migrantlarning o'zi bilan olib kirgan investitsiyasi hisobiga, O'zbekistonning har bir hududida ishlab chiqarish, eksport potentsiali oshib borishini ta'minlanishi, kichik korxonalarni ishga tushirilishi, kasbiga ko'ra malakalarni oshirilishi, maishiy xizmatlarni takomillashi mamlakatda mehnat bozori shiddat bilan shakllanishi va ishchi kuchiga bo'lgan talabning ortishi bilan izohlanadi. Bu esa o'z navbatida respublikada migrantlarni reintegratsiya qilinishi imkonini ham oshiradi.

Shuningdek. Respublikamizda ayni vaqtda Tashqi mehnat migratsiyasi

¹¹⁹ <https://www.gazeta.uz/uz/2023/07/07/migration/>

agentligining Rossiyada 16 ta, Janubiy Koreya, Turkiya va Qozog‘istonda 1 tadan vakolatxonasi mavjudligi ¹²⁰ mamlakatlar o‘rtasidagi hamdo‘stlik aloqalarni mustahkamligi bilan birga mehnat muxojirligida yurgan vatandoshlarimizni xuquqiy tomonlama ximoya qilinishidan darak beradi.

Shuni aloxida ta’kidlash joizki, hozirgi davrda ham O‘zbekistonda migratsiya yuqori darajada saqlanib qoldi. Buning asosiy sabablaridan biri mamlakat aholisining yuqori o‘sishi, ishchi kuchiga talabning yuqori emasligi va ish xaqqining kamligi migratsion xarakatni jadallashtirdi. O‘zbekiston Respublikasidan Rossiyaga mehnat migrantlari soni 2011 yildan 2022 yilgacha 1,5 million kishini tashkil qildi bu raqam esa 2011 yildan boshlab ketganlar orasida eng yuqori ko‘rsatkich etib belgilandi, 2022–2023 yillarda 60 ming nafarga yaqin o‘zbekistonliklar tashkiliy ravishda chet elga ishga jo‘natilgan. Shulardan Rossiyaga ketganlar 44 ming 887 tani hosil qilib. 7 ming 325 tasi esa Janubiy Koreyaga jo‘natilgan. Bundan tashqari, o‘zbeklar mehnat muhojirlari sifatida Turkiya yoki Qozog‘istonda ham ko‘pchilikni tashkil etadi ¹²¹. Ushbu davlatlar orasida Rossiya va Turkiya mamlakati mehnat muhojirlari uchun ish o‘rinlarining ko‘pligi va boshqa imtiyozlari bilan ajralib turadi.

Demak mamlakatimizda mehnat migratsiyasi muntazam davom etib turar ekan, jamiyat uchun o‘zining ijobiy natijalariga ham ega bo‘ladi. Fuqarolarning ma’naviy qarashlari, malaka tajribalari, ta’lim va diplomga ega bo‘lishi, mamlakat uchun ish bilan bandlik darajasini ta’minlanishi, migrantlarning pul o‘tkazmalari mamlakat iqtisodiyoti rivojiga sezilarli ta’sir o‘tkazadi.

Mehnat migratsiyasining o‘sib borayotganligini inobatga olgan holda bugungi kunda O‘zbekiston aholisining pul o‘tkazmasi 135 milliard so‘mni tashkil etadi.

2022 yilda mehnat muhojirlarining pul o‘tkazmalari 794 mln milliardlab dollarni tashkil etdi va 2021 yilga nisbatan 13 milliard dollarga oshdi. O‘zbekiston esa 2022 yilda mehnat muhojirlari o‘z vatanlariga yuborgan pul o‘tkazmalari 13,5 mlrd. dollarni tashkil etdi, bu Markaziy Osiyo mintaqasining eng yirik pul o‘tkazmasi deb

¹²⁰ <https://www.gazeta.uz/uz/2023/07/07/migration/>

¹²¹ К.Х.Абдурахманов/ Основные тенденции и направления внешней миграции республики узбекистан/ “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali/ Tashkent, Uzbekistan. DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss3/i7

belgilandi¹²².

Jahon tajribasidan ko‘rishimiz mumkinki, mehnat muhojirlarining pul o‘tkazmalari o‘z mamlakatlari uchun muhim ahamiyat kasb etib, bu esa valyuta tushumlari manbai hisoblanib, bu tushum mamlakat uchun importni rivojlantirish imkonini beradi. Shu jumladan:

- yangi texnologiyalarga ega bo‘lish
- tashqi qarzlarni qoplash imkoni.
- investitsiyalar va jamg‘armalarga ega bo‘lish imkoni
- rivojlanishning turli sohalariga sarmoya kiritish imkonini beradi.

Shunday qilib, xalqaro mehnat muxojirlari pul o‘tkazmalari mamlakat uchun ma‘lum darajada sarmoya manbai hisoblanadi. Shu o‘rinda, jamiyat iqtisodiyotida ham, xususiyl tadbirkorlikda ham mamlakatning rivojlanishini real asosi sifatida qaraladi. Shuningdek, mamlakat fuqarolarining barcha eng zarur ehtiyojlari ham ushbu shaxsiyl jamg‘armalari orqali qoplanadi.

Mamlakatdan tashqarisida mehnat qilayotganlar soni ortgani sain, ularning sarmoyalaridan samarali foydalanish imkoni ortadi va mamlakatning rivojlanish imkoniyatlari mavjudligini bildiradi va bu esa o‘z navbatida, milliy va mahalliy mehnat bozoriga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Rasmiyl ma‘lumotlarga ko‘ra, mehnat migratsiya jarayonlaridagi xalqaro pul o‘tkazmalari rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga katta foyda keltiradi, shu qatorda kambag‘allik va tengsizlikni kamayishiga olib keladi. Asosan mamlakatga kelgan daromad sog‘liqni saqlash va ta‘lim tizimlarini yaxshilanishiga sarflanadi. Masalan, YuNESKO hisobotlariga ko‘ra, xalqaro pul o‘tkazmalari umuman past va o‘rta daromadli mamlakatlarda ta‘limga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Xususan, Lotin Amerikasida shaxsiyl pul o‘tkazmalari oqimi natijasida ta‘limga sarflangan mablag‘lar o‘rtacha 53%, Afrika va Osiyodagi 18 mamlakatda esa 35% oshdi.

Respondentlardan o‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra O‘zbekistonga kelayotgan xalqaro pul o‘tkazmalari, oilaviyl jamg‘arma sifatida, aholi farovonligi va turmush darajasini yaxshilashga katta hissa qo‘shmoqda. Migrantlar sarmoyasini asosan ko‘chmas mulkka

¹²²Сколько трудовых мигрантов вернулось в Узбекистан из-за пандемии//uz.sputniknews.ru 8

va eng birlamchi ehtiyojlariga sarflaydilar, ya'ni oila a'zolarining ta'lim olishi, sog'liqni saqlash xizmatiga va boshqa ehtiyojlarga sarflashlari aniqlandi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkin mamlakatimizdan chetga chiqib ishlayotgan mehnat muxojirlarini jamiyatimiz iqtisodiy, ijtimoiy va dunyoviy ilmlar borasida aholini farovon xayot kechirishiga bevosita ta'sir qilmoqda.

Ikkinchi bob uchun xulosa

Xulosa va takliflar yuqoridagi fikrlarimizni yakunlab, hozirda xarakatlanayotgan mehnat muhojirlari, turli migrantlarning hayotida axlokiy va madaniy muxit bilan ijtimoiy moslashuvi, adaptatsiya jarayoni, assimilyatsiya asosiy muommolaridan biri sifatida qaralib, ta'lim maqsadida yoki malaka oshirish istagida ketgan yoshlar, shuningdek mehnat muxojirlari ongini o'zimizning milliy qadriyatlarimiz, an'ana va urf odatlarimizni ta'limning zamonaviy inklyuziyasi bilan uyg'unlashtirgan holda vatanparvarlik ruxida tayorlashimiz dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda.

Migrantlardagi moslasha olmaslik muommolari mehnat muhojirlarini natijasida yuzaga keladigan inson ahloqiy xususiyatlarida salbiy xulq atvorni shakillashi bilan birga, muhojirlarning ma'naviy qarashlaridagi assimilyatsiya holatini paydo bo'lishi bilan izoxlanadi. Buning oqibatida migrantlarda marginal xulq atvorni paydo bo'lishi va uning ta'sirida millatga hos an'ana va qadriyatlar butkul yo'qolish xavfi bilan namoyon bo'ladi.

Jamiyatimiz aholisi farovolgini ta'minlanishi maqsadida, yurtboshimiz tomonidan olib borilgan tub isloxlardan biri sifatida, tashqi mehnat migrantlarini davlat tomonidan qo'llab quvatlanishi insonparvarlik siyosatining ajralmas qismi hisoblanadi. O'zbekistonda xalqaro-huquqiy tamoyillar va normalar qabul qilingan bo'lib, bu boradagi mamlakatimiz milliy qonunchiligi ham takomillashtirilmoqda.

Mamlakatda moliyaviy resurslarning katta miqdorini tashkil etadigan mehnat migratsiyasi hajmining ortishi natijaasida respublika iqtisodiyotga ijobiy ta'siri mexanizmini kuchaytirilishi natijasida, aholining nafaqat birlamchi ehtiyojlariga bo'lgan talabni qondirilishi uy –joy, ta'lim yoki tibbiy xizmatga bo'lgan ehtiyojlar uchun balki, xususiy tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish va kichik, katta

korxonalarni ochilishi uchun davlat tomonidan imtiyozlarni taqdim etilishi, biznes sohasida taqdim etilgan loyixalarni har tomonlama qo'llab quvatlanishi maqsadga muvofiqdir.

Shu o'rinda mamlakat mehnat migratsiyasi siyosatini takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflarni bermoqchimiz.

1. Tashqi mehnat migratsiyasini statistikasi va ro'yxatga olishning oson tizimini joriy etish;

2. Migrantlarni chet mamlakat ma'naviy muxitiga adaptatsion xolati mutiga ko'nikishidagi salbiy holatlarni oldini olishga qaratilgan chora tadbirlar olib borilishini ta'minlanishi;

3. Ta'lim yoki mutaxassislik diplomlariga ega bo'lish uchun chetga ketayotgan yoshlarni ongini milliy ruhda, an'ana va qadriyatlarga, vatanga sadoqatli bo'lish kabi xislatlar, ularga qarama qarshi yod g'oyalarga qaratilgan imunitetni hosil qilishlarida amaliy tadbirlar olib borilishini yo'lga qo'yilishi;

4. Ratsipient mamlakatlar bilan ikki tomonlama xukumatlararo bitimlarni takomillashtirish asosida mehnat migrantlari bilan ular o'rtasidagi muommolarga to'g'ri yechib topish imkonini berib, shu jumladan horijda migrantlarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha halqaro aloqalar o'rnatish maqsadga muvofiqdir;

5. Migrantlarning soni, tarkibi va ko'rsatkichlar to'g'risida haqiqiy va to'liq ma'lumotlarga ega bo'lmasdan bu boradagi tendensiyalarni, ijobiy va salbiy oqibatlarni aniqlash mumkin emas;

6. O'zbekistonda tashqi mehnat migratsiyasini raqamli monitoring (ro'yxatga olish) qilishning doimiy mexanizmini joriy qilish. Bu borada chet elda (vakolatxonalarda) sotsiologik tadqiqot institutini tashkil qilish;

7. Mehnat bozorining asosiy ko'rsatkichlarini muntazam ravishda aniqlash va ishga joylashish uchun qaytib kelgan migrantlar segmentini aniqlash mexanizmini joriy qilish zarur;

8. Mehnat migratsiyasi sohasidagi ilmiy ishlarni rag'batlantirish, ratsipient mamlakatlar xalqaro tajribasini o'rganish va muxojirlikdan qaytgan migrantlarni reintegratsiya qilishni to'ri shakillantirish mexanizmi joriy etilishi.

III BOB. O‘ZBEKISTONDA AHOLI MEHNAT MIGRATSIYASINING SOTSIALOGIK TAHLILI

Globalashuv sharoitida xalqaro mehnat migratsiyasi mamlakat aholisini turmush darajasini yaxshilash xarakatining asosiy omililaridan biriga aylanib qolmoqda. Unda inson asosan ishchi kuchi sifatida mehnat bozorining ajralmas qismi sifatida nomoyon bo‘lmoqda. Shu o‘rinda, jahon iqtisodiyotining transformatsiyalashuvi sharoitida asosan mehnat migratsiyaning katta ko‘lami yashash hududidan boshqa bir mamlakat tomon yo‘naltirilmoqda.

Mazkur bobda, zamonaviy dunyoning globalashuvi sharoitida xalqaro migratsiya holati tadqiq etilib, unda halqaro mehnat migratsiyasining yangi xususiyatlari namoyon bo‘ldi. Asosan mamlakatlarning integratsiyalashuvi ta‘sirida yagona iqtisodiy makonga intilishida davlat chegaralari ham aholi xarakatlanishiga to‘siq bo‘la olmadi. Bu esa hozirgi vaqtda xalqaro mehnat migratsiyasining xususiyatlarini yoritish va o‘zgarish tendentsiyalarini tahlil qilishga undadi. Shuningdek, mamlakatda mehnat migratsiyasini vujudga kelishiga ta‘sir etuvchi asosiy omillar to‘xtalib, uni aholi farovonligiga bir qancha ijobiy ta‘siri keltirilgan. Bundan tashqari, respublikamizdagi migratsiya jarayonlarining xususiyatlari va tendentsiyalari, ularning mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga ta‘siri hamda ularning ijobiy va salbiy tomonlari tizimli ilmiy tahlil qilinib, halqaro mehnat migratsiyasini davlat tomonidan tartibga solishga, bunda mamlakatning demografik rivojlanishi, aql ko‘chishi, pul o‘tkazmalarining iqtisodiyotga ta‘siri, migrantlar psixologiyasidagi o‘zgarishlar, kasbiy ko‘nikmalarni yo‘qotish yoki malakasini oshirilishi, migrant bolalaridagi ijtimoiy-psixologik holatni buzilishi va hal etilishi kerak bo‘lgan ko‘plab muommolarni o‘rganish natijasida bir qancha takliflar keltirilgan.

3.1. Mamlakatda migratsion harakatlarning joriy holati va o‘zgarish tendentsiyalari.

O‘zbekiston halqaro mehnat migratsiyasi jarayonlari va xalqaro mehnat birjasining faol ishtirokchisi hisoblanadi. Migratsiya harakatlanishiga ko‘ra, halqaro mehnat migratsiyasi jarayoni davlatning hamkorligi va migrantlarning shaxsiy tashabbusi

asosida amalga oshiriladi. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, migratsiya jarayoni muayyan vaqtlarda kuchayib-pasayish tendensiyasiga ega bo'lib, ma'lum hudud, mamlakat, mintaqa ijtimoiy hayotiga o'zining ijobiy, salbiy, kerak bo'lsa, siyosiy ta'sirini o'tkazadi. Shu boisdan ham migratsiya jarayonini har tomonlama nazorat qilish bilan birga huquqiy tartibga solish va uni boshqarish masalalari alohida e'tibor talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqlari va manfaatlarini hisobga olgan holda, keyingi yillarda tashqi mehnat migratsiyasining samarali tizimini ta'minlash borasida davlatimiz tomonidan aniq chora-tadbirlar belgilandi. Prezidentning 2022 yil 1 martdagi "Xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini va ularning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-149-son qarori 123 qabul qilinishi fuqarolarning mamlakatdan tashqaridagi mehnat faoliyatiga doir huquqlari, ular va oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish, mehnat faoliyatini qo'llab-quvvatlashga yordam bermoqda.

Olingan rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha taxminan 281 million nafar mehnat migranti mavjud bo'lib, ular dunyo aholisining 3,6 foizini tashkil qiladi¹²⁴.

2022 yil O'zbekiston Respublika Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, chet elda vaqtinchalik mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi o'zbekistonlik mehnat migrantlari soni o'rtacha 2,4 million kishini tashkil etadi. Shundan 568,5 ming nafari (24,1 foiz) ayollar, 827,1 ming nafari (35,1foiz) yoshlardir¹²⁵. Shuningdek, statistik ma'lumotlarga ko'ra 2022-yilda ishsizlik darajasi 9,4%ni¹²⁶ tashkil etishi, mamlakat aholisi oilalarining har oltinchi xonadondan birida, mehnat muxojirlari mavjud ekanligidan dalolat beradi. Aholi orasida asosan mehnat muhojirlari Rossiya Federatsiyasida ekanligi o'tkazilgan tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'ldi.

¹²³ https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/uzbekistonlik_mehnat_migrantlarini_qanday_qullab-quvvatlashadi

¹²⁴ Инсон ҳуқуқлари бўйича ўзбекистон Республикаси Миллий сайти маълумоти/Тошкент. 19.12.2022 йил/<http://nhrc.uz/uz>

¹²⁵ Инсон ҳуқуқлари бўйича ўзбекистон Республикаси Миллий сайти маълумоти/Тошкент. 19.12.2022 йил/<http://nhrc.uz/uz>

¹²⁶Обзор по Узбекистану//Всемирный банк:[сайт].URL:<https://www.vsemirnyjbank.org/ru/country/uzbekistan/overview> (дата обращения: 31.03.2023).

Shu o'rinda, O'zbekiston xalqaro migratsiya jarayonlarining faol ishtirokchi sifatida gavdalanishi haqida ushbu bobda jadvallar va batafsil sotsiologik taxlillar asosida yoritilishidan oldin ushbu terminga alohida tarif berish maqsadga muvofiqdir.

“Migratsiya” lotin tilidan olingan bo'lib, insonlarning bir xududdan ikkinchi makonga ko'chib o'tishini anglatadi. Ushbu xarakteristik insoniyatning rivojlanishi tarixida azaldan muhim ahamiyatga ega fenomen tarzida tadbiriq etilib, BMTning barcha mehnat muxojirlari va ularning oila a'zolari huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi konvensiyasiga muvofiq, o'sha xududning fuqarosi bo'lmagan, davlatda haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanuvchi inson – mehnatkash migrant, mehnat muxojiri hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda, XX asrni tom ma'noda migratsiya asri bo'ldi deyish mumkin, chunki so'ngi yuz yil ichidagi sotsial mobillik jahon iqtisodiyoti va siyosatida katta o'zgarishlarga kuchli turtki berishi bilan birga, zamonaviy globallashtuv davrida serqirra va murakkab maqom va rollarda namoyon bo'layotgan ob'ektiv jarayon sifatida namoyon bo'ldi.

Shu nuqtai nazardan, 21 asrga kelib yanada intensivlashgan mobillik, ya'ni mehnatga layoqatli aholining mustaqil o'zining ixtiyoriga binoan, insonning o'zi va farzandlari uchun munosib, daromadli va yaxshi sharoitga intilishi tufayli chet mamlakatga ko'chib o'tishiga sabab bo'ladi. Darhaqiqat, mehnat migratsiyasi bir qancha omillar tufayli yuzaga keladigan global hodisa sifatida har qanday iqtisodiy, siyosiy va madaniy oqibatlariga sabab bo'lishi mumkinligi ko'plab olimlar uchun muntazam va izchil ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borishni talab etadigan asosiy tadqiqot mavzularidan biriga aylandi.

Zamonaviy sotsiologiyada muhim sanalgan aholi statistikasi, empirik sotsiologiya tarixi 18 asrda Yevropa mamlakatlarida olib borilgan sotsiologik so'rovlar bilan birga shakillandi. Ushbu tadqiqot sotsial statistikasi rivojlantirdi va bu yo'nalishning institutsionalizatsiya jarayoni ko'plab mamlakatlarda aholi statistik ma'lumotlarni to'plash va uni tahlil qilish uchun davlat tizimlarini yaratishga erishildi ¹²⁷ Ammo ko'plab

¹²⁷ Луков, В. А. (2001) История социологии в конспективном изложении: учеб. пособие. М. : Социум. Ч. I. 160 с. 8–13.

olimlarning fikriga ko‘ra empirik sotsiologik tadqiqotlar haqiqiy ma’noda XX asrda Amerikada empirika taraqqiyot bosqichi bilan bog‘liq deb qaralgan. Aynan shu davrda ular muntazam ravishda biznes faoliyati manfaatlaridan foydalanib, uni davlat rivoji va munitsipal boshqaruvining taraqqiyoti uchun sotsiologik tadqiqotlar bilan chambarchas bog‘langan holda, har qanday sohada majburiy faoliyat turiga aylandi.

Aynan, XX asrning birinchi choragida Chikago sotsiologiya maktabi tadqiqotchilari tomonidan ishlab chiqilgan aholi migratsiyasini o‘rganish metodologiyasi (garchi ushbu maktab hanuzgacha mumtoz deb atalsa ham) bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Chikago maktabi 1915 yildan 1935 yilgacha Amerika sotsiologiyasida ustun mavqeni egalladi va umuman sotsiologiya rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi, uning empirik yo‘nalishini belgilab berdi. Asosan Chikago maktabining taraqqiyoti uni shaxarlarning rivojlanishi, ijtimoiy isloxlarni yuzaga kelishi uchun buyurtma asosida amaliy sotsiologik tadqiqotlarni olib borish natijasida rivojlandi, bunday sotsial buyurmalar kam holda uchraydigan hodisa edi. O‘sha davrda Amerika davlatiga o‘n minglab muhojirlar Yevropa davlatidan ko‘chib kelishi natijasida Chikago xokimiyat vakillariga katta qiyinchilik tug‘dirdi. 1900 yilda Amerika aholisining yarmini muhojirlarlardan tashkil topib, keyinchalik migrant guruxlar uchun ushbu mamlakat doimiy yashash xududiga aylandi. Muxojirlardan tashkil topgan guruxlar shaxarda adekvant xatti xarakatlar, jinoyat bilan bog‘liq holatlar Chikago maktabi sotsiologik tadqiqotlari va taxlillariga talabni ortishi natijasida maktab nufuzi ham sezilarli darajada yuksaldi.

Darhaqiqat, ushbu maktab vakillari tomonidan aholi migratsiyasi muammosi yetarlicha batafsil o‘rganilishi bilan birga, sotsial faktlar haqida aniq bilimlarni egallash va sotsial muammolarni hal qilishda amaliyot, ya’ni sotsiologik tadqiqotlarni olib borilishi muommoni yechimi uchun foydali ekani isbotlandi.

1860 yildan 1920 yilgacha Qo‘shma Shtatlarda eng yirik immigrant guruxlar: Sharqiy Yevropadan kelgan irlandlar, italiyaliklar, yahudiylar tashkil topdi.

Shu munosabat bilan, moslashish va shunga ko‘ra, migrantlarning yangi jamiyatga qo‘shilishi masalasi dolzarb edi. Migratsiyani sotsiologik nuqtai nazardan o‘rganish migratsiya jarayonlarini tartibga solish, etnik nizolarni hal qilish, muhojirlarning deviant

xatti-harakatlari oldini olish va boshqa muammolarni hal qilish mexanizmlarini ishlab chiqishga imkon berdi¹²⁸.

Shuningdek, ko‘plab yuqori malakali mehnat muhojirlari o‘z vatanlariga yangi sohalarni yaratish uchun bilim va ko‘nikmalarni, tadbirkorlik muhitiga va oilaviy, ijtimoiy va siyosiy hayotga ta’sir ko‘rsatish mumkin bo‘lgan ijtimoiy va madaniy resurslarni mamlakatga joriy qiladi ¹²⁹ . Migratsiya jarayonlarning transformatsiyasi jo‘natuvchi va qabul qiluvchi mamlakatlar uchun o‘ziga hos xususiyatlarni taqdim qiladi. Fuqorolarning aksariyat qismi mehnat migratsiyasi natijasida turmush sharoitlarini yaxshilashga yangi imkoniyatlar hamda o‘z oilalari ehtiyojlarini qondirishga yetarli sarmoyani qo‘lga kiritib qaytadilar. Ularning asosiy maqsadi oilasini moddiy jihatdan ta’minlashdan iborat bo‘lib, pul o‘tkazmalari ko‘rinishida daromadlarining katta qismini oilasiga yuborishi, o‘z navbatida davlatning iqtisodiyotiga ijobiy natijani beradi. Halqaro pul o‘tkazmalar mamlakat turmush sifatiga, kambag‘allikni oldini olishga bevosita ta’sir ko‘rsatib, shuningdek ta’lim va sog‘liqni saqlash darajasini yaxshilanishiga imkon beradi.

Yuqoridagi gaplarimizga misol tariqasida, mashhur amerika iqtisodchi olim T.Shulsning 130 fikricha, insonga investitsiya kiritishning asosiy natijalari kishilarda mehnat qobiliyatining ortishi, ularning jamiyatda samarali bunyodkorlik faoliyatini amalga oshirishi, salomat bo‘lishi va boshqalarda o‘z ifodasini topadi. U inson kapitalini jamlanishi aqliy va jismoniy mehnat qilish ortidan keladi, deb hisoblagan. Yana shunisi ahamiyatliki uning fikricha inson jamiyatda ishlab chiqarilayotgan jamlanma mahsulot, mehnat qilib ortirgan daromadi umumiy hajmining to‘rttdan uch qismi inson kapitalini to‘plashga sarflanmoqda. XX asrda ba’zi ma’lumotlarda esa bu ko‘rsatkich to‘rttdan bir qismni tashkil etadi, deb ko‘rsatilar edi.

Shu o‘rinda, respublikamiz xududlari bo‘yicha migratsiya sohasida olib borilgan ayrim tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, mintaqalarda aholi harakatchanligi oshgan sari, ularning viloyatlararo kesimida amalga oshirayotgan migratsion xarakatlari natijasida

¹²⁸ Ситникова Идеи Чикагской школы социологии в современных исследованиях миграции населения // Вестник Нижегородского университета им. Н.И.Лобачевского. Серия: Социальные науки. 2009. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/idei-chikagskoy-shkoly-sotsiologii-v-sovremennyh-issledovaniyah-migratsii-naseleniya> (дата обращения: 08.02.2021).

¹²⁹ 2021 Международная организация по миграции (МОМ) /Республика Беларусь/2021

¹³⁰ Якимчук С. В. доктор экономических наук, доцент, профессор кафедры экономики, НИУ «Белгородский государственный университет», Россия.2015. с.20-23 Yakimchuk@bsu.edu.ru.

ularning ijtimoiy iqtisodiy farovonlik darajasi ham oshib bormoqda.

Shuning uchun ham, respublikamizda ichki migratsiya jarayonlari ham alohida o‘rin egallab, unda migratsiya xarakatini o‘ziga jalb qiladigan nuqta bu poytaxt Toshkent shaxri hisoblanadi. Ichki migratsion harakatlanishni asosan ikki shaklga ajratish mumkin:

1. **Mayatnik migratsiya** – bu aholining ma’lum birmaqsad bilan ishga yoki o‘qishga bir aholi punktidan ikkinchisiga, asosan, shahar chetidan shaharga muntazam, odatda har kuni harakatlanishi bilan asoslanadi. Ushbu turdagi migratsion jarayonning xarakatlanishi uchun turtki bo‘ladigan asosiy omillardan biri texnologik taraqqiyot va urbanizatsiya jarayoni hisoblanadi.

Respublikamizning ayrim tumanlaridan masalan, Qibray tumani, Chirchiq shahridan qatnovchilar Mirzo Ulug‘bek tumani atrofi, Yuqori va O‘rta Chirchiq tumanlari, O‘rta Chirchiq, Quyi Chirchiq va Oqqo‘rg‘on tumanlari uchun Qo‘ylik massivi atrofi va Abu Saxiy bozori atrofiga Zangiota tumanlaridan aholining qatnov bekatlari poytaxt Toshkent shaxriga yo‘nalganligini ko‘rishimiz mumkin.

Olib borilgan sotsiologik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, aholi orasida norasmiy ishlaydigan ishchilar, doimiy ishga ega bo‘lgan shaxslar va poytaxtga mehmon bo‘lib kelgan odamlar qatnovchilarning asosiy qismini tashkil etadi. Mamlakatimiz aholisining asosiy daromad turlaridan yollanma ishchilar va mustaqil ravishda o‘zini band qilganlar salmog‘i tashkil etadi, rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra 2022 yilda respublikamiz aholisining umumiy daromadining katta qismi (jami aholi umumiy daromadlarining 65,0 foizi)ni tashkil qiladi.

Shu o‘rinda, chegara oldi xududda istiqomat qiladigan aholi, chegaradan o‘tib, yana kechga o‘z mamlakatiga (makoniga) qaytishi bilan ham kuzatiladi.

2. **Ikkinchi yo‘nalish** – respublikamiz viloyatlar hududlari aro bo‘lgan migratsion jarayon. Bu turdagi migratsion xarakatlanishning asosiy sababi viloyat xududida doimiy ish bilan ta’minlanish darajasining pastligi, mehnat xaqqining arzonligiva ekologik muhitni ta’siri bilan bog‘liqdir. Respublika fuqarolarini ichki migratsiyasini shakillanishida moliyaviy tomondan Toshkent jalb qiluvchi hudud sifatida salohiyatga ega hisoblanib, bu shaxarda mehnat qilish foizi qolgan hududlarga nisbatan yuqori

sanaladi.

Misol o‘rnida, mamlakatimizning Xorazm va Qoraqalpog‘iston Respublikasida, Surxondaryo, Samarqand viloyati, Andijon, Farg‘ona va Namangan viloyatlarida aholining ko‘chish harakati muntazam ravishda kuzatiladi. Xorazm va Qoraqalpog‘iston Respublikasidan Toshkent shaxriga ko‘chib kelish va ishlash oldindan qulay xisoblangan. Ushbu hududlardagi ekologik vaziyat ko‘chib keluvchilar salmog‘ini ortirdi va iqlimning ta’siri murakkabligini hisobga olgan holda ularga bu masalada yengilliklar taqdim etilgan.

Mamlakat hududlaridagi vaziyat aniq sonlarda ham farqlanadi, bu ko‘p jihatdan daromad omillarining darajasi va mavjudligiga, munosib ish xaq beradigan ishlarning bilan ta’minlanishiga, ish o‘rinlarining yetarli darajasining mavjudligiga va samarali bandlik darajasi bilan og‘liqdir.

2016-2022 yillarda O‘zbekiston Respublikasida aholining ichki migratsion xarakatlari dinamikasi. (Xududlar aro kelganlar soni)

3.1.1. jadval¹³¹

| Hududlar | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 |
|-------------------------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|
| O‘zbekiston Respublikasi | 167 796 | 175 748 | 174 832 | 169 547 | 203 629 | 275 079 | 221 319 |
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 14 449 | 15 009 | 14 861 | 14 110 | 12 517 | 18 588 | 13 270 |
| Andijon | 7 525 | 8 360 | 8 460 | 9 731 | 10 684 | 9 796 | 8 471 |
| Buxoro | 7 967 | 9 037 | 8 766 | 9 265 | 13 209 | 10 991 | 9 344 |
| Jizzax | 9 199 | 10 530 | 11 878 | 11 567 | 11 224 | 11 484 | 8 498 |
| Qashqadaryo | 12 109 | 15 015 | 15 235 | 17 466 | 30 869 | 20 726 | 16 427 |
| Navoiy | 13 659 | 13 887 | 14 110 | 11 368 | 10 569 | 11 026 | 9 239 |
| Namangan | 5 548 | 5 368 | 5 520 | 6 385 | 8 170 | 5 953 | 4 916 |
| Samarqand | 14 696 | 15 272 | 15 774 | 13 809 | 17 785 | 17 636 | 14 399 |
| Surxandaryo | 14 388 | 16 134 | 13 824 | 13 283 | 19 518 | 17 699 | 14 007 |
| Sirdaryo | 6 974 | 8 417 | 9 125 | 9 471 | 9 526 | 10 117 | 7 907 |
| Toshkent | 25 425 | 25 132 | 24 909 | 23 250 | 26 518 | 40 333 | 32 349 |


¹³¹**O‘zbekiston respublikasi prezidenti huzuridagi** statistika agentligi/<https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography>

Yuqoridagi jadvalga asoslanib migratsion jarayonning to‘xtovsiz xarakatlanishini kuzatishimiz mumkin. Bugungi kunda ichki migratsiya yo‘nalishiga turkki bo‘luvchi migratsion jarayonlardan biri sanalgan qurilish sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi 2027 yilda 5,6%dan 2022 yilda 6,8%gacha ko‘tarilgani. Ichki migratsiyani xarakatlantiruvchi omillardan ekologik va moliyaviy qiyinchiliklar bilan bir birga, rivojlangan infrastrukturada yashash istagi, yaxshi sharoitli, yuqori texnologiyalariga ega muxitda ishlash hohishi kabilar turtki bo‘ladi. Ichki migratsiyani xarakatlanishi yana bir muhim jihati, siyosiy holat bilan ham bog‘liqbo‘lgan migratsiyani ham misol qilishimiz mumkin. Aynan 2005 va 2010 yillarda siyosiy jarayonlar oqibatida Farg‘ona vodiysidagi amalga oshirilgan ko‘ngilsiz voqealarni misol qilib olishimiz mumkin. Tadqiqotda respondentlarga aynan nima sababga ko‘ra poytaxt Toshkent shaxriga ko‘chib kelgansiz? Degan savolimizga, aksariyat javoblar yaxshi yashashga imkoniyatni borligi, sifatli yashash sharoitini (infrastrukturalar)ni mavjudligi, mutahassislikka mos ish o‘rinlarga egaligi, e‘tiqod erkinligi qolgan hududlarga nisbatan imkoniyatga ega ekanligini ta’kidlashdi. Shu o‘rinda ayrim respondentlar ekologik holatni ham misol keltirishdi, lekin respublikamizning barcha tumanlarida ham oxirgi paytlarda ekologik vaziyat salbiy ko‘rinishga egaligi sir emas.

Ichki migratsion jarayolari holati bo‘yicha respondentlarga navbatdagi savol bilan murojat qildik.

Siz nima maqsadda poytaxt Toshkent shaxriga ko‘chib kelgansiz?

3.1.2. Jadval



Migratsiya bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarimizga ko'ra, mintaqalar bo'yicha aholi harakatchanligi oshgan sari ularning turmush darajasidagi ijtimoiy iqtisodiy farovonligi ham oshishi kuzatilgan.

Mehnat migratsiyasi bilan bog'liq masalani hozirgi vaqtda xalqaro aholi mehnat migratsiyasining eng xarakterli tendensiyalari etib:

- ✓ geografik chegaralarning kengayishi, aholining faol hududiy harakati zonalari;
- ✓ aholi dvaromadining o'sishi natijasida muxojirlar o'z oilalariga pul o'tkazmalarini yuborishi natijasida ushbu mamlakatning iqtisodiy balansiga ijobiy ta'sir etadi;
- ✓ xalqaro aholi migratsiyasini davlat tomonidan tartibga solishning ahamiyati ortib borishi;
- ✓ intellektual migratsiyaning ahamiyatini oshirilishi (aqlning ko'chishi);
- ✓ soliq to'lashdan bosh tortish va jinoiy daromadlarni legallashtirishga asoslangan iqtisodiy migratsiya oqimlarining yangi turlarining paydo bo'lishi;
- ✓ Migrantlarni jalb qilishda ustivor markazlarini shakllantirish - AQSh, G'arbiy Yevropa, Kanadada neft qazib chiqaruvchi mamlakat hisoblangani uchun bu yerda mutadil ravishda ish o'rinlarini mavjudligi bilan muhojirlarni o'ziga tortadi.

Mamlakatimiz miqyosida ham hududlar kesimida, halqaro mehnat migrantlar soni bo'yicha eng yuqori o'rinlarni Xorazm, Surxondaryo hamda Farg'ona viloyatlari egallaydi. Hududlardagi migrantlar sonining yuqoriligi bir necha omillarga bog'liq. Jumladan:

- xududni sanoatlashtirishning sustligi

- hududlardagi ishsizlik ko‘lami;
- chegaradosh qo‘shni respublikalarda qarindoshlari bilan intensiv aloqada bo‘lgan fuqarolar;
- xorijiy mamlakatlarda o‘qish istagini bildirgan yoshlar.

3.1.3.-jadval

O‘zbekiston Respublikasida 2022 yilda mehnat migrantlari soni¹³²

| Hudud | Ko‘chib kelganlar soni | Ko‘chib ketganlar soni | Migratsiya saldosi |
|-----------------------|------------------------|------------------------|--------------------|
| Jami | 2 291 | 8 790 | - 6449 |
| Qoraqalpog‘iston Res. | 158 | 4 689 | - 4531 |
| Andijon | 2 | 71 | - 69 |
| Buxoro | 18 | 82 | - 64 |
| Jizzax | 25 | 119 | - 94 |
| Qashqadaryo | 14 | 57 | - 43 |
| Navoiy | 56 | 330 | - 274 |
| Namangan | 23 | 143 | - 120 |
| Samarqand | 18 | 243 | - 225 |
| Sirdaryo | 21 | 122 | - 101 |
| Surxandaryo | 42 | 106 | - 64 |
| Toshkent v. | 478 | 1 572 | - 1094 |
| Farg‘ona | 61 | 179 | - 118 |
| Xorazm | 13 | 128 | - 115 |
| Toshkent sh. | 1 362 | 949 | - 413 |

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezident Huzuridagi Davlat statistika qo‘mitasi, <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>

Aholining 2017-2022 yillardagi bandlik va ishsizlik holatini tahlil qiladigan bo‘lsak, Ishlashga layoqatli aholi soni – 19,5 (19 453,3) mln. kishi, mehnat bilan band bo‘lgan aholi soni esa – 13,8 mln. kishini tashkil etdi. Mamlakatda bandlik darajasi – 68,0 foiz

¹³²Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси маълумоти. – Тошкент, 2023./ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>

ko'rsatkichida, ulardan ishsizlar soni – 1,3 mln. kishi shunda ishsizlik darajasi – 8,6 foizni hosil qildi. Aholi orasida iqtisodiy faol bo'lmagan aholi soni ham mavjud bo'lib 2022 yil ko'rsatkichiga ko'ra – 4,3133 mln. kishi ma'lum bo'ldi.

Respublikada bu ko'rsatkich o'tgan yilning ma'lumotiga nisbatan taqqoslanganda 0,8 foizga oshganligini ko'rishimiz mumkin. Shu o'rinda, mamlakatimiz xududiy kesimida tahlil qilsak, Ishsizlik darajasi bo'yicha eng yuqori Qashqadaryo, Samarqand, Surxandaryo, Sirdaryo viloyatlarida birdek 9,3% ko'rsatkich, Jizzax, Farg'onada 9,2% ni tashkil etib, nisbatan past bandlik darajasi Andijon va Qoraqalpog'iston xududlarida 9,1% ko'rsatkichida bo'lib, yuqori bandlik darajasi 8,8 foiz ko'rsatkich bilan Navoiy, Toshkent, Buhoro viloyatlarida kuzatilgan¹³⁴.

Shuningdek, statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2022 yil holatida mehnat resurslari soni 19 453,3 ming kishini tashkil etib, 2021 yilning shu davriga nisbatan 100,8 foizga yoki 153,7 ming nafarni tashkil qildi.

Shu o'rinda 2022 yil holatida chet mamlakatga jo'nab ketgan mehnat migrantlari 2 mln 8800 kishini tashkil etib, bu 2021 yilning mos davriga nisbatan 528,2 ming kishiga oshishi norasmiy bandlarning kamayishiga sabab bo'lgan.

Mutaxassislar tomonidan olib borilgan tadqiqot natijasiga ko'ra 1 mln 326,6 ming kishi ishga muhtojligi tufayli (yil boshida — 1 mln 441,8 ming kishi), ishsizlik darajasi iqtisodiy faol aholi kesimida 8,8 foizni (9,6%) tashkil etishi aniqlandi. 16–30 yoshgacha bo'lgan shaxslar orasida ishsizlik darajasi 14,5 foiz (15,1%), ayollar bo'yicha esa 12,8 foizgacha tushdi.

2022 yilning 1 iyul holatida respublikada iqtisodiy nafaol aholi 4 mln 353,2 ming kishiniga teng, bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,9 foizga yoki 38,8 ming kishiga ortgan¹³⁵.

Bunda, ishlashni xohlamaydigan yoki darhol ishga joylashishga imkoniyati yo'qlar o'tgan yilga nisbatan 183,6 ming kishiga kamaygan bo'lsa, ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qiyotgan talabalar hamda tug'ruq ta'tilidagi ayollar soni 222,4 ming kishiga oshgan.

¹³³Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси маълумоти. – Тошкент, 2023.

<https://www.xabar.uz/tag/davlat-statistika-qo-mitasi>


¹³⁴ <https://www.xabar.uz/tag/davlat-statistika-qo-mitasi>

¹³⁵ <https://www.gazeta.uz/uz/2022/08/12/unemployment>

Shu bilan birga 1991-2021 yillar davomida O‘zbekistonda ro‘y berayotgan migratsiya jarayonlarining umumiy dinamikasini umumlashgan holati tahlilida ham ko‘rish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida 1991-2021-yillarda aholi migratsiyasining (kirish va ketish) dinamikasi¹³⁶

3.1.4.-jadval



• *kelganlar* *ketganlar* *migratsiya saldos*

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra muallif tomonidan tayyorlandi . <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika>

3.1.4-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 1991-2021 yillar oralig‘ida respublikada jamiyat tuzilishida sotsial transformatsiya natijasida ayrim millatga mansub aholining boshqa davlatga ko‘chib ketishi oqibatida mamlakat aholisining faol o‘sishi yoki kamayishini kuzatamiz. Emigratsiya tufayli O‘zbekistonning doimiy aholisidan 30 yil davomida (1991 yildan 2021 yilgacha) qariyb 1,676 million kishi mamlakatni tark etdi. Mamlakatning tub aholisi soni o‘zbek millatiga mansub bo‘lmagan odamlar hisobiga ortib borgan.

Mamlakatimizda ko‘p millatli aholining istiqomat qilishi, ularning ahil bo‘lib birgalikda yashashi, bir birlariga nisbatan do‘stona munosabati, millatimizga hos

¹³⁶Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси маълумоти. – Тошкент, 2023./ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>

tolerandlik va millatlar aro bag'rikenglik tamoili munosabatlarini shakllantirishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

3.2. Respublikamizda mehnat migratsiyasi vujudga kelishining o'ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy omillari (Farg'ona viloyati misolida)

Turli mamlakatlar qatorida O'zbekistonda ham migratsiya jarayonlari turli omillar, ta'sirida shakllanadi. Omillarning asosiysi sifatida, mamlakatning demografik rivojlanishini, ijtimoiy-siyosiy xolat, iqtisodiy rivojlanishni, aholi xavfsizligini, aholining zichligi, fuqarolarning oilaviy va shaxsiy xolati, insonlarning moddiy extiyoji va madaniy turmush darajasini ko'rsatishimiz mumkin.

Olingan ma'lumotlarga tayangan holda, yurtimizda mexnat migratsiyasini jadal suratlarda o'sib borishiga quyidagi omillar turkki bo'lmoqda:

3.2.1-JADVAL

| | |
|--|---|
| Respublikamizda migratsiya jarayonini oshiruvchi omillar | globalashuv harakatchanlikning kuchayishi |
| | aholi bilim darajaasini ortishi |
| | xorijiy davlat fuqarolari bilan ijtimoiy-madaniy aloqalarni kengaytirish. |
| | xorijda etnik disporaning rivojlanishi. |
| | arzonroq transport xarajatlari |
| | telekommunikatsiyaning rivojlanishi. |
| | arzonroq aloqa vositalari |
| | xorijiy mamlakatlarda mexnat migrantlariga talabning yuqoriligi |
| | xorijiy mamlakatlarda mehnat bozorini erkinligi |
| | siyosiy jarayonlar |
| | Ksenofobiya, |
| | ratsipient mamlakatlarning mehnat muhojirlariga nisbatan bag'rikengligi. |
| | Xorijiy mamlakatlarda tug'ilish darajasini pasaytirish. |
| | mehnat bozoridagi vaziyatdan norozilik; |
| | ish uchun kam haq to'lash; |
| | mamlakatda mutaxassisligiga oid vakant o'rinni yo'qligi, |
| | ishchi kuchi mexnatini tejavchi texnologiyalarni ishlab chiqish. |
| | Ish o'rmlarining etishmasligi, mamlakat ichida ishga layoqatli qatlamni ko'pligi. |
| | ishsizlikning ortib borishi. |
| | ish haqimi kechiktirish |
| turmush sharioitimi qiymlashuvi | |
| mulk qiymatining oshishi | |
| yuqori inflyatsiya, narxlarning oshishi | |
| aholining yuqori o'sishi | |
| aholi zichligining ortishi | |

* Jadval muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Shuningdek, aholining mexnat migratsiyasi xarakterini cheklovchi omillar ham mavjud bo‘lib, quyidagi holatlarda ta‘sir ko‘rsatadi:

- ✓ ratsipient mamlakatlar qonunchiligida muxojirlarni huquqiy ximoyasi mavjud emasligi.
- ✓ viza tartib-qoidalarining murakkabligi
- ✓ mamlakatda san‘oatni rivojlanishi
- ✓ mamlakat ichida ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishi.
- ✓ turmush sharoitlarni yaxshilani
- ✓ xorijiy mamlakatdan chiqish imkoni yo‘qligi
- ✓ transport uchun xarajatlarni balandligi.
- ✓ mamlakat ichida ishchi kuchiga talabni ortishi
- ✓ xorijda ishchi kuchiga bo‘lgan talabni pasayishi
- ✓ ish haqining o‘shishi.
- ✓ siyosiy barqarorlik.

Shu o‘rinda, olim L.Maksakova¹³⁷ o‘z maqolasida takidlaganidek, mexnat migratsiyasi potentsiali asosan iqtisodiy sabablarga ko‘ra yuzaga keladi va bevosita past ish haqi, past turmush darajasi, ishsizlik, disfunktsional mehnat bozori, bilan bog‘liq. Respublikamizda mehnat migrantlarini asosiy maqsadi o‘z oilalarini iqtisodiy ahvolini yaxshilashdir.

O‘zbekiston aholisi soni bo‘yicha jadal o‘sib borayotgan davlatlardan biridir. Aholi soni bo‘yicha MDH davlatlari orasida Rossiya va Ukrainadan keyin 3-o‘rinda (aholi soni bo‘yicha dunyoda 42-o‘rinda)¹³⁸. 2017-yil 1-oktabr holatiga ko‘ra, mamlakat aholisi 32,51 million kishini tashkil etdi¹³⁹.

O‘zbekistonda aholi o‘shishining asosiy manbasi tug‘ilish xisobiga ortishi, xorijda yurgan migrantlarni son jihatidan qoplaydi. Natijada O‘zbekistonda aholi dinamikasining yangi turi shakllandi, bunga ko‘ra respublikada tug‘ilish soni asosiy ko‘rsatkich vazifasini bajaradi¹⁴⁰.

¹³⁷ Қаранг.Максакова Л. Демографическая ситуация в Узбекистане с точки зрения социальной безопасности / (13.03.21). 5-28 бетлар.

¹³⁸ Қаранг. О‘zbekiston aholisi 2017-yil holatiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari

¹³⁹ Қаранг. О‘zbekiston aholisi 2017-yil holatiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari

¹⁴⁰ Қаранг. О‘zbekiston aholisi 2017-yil holatiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari

Bizning fikrimizcha, xalqimiz hayotni oilaviy turmush tarziga asoslagan. Jamiyatimizda an'ana sifatida davom etib kelayotgan ko'p bolalilik, ya'ni tug'ilishning yuqori darajasi, aholi tarkibida yosh oilalarning aksariyati jajji millat vakillaridan mehnatga layoqatli shaxslar shakillanishining garovi sifatida o'rin egallaydi. Bizning millatimizda, serfarzandlik o'zbek oilasining alohida belgisidir. Jamiyatimizda ko'p bolali onalar soni boshqa mamlakatlarga nisbatan yuqori turadi. Shuning uchun o'zbek oilasi dunyoda bolajon xalq sifatida e'tirof etiladi. Shuningdek, inson ongi, xarakteridagi eng yaxshi fazilatlar, dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezonlar, eng avvalo oilada shakillanganligi uchun ham oila muqaddas sanaladi.

Darxaqiqat, an'ana tusida davom etayotgan kup bolalilik, respublikamiz aholi demografiyasiga sezilarli xissa qo'shmoqda.

O'zbekiston Respublikasining demografik xolati umumiy demografik tuzilmada yoshlar asosiy kursatkichni tashkil qilishi, mehnat bozoriga kirib kelayotgan ishchi kuchining yuqori o'sish sur'atlari (yiliga o'rtacha 400 ming kishidan ortiq) bilan ifodalanadi¹⁴¹.

Shu o'rinda, O'zbekiston jahon davlatlari orasida ishchi kuchiga yetarli darajada ega davlat hisoblanadi. Markaziy Osiyodagi ishchi kuchining qariyb 40 foizi O'zbekiston fuqarolarini tashkil qiladi, bu uning mintaqadagi ishchi kuchini yuqori patensialidan dalolat beradi. Shu bilan birga, O'zbekistonda aholni mehnat malakasini yuqoriligi bilan ajralib turadi. Ikkinchi muhim omil shundaki, mamlakatda mehnatga layoqatli aholining yarmidan ko'pi yoshlardan iboratdir.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ijobiy demografik o'zgarishlar kuzatildi, jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy o'zgartirishi va bozor munosabatlariga o'tishning og'ir sharoitiga qaramay, ayrim aholining chetga chiqib ketishi bilan birga, tug'ilish darajasining ma'lum darajada kamayishi ham kuzatildi. MDHning barcha mamlakatlarida bo'lgani kabi O'zbekistonda ham 1990-yillar boshlarida aholi migratsiyasining ilk ko'rinishi odamlarning ixtiyoriy jonajon vataniga qaytishi bilan bog'liq edi.

¹⁴¹ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari www.stat.uz demografik ko'rsatkichlar

Mamlakat demografik rivojlanishida aholining milliy tarkibi alohida o‘rin egallaydi. Aholi milliy tarkibini aniqlashga ko‘plab omillar ta’sir etadi.

Mamlakatning mustaqil taraqqiyot yillarida aholining milliy tarkibida o‘zgarishlar kuzatildi. 1991 yilda respublika aholisida o‘zbeklar salmog‘ining 72,8%, qoraqalpoqlar 2,1%, ruslar 7,7%, tojiklar 4,8%, qozoqlar 4,1%, tatarlar 2,0%, ukrainlar 0,7% ni, 2021yilning 1 yanvar oyi holatiga ko‘ra o‘zbeklar 83,8%, qoraqalpoqlar 2,2%, ruslar 2,3%, tojiklar 4,8%, qozoqlar 2,5%, tatarlar 0,6%, ukrainlar 0,2%ni tashkil qildi.

3.2.2. Jadval

O‘zbekiston Respublikasi aholisining milliy tarkibidagi o‘zgarishlar¹⁴²

| | 1991g. | | 2011g. | | 2021g. ¹⁴³ | |
|------------------|----------------|--------------|----------------|--------------|-----------------------|--------------|
| | soni | foizi | soni | foizi | soni | foizi |
| jami | 20607,7 | 100,0 | 29123,4 | 100,0 | 34600 | 100,0 |
| <i>jumladan</i> | | | | | | |
| <i>uzbeklar</i> | 14995,3 | 72,8 | 23983,2 | 82,3 | 29200 | 84,4 |
| qoraqalpoqlar | 431,9 | 2,1 | 641,5 | 2,2 | 752,7 | 2,1 |
| tojiklar | 980,7 | 4,8 | 1411,6 | 4,8 | 1700 | 4,9 |
| qozoqlar | 845,3 | 4,1 | 832,7 | 2,9 | 821,2 | 2,4 |
| rucclar | 1593,8 | 7,7 | 837,5 | 2,9 | 720,3 | 2,1 |
| qirg‘izlar | 182,6 | 0,9 | 254,6 | 0,9 | 291,6 | 0,8 |
| tatarlar | 414,6 | 2,0 | 218,6 | 0,8 | 187,3 | 0,5 |
| turkmanlar | 126,6 | 0,6 | 174,7 | 0,6 | 206,2 | 0,6 |
| karislar | 183,7 | 0,9 | 188,0 | 0,6 | 174,2 | 0,5 |
| Boshqa millatlar | 706,4 | 3,4 | 502,8 | 1,7 | 486,1 | 1,4 |

Ma’lumot: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan www.stat.uz/demografiya

3.2.2-Jadvaldagi ma’lumotlarga ko‘ra, Respublikamiz mintaqasida ruslar, tojik va qozoq millat vakillari salmog‘i yuqori ekanini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek,

¹⁴² Темиров З. А. Фарг‘она минтақаси аҳолиси миллий таркибидаги ўзгаришлар. "Science and Education" Scientific Journal Volume 1, Issue 1. www.openscience.uz

¹⁴³ Опубликованы данные об этническом составе населения Узбекистана, [tps://www.gazeta.uz/ru/2021/08/20/ethnic-groups/](https://www.gazeta.uz/ru/2021/08/20/ethnic-groups/)

mahalliy millat aholisining tashqi migratsiyada boshqa millat vakillariga nisbatan passivligi bilan izohlanadi.

Bizning fikrimizcha, olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va ijtimoiy falsafiy taxlillarga tayangan holda, Respublikamizda 2024-yilga mo'ljallangan navbatdagi aholini qaytadan ro'yxatga olish orqali, milliy tarkib va statistik ma'lumotlarini optimal darajada takomillashtiradi. Bu esa ko'plab mutaxassislar va tadqiqotchilar uchun kerakli ma'lumot o'rnida foydalaniladi.

XMTning "Jahon migratsiya hisoboti – 2022"¹⁴⁴ hisobotida qayd etilishicha, 2021 yilda dunyoda 281 milliondan ortiq muhojir bo'lgan, ularning uchdan ikki qismi mehnat muhojirlari, ya'ni 169 milliondan ortiq kishi. 2050 yilga borib xalqaro migrantlar soni deyarli ikki barobar ortadi va taxminan 500 million kishiga yetishi mumkin. Xalqaro migrantlarning umumiy soni dunyo aholisining 3,6 foizini (2000 yilda 2,8 foiz) tashkil etdi. Migratsiya oqimi o'sishining asosiy tendentsiyasi sayyoramizdagi iqlim o'zgarishi oqibatlari va rivojlangan mamlakatlarda ishchi kuchining bo'lgan talabni ortib borayotgani bilan izoxlanadi. Bundan tashqari, "aholining aksariyat qismi xorijga, ishlash uchun, oilasi ortidan va tahsil olish bilan bog'liq sabablarga ko'ra ko'chib ketishadi"¹⁴⁵.

Respublikamizda mehnat migratsiyasini keltirib chiqaruvchi asosiy sabablardan biri mamlakat aholisini zichligi hisoblanadi.

Ma'lumotga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida 2023- yil 1- yanvar holatiga 1 kvadrat kilometrda o'rtacha 80,2 kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 1,6 kishiga ko'paygan, bu esa 2022- yilda 1 kv.km.ga ya'ni 78,6 kishini tashkil qilgan. Hududlar bo'yicha o'rgansak, aholi zichligini eng yuqori ko'rsatkichi Toshkent shahrida 6597,5 kishi, Andijon viloyatida 772,7 kishi, Farg'ona viloyatida 588,2 kishi tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Navoiy viloyati 9,5 kishi, Qoraqalpog'iston Respublikasida 11,9 kishini tashkil yetgan.

¹⁴⁴ World Migration Report 2022, International Organization for Migration, <https://worldmigrationreport.iom.int/>

¹⁴⁵ World Migration Report 2022, International Organization for Migration, <https://worldmigrationreport.iom.int/>



Ma'lumot: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan www.stat.uz/demografiya

Respublikamizda mehnat migratsiyasini o'ziga hos xususiyatlarini talqin qilishda, teritorial xolati kichkina va aholi soni jihatidan zich bo'lgan Farg'ona viloyati misolida ilmiy taxlil qilinganda, 1991-2018 yillar davomida mintaqada o'zbeklar ulushi 85,6 foizdan 90,3 foizga ortdi. Bu ko'rsatkich Farg'ona viloyatida 82 foizdan 89 foizga ortgani kuzatildi¹⁴⁶.

Respublikamiz singari, Farg'ona viloyatida ham mustaqillikning dastlabki yillarida, mamlakatimiz boshqa viloyatlari orasida o'zbek millatiga mansub kishilar nisbatan past ko'rsatkichga ega bo'lgan (asosan Farg'ona shaxrida). Farg'ona viloyatining ayrim tumanlarida o'zbek va tojik millati vakillari nisbati deyarli teng bo'lib, viloyatining boshqa tuman va shaharlarida o'zbeklar salmog'i 90 va undan ko'prog' foizni tashkil qiladi. Shuni ham aloxida takidlash kerakki, mamlakat mustaqillikka erishgunga qadar viloyat markazlari va shaharlarda rus millat vakillari 3,2 foizni tashkil etgan. 2018 yilga kelib ruslar 0,8 foizni tashkil etgan holos. Aholi orasiga joylashib olgan qoraqalpoqlar, qipchoqlar va hatto qozoqlar o'zlarini o'zbek deb atay

¹⁴⁸ Темиров З. А. Фарг'она минтақаси аҳолиси миллий таркибидаги ўзгаришлар. "Science and Education" Scientific Journal Volume 1, Issue 1. www.openscience.uz

boshladilar ¹⁴⁷ . Respublikamizning boshqa viloyatlarida ham shundek tendensiya kuzatilgan.

Shu o‘rinda, Farg‘ona viloyati xududida bugungi kunda 60 ga yaqin turli millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Yarim asr davomida sezilarli darajada o‘zgargan milliy tarkib viloyatni Markaziy Osiyoda ko‘p millatli hududlardan biriga aylantirdi. Mintaqada istiqomat qiluvchi yana bir millat tojiklar bo‘lib, tahlil qilinayotgan yillarda mintaqadagi salmog‘i 5,1 foizdan 5,3 foizga ortgani kuzatildi. Tojik millati vakillari Farg‘ona viloyatida 6 foizni tashkil etadi. Farg‘ona viloyatining So‘x tumanida tojiklar 90 foizni tashkil etsa, Farg‘ona tumanlari va Quvasoy shahrida tojiklar salmog‘i mos ravishda 44, 20 foizga to‘g‘ri keladi¹⁴⁸.

Shuningdek, Rishton, Yozyovon tumanlari va Quvasoy shahrida ham tojik millatiga mansub fuqarolar ko‘pchilikni tashkil etadi. Ayniqsa, Quvasoy shahri aholisining 7,6 foizi tojik millatiga mansub ekanligi ham yuqoridagi ma‘lumotlarga misol bo‘la oladi. Mintaqada o‘zbek va tojiklardan keyin salmog‘i jihatdan qirg‘izlar tashkil qilib, ular ko‘prog‘ Andijon viloyatida o‘rnashgan va ularning aholi tarkibidagi ulushi 4 foizdan ortig‘ini tashkil etadi. Ushbu viloyatning Qirg‘iziston Respublikasi bilan chegaradosh tumanlari bo‘lgan Qo‘rg‘ontepa, Ho‘jaobod, Buloqboshi, Jalaquduq va Marhamat tumanlarida ko‘pchilikni tashkil iladi.

Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlarni kantent taxlil qilinganda, Farg‘ona viloyatida qadimdan aholi migratsiyasi rivojlanib kelganiga guvox bo‘lamiz. Turli xil millatlarni Farg‘ona viloyatiga kelib joylashgani jamiyatni ijtimoiy iqtisodiy, ma‘naviy dunyoqarashida: totuvlik, tolerantlik, bag‘rikenglik, hamjixatlik, kelishuvchanlik, boshqa millat dinini va qadriyatlarini xurmat qilish kabi tushunchalar millatimizga xos ekanligi o‘z isbotini topdi.

Respublikamizni turli xududlarida jadallik bilan o‘sib borayotgan mehnat migratsiyasi jamiyatimiz ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotiga ta‘sirini o‘rganar ekanmiz, asosiy urg‘uni migratsiya jarayonlari dinamikasiga ta‘sir etuvchi omillarga qaratib, unda aholini turli qatlamlari vakillarining fikrlarini o‘rgandik.

¹⁴⁷ Темиров З. А. Фарг‘она минтақаси aholиси миллий таркибидаги ўзгаришлар. "Science and Education" Scientific Journal Volume 1, Issue 1. www.openscience.uz

¹⁴⁸ Темиров З. А. Фарг‘она минтақаси aholиси миллий таркибидаги ўзгаришлар. "Science and Education" Scientific Journal Volume 1, Issue 1. www.openscience.uz

O‘tkazilgan tadqiqot asosini empirik ma’lumotlar, turli xil hujjat, O‘zbekiston Respublikasi statistikasi ma’lumotlari, jamoatchilik markazi tadqiqotlari, rasmiy saytlar va materiallar mazmunini qiyosiy tahlil qilish tashkil etadi¹⁴⁹.

So‘rovlarda respublikamizni Farg‘ona¹⁵⁰, Andijon¹⁵¹, Namangan¹⁵² va Buxoro viloyatlari va Toshkent shahri da 18 dan 65 yoshgacha bo‘lgan respondentlar ishtirok etdilar.

Tadqiqotda 1024 kishi ishtirok etdi, ulardan 66% erkak va 34% ayollardan iborat. Respondentlarning katta qismi 28 yoshdan 40 yoshgacha (46%), o‘rta maxsus (25%) va o‘rta ma’lumotga (28%) ega bo‘lganlar tashkil etdi. Bular orasida, oliy ma’lumotli respondentlarning salmog‘i 20% (bakalavr darajasini tugatgan 17%, 3% - magistratura) tashkil etgan.

O‘zbekiston Respublikasi xalqaro mehnat migratsiyasida donor mamlakat sifatida ishtirok etar ekan, ishchi kuchi eksporti jamiyat iqtisodiyoti taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatishiga oid savol bilan murojat qildik.

¹⁴⁹ Статистические материалы, представленные Министерством Внутренних Дел, Государственным комитетом Республики Узбекистан по статистике, а также информация полученная из открытых источников.

¹⁵⁰ Фаргона вилояти Фарг‘она шаҳар, Мотурудий кўчаси Гулистон МФЙ, Юксалиш кўчаси Фаргона вилояти Данг‘ага тумани «Боғиш», «Чинобод», «Санам» МФЙ

Фаргона вилояти Богдод тумани Бекобод МФЙ, Юкори маҳалла, куйи маҳалла кўчалари

¹⁵¹ Андижон вилояти Андижон шаҳар, Лайли МФЙ, Мироб, Шодлик кўчаси


Андижон вилояти Пахтаобод тумани, Пайноб, Илтифот, Дўнг қишлоқ МФЙ.

Андижон вилояти Қўрг‘онтепа тумани Мустақиллик, Бобур Қўрг‘онтепа маҳаллари

¹⁵² Наманган вилояти Наманган шаҳри, Янги тор МФЙ, Учунчи кичик ноҳия, Тинчлик кўчаси

Наманган вилояти, Тўрақўрғон тумани Истиқлол, Чуст кўприк, Бекобод МФЙ

Наманган вилояти, Учқўрғон тумани, Истиқлол, Катта чек, Эшон тўпи МФЙ.




Jamiyatimiz farovonligini ta'minlashda mehnat migratsiyasi ahamiyatini aniqlash bo'yicha olingan javoblar

Quyidagi savol orqali jamiyatimizda mehnat migratsiyasini roli mavjudligini aniqlashdan iborat. Olingan javoblardan ma'lumki, aholining katta qismi (34%), katta ta'sir qiladi deb javob bergan bo'lsa, yana boshqalari shunchaki ta'siri bor (16%), qolgan qismi esa sezilarli deb (9%) fikr bildirdi. Aholining 3% ta'siri yo'q deb javob berishdi.

Darxaqiqat, mehnat migratsiyasi jarayonlari jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyasiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri sanaladi. Respublikamizda mehnat migratsiya jarayonlarining to'g'ri va samarali tashkil etilishi aholi farovonligini ta'minlash bilan birga, mamlakatimizda mehnat migratsiyasi davlat tomonidan tartibga solinib kelinmoqda.

Keyingi savol Farg'ona tumanlarida 250 nafar fuqarolarga (xorijda 3 yildan kam bo'lmagan migrantlar), O'zbekiston fuqarolari uchun chet elda ish topishning asosiy sababi nima deb o'ylaysiz? deb so'raldi.




3.2.5-Jadval. Mehnat migrantlarning xorijiy davlatlarga ishlash uchun ketishni asosiy omillarini o‘rganish maqsadida tuzilgan.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston fuqarolari uchun xorijda ishlashlarining asosiy sababi ish haqqining nisbatan pastligi (56%), turmush shariotlarini yaxshilash (26%), ayrimlari mutahassisligi bo‘yicha yashash xududlarida ish o‘rinlarni tanqisligi (23%) va sohasi bo‘yicha ish topish qiyin (21%) deb javob berishdi. Bu raqamlardan ko‘rinib turibdi, aholi bandligini ta‘minlash chora-tadbirlarini amalga oshirish bilan birga ularga to‘lanadigan maosh darajasini ham oshirish, mutahassislik bo‘yicha chekka tuman va qishloqlarga ham ish o‘rinlarni ko‘paytirishga e‘tibor qaratilishi lozim degan fikrlarni bildirdilar.

Qayt etib o‘tish kerakki, mamlakatimizda ushbu dolzarb masalaga jiddiy e‘tibor qaralilib, aniq manzilli chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Uning maqsadi aholini ish bilan ta‘minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni hududlar bunday manzilli dasturlar sifati va ko‘lamining yanada oshirilishi, demografik va mehnat bozori omillarini inobatga olgan holda bandlikning samarali usullarini rivojlantirishga ko‘maklashishdan iborat. Respublikamizda aholini bandligini oshirish maqsadida yangi ish o‘rinlarini yaratish bo‘yicha davlat siyosati o‘z natijalarini bermoqda (aholi ish joyini tanlash imkoniyatiga ega).

Navbatdagi savolimiz Respublikamizdan ketayotgan aholilar asosan xorijda yaxshi mablag‘ bilan qaytish uchun taxminiy qancha muddatga borishni maqul qo‘rasiz?



3.2.6. Jadval. Quyidagi savolimiz orqali biz mehnat migratsiyasi orqali aholining ko‘zlagan daromadiga ega bo‘lish uchun qancha vaqt talab etilishini o‘rganish uchun alohida savol tuzildi. Unga ko‘ra aholining aksariyat qismi ikki yil muxojirlikda yashagan odam ko‘zlagan maqsadiga erishish mumkiligini bildirdi. Yana bir muhim jihati, mehnat migratsiyasi oilalarni moddiy daromadini ortirishi natijasida oilasi uchun muhim extiyojlariga ega bo‘lmoqda.

Shuningdek, Farg‘ona vodiysi bo‘yicha olib borgan tadqiqotlarimiz natijalariga ko‘plab migrantlar xorijda ishlashdan mamnunligini bildirishdi. Migrant-respondentlarning fikricha xorijdagi mehnat daromatlarini o‘z oilalariga yuborishlarini ta’kidlab o‘tishgan. Yuborilgan mablag‘larini 10%i faqat birlamchi ehtiyojlarini qoplay oladi, ya’ni oziq-ovqat va dori darmon uchun yetarli ekanligi haqida fikrlar bildirishgan.

Shuni qayd etish kerakki, Markaziy Osiyoda anklav hududlar mavjud bo‘lib,ularning barchasi aynan Farg‘ona vodiysida joylash. Markaziy Osiyo respublikalarining o‘z mustaqilliklarini qo‘lga kiritishlari natijasida Farg‘ona vodiysida eksklavga hududlar vujudga kelganligini ko‘rish mumkin¹⁵³. O‘tgan XX asr boshlarida Markaziy Osiyo mintaqasida milliy – hududiy chegaralanishi bilan bog‘liq siyosatning oqibati sifatida Farg‘ona vodiysida yuzaga kelgan anklav va eksklavlar, u yerda

¹⁵³ Марказий Осиёдаги анклав ҳудудларнинг аксарияти 1924-1927 йиллардаги чегаралаш сиёсати ва 1955 йилдаги Паритет комиссияси қарорлари асосида шакланган бўлса, айрим анклав ҳудудлар (Барак қишлоғ‘и) собиқ Иттифоқ даврида қўшни республикалар фуқаролари томонидан ерларнинг ўзбошимчалик билан ўзлаштирилиши натижасида вужудга келган. - муаллифлар.Алимов Р.М. Проблемы формирования новой архитектуры региональной безопасности в условиях глобализации.(на примере Центральной Азии): Автореф. Дис. докт. полит. наук -Т.: УМЭД. 2006.-С.12.

istiqomat qilayotgan etnik guruhlar turmush tarzini A.Koychiev va Ye.Shuler¹⁵⁴ asarlarida atroflicha tahlil qilingan.

Eksklav xududi aholisining barchasi O‘zbekiston fuqarolari hisoblanib, millat salmog‘i jihatidan tojik va qirg‘izlardan iborat. Ulardan biri Shohimardon hisoblanadi. Ushbu xudud, Qirg‘izistonning Botken viloyati hududi bilan o‘ralgan. Turli ma’lumotlarga ko‘ra, aholisi 5 mingdan 10 ming kishini tashkil etadi. Maydoni 90 km². O‘zbekistonning «asosiy» hududidan 17 km uzoqlikda joylashgan.

3.2.7.Jadval. ¹⁵⁵



Farg‘ona vodiysidagi anklav/eksklav hududlar

Shohimardon Janubiy va Shimoliy qismlarga bo‘lingan. Aholisi asosan o‘zbek va qirg‘iz millatiga mansub. Shohimardonda milliy tarixiy obidalardan biri, Hamza Hakimzoda Niyoziyning qabri, xalifa Aliga bag‘ishlab qurilgan maqbara hamda 1766 yil zilzilalar oqibatida paydo bo‘lgan tog‘ ko‘li Qurbonko‘l (Moviyo‘l) ushbu hududda joylashgan. Yana bir xudud Jangayl bo‘lib, ushbu eksklav hudud ham Qirg‘izistonning Botken viloyati hududida joylashgan. Ma’muriy tuzilishidan Farg‘ona tumani deb

¹⁵⁴ Qarang. Ш. З.Жумаханов, Н. С. Мирзаахмедов, И. Р.Солиев./Анклава ва эксклава хуудлар географияси/ “Наманган нашриёти”, 2014 й.5-9 бетлар.

¹⁵⁵ <https://admin.ishonch.uz/media/dropzone/news/2023/11/23>

yuritiladi. Eksklav maydoni 1 km²dan kichikroq. Ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra, eksklav hududida deyarli hech kim istiqomat qilmaydi¹⁵⁶.

Shuningdek, Farg‘ona viloyati hududiy tuzilmasiga kiruvchi So‘x eksklav tumani mavjud bo‘lib, keyinchalik Rishton tumani hududiga kiritilgan bo‘lib, 1990 yil 27 fevral kuni So‘x tumani qayta tashkil etiladi. Ma’muriy markazi Ravon shaharchasida joylashgan.

Tuman Qirg‘izistonning Botken viloyati hududi (Botken va Qadamjoy tumanlari oralig‘ida) bilan o‘ralgan. So‘x aholisi va maydoni jihatidan dunyodagi eng katta eksklav hudud hisoblanadi. Maydoni 352 km². So‘x hududida 80 mingga yaqin aholi istiqomat qiladi. Aholining 99 foizi tojik millatiga mansub, 0,7 foizi qirg‘iz va 0,1 foizi o‘zbek va boshqa millatlar vakillaridir¹⁵⁷.

Hususan Farg‘ona viloyatining eksklav xududlaridan bo‘lgan So‘h tumani aholisini o‘rganish jarayonida, tumanning aksariyat aholisi qishlog‘ xo‘jaligi bilan shug‘illanishi (bog‘dorchilik, sabzavodchilik, kartoshkachilik) aniqlandi, bu esa mavsumiy daromat olishga ega ekanligini bildirib, unda ta’biy iqlim va trans chegaraviy suv manbalaridan (buloqlar) tarmoqlaridan (ariqlar) foydalanishda nizolar mavjud. Mazkur holat aholi orasida mehnat migratsiyasini vujudga kelishiga va ko‘laming kengayishiga ta’sir etuvchi omil vazifasini bajaradi.

Shu bilan birgalikda, qisman javoblar ichida goh gohida yuzaga kelgan xududiy (chegara) muommolar ham migratsiyani shakillantiruvchi omillardan biri sifatida qaraladi.

Olib borilgan so‘rovlar natijasiga tayanib, bizning fikrimizcha Farg‘ona viloyati So‘h tumani chegara xududi buyicha belgilanishi “*delimitatsiya*”ni (chegaralarni belgilash) oxiriga yetkazish nizoliy xududlar (chegaralar) bo‘yicha yakuniy yechimga kelish va buning asosida “*demarkatsiya*” (chegarani o‘rash) ishlarini amalga oshirish talab etiladi.

¹⁵⁶ Пирназаров Р.Т., Никматов Ф.Н. Тўғ‘онли кўлларнинг гидрометеорологик режими ва улар хавфини камайтириш масалалари (Qurbonқўл мисолида). –Т.: Фан ва технология. 2013. 5-б.

¹⁵⁷ Қаранг. Ш. З.Жумаханов, Н. С. Мирзааҳмедов, И. Р.Солиев./Анклав ва эсклав худудлар географияси/ “Наманган нашриёти”, 2014 й.102 бет.

Navbatdagi savolimiz So‘h tumani aholisidan, mehnat muxojirlikda ishlab topgan pullarini nimalarga sarf etasiz? Degan savol orqali quyidagicha javoblarga ega bo‘ldik.

Mehnat migranti respondentlar o‘z mablag‘larini 28%ni oila ehtiyojlari uchun sarflansa, ishlab topgan pullarini asosini 33%ni uy sotib olishga yoki uy qurishga sarflayman deb javob berdi, 31% respondent tuy va boshqa marosimlarga sarflashi, yana bir qismi esa ishlab topgan pullarini 22%ni bolalarini bilimini oshirishga sarflashlarini ko‘rsatib o‘tishgan bo‘lsa, 15% respondent esa ishlab topgan pullarini hisobiga o‘z bizneslarini yo‘lga qo‘yishga yo‘naltirilganliklarini aytib o‘tishgan. Olib borilgan so‘rovda yana bir holat ma‘lum bo‘ldi, unga ko‘ra daromadining 2%i muxojirlar o‘zlari ishlab turgan davlat fuqarologini olish uchun sarflaganliklarini ko‘rsatib o‘tishgan. Respondentning 1% boshqa yo‘nalishlarga mablag‘in ishlatganini bildirishdi.

Yuqoridagi javoblardan keli chiqib, tashqi mehnat migratsiyasini noqonuniy xarakatlanayotganligi migrantlar mablag‘ini bexuda, ortiqcha sarf bo‘layotganini ko‘rishimiz mumkin.

Ushbu holatlarni oldini olish maqsadida, Respublikamizda keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijasida ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti shakllantirildi. Mintaqamiz aholisi farovonligini ta‘minlanishida, jamiyatimizni barcha sohalari taraqqiyotiga erishish yo‘lida, mavjud bo‘lgan mehnat salohiyatidan unumli foydalanishga erishishni ta‘minlovchi muhim omillardan biri bo‘lib hisoblanadi. Jamiyat aholisi farovonligini ta‘milash maqsadida, 2020-2021 yillarda Farg‘ona viloyatining So‘x tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ¹⁵⁸ qarori qabul qilinishi, ushbu tumanining mavjud resurslaridan samarali foydalanish, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini modernizatsiyalash, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmalarini rivojlantirish, sanoat salohiyatini yanada oshirish, qishloq xo‘jaligi, servis va xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash, shuningdek, aholi bandligini ta‘minlash va daromadlarini oshirish hisobiga tuman aholisining turmush darajasini yaxshilanishiga erishildi.

¹⁵⁸ <https://president.uz/uz/lists/view/3761>

Shuningdek, ekspertlarning fikricha, davlatimiz tomonidan mehnat migratsiyasi bo'yicha konsepsiya yaratish hamda shu tizim yo'nalishda huquqiy jihatdan takomillashtirish, *institutsional boshqarish, funksional strukturaviy tizimni modernizatsiyalash*ni taqozo qiladi.

Shu jumladan, Farg'ona viloyati azaldan dehqonchilik madaniyati rivojlangan xudud bo'lib, respublikaning Surxandaryo, Sirdaryo, Jizzax viloyatlarida 2-jaxon urushidan keyingi yillarda Farg'ona viloyati dehqonlarining ko'chirish (ichki migratsiya) siyosati ijobiy natija berganligini e'tiborga olib, respublikaning Qashqadaryo, Jizzax, Navoiy, Sirdaryo viloyatlariga Farg'onalik mirishkor dehqonlarni ko'chirish vodiydagi keskinlikni yumshatish, yoshlarni ish bilan ta'minlashda muhim omil bo'lishi mumkin¹⁵⁹.

Xulosa qilib aytganda, hududning migratsion holati, unga ta'sir etuvchi omillar xilma-xilma bo'lib, Farg'ona viloyatida ishchi kuchi migratsiyasi vujudga kelishining mintaqaviy, demografik va sotsial xususiyatlarini tadqiq etish uchun mazkur muammoga e'tiborni kuchaytirish talab etilyabdi.

3.3. Bo'lim. Jamiyatimizda mehnat migratsiyasini tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari

Zamonaviy dunyoda globallasuv tendensiyalari Yer sayyorasida yashayotgan har bir inson xayoti, turmush tarziga shu o'rinda, migratsiya jarayonlari mintaqaviy xavfsizligiga o'z ta'sirini ko'rsatmokda.

Shunga ko'ra migratsiya jarayonlarini tartibga solish va mehnat migranlari va ularning oila a'zolarini qonuniy ximoyasini takomillashtirish bo'yicha davlat siyosatini ishlab chiqish uchun asosan mehnat migratsion jarayonlarni tuzilishi va harakatlanishida davlat boshvaruv mehanizmining asosiy elementlarini shakillanishini tahlil qilishni talab etadi.

O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichi, jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv jarayonlari migratsiya sohasidagi migratsion jarayonlar va ularning

¹⁵⁹Қаранг. “Ўзбекистон калхоз ва сафхозлари тарихи” XI-жилд. Тошкент. Ўзбекистон-1983й.

xarakatlanishi masalalarida uchraydigan ayrim holatlarni qayta ko‘rib chiqishni taqazo etmoqda.

Shu o‘rinda, migratsion jarayonlarni turli davlat organlari va institutlarni, shu jumladan, migratsiya sohasidagi xalqaro tashkilotlar, nodavlat va jamoat tuzilmalarini jalb qiladigan yangi vazifalar qo‘yiladi.

Mehnat migratsiyasi bilan bog‘liq xarakatlar ayrim davlatlar mehnat muhojirlarini kabul kiluvchi resipient davlatga yoki bo‘lmasam ularni xalkaro maydonga takdim etuvchi donor mamlakatga, shuningdek bir vaqtning o‘zida xam resipient, xam donor mamlakatga aylanib bormoqda. Shuni aniq ayta olamizki, mehnat migratsiyasi jarayoni xech kaysi bir davlat chetda koldirgani yo‘q.

Shu o‘rinda, axoli mehnat migratsiyasining ta‘sirini jamiyatimizdagi ijtimoiy, iktisodiy, siyosiy, madaniy, axloqiy jarayonlarga ta‘sirini kuzatishimiz mumkin.

Mamlakatimiz mustakillikka erishgan dastlabki yillarida ishsizlik, iktisodiy kiyinchiliklar, ijtimoiy himoya tizimidagi kamchiliklar kabi muammolar tufayli respublikamizda mexnat migratsiyasiga ko‘plab iktisodiy kiyinchiliklar, ijtimoiy muammolarning yechimlaridan biri sifatida qaralgan. Buning natijasida bugungi kunga kelib O‘zbekiston xalqaro miqyosda migrantlarni takdim etuvchi, yetkazib beruchi *donor* mamlakatga aylandi.

Respublika taqdim qilgan statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, 2023 yilning 1 iyul holatiga respublika bo‘yicha doimiy yashovchi aholi soni 36 372,3 ming kishini tashkil etadi. Bu qiymat 2022 yil mos davriga nisbatan 2,2 foizga ko‘paygan¹⁶⁰.

Bandlik va mexnat munosabatlari vazirligi xuzuridagi Tashki mexnat migratsiyasi agentligining ma‘lumotiga kura, 2022 yilgi ma‘lumotga ko‘ra xorij davlatida ishlayotgan o‘zbekistonlik mehnat migrantlari soni 2 mln.dan ortib ketganligini bildirib, ularning 1,5 mln nafari Rossiyada faoliyat yuritayotgani aytilgan¹⁶¹. Shu o‘rinda «Kazinform» xalqaro axborot agentligi Mehnat vazirligi matbuot xizmati bergan ma‘lumotga ko‘ra, 2022 yil holatida Qozog‘istonda jami 16 ming 424 xorijlik mexnat muhojirlari mahalliy ijro orgonlari ruxsati bilan mehnat faoliyatini olib bormoqda¹⁶²,

¹⁶⁰ Ўзбекистон Республикаси статистика агентлиги маълумоти.2023 йил.

¹⁶¹ <https://kun.uz/news/2022/12/13/xorijda-bolib-turgan-ozbekistonlik-migrantlar-soni-malum-qilindi>

¹⁶² https://uza.uz/uz/posts/qozogistonda-qancha-xorizhiy-fuqarolar-ishlayotgani-malum-qilindi_384376

shundan o'zbekistonlik mehnat migrantlari soni bo'yicha uchinchi o'rinda ekanligi ma'lum bo'ldi.

Yuqorida keltirilgan, rasmiy ma'lumotlarga asoslanib, O'zbekistonning mehnatga layoqatli yoshdagi fuqarolarning umumiy soni deyarli 13,3 foiz, doimiy o'rtacha aholining esa deyarli 5,7 foizi esa mehnat muhojiri sifatida mamlakatni tark etgan deb hisoblaymiz. Umumani mamlakatni tark etgan fuqarolarni aypim qismi ta'lim, davolanish kabi maksadlarda harakatlanadi, ya'ni boshqa davlatda kamida uch oy istiqomat qilgan insonlar xam migrant sifatida tasnif qilinadi. Ayrim holatlarni ham alohida ko'rsatib o'tish kerakki, ba'zi o'zbekistonlik migrantlar illegal migratsiyani sodir etib (immigratsion tartiblarga zid holatda) yoki migratsiya maqsadini o'zgartirgan holatda ko'rsatib (masalan, turizm, shaxsiy maqsadlar kabi) mamlakatni tark etishadi.

Achinarlisi shundaki, O'zbekistonda haligacha migratsiya jarayonlarini samarali tartibga solishga qaratilgan alohida strategik hujjatning mavjud emasligi yoki tashki migrantlarning aniq miqdorini tahlil qilgan ma'lumotlar bazasi yoki statistik hisobotlar mavjud emas. So'ngi yillarda mamlakat hukumati tomonidan migratsion jarayonlarni, asosan mehnat migratsiyasini tartibga solishga qaratilgan bir qancha qarorlar qabul qilindi. Albatta, bu qarorlar migratsiyaning ayrim jihatlarini tartibga solish imkonini beradi, ammo boshqa muhim omillarni ham ko'zdan qochirmaslik kerak, masalan, qochoqlar masalalarini hal qilish, xorijiy muhojirlar soni va ular uchun aniq kvotalarni belgilanishi, shuningdek ularni O'zbekistondagi mehnat faoliyati, mamlakatga chet eldan qaytgan mehnat migrantlarining moslashuvi va reintegratsiya qilinishi, sog'liqni saqlash, migrant oilalariga ijtimoiy ko'mak berish va mavjud muommolarini hal etilishi, mehnat migratsiyasi oqibatida kelib chiqadigan salbiy omillarni kamaytirilishi va migrantlar xavfsizligi kabi masalalar chetda qolib ketmoqda.

Shu o'rinda bizning mintal, sotsium muhitimizga salbiy ta'sir etayotgan sabablardan biri, aholining har qandan omil ta'sirida mamlakatni tark etish, ya'ni tashki migratsiya ma'lum darajada jamiyatimizdagi axloqiy va ma'naviy muhit transformatsiyasiga ta'sir etmokda. Bunda aholining boshqa mamlakatga ko'chib, yangi sotsiumga hos ahloqiy muhit bilan munosabatga kirishishi natijasida assimilyatsiya jarayoni, shaxslarning ahloqiy fazilatidagi o'zgarishlar nafaqat muhojirlarning o'ziga

tegishli individual transformatsiyasiga emas, balki sotsial-ahloqiy muxit o'zgarishiga (oila va farzandlari) ham sabab bo'ladi.

Shu sababli xam, yangi O'zbekistan Respublikasida davlat migratsiya jarayonini, fuqarolarning xorijda istiqomat kilishlari, ishlash sharoiti holati, ularning sog'lig'ini sug'urtasi, xavfsizligi yoki ta'lim olish maqsadida chet elga ketishlarini tartibga solishning ma'lum tizimi shakllantirilgan. Unda davlatning migratsion siyosati umuminsoniy va milliy ahloqiy qadriyatlar, insonparvarlik - unda inson qadri muhimligi, vatanparvarlik, xalqlararo hamjihatlik, millatparvarlik, bag'rikenglik kabi ahloq tamoyillariga asoslanib, davlatimiz qonunchilik tizimida ham migratsiya masalasiga alohida ahamiyat berila boshlanib, unga ko'ra migratsion qonuniyatlar shaxslarning xavfsizligi, qadr qimmatini bilan bir qatorda millatparvarlik, vatanparvarlik kabi ahloqiy tamoyillar asosida shakllantirildi.

Yangi O'zbekistonni siyosiy jarayonida mamlakatimizda migratsiya sohasini tartibga solishning qonuniy normalarga asoslangan xukukiy-me'yoriy tizimi yaratilib, ushbu tizimning asosida mehnat migratsiyasi jarayonini amalga oshirishdagi tartib intizom va ularning ahloqiy majburiyatlari, chet elga ketayotgan shaxslarning monomarkazlar tomonidan tillarni o'qitilishi, malakaviy savodxonligini oshirishi hamda chet eldan qaytib kelayotgan fuqarolarning ish bilan ta'minlanishi kabi masalalarga aloxida e'tibor karatilib kelinib, ammo ayrim muommoli masalar ustida yanada nazoratni kuchaytirish kabi majburiyatlar yuklanmoqda.

Davlat xukumati tomonidan qonuniy tartibda belgilangan xujjatlar sirasiga 2019 yil 20 avgustdagi PF-5785-sonli «Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va ularning oila a'zolarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish choralari to'g'risida»gi Prezident farmoni, 2018 yil 5 iyuldagi PQ-3839-sonli «O'zbekiston Respublikasining tashqi mehnat migratsiyasi tizimini yanadi takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2020 yil 15 sentabrdagi PQ-4829-sonli «Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2021 yil 30 iyuldagi PQ-5205-sonli «Horijga tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasiga ketayotgan fuqarolarni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2021 yil

11 avgustdagi PQ-5220-sonli ««Vatandoshlar» jamoat fondini tashkil etish to‘g‘risida»gi Prezident qarorlarini asos qilishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi prizidenti qarorlari va farmonlariga binoan, davlatimiz siyosatidagi islohotlar va navbatdagi institutsional islohatning yangi tuzilmalar faoliyati yo‘nalishlarini aniq funksional tahlil qilish bilan birga, ularning har tomonlama sifatli va yuqori natijaga yo‘naltirilgan o‘zaro hamkorligini mustahkamlash, zimmasidagi vazifalarni samarali bajaradigan, hususan, mamlakat aholisi manfaatlarini ko‘zlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashga qaratilishi talab etiladi.

Olib borilgan izlanishlarimiz, O‘zbekiston Respublikasida davlat siyosati va mehnat migratsiyani tartibga solish va boshqarish samaradorligini tahlil qilishimiz natijasiga ko‘ra quyidagi muammolar aniqlandi:

- ichki va tashqi migratsiya, majburiy mehnat migratqiyasi, qochoqlar masalasi kabi muommolarni kamaytirishga va tartibga solishda qonunchilik bazasida qonun me‘yorlarini to‘liq emasligi;

- tashqi migratsiya, shuningdek mehnat migratsiyasi jarayonlarining turli parametrlari, ko‘rsatkichlari bo‘yicha to‘liq statistik ma‘lumotlarning yo‘qligi;

- migratsiya jarayonlarini tartibga solish bo‘yicha aniq modul, dastur va chora-tadbirlarning to‘liq emasligi;

- mehnat muhojirligida yurgan fuqarolarni muammolarini hal qilishda davlat organlari bilan nodavlat va jamoat tashkilotlarining o‘zaro hamkorligi sust ekanligi;

Yuqorida aniqlangan muommolarni o‘rganish bilan birga mamlakatda mehnat migratsiyasini keltirib chiqaruvchi omillarni ko‘rsatib o‘tamiz.

Migratsiya jarayonlari negativ ta‘sirining sotsiologik taxlili va bu jarayonga preventiv ta‘siri yondoshuv bo‘yicha tavsiyalar

O‘ZBEKISTONDA AHOLI MEHNAT MIGRATSIYASIGA TURTKI BO‘LUVCHI ASOSIY OMILLAR

3.3.1. Jadval

| TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR (kuchayti) | TASHQI OMILLAR | ICHKI OMILLAR |
|-----------------------------------|---|--|
| | - rivojlangan mamlakatlarda ishchi kuchiga bo‘lg talabning yuqoriligi | - ishchi kuchi eksportini rag‘batlantirish bo‘yicha davlat dasturlari mavjudligi |
| | - xorijiy mamlakatlarda ish haqining yuqori daraj | - maoshning nisbatan pastligi |

| | | |
|---------------------------|--|---|
| | - xorijiy davlatlarga kirish uchun viza berish tartiblarini soddalashtirilishi | - ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanmaganligi |
| | - xorijiy davlatlarning mehnat bozorlarini erkinligi | - mehnat bozorida talabning pastligi |
| | - ratsipient mamlakatning mehnat muhojirlariga nisbatan munosabatining yaxshiligi | - mehnat faoliyatidagi adolatsizlik |
| | - xorijiy mamlakatlardagi etnik diasporalarning rivojlanishi va samaradorligi | - etnik va siyosiy nizolar tufayli qochoqlar |
| | - qabul qiluvchi mamlakatlar bilan yetkazib beruvchi davlatning mentaliteti, madaniyati, an'analarining o'xshashligi | - moliyaviy ehtiyojlar bilan bog'liq og'ir oilaviy sharoitlar (kasallik, uy sotib olish va boshqalar) |
| | - Ish joylari sharoitlarining qulayligi | - tadbirkorlik faoliyatining past rentabelligi |
| | - iqlimning mo'tadilligi, ishlashga xalaqit qilmasligi | - mamlakatdagi ekologik vaziyatning yomonlashishi |
| ChEKLOVCHI OMILLAR | - qabul qiluvchi davlatga kirish uchun viza tartiblarini olishning qiyinligi | - mamlakat ichida ish haqining o'sishi |
| | - xorijiy mamlakatlarda iqtisodiy tanazzulga ta'sir qiluvchi iqtisodiy va boshqa turdagi inqirozlar | - mamlakat ichidagi siyosiy barqarorlik |
| | - qabul qiluvchi jamiyat aholisining migrantlarga nisbatan ksenofobiyasi | - bandlik imkoniyatlarini kengaytirish |
| | - mentalitet, madaniyat va urf-odatlardagi tubdan farq qilishi | - mustahkam ijtimoiy aloqalarning o'rnatilishi |
| | - jinoyatchilikning yuqori darajasi va migrantlar hayoti xavfsizligiga tahdidni ortishi | - mehnat migratsiyasi maqsadlarida chiqish uchun viza tartiblarini murakkablashtirish |
| | - ijtimoiy himoyaning mavjud emasligi mehnat va yashash sharoitlarining og'irligi | - chet elda ishga kirishning yuqori xarajatlarini mavjudligi |

Jadval dissertatsiya muallifi tomonidan ishlab chiqilgan

Tadqiqot ishimizning ushbu bo'limida biz migratsiya jarayonlarining eng muhim omillari *kuchaytiruvchi* va *cheklovchi* usullarini aniqlashga xarakat qildik. O'ylaymizki, bu omillarni o'rganish va uni aniq tahlil qilish orqali O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlarini hisobga olgan holda migratsiya sohasida muayyan davlat siyosatini yuritishga ko'mak beradi (3.3.1-jadval).

Bundan tashqari, respublikamizda mehnat migratsiyasi jarayonlariniga ta'sir etuvchi yuqoridagi omillarni sotsiologik taxlili nafaqat bizning davlatimizga, balki boshqa mamlakatlar uchun ham muhim va dolzarb hisoblanib, ko'rsatilgan yoki boshqa turdagi omillarning ahamiyatini bir biriga ta'siri va konsentratsiyasi mehnat migratsiyasi jarayonlarining xarakatlanishi va dinamikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Shu o'rinda, mehnat migratsiyasi jarayonlarini o'rganish bilan bog'liq masalalarni sotsiologik tadqiqotlar orqali mamlakatimizda muntazam ravishda olib boriladi, jumladan, 2024-yilda respublikamizda aholini ro'yxatga olish jarayonlari o'tkazilishi rejalashtirilganligi muhim ahamiyatga ega. Aholini ro'yxatga olish natijasida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarini prognozlash, aholi bandligi ta'minlanishi dasturini belgilash, ijtimoiy siyosat dasturlari va aholi salomatligi muommolarini erta aniqlash, shuningdek, davlat organlarining zimmasidagi vazifalarini bajarishi, fan

rivojlanishi uchun aholi to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'lishni ta'minlaydi. Aholini ro'yhatga olishda mamlakatda shaxslarning aniq soni (yoshi va jinsi, fuqaroligi, milliy tarkibi (kompleks), barcha aholi punktlarida shaxslarning oilaviy ahvoli, sotsial yordam ko'rsatish darajasi, uy-joy bilan ta'minlanish darajasi, bandlik (kasb va mutaxassislik) va ishsizlikning aniq ko'rsatkichi, oilalarning daromad manbalari, aholi orasida nogironligi bor shaxslarning aniq soniga ega bo'lamiz degan umiddamiz. Bundan ko'zlangan maqsad, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi, ichki ishlar va chegara xizmatlari, mamlakatimiz ilmiy muassasalari respublikada aholi migratsiyasi to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'lish bilan bir qatorda, qashshoqlikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan chora tadbirlarni tuzishga ham imkon bo'ladi.

Mamlakatimizdagi migratsiya siyosati shaxslarning ma'naviy mafkuraviy qarashlari bilan ham chambarchas bog'lik bo'lib, uning mohiyati har bir migrantning hayoti, salomatligi, sha'ni, qadr-qimmatini, muhimligi kabi uning dunyoqarashi, vatanparvarlik xarakteri, ahlokiy prinsipi, ma'naviy tamoyillarga asoslanadi.

Afsuski, migratsiya jarayonlari muammolari qatorida mamlakatning ayrim migrantlari turli xalqaro guruxlarning mafkuraviy ta'siriga tushib qolayotganligi xususan, ular turli ekstremistik guruhlar safiga jalb etilayotganligi, yoki boshqa davlatlar hududidagi jangovar harakatlarga jalb qilinayotganligini alohida ta'kidlash joiz. Bunga misol tariqasida, Suriya, Livan, Afg'oniston, Ukraina va boshqalardagi vaziyatlarda ham kuzatish mumkin.

O'zbekiston migratsiya sohasidagi olib borilayotgan siyosatida ham kuzatishimiz mumkinki, har qanday holatda ham xukumatimiz o'z fuqarolarining huquq va erkinliklarini, qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan dasturni joriy etadi.

Tadqiqot ishimizda "O'zbekistonlik migrantlarda vayronkor g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishda yangi modulni" ishlab chiqilgan. Ushbu modul O'zbekistonda migratsiya ko'lamini va halqaro tamoyillar xususiyatlarini hisobga olgan holda mamlakatning statistika tizimini takomillashtirish bo'yicha zarur kursatmalar belgilangan.

O'zbekistonlik migrantlar ma'naviy qarashida yod g'oyalarga qarshi "mafkuraviy immunitet" ni shakllantirishga oid modul (metodologik yondoshuv)

3.3.2. Jadval

| nomlanishi | taxdidlar | yondoshuv usullari |
|-----------------------------|---|--|
| Mafkuraviy taxdidlar | <p>Mamlakatimiz fuqarolari sanalgan mehnat muhojirlaridan o'tgan yillar davomida xorijiy turli tashkilotlar, jismoniy shaxslar, turli xarakterdagi guruxlar, jumladan, diniy qarashlar insonlar onginizaxarlashda mafkuraviy ta'siri ob'ektiga aylangan. Xususan, ular turli hil ekstremistik guruxlar domiga tushib qolishi, ular safiga qo'shilishi shuningdek, boshqa davlatlar hududidagi jangovar harakatlarga jalb qilinishi kabi taxdidlar xavfi kuchaymoqda. Bu holatni Suriya, Liviya, Afg'oniston, Ukrainadagi vaziyatda kuzatish mumkin.</p> | <p>mehnat migrantlari o'rtasida "mafkuraviy immunitet"ni hosil qilish mexanizmlarini shakllantirish davlatning muhim vazifa hisoblanadi. Biz mafkuraviy immunitetni muhim ma'naviy-axloqiy me'yor sifatida tushunamiz, bu odamlarga yot mafkura va yod g'oyalar targ'ibotning ta'siriga qarshi kurashishda inson o'zini anglab yetishi va bu g'oyalar ta'siriga tushish oqibati o'ta xavfli ekanini xaqida chet mamlakatda bizning nodavlat tashkilotlarimiz tomonidan targ'ibot ishlarini kuchaytirish lozim. Bu holatlar aynan boshqa mamlakatlarda, boshqa begona madaniy va ijtimoiy muhitda bo'lgan muhojirlar bilan ishlash dolzarbdir. Mehnat muhojirlarining, xususan, MDH davlatlarida, asosan o'rta ta'lim darajasiga ega bo'lgan yoshlar, shuningdek, ishsizlar va ehtiyojmand fuqarolar tashkil etishini inobatga olsak, ular yot g'oyalar va ta'sirlarga oson moyil bo'lib qoladilar. Shuning uchun migratsiya sohasida tadqiqotlarni kuchaytirish, jumladan, aholining mehnat migratsiyasini, migratsion jarayonining jamiyat hayotiga, turli jabhalariga ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini tahlil qilishni faollashtirish zarur.</p> |

| | | |
|---------------------------------|--|---|
| <p>Ob'ekt va maqsadi</p> | <p>Oxirgi yillar davomida dunyoda turli buzg'unchi kuchlar, guruhlar, agentliklar va nodavlat tashkilotlarning ta'siri sezilarli darajada kuchayishi bilan bir qatorda, mafkuraviy ta'sir va axborot hujumi xavfi jumladan, etnik adovat, millatchilik, diniy ekstremizm va terrorizmni qo'zg'atishga qaratilgan xarakterlar ortib bormoqda. Bundan tashqari, internet tarmog'ida va ijtimoiy guruhlarida maxsus yaratilgan axborot resurslari yoshlar ongini zaxarlab, turli buzg'unchi harakatlar va ba'zi oqimlarga qiziqish uyg'otishga qaratilgan.</p> <p>Tahdidlar orasida keng tarqalgan harakatlardan:</p> <ul style="list-style-type: none"> - radikal diniy tashkilotlar orqali migrantlarni ma'naviy dunyosini o'zgartirish oqibatida o'z maqsadlari erishish; - xorijiy razvedka agentlari xizmatchilari migrantlardan o'z maqsadida foydalanishi; | <p>Migrantlar bilan ishlashda, eng avvalo, muomila madaniyatiga, shaxslararo muloqatiga, idrok etish va zexniga e'tibor qaratish zarur. Xorijga ishga joylashtirishda nomzotlar bilan muloqot davomida psixologik testlar, kompyuter va shaxsiy psixodiagnostika orqali bilish mumkin.</p> <p>Fuqarolarni horijda uyushgan holda ishga joylashtirish va ular orasida ishonchsiz nomzodlarni aniqlash birinchi navbatda tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligi, hududiy tashkilotlar va xususiy bandlik agentliklari faoliyatiga tatbiq etish zarur.</p> <p>Shu o'rinda mehnat muhojirlari bilan ishlashda yangi psixologik tekshiruv usullarini ishlab chiqish talab etiladi.</p> <p>R.Kettelning "Shaxs hususiyatlarini kompleks baholash" yoki "Shaxsni ko'p faktorli tadqiq qilish metodologiyasi" kabi usullar va testlardan foydalanish shaxsiy xususiyatlarni va ularning mehnat faoliyatining qaysi turlariga qobiliyatligi, shuningdek, ekstremal vaziyatlarda xatti-harakatlarini o'z vaqtida aniqlash imkonini beradi.</p> <p>Shuningdek, ratsipient mamlakatning o'ziga hos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, moslashuvchanlik va bag'rikenglikni, tolerantlik tushunchalarini singdiradigan ixtisoslashtirilgan dasturlarni ishlab chiqish zarur. Guvoxi bo'lganimiz kabi, ayrim mamlakatlarda ekstremizm, separatizm, terrorizm, ksenofobiya va boshqa oqimlarning ta'sirida salbiy ko'rinishlar namoyon bo'lishi tendentsiyalari mavjudligiga e'tibor qaratib, bu sharoitlarda muhojirlarning mafkuraviy va diniy tafakkuridagi yod kuch va g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetini shakillantirish muhim ahamiyatga ega. Tanlov komissiyasi tarkibiga professional psixologlar ham jalb etilishi talab etilmoqda.</p> |
|---------------------------------|--|---|

| | | |
|---|---|---|
| <p style="writing-mode: vertical-rl; transform: rotate(180deg);">Jamoat tashkilotlarining roli</p> | <p>Xorijda jamoat tashkilotlari faoliyati kuzatilmagan.</p> <p>Afsuski, moslashuv markazlarida o‘qitiladigan ma’ruzalar hajmi yetarli emas (1-2 soatlik bir necha ma’ruzalar) va mafkuraviy immunitetni kuchaytirish bilan bog‘liq masalalarni to‘liq qamrab olmaydi.</p> | <p>Muxojirlarni huquq va erkinliklarini himoya qilish maqsadida faoliyat yurituvchi nodavlat notijorat tashkilotlarini jalb etish va ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash orqali maqsadga erishish mumkin. Shu o‘rinda, jamoat tashkilotlarini mavjudligi fuqarolik jamiyatini shakllantirishning eng muhim institutsional hisoblanadi, ular mafkuraviy immunitetni shakllantirish va xorijdagi migrantlar huquqlarni himoya qilishga oqilona yo‘naltirilgan holda ko‘maklashadi. Xorijda mehnat muhojirlari bilan ishlashning eng qulayi, uyushgan milliy diasporalarni shakllantirish xisoblanadi. Diasporalarning uyushganligi katta ahamiyat kasb etib,</p> <p>ko‘plab ijtimoiy va muommoli masalalarni mahalliy darajada tezroq hal etilishi imkonini beradi. Shu bilan birga, doimiy muloqotni yo‘lga qo‘yish, muhojirlar ham davlat, ham jamoat tashkilotlarining doimiy e‘tibor va g‘amxo‘rligini his etishlari uchun hamkorlikda faol ish olib borish, madaniy tadbirlar, konsultatsiyalar berish orqali ular bilan aloqalarni mustaxkamlash zarur.</p> |
| <p style="writing-mode: vertical-rl; transform: rotate(180deg);">Diniy qo‘mitalarning roli(bag‘rikenglik, toleranlilik)</p> | <p>Din har bir o‘zbekistonlikning qalbida, tafakkurida, yuragiga mujassamlashgan. Shuning uchun ham ayrim yoshlar din niqobi ostida olib borilgan targ‘ibotga tez ishonadi, natijada turli xil guruxlarga qo‘shilishi kuzatiladi.</p> | <p>Mehnat muhojirlari bilan ishlash jarayonida diniy qo‘mita vakillarini jalb etilishi maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Diniy ulomalarning ma’ruzalari orqali muxojirlar dinlararo bag‘rikenglik, tolerantlaik kabi tuyg‘ularni xis etishlariga va ko‘p millatli jamiyatning erishgan yutuqlarini ularga ko‘rsatish orqali albatta ularni vatanida yaqinlari kutayotganligi kabi tushunchalarga ega bo‘ladilar.</p> |

| | |
|---|--|
| <p>afkuraviy imunitetni mustahkamlash, yod g'oyalarning salbiy oqibatlarini oldini olishdagi tavsiyalar</p> | <p>Xorijiy mehnat migrantlarida mafkuraviy imunitetni kuchaytirish va migratsiya jarayonida sodir bo'ladigan salbiy oqibatlarni oldini olish uchun quyidagilar takliflarni beramiz:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Xorijda O'zbekistonlik uyushgan diasporalari bilan iqtisodiy va sotsial-madaniy aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan maxsus bo'lim, yoki nodavlat tashkilot O'zbekiston Respublikasining elchixonalari va konsulliklarida shakllanishi ko'p qulayliklarni olib keladi. Xorijdagi vatandoshlarimizga zarur yordam ko'rsatish, ularni huquq va manfaatlarini ijtimoiy himoya qilish, mehnat migrantining milliy imidjini shakllantirish bo'yicha xalqaro munosabatlarni kuchaytirish; - mamlakatni tark etishdan oldin o'qitish va moslashtirish dasturlarini birgalikda olib borilishi; - mehnat muxojirlikka ketayotgan fuqarolarni ilmiy tadqiqotlar shu jumladan, migrant psixologiyasi kabi masalalarni sotsiologik so'rovlar va mavjud vaziyatni tahlil qilish orqali o'rganish zarurati mavjud; - migrant va ularning oilalari o'rtasidagi aloqani mustahkamlash muhimligi to'g'risidagi targ'ibotlar, ularning oilalarini saqlab qolish va muhim tamoil ekanini tushuntirish; - migrantlar bilan doimiy aloqalarni saqlash uchun ijtimoiy tarmoqlardagi axborot platformalarini yo'lga qo'yish zarur. Bunday aloqalarning mavjudligi ularga qarshi yod g'oyalar xavfidan saqlash imkonini beradi. |
|---|--|

Ushbu modul muallif ishlanmasi bo'lib, unda migrantlarda yod g'oyalarga qarshi mafkuraviy imunitetni shakllantirishga oid metodologik yondoshuv

Bizningcha, aholi, mehnat migrantlari tafakkurida “mafkuraviy imunitet”ni shakllantirish mexanizmlarini joriy qilinishi tashqi migratsiya sohasida davlat siyosatini amalga oshirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri xisoblanadi.

Fuqarolarimizning yot g'oyalarga befarqligi, qo'poruvchilik xarakteriga bepisantlik kabi illatlardan ogohlantirish va yuqori darajada hushyorligini ta'minlash zarur.

Yuqorida qayd etilgan uslubiy ishlanmada biz mehnat migrantlarida uchraydigan xavf va tahdidlarni tahlil qildik, migrantlar bilan ishlashda mutahasis va nazorat

tashkiloti zarurligi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqdik. Fuqarolarni chet mamlakatga tanlov qilinayotganda psixologik testdan o'tkazish usullari va yangi turlarini ishlab chiqish zarurligi yoritildi. Quporuvchi guruxlardan ekstremizm, separatizm, ksenofobiya, terrorizmning namoyon bo'lishi bilan bog'liq salbiy oqibatlarni oldini olishga qaratilgan davlatning o'ziga hos xususiyatlaridan kelib chiqib, tolerantlik, bag'rikenglik tamoiliga moslashgan dasturlarni ishlab chiqish zarurati borligi ochib berildi.

Shu o'rinda, ushbu tizim mamlakatimizda migratsiya soxasida amalga oshirilayotgan ishlarning ijtimoiy ma'naviy moxiyatini kursatib berish bilan birga, chet mamlakatga chiqishi mumkin fukarolarining xorijga ketishiga ruxsat berishdan tortib, chet elda bo'lgan vaqtida ular bilan muloqotni amalga oshirish, zarur ijtimoiy yordam ko'rsatish kabi hamda vatanga kaytib jamiyatga, ijtimoiy jarayonga kaytadan moslashguniga qadar e'tibordan chetga chikarmay, xar qanday sharoitda o'z fuqarolarining manfaatlarini himoya kilish kabi vazifalarni bajaradi.

Bunga misol tariqasida, butun dunyoda kuzatilgan Covid-19 pandemiyasidavrida ham O'zbekiston Respublikasi xorijda bo'lib turgan fuqarolarining manfaatlarini himoya qilish, ularni vatanga kaytarish, har tomonlama sog'lig'iga g'amxo'rliq qilish bilan birga, ularni ham moddiy, ham ma'naviy jixatdan qullab-quvvatlash uchun zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirdi.

Yuqorida keltirilgan tahlillarga asosan, shuni alohida ta'kidlash joizki, shu paytgacha xorijiy davlatlarda o'zbek diasporalari "Uyushma" shaklida tashkil etilmagan. Uyushmada O'zbekistonning davlat organlari, jumladan Tashqi ishlar vazirligining tarkibiy bo'linmalari faol ishtirok etadigan tuzilma shakillanmagan. Bu uyushmaning samarali faoliyati shundan iboratki, unda qabul qiluvchi mamlakatlardagi mehnat muhojirlarning xuquqlarini himoya qiluvchi, ularga ijtimoiy, iqtisodiy ko'mak beruvchi, shu o'rinda millatning qadr qimmatini, sha'nini himoya qiluvchi ishonchli tashkilot o'rnida bo'lishi mumkin. Aynan xorijiy mamlakatda yashayotgan mehnat migrantlari bilan chuqur quyidagi mazmunda ilmiy sotsiologik tadqiqotlar olib borilishi talab etiladi.

-O'zbekistonlik vatandoshlarni xorijdagi diasporasining sotsial-siyosiy, moliyaviy-

iqtisodiy, tashkiliy salohiyatini o‘rganish va uni taxlil qilish;

- xorijiy mamlakatlarda O‘zbekistonning madaniy muhitini diaspora salohiyatidan foydalangan holda kengaytirish imkoniyati to‘g‘risida;

-O‘zbekiston Respublikasining davlat, jamoat tashkilotlari, xo‘jalik yurituvchi subektlari bilan xorijdagi milliy diasporalar bilan o‘zaro hamkorligi mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan;

- xorijda migrantlar bilan hamkorlikni mustaxkamlash, ularni yagona milliy diasporasini yagona tuzilmaga birlashtirish imkoniyati mavjudligi;

- respublika milliy manfaatlarini va milliy mafkurasini inobatga olgan holda xorijdagi diaspora bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikning turlarini aniqlash;

- xorijiy mamlakatlardagi faoliyat to‘g‘risida O‘zbekistonda OAV (gazeta, jurnal, radio, televideniya) vositalari erkinligini ta’minlash (O‘zbekiston manfaatlarini himoya qilish maqsadida);

- xorijda “milliy diaspora tuzilmasi” tomonidan taqdim etilgan imkoniyatlari, moddiy yordam turlarini, shu jumladan ma’naviy ko‘makni ham tahlil qilish.

Hulosa o‘rnida, xorijda O‘zbekistonliklarning diasporasini mamlakat taraqqiyotiga qo‘shishi mumkin bo‘lgan hissasi, uning salohiyatini namoyon etuvchi demografik, intellektual, iqtisodiy, moliyaviy va sotsial-madaniy resurs sifatida ko‘rish mumkin. Xorijdagi diaspora orqali mamlakatning tashqi siyosatini samarali olib borish va xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, jumladan, mehnat migratsiyasi jarayonlarida uchraydigan muhim muommolar, mafkuraviy taxdidlar kabi masalalarini hal qilishda muhim sanaladi.

III bob. uchun xulosa va takliflar

Tadqiqot ishning ushbu bobida keltirilgan O‘zbekistonda aholi mehnat migratsiyasining sotsiologik tahlili, mamlakatda migratsion harakatlarning joriy holati va o‘zgarish tendensiyalari, respublikamizda mehnat migratsiyasi vujudga kelishining o‘ziga hos hususiyatlari va ijtimoiy omillari (farg‘ona viloyati misolida) keng ilmiy asosda yoritilgan bo‘lib, olib borilgan sotsiologik tadqiqotlarga asoslanib jadvallar

asosida taxlil qilingan.

Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib quyidagi hulosasi va takliflarimizni bildiramiz:

- mehnat migratsiyasini rivojlantirish, fuqarolarning xorijdagi huquqlarini himoya qilish, migrantlarning yangi jamiyatga qo'shilishi masalasi dolzarb bo'lib, mehnat migratsiyasini sotsiologik nuqtai nazardan o'rganish va taxlil qilish orqali migratsiya jarayonlarini tartibga solish, etnik nizolarni bartaraf etish, muhojirlarning deviant xatti-harakatlari oldini olish va boshqa muammolarni hal qilish mexanizmlarini ishlab chiqish orqali mamlakat iqtisodiyotini o'sishiga sezilarli darajada ta'sir etib, migratsiya sohasida yangi va shoshilinch qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish zarurati mavjud.

- hozirgi sharoitda mehnat migratsiyasi geografiasini, mamlakatning erkin mehnat resurslarini sezilarli darajada faollashtirish va diversifikatsiya qilish, huquqiy kanallarni yo'lga qo'yish, dunyoning rivojlangan davlatlari bilan uzoq muddatli shartnomalar tuzish zarurati paydo bo'lmoqda

- O'zbekistonda mehnat migrantlarining manfaatlari va huquqlarini ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish, mehnat migrantlarining milliy imidjini shakllantirish, chet mamlakatga ketishdan oldin o'qitish va ko'nikma hosil qilish tadbirlarini o'tkazish bo'yicha turli tashkilotlar hamkorligida birgalikda faoliyat olib borish zarurati

- chet mamlakatda yurgan migrantlar uchun eng dolzarb masalalardan biri ratsipiet mamlakatlarda mehnat muxojirlarining huquqlari himoya qilinishi va migrantlarning xavfsizligini ta'minlanishi kabi xolatlar yuzasidan amaliy xarakatni kuchaytirish zarurligi

- zamonaviy migratsion jarayonlarning harakatlantiruvchi omillari aniqlanib, ilmiy tahlil qilindi:

➤ migratsion jarayonlarni kuchaytiruvchi omillar

➤ migratsion jarayonlarni cheklovchi omillar, ushbu omillarni ilmiy asoslash bilan birga ularni donor va ratsipiet mamlakatlariga ijobiy va salbiy ta'sirini ochib berishni taqazo etadi;

- O'zbekiston Respublikasi hududida va chet mamlakatda "maslahathonalarni" faoliyatini yo'lga qo'yilishi va mehnat muhojirlariga xizmat ko'rsatish infratuzilmasini,

shu jumladan, har tomonlama ko‘mak berishi, ular bilan bog‘liq muommolar yuzasidan to‘g‘ri maslahat berish va qo‘llab-quvvatlash zarur;

- xorijda mehnat migratsion jarayonlarini tartibga solishni takomillashtirishga xizmat qiluvchi halqaro ikki tomonlama shartnomalar tuzishni kengaytirish zarur;

- noqonuniy migratsiyani oldini olishga qaratilgan chora tadbirlarni kuchaytirish va mehnat migratsiyasini amalga oshirishga qaror qilgan fuqarolarga kasbi va salohiyatiga mos ish bilan ta‘minlanishi zarurati mavjud.

IV-BOB. IJTIMOY FAROVONLASHUV TENDENSIYASI HAMDA MIGRATSION JARAYONLARNI TARTIBGA SOLISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

4.1. Jamiyat farovonligini oshirishda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari

Xalqaro mehnat bozorlarini liberallashtirish dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning turli jihatlarini integratsiyalashuvi bilan birga uni transformatsiya jarayonini tadqiq qilish davomida ko‘plab olimlar jamiyat (aholi) va davlatning o‘zari aloqadirliigi nisbatan yetakchi rol o‘ynashini alohida ta‘kidlaydilar. Davlat siyosati bilan bog‘liq holda aholi mehnat migratsiyasi uchun xalqaro chegaralarning yanada ochilishi va chiqish vizasini osonlashtirish kabi holatlar kuzatiladi. Bu tendensiyalar O‘zbekistonning migratsiya siyosatini amalga oshirishda yangicha yondashuv va usullarni ishlab chiqish zarurligi dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi tashqi mehnat migratsiyasining samarali tizimini ta‘minlash borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.07.2018 yildagi “Tashqi mehnat migratsiyasi tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ 3839 sonli qarori ¹⁶³ bilan O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzurida xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarni qo‘llab-quvvatlash hamda ularning huquq va mafaatlarni himoya qilish Jamg‘armasi tashkil etilgan. Jamg‘armaning vazifalari:

¹⁶³Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори, 05.07.2018 йилдаги ПҚ-3839-сон/ <https://lex.uz/docs/3811317>

-Tashqi mehnat migratsiyasi tizimini yanada takomillashtirish, uning tashkiliy shakllarini tubdan kengaytirish, mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun respublika tashqarisiga ketayotgan fuqarolarning mehnat va ijtimoiy huquqlari himoya qilinishini ta'minlash, xorijdan qaytib kelgan mehnat migrantlarini tadbirkorlik va mehnat faoliyatiga jalb etishni kengaytirish;

-xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish davrida zo'ravonlik, majburiy mehnat va kamsitishdan jabrlangan, mehnat va boshqa huquqlari buzilgan, og'ir moliyaviy ahvolga tushgan va shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarsiz, tirikchilik uchun mablag'siz qolgan fuqarolarni huquqiy va ijtimoiy himoya qilish, shuningdek, ularga moddiy yordam ko'rsatish; -mehnat migratsiyasida bo'lgan davrda jarohatlanish, baxtsiz hodisa sababli tibbiy xizmat ko'rsatish talab etilgan fuqarolarga, ko'rsatilgan tibbiy xizmatlar haqini mehnat migranti hisobidan to'lash imkoniyati bo'lmagan hollarda to'langan mablag'lar ushbu fuqarolar tomonidan keyinchalik qoplab berilishi sharti bilan, tibbiy xizmat ko'rsatish;

-respublika hududlarida xorijga mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun ketayotgan fuqarolarni ketishdan oldingi moslashtirish, kasbiy tayyorlash, xorijiy tillarga o'qitish va bilim darajasi yuzasidan test sinovlari o'tkazish, fuqarolarning kasbiy malakasini tasdiqlash markazlarini tashkil etish hamda jihozlash;

-xorijda Agentlikning vakolatxonalarini tashkil etish va jihozlash; -norasmiy mehnat migratsiyasining oldini olishga qaratilgan, fuqarolarni xorijda ishga tashkillashtirilgan tarzda joylashtirish tizimini takomillashtirish masalalari bo'yicha axborot-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazishdan iboratdir.

Xalqaro migratsiya jarayonida O'zbekistonning butun jahondagi ishtiroki hozirgi kunda o'ziga xos xususiyatga ega, aholini huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida bu jarayonga davlat faol va samarali tarzda aralashmoqda. Bunda xalqaro mehnat bozoridagi kelishuvlarni tartibga solish va migrantlarning boshqa mamlakatga chiqishi hamda qaytib kelish muddatini nazorat qilmoqda. So'nggi yillarda tashqi migratsiyada mehnat migratsiyasiga bo'lgan munosabat tubdan o'zgarib bormoqda, jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot

strategiyasini qabul qilish to‘g‘risida”gi PF-60-son farmonida “Harakatlar strategiyasidan–taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi dasturida keltirilgan **85-maqsad** ¹⁶⁴ : “Mamlakatda yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026 yil yakuniga qadar kambag‘allikni kamida 2 baravarga qisqartirish”:

- kambag‘allikni qisqartirish davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.
- norasmiy ishlayotgan 2,5 million nafar fuqaroning bandligini legallashtirishga yordam berish orqali ularda ijtimoiy kafolat va imtiyozlardan to‘liq foydalanish imkoniyatini yaratish.
- ayollar orasidagi ishsizlik darajasini 2 baravar kamaytirish, 700 mingdan ziyod ishsiz xotin-qizlarni davlat hisobidan kasb-hunarga o‘qitish. Ish bilan band bo‘lmagan xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb qilish va o‘zini o‘zi band qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish.
- hududlar, shaharlar va tumanlar kesimida kambag‘al toifadagi oilalar, ayollar va yoshlarni yagona elektron hisobga olish tizimini yaratish, kambag‘allikning qayta tiklanish xavfini bartaraf etish. Hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish.

86-maqsad ¹⁶⁵ : “Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasini ta’minlash hamda samarali migratsiya siyosatini yuritish”:

- noqonuniy tashqi mehnat migratsiyasi va odam savdosiga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish.
- xorijga ishlashga ketishdan oldin fuqarolarni kasb-hunarga va chet tillarga o‘qitish, ularga kasbiy malakani tasdiqlovchi xalqaro sertifikatlar berish borasidagi chora-tadbirlarni hayotga tizimli ravishda va jadal tatbiq etish.
- mehnat migrantlarini moliyaviy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularning hayoti va sog‘lig‘ini sug‘urtalash amaliyotini kengaytirish.

¹⁶⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сон/https://president.uz/uz/pages/view/strategy?menu_id=144

¹⁶⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сон/ 2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси /<https://president.uz/uz/pages/view/strategy?menu>

– mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarni reintegratsiya qilish, shu jumladan ularning bandligini ta'minlash, kasbiy malakasini oshirish va tadbirkorlik tashabbuslarini rag'batlantirish.

– xorijiy davlatlarda ishlash istagida bo'lgan kamida 300 ming nafar fuqaroni kasb-hunar va xorijiy tillarga o'qitish. Xavfsiz, tashkillashtirilgan xorijiy mehnat migratsiyasiga 400 ming nafar fuqaroni yuborishni tashkil etish, xorijda mehnat qilayotgan fuqarolar haq-huquqlarini ta'minlashda manzilli ko'mak ko'rsatish.

– «O'z kelajagimga o'zim investor» loyihasini samarali amalga oshirishni ta'minlash.

87-maqсад ¹⁶⁶ : «Vatandoshlar» jamoat fondi orqali xorijiy davlatlardagi yurtdoshlarimiz bilan doimiy va samarali aloqalar o'rnatish»:

– xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlarni O'zbekiston hududida tadbirkorlik, investitsiyaviy, ilmiy, ma'rifiy va madaniy faoliyat bilan shug'ullanishga faol jalb qilish.

– xorijdagi vatandoshlar va ular tomonidan tuzilgan jamoat birlashmalarni qo'llab-quvvatlash. Yurtimizning boy ilmiy, madaniy va ma'naviy merosini keng targ'ib qilish va ommalashtirish, vatandoshlarga madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda ko'maklashish.

– xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan hamkorlik o'rnatish va olib borish sohasida yuzaga kelayotgan muammolarni tizimli asosda tahlil qilib borish va ularning yechimi yuzasidan aniq takliflar ishlab chiqish.

– xorijda o'zbek tili, madaniyati va an'analarini saqlab qolish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyatni qo'llab-quvvatlash, yurtimizning boy ilmiy, madaniy va ma'naviy merosini keng targ'ib qilish va ommalashtirish.

– xorijdagi vatandoshlarning salohiyatini O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishga jalb etish va ularni rag'batlantirish choralari ko'rish kabi masalalar vazifa etib belgilangan.

Bugungi kunda globalashuv jarayonlarining jadallashuvi va butun xalqaro mehnat migratsiyasi tizimining transformatsiyalashuvi, xavfsizlikka tahdidlar doirasining kengayishi kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Xorijiy davlatlardagi mehnat muxojirlarining o‘z yurtlari ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga, hamda ular ishlayotgan mamlakatlar taraqqiyotiga sezilarli darajada hissa qo‘shishi, hamisha davlat va jamiyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik bardavom ekanligidan darak beradi.

Shu o‘rinda jamiya va davlat munosabatlariga tarif va transformatsiya jarayoni haqidagi ma’lumotga to‘xtalamiz. Dunyodagi barcha davlatlarni birdek transformatsiya hodisasi qamrab olgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Aholini farovon yashashida jamiyat transformatsiyasi muhim vazifani bajaradi. Demak, *jamiyat* – insonlarning oila, guruhlar o‘rtasidagi muommolar, ijtimoiy aloqalarning mustahkamligi tizimi xisoblanadi. Davlat tashkil etilishidagi muhim jihatlardan biri, jamiyat ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo‘lib, *davlat* ¹⁶⁷ – jamiyatning yagonaligi va yaxlitligini ta’minlaydigan siyosiy tashkilot sifatida va maxsus mexanizm asosida jamiyatga oid jarayonlarni boshqaruvchi hokimiyat sanaladi. Shuningdek fuqarolarning huquq va erkinliklarini, qonuniylik va huquqiy tartibotni kafolatlaydigan ishonchli boshqaruv tizimi hamdir.

Transformatsiya ¹⁶⁸ so‘zi lotin tilidan “transfor” va “matio” so‘zlaridan olingan bo‘lib, “o‘zgarish” va “oldinga” degan ma’nolarni anglatadi. Asosan uning xususiyati jamiyat va davlat o‘zgarishi bilan bog‘liq jarayonlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Transformatsion jarayonlar davlatning barcha sohalarida bir holatdan ikkinchi holatga o‘zgarishi yoki almashishi holati bo‘lib, unda davlat va jamiyat (aholi) hayotida ijtimoiy voqelik va zaruriy ehtiyoj asosida vujudga kelgan jarayonlarni sezilarli darajada o‘zgartiradi. Demak, transformatsiya – davlatning fundamental o‘zgarishidir¹⁶⁹.

Shuningdek, jamiyatlarning rivojlanishi va aholi farovonligini ta’minlanishida davlat va jamiyatning o‘zaro aloqadorligi muhim rol o‘ynaydi. Iqtisodiy barqarorlik, tabiiy resurslar, xalqaro hamkorlik, ishchi kuchi, mehnat taqsimoti kabi ichki omillar

¹⁶⁷ Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent. «Adolat», 2018. – 528 b

¹⁶⁸ Ламажаа Чимиза Кудер-ооловна Социальная трансформация // Знание. Понимание. Умение. 2011. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sotsialnayatransformatsiya> (дата обращения: 29.03.2021).

¹⁶⁹S.Leibfried,E.Huber, M.Lange,j.d. Levy, F.Nullmeier,and j.d.stephens: Transformations of the state,; Oxford university press 2015,; p-1

orqali transformatsiyaning paydo bo'lishi ham tezlashadi. Mamlakatning sanoatlashtirish, agrar sektor va ishchi kuchidagi ichki bozorlarning hajmi, tabiiy resurslar bilan ta'minlanganlik holati va milliy o'ziga hos iqtisodiy tuzilmalar davlatning transformatsiya jarayonlariga t'sir etadigan muhim omillardan hisoblanadi. Bu esa aholining iqtisodiy hayoti rivojiga, xalqlar turmush darajasining ortishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu o'rinda, insoniyatning intellektual salohiyati yuksalishiga ham yordam bermoqda.

Shuni ham aloxida ta'kidlash kerakki, inson taraqqiyoti uning rivojlanishi nuqtai nazaridan migratsiya ijobiy hodisadir, chunki migratsion harakatlar yordami bilan oilalar o'rtasidagi turmush darajasidagi farqlar bartaraf etiladi, jahon iqtisodiyotining ehtiyojlari qondiriladi, ijtimoiy-madaniy almashinuv va kishilar o'zaro ma'naviy olamining shakllanishi va uning tarakkiyoti, hamda ma'naviy dunyoqarashining boyishi bilan izohlanadi. Xalqaro mehnat migratsiya ham donor, ham ratsipient mamlakatlarning rivojlanishi va aholining farovonligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Shu o'rinda, mehnat migratsiyasi xarakati natijasida inson kapitalini rivojlantirishning eng dolzarb vazifalari belgilangan bo'lib, jumladan, iqtisodiy bilimlar va innovatsion millimiy tizimlarni shakllantirish asosida mujassamlashmoqda.

Shuningdek, bugungi kunda mamlakatning boshqa sohalaridagi rivojlanishlar kabi bizning mamlakatimizda tashqi va ichki mehnat migratsiyasining aholi ko'lami jadal ravishda ko'payish holati kuzatilmoqda. Mamlakatda halqaro migratsiya ichki migratsiyaga nisbatan kuchli o'sish holatini hosil qilib, norasmiy mehnat migratsiyasi aholining katta qismini tashkil etmoqda. Buning natijasida ayol migrantlar va ularning yosh bolalarni joylashtirishda zaruriy ijtimoiy shart-sharoitlarni yaratib berishda moliyaviy muammolarga duch kelmoqda.

Mehnat migratsiyasi bilan bog'liq yuqoridagi muommolarni oldini olishda mamlakatda migratsiya siyosatini amalga oshirishda yangicha qonuniy tartibda yondoshuvni talab etmoqda. Shu o'rinda, mehnat migratsiya sohasidagi milliy manfaatlarni himoya qilish muhim davlat vazifasi bo'lib, mamlakatning barcha davlat va nodavlat tashkilotlari hamda muassasalarining kelishilgan faoliyatini taqozo etadi.

Davlat faoliyatida har ikki tomonni manfaatlarini hisobga olgan holda migratsiya siyosati orqali mehnat migratsiyasini tartibga solish va uni boshqarishga qaratilgan vazifalardan iboratdir.

O‘zbekistonda migratsiyani tartibga solishning asosiy va muhim vazifalari qatoriga migratsiyaning asosiy yo‘nalishlarini va turlarini aniqlash uni qonunchilikda mustahkamlanishi kiradi. Uning asosida O‘zbekiston Respublikasida migratsiya jarayonlarini monitoring qilish va prognozlashning yagona axborot-tahliliy tizimini shakllantirish talab etiladi.

Ijtimoiy mehnat migratsiyasi davlat qonunchiligi va xalqaro aktlar yordamida quyidagicha tartibga solinib, qonunchilikda 2 xil tendensiya amal qiladi:

- 1) ochiq iqtisodiyot sharoitida ishchi kuchini, mehnat migrantlarining erkin harakatlanish tendensiyasi;
- 2) proeksionizm sharoitida migratsion jarayonlarning to‘siqlarini mavjudligi.

Davlat migratsiya siyosati – bu, ishchi kuchi eksporti va importini tartibga solib turuvchi davlatning maqsadli va bevosita amalga oshiruvchi faoliyati xisoblanadi.

Mehnat migratsiyasining davlat tomonidan tartibga solinishi mehnat migrantlarining manfaatlarini himoyalash hamda mehnat muhojirlarini yetkazib beruvchi va qabul qiluvchi mamlakatlar manfaatlarini uyg‘unlashtirishni ta’minlash bilan bog‘liqdir.

Shunday ekan, mamlakatdagi dolzarb masala va muammolarning o‘z vaqtida hal etilmasligi natijasida ba’zi bir holatlarni yanada og‘irlashib ketishiga olib keladi. Shuning uchun ham davlat tomonidan olib borilayotgan harakatlar eng avvalo qonunchilik bazasi va qonunchilik faoliyatini shakllantirishga, mehnat migrantlariga xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini yaratishga ko‘maklashishga, inson kapitali transformatsiyasiga va uning o‘ziga xos xususiyatlardan kelib chiqqan holda o‘z modelimizni ishlab chiqishga qaratilishi lozim.

Davlat migratsiya siyosatini amalga oshirishda mehnat migratsiya jarayonlarini samarali tartibga solinishi uchun vazirliklar, davlat qo‘mitalari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, turli jamoat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish

organlari faoliyatini takomillashtirish va o‘zaro hamkorligini kuchaytirish orqali ijobiy natijalarga erishish mumkin.

«Davlat migratsiya siyosati tartibga solishning turli maqsad va usullaridan kelib chiqib, emigratsiya va immigratsiya siyosatiga bo‘linadi»¹⁷⁰.

Biz mehnat migrantlarini mamlakatdan ketkunga qadar ularni kasb hunarga, tilni o‘rganish, mehnat faoliyatida mas’uliyatli bo‘lish, xavf xatarga kurashuvchanlik kabi jarayonlarga tayyorgarlik va moslashish dasturlarini kengaytirish va imkoniyatlarni oshirish zarurligini asoslab berildi. “Chet mamlakatda mehnat qilish uchun kasb xunari bor, malakali mehnat muhojirlarini ishga yuborishni tashkil etib, migrantlarni mehnat qobiliyati va malakasini baholash tartiblari bo‘yicha ilmiy-uslubiy ishlanma” tayyorlandi (4.1.1-ilovaga qarang), bu mehnat muhojirlarini ishga yollash tizimini sezilarli darajada takomillashtirish imkonini beradi. O‘zbekistonda va dunyoning turli mamlakatlarida uslubiy jihatdan qo‘llanilishi mumkin.

Xususan, 2021 yilda O‘zbekistonda Germaniya tajribasi asosida «Ishga marhamat» monomarkazi faoliyatida asosan band bo‘lmagan yoki xorijga chiqishni rejalashtirayotgan fuqarolar turli xil yo‘nalishda tahsil olishi hamda kasbga o‘qitilishi, malakasini oshirishi mumkin. Monomarkazda fuqarolarni kasbga o‘qitish bilan birga, xorijga chiquvchi migrantlarga xizmat ko‘rsatish (viza, bilet, sug‘urta), maslahat berish,

kasbi, malakasini inobatga olgan holda ishga joylashtirish, til o‘rgatish hamda kabi yo‘nalishlar faoliyati mavjud. Markazning yana bir muhim jihatlaridan, mehnat

migrantlarini xorijda ijtimoiy himoya qilish maqsadida 53153 ta sug‘urta polislari hamda 10523 ta «Viza-Migrant» kredit kartalari rasmiylashtirilib, ularga respublikada xorijda ishga joylashish bilan bog‘liq xarajatlarni to‘lash uchun beriladigan tez va eng kam talab qilinadigan hujjatlar asosida imtiyozli mikroqarzlarni berish tartibi belgilangan.

Shuningdek, xorijiy tajribadan kelib chiqqan holda, O‘zbekistonda tashqi mehnat migratsiyasini tartibga solishda quyidagi tuzilmalarning mavjudligi ta’minlanishi kerak:

- davlat organlari

bandlik bilan ta’minlash organlari;

¹⁷⁰ Международные экономические отношения учебник под редакцией доктора экономических наук, профессора А.И. Евдокимова. Москва «Прспект», 2004 С. 484

- notijorat tashkilotlarning vositachilik faoliyatini qonuniyligi;
- tijorat tashkilotlarining keng ko‘lamini mavjudligi;
- fuqarolarining xorijda ish izlashi va ishga joylashish bo‘yicha mustaqil faoliyati

kabi tuzilmalarning optimal faoliyat yuritishi respublikamizda tashqi mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish, fuqarolarning chetda mehnat qilib pul topishi uchun xalqaro shartnomalar tuzish, ularning mamlakat tashqarisida ishga joylashishlari va ularning mehnat joylariga xavfsiz tarzda yetib borishini ta‘minlash uchun qulay sharoitlar yaratish, ularning xavfsizligini ta‘minlanishi kabi muhim masalalarga yuqoridagi tuzilmalar zimmasiga yuklanadi. Bu esa mehnat migrantlari faoliyati imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Shu o‘rinda, O‘zbekistonda tashqi mehnat migratsiyasiga oid davlat siyosatini yanada takomillashtirishga bo‘lgan ehtiyoj hamon saqlanib qolmoqda.

Mehnat migratsiyasining yana bir muhim tomoni shundan iboratki, bugungi kunda mehnat migratsiyasining o‘ziga hos bir nachta muammolari mavjud bo‘lib, bu esa bevosita ko‘plab davlatlarning xavfsizligi va davlat suverenitetiga ta‘sir qiladi. Jamiyat farovonligi va aholining ijtimoiy ravnaqiga mehnat migratsiyasi muammolari va uning oqibatlari ta‘siri juda nozik masala hisoblanib, mamlakat aholisi uchun ham, mehnat migrantlarining uchun ham olohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun migratsiya siyosati va migratsiya oqimining jadal o‘shishi masalalari mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning uzoq muddatli muammolari, demografik va ijtimoiy moslashuvchanlik muammolarini hal qilish bilan chambarchas bog‘liq holda o‘rganishni talab etadi.

Darhaqiqat XXI asr boshlarida ortib borayotgan migratsiya oqimini davlat siyosati nuqtai nazaridan tartibga solishda insonparvarlik tamoiliga asoslanib boshqarish mehnat migratsiyasi muammolarini tahlil qilish va unga yechim topish o‘zining dolzarbligi bilan xalqaro hamjamiyatning diqqat markaziga aylangan. Hozirgi vaqtda dunyoning deyarli barcha davlatlari faol migratsiya jarayonlarida ishtirok etmoqda. Har yili millionlab odamlar ish topish, o‘qish, sayohat qilish, qarindoshlari bilan ko‘rishish istagida, turli xil ta‘qiblar, siyosiy qochoqlar va favqulodda vaziyatlardan qochish maqsadida chegaralarni bosib o‘tadi.

Shu o‘rinda, O‘zbekiston Respublikasi migratsiya jarayonlarini boshqarish va uni tartibga solishda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlari ichida munosib o‘rin egallab, ushbu doirada mehnat migratsiyasi sohasida samarali davlat siyosatini olib boradi va a‘zo davlatlarning muvofiqlashtirilgan migratsiya siyosati to‘g‘risidagi deklaratsiyasida belgilangan tamoyillarni amalga oshirishda munosib va faol ishtirok etadi. Shuningdek, aholini ro‘yxatga olish jarayonida mamlakatda ichki migratsiyaning asosiy ko‘rsatkichlari va mamlakat aholisining statistik tahlili o‘rganildi.

Hozirgi kunda aholining noqonuniy mehnat migratsiyasi jarayonidagi muammoli masalalar O‘zbekiston Respublikasi tomonidan tartibga solinishi talab etilayotgan o‘ta dolzarb hodisadir.

Shuni alohida takidlash kerakki, mamlakatimiz aholilari orasida emigratsiya jarayonlarida ham faol fuqarolar mavjud bo‘lib, bu holat bizni emigratsiya jarayonini ham alohida o‘rganishga olib keldi.

Davlatning emigratsiya siyosati – bu emigratsiya jarayonini tartibga solib, optimal emigratsiya muxitini yaratish bilan birga uning hajmi, tarkibi va oqimini maqsadli ravishda amalga oshishini ta‘minlashni ko‘zlaydigan sayosatidir.

Emmigratsiya oqimini bivosita tartibga solish quyidagilardan iborat:

- 1) chet eldan valyuta kirib kelishi bilan bog‘liq valyuta va bank siyosatini olib borish;
- 2) fuqarolarga hisob raqamida valyuta saqlash bo‘yicha imtiyozlar yaratish;
- 3) mehnat migrantlariga qimmatli qog‘ozlarni sotib olish va sotish imkoniyatlarini yaratish;
- 4) bojxona siyosatini optimallashtirish, o‘z vataniga qaytayotgan mehnat migrantlariga boj to‘lovlari bo‘yicha imtiyozlar berish.

Emmigratsiyani tartibga solishning bevosita usuli quyidagilardan iborat:

- 1) mehnat migratsiyasi sub‘ektlarini, ya‘ni vositachi firmalar yoki mehnat migrantlari faoliyatini tashkil etuvchi muassasalar ishini nazorat qilib turish;
- 2) ekspansion siyosat, ya‘ni chet el bozorlaridagi ish joylarini egallab olish uchun yo‘naltirilgan siyosatni, ya‘ni, davlat va jamoat tashkilotlari faoliyatini monitoring qilish

3) emigratsiya bilan bog‘liq strukturaviy siyosatni amalga oshirish, ya’ni davlat va jamiyat uchun zarur bo‘lgan fuqarolarga chet el pasporti berilishini cheklash;

4) ayrim toifadagi ishchilarning xorijga chiqib ketishini ta’qiqlash, emigratsiyaga kvota qo‘yish va xakozolar.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasidan kelib chiqib, emigratsiya xarakatini tartibga solishda quyidagi dasturni taklif qilamiz:

➤ emigratsiya muammolarini tizimli tahlil qilish va mavjud muammolarning yechimiga tizimli yondashishga va mehnat migratsiya jarayonlarini tartibga solish maqsadida qonunchilikni takomillashtirish;

➤ migratsiya oqimlarini tartibga solish va uni mamlakat samaradorligiga ta’sirini oshirish, ularning potentsialligi, yo‘nalishlari va tarkibi O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollariga muvofiqligiga erishish;

➤ ishchi kuchining potentsialligi va aholining ziyolilari, malakali mutahasislarining butunlay mamlakatning tark etishini kamayishiga erishishning samarali mexanizmini yaratish maqsadida emigratsiya, shu o‘rinda immigratsiya oqimini tartibga solish;

➤ migrantlarning boshqa davlat jamiyatiga integratsiyalashuvi va mehnat muhojirlarga nisbatan bag‘rikenglikni ta’minlashga qaratilgan kelishuvlarni imzolanishi.


Biz taklif qilgan quyidagi davlat dasturi shakillanishining asosiy maqsadi mamlakat xukumati, milliy idoralari tashkiliy-huquqiy va amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirishda tizimli va kelishilgan faoliyatini ta’minlashdan iborat bo‘lib, unda mehnat migrantlarining ziyoli, ish bilarmon, malakali mutahasislarining mamlakatni butunlay tark etishini kamaytirish, tashqi mehnat migratsiyasi sohasidagi migratsiya siyosati ishchi kuchi eksportini tartibga solishni takomillashtirishga, aholining noqonuniy mehnat migratsiyasi va ular bilan bog‘liq salbiy xatti-harakatlar oqibatining oldini olishga qaratilgan samarali faoliya yuritishdan iboratdir. Shuningdek, bunday muommoli xavfni erta aniqlash, ularga chek qo‘yish va ushbu ijtimoiy xavfli hodisalarning yuzaga kelishiga sabab bo‘layotgan omillarni bartaraf etish bilan birga,

Shu bilan birga, mamlakat uchun emigratsiya harakatining afzalliklari ham mavjud bo‘lib, ular aholi orasida ijtimoiy muhitni yaxshilash, o‘zlarini ustida ishlash, kasb malakalarini oshirish, uy-joy va moddiy sharoitlarni yaxshilash, turli shaxsiy yoki tashqi sabablarga ko‘ra noqulay (ekologik, siyosiy) muhitni tark etish imkoniyatiga ega bo‘lishlarini ta‘minlaydi. Boshqa mamlakatga ko‘chib o‘tishning yana bir afzalligi – insonlarning dunyoqarashini, ularning boshqa halqlar bilan integratsiyalashuvi, tafakkurini kengaytirish va yangi tajriba orttirish imkonini beradi.

Tadqiqotning sub’ekti sifatida respondentlarga berilgan savol orqali, xalqaro mehnat migratsiyasining turli omillarini tahlil qilish, mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish tendentsiyalari, migratsiyani o‘zbek oilalariga (farzandlar ruhiy holatiga) ta’sirini o‘rganish, shuningdek, mamlakatda samarali bandlikni ta‘minlanishi, tashqi mehnat migratsiyasini qisqartirish, mehnat balansi ko‘rsatkichlari, shu jumladan, davlat strategik dasturlari va loyihalarini amalga oshirishga hizmat qilishiga erishamiz.

4.1.1. Diagramma

Xorijda ishlashingizni siz va oila a‘zolaringiz qanday baholaydi




Olingan tadqiqotlardan ma‘lumki, aholining asosiy ko‘rsatkichi 49 foizi yaqinlaridan birini xorijda ishlashini maqul ko‘radi, shuningdek 25 foizi esa yaqin insonini uzoqda yashashini hohlamaydi (asosan yosh oilalarda, er xotinlarda qarshiliklar kuzatildi), migrantlar orasida bu xaqida uylamagan va javob berishga qiynalayotganlar

oz miqdorni tashkil etdi. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek oilalari iqtisodiy ahvolini yaxshilash bilan bir qatorda, ayrim salbiy holatlar, jumladan er va hotin munosabatlarini yomonlashuvi, bolalarni ota yoki ona mehridan uzoqlashish oqibatida bolalar psixologiyasiga o‘z ta’sirini o‘tkazish holati ham mavjud ekanligi nomoyon bo‘ldi.

Shu jumladan oilani mustaxkam davom etishida yoshi katta insonlarni ahamiyati katta ekanini inobatga olgan holda, respondentlarga navbatdagi savol bilan murojad qildik.

4.1.2.Diagramma

Mahallangizda yashovchi katta yoshdagi fuqarolarning qanchasi mehnat migrantlari hisoblanadi (2018-2023 yillar tahlili %)



Respondentlarning 2022-2023 yillar davomida olingan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra aholining foiz nisbatida ular yashaydigan xududda katta yoshlilarning qaysi qismini mehnat migrantlari tashkil etayotganini ko‘rsatib o‘tdilar.

So‘rovda ishtirok etganlarning aksariyati (54%) mehnat migrantlari sifatida kattalar aholisi 15% gacha (javob miqdori 5% dan kam - 30%, 5 dan 15% - 28%). Respondentlarning 22 foiz mahalla aholisi migrantlardir, deb hisoblashadi.

Demak, bizda 2018-2020 yillar davomidagi olib borgan tadqiqotimizga nisbatan ko‘payishi tendensiyasi kuzatildi, ya’ni so‘rovda ishtirok etganlarning aksariyati (52%) katta yoshdagi mehnat migrantlari sifatida 15% gacha (javob miqdori 5% dan kam -


27%, 5 dan 15% - 25%) tashkil etib, migrantlar aholining 18 foiziga to'g'ri keladi deb javob berganlar¹⁷¹.

Shuningdek, viloyatlar kesimida tahlil qilinganda mahallalarda yashovchi katta yoshdagi fuqarolarning fikriga ko'ra, xorijga chiqishni xohlovchilar xorijga chiqishni xohlamaydiganlardan ko'ra ko'pchilikni tashkil etish istagida ekanligini bildirdi. Bu natijalar taxlili esa bugungi kundagi tadqiqot natijasi taxliliga ko'ra, katta yoshdagi mehnat migrantlari ko'lamini ortishi bilan izohlanadi.

Emigratsion xarakatni o'rganish maqsadida respondentlarga navbatdagi savol bilan muroj qildik.

4.1.3.Diagramma

Boshqa davlatga ishlash uchun borsangiz asosan qancha muddat u yerda qolasiz?




Ularning ta'kidlaganidek, asosan, boshqa mamlakatga ishlash uchun ikki yilgacha bo'lgan taxminiy muddat bilan amalga oshiriladi: 35% - olti oydan bir yilgacha, bir yildan ikki yilgacha 40%. Deyarli 10% respondent « 5 yildan ko'prog'», hamda 9% respondent «uzoq muddatga», hamda 5% esa javob yo'q degan javob variantini tanlashgan. Ikki yilgacha bo'lgan davrni tanlashi migrantlarning sarmoya ortirishga xarakati bilan bog'liq bo'lishi mumkin va qaytishga chipta uchun pul topish va mustaqil yashashi, mamlakat muhitiga moslashishi, yana bir muhim holat ichki ishlar vazirligining stikerini olish qoidalari va boshqa hujjatlarni rasmiylashtirish bilan bog'liq bo'lishi ham mumkin. Barcha omillarni inobatga olgan holda vaqtinchalik uyga

¹⁷¹ Н.А.Имомова. Ўзбекистонда ишчи кучи миграциясигс ижтимоий омиллар таъсири. Диссертация. 2021 й. Тошкент. 101-103 бетлар.

qaytishga vaqt va pul ham topish imkoni ortadi. Shuni ham alohida ta’kidlash kerakki, migratsion jarayonlarda emigratsion harakatga bo‘lgan intilishni ham kuzatish mumkin. Ya’ni respondentlardan 9%zi uzoq muddat vaqtni tanlashdi. Bu ko‘rsatkich asosan ziyoli, malakali kasb egalarini tashkil etadi. Shu jumladan, migrantlarning uzoq yoki butunlay ketish istagi borlar quyidagi 3 ta kategoriya bo‘yicha tasniflanadilar:

4.1.1. Rasm.



1) oilaviy emigratsiya, bunda oila a’zolarining ayrimlari xorijda yurganligi bois qolganlari ham ko‘chib borishi;

2) iqtisodiy emigratsiya, katta mahorat va mehnatga layoqatlilik, xususiy tadbirkorlik faoliyati bo‘yicha malaka talab qiladigan va iqtisodiyotning rivojlanishiga xissa qo‘shaoladigan fuqarolarning ko‘chishi. Iqtisodiy emigratsiya ham 4 xil ko‘rinishga ega. Bular:

- xususiy tadbirkorlik bilan bog‘liq emigratsiya;
- yoshi kichikroq bo‘lgan, lekin yaqin kelajakda malakali mutaxassis bo‘lish imkoniyatiga ega shaxslar emigratsiyasi;
- xorijdagi ish beruvchilar taklifiga binoan emigratsiya;
- xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan, ya’ni fan, ijod va sport sohasidagi talab asosida ro‘y beruvchi emigratsiya;

3) gumanitar emigratsiya siyosiy, diniy hamda ahloqiy dunyoqarashning qarama-qarshiligi asosida yuz beruvchi qochoqlar harakati sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu o‘rinda, xorijiy mamlakatlarning tajribalarini taxlil qilsak, migratsiya jarayonlarini mamlakat qonunlari orqali tartibga solinishi hamda hozirgi zamon davlat migratsiya siyosatining bir nechta turlarini tasniflash mumkin:

–liberal migratsiya siyosati – xorijiy fuqarolarni jalb etish (tortish) orqali ularga doimiy yashash huquqini berishning soddalashtirilgan tartibini taqdim etilishi, mamlakatda mehnat qilish erkinligi bilan ta‘minlanishi va istagan davlat hududida yashashi imkoni, erkin va optimal viza berish tartibi, umuman migratsiyani tartibga solish uchun liberal yondashish tartibi hisoblanadi. Liberal migratsiya siyosatining ushbu turi Germaniya davlati siyosatida ham qo‘llanilgan. Unga ko‘ra, Germaniya davlati oldida demografik inqirozni samarali hal qilish va immigrantlar oqimining ko‘payishi bilan bog‘liq bo‘lgan yuqori iqtisodiy ko‘rsatkichlarga erishish, hamda chet ellik muhojirlarni jamiyatga integratsiya qilish va ularning bilim salohiyatidan foydalanib yuqori malakali mutaxassislar bilan qoplanish masalasiga qaratildi. Hozirgi kunda migratsiya siyosatining bu turi Kanada va Avstraliya davlatlari tomonidan ham qo‘llanilmoqda. Shu o‘rinda, bugungi kunda Germaniya immigratsiya bo‘yicha dunyoda yetakchilardan biri bo‘lib, ushbu davlatga uzoq muddatga kelgan muhojirlar soni bo‘yicha AQShdan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Germaniya aholisining taxminan 20% migrantlardan tashkil topadi¹⁷².

– «yopiq eshiklar» siyosati – bu siyosatning alohida xususiyati nelegal migratsiyaga qarshi kurashish va amalga oshirish imkoni yo‘qligi bilan belgilanadi. Ushbu siyosatni qo‘llagan davlatlar aholining mamlakat ichkarisida ham, uning tashqarisida ham fuqarolarning hududiy harakatini imkon qadar cheklaydi. Bunday mamlakatlar qatoriga Xitoy va Yaponiya davlatlari kiradi. Aynan Yaponiya davlatining immigratsiya siyosati nihoyatda qattiq ekanligi xalqaro miqyosda ham tan olingan. O‘z navbatida Yaponiyaning yopiq siyosati mamlakat demografiyasiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatmoqda, ya‘ni tug‘ilish darajasining kamayishi va aholining qarishi natijasida mamlakatda jamiyat va iqtisodiyotni saqlab qolish uchun juda muhim bo‘lgan yosh ishchilar yetishmaydi. Yaponiya yillar davomida immigratsiya siyosati keng tarqalgan

¹⁷² Бурдо В.В. СОВРЕМЕННАЯ МИГРАЦИОННАЯ ПОЛИТИКА ГЕРМАНИИ: СОСТОЯНИЕ И ПРОБЛЕМЫ // Международный студенческий научный вестник. – 2018. – № 1 <https://eduherald.ru/ru/article/view?id=18036>

qonunbuzarliklarga olib kelganini inkor etib keladi. Masalan, chet elliklar talaba sifatida ro'yxatdan o'tib, noqonuniy ishlagan.

– samarali migratsiya siyosati - migratsiya jarayonlarini tizimli tartibga solish va jamiyatning barcha sohalaridagi muammolarni hal qilishga qaratilgan dastur hisoblanadi. Unda asosan aholi migratsiyasining keng qamrovli ravishda tartibga solinib, migrantlar huquqiy tomonlama himoyalaniib, ularning maqomi aniq belgilanib, tashqi mehnat migratsiyasi uchun kvotalar ajratiladi. Bu siyosatning afzalligi aholi ichki hamda tashqi migratsiyasini samarali boshqarish va noqonuniy migratsiyaga yo'l qo'yimaslik maqsadlari ko'zlanadi.

Bunday migratsiya siyosati qator Yevropa davlatlari (Ispaniya, Avstriya, Italiya, Vengriya, Polsha, Chexiya, Shveysariya, Slovakiya va boshqalar)ga xos bo'lib, Rossiya Federatsiyasi ham ushbu siyosatni amalga oshiruvchi mamlakatlar qatoridan o'rin egallagan.

Ta'kidlash joizki, migratsiya siyosatining ko'rsatib o'tilgan turlari umumlashtirilgan va shartli ravishda ajratilgan bo'lib, ularning turlarining eng umumiy, tipik xususiyatlarini o'zida aks ettirgan. Ayni paytda, ushbu davlatlar tomonidan olib borilayotgan migratsiya siyosati mamlakat ichida harakatlanish erkinligini ta'minlash va aholi orasida noqonuniy va yashirin migratsiyaga qat'iy kurash bo'yicha samarali tizimni olib borish uni amalga oshirilishida kutilayotgan natijalari davlatning ijtimoiy iqtisodiy siyosati bilan migratsiya siyosatini mustahkamlashga qaratilgan.

Har bir davlat odatda migratsiyani siyosiy darajada tartibga solish mexanizimini ishlab chiqayotganda ham davlat manfaatlarini, ham emigrant va immigrant manfaatlarini ko'zlanishini inobatga oladi.

Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasi tomonidan olib borilayotgan samarali migratsiya siyosati mamlakatimizda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hamkorlik va ma'naviy sohalarda sezilarli ijobiy o'zgarishlarni bermoqda. Shuningdek, xalqaro biznesni rivojlantirishda ham tobora muhim rol o'ynamoqda - transmilliy kompaniyalar butun dunyo bo'ylab investitsiyalar, innovatsiyalar, ishlab chiqarish, tovarlarni sotish va xizmatlar ko'rsatish sohasida barqaror pozitsiyalarni egallash uchun eng yaxshi iste'dodlarni jalb qilishga intilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solishda milliy huquqiy asoslar va O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar hamda xorijiy mamlakatlar bilan imzolagan shartnomalari muhim ahamiyat kasb etib, sohalari bo‘yicha kasblarni o‘rgatishga yo‘naltirilgan o‘quv markazlarining tashkil etilayotgani hamda vakolatxonalarni ochish yuzasidan barcha tashkiliy ishlar yakuniga yetkazildi¹⁷³.

O‘zbekiston Respublikasida Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) ning 14 konvensiyasi ratifikatsiya qilingan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining Xalqaro migratsiya tashkilotiga a‘zo bo‘lishi hamda mazkur tashkilot Konstitutsiyasining ratifikatsiya qilinishi bu sohada mamlakatimizga qator halqaro huquqlardan foydalanish uchun yo‘l ochdi.

Bu huquqlar sirasida O‘zbekiston Xalqaro mehnat tashkiloti Kengashida qaror qabul qilish va uning faoliyatida ishtirok etish, dasturlarda ishtirok etish, yangi loyihalar bo‘yicha o‘z taklifini berish, migratsiya bo‘yicha dasturlarni amalga oshirish uchun xalqaro moliyaviy yordam olish imkoni, tashkilotning rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘laridan foydalanish kabi imkoniyatlarga ega bo‘ldi.

2007 yilda O‘zbekiston va Koreya hukumatlari o‘rtasida Koreyaga ishchilarni jo‘natish to‘g‘risidagi memorandum imzolangan bo‘lib, 2016 yil mart oyida ushbu memorandum yangilangan.

O‘tgan davr mobaynida Janubiy Koreyaga shartnoma asosida mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun 23 ming fuqaro yuborilgan. Bugungi kunda yillik kvota 3 ming ishchini tashkil qiladi¹⁷⁴.

2017-2021 yillar oralig‘ida mamlakatimiz aholisi orasida mehnat muhojirligida yurgan qatlamlaridan olib borilgan so‘rovnoma natijasiga ko‘ra, mehnat migrantlarining ko‘proq qaysi mamlakatda ishlashni hohlaysiz degan savolimizga quyidagicha javob oldik.

2017-2021-yillarda olib borilgan sotsiologik tadqiqotlar natijalarining qiyosiy tahliliga ko‘ra, vatandoshlarimiz orasida eng ko‘p chiqiladigan davlat sifatida Rossiya Federatsiyasi (57,2%) foiz (2017 yilda – 38,7 foiz), Koreya. – 4% (2017-yil – 3%),

¹⁷³ Mehnat migratsiyasi: Xalqaro tajriba va Ўzbekiston amaliyoti. <http://parliament.gov.uz/uz/events/committee/>

¹⁷⁴ Toshkent va Seul mehnat migratsiyasi masalasi muhokama qilindi. <https://m.oz.sputniknews-uz.com/migration/>

Yevropa davlatlari – 7%, AQSh – 2% va dunyoning boshqa mamlakatlar – 5% qayd etilmoqda (4.1.5-rasm).

Fuqarolarni xorijda ishga joylashtirish dasturining tashkiliy usullarida ijobiy o'zgarishlardan biri bu Rossiya bilan hukumatlararo kelishuvni mustaxkamlanishidir. Xususan, 2021-yilda 10 mingdan ortiq kishini kasbga qayta tayyorlash, til o'rgatish, malakasiga mos ish bilan ta'minlash dasturini amalga oshirilishi o'zbekistonlik mehnat muhojirlarining ishonchli himoyasi va qulay mehnat sharoiti, mehnat muhofazasi va migrantlar salomatligi ta'minlangan.

O'tkazilgan sotsiologik tadqiqot ma'lumotiga ko'ra, Respublikamizda olib borilayotgan samarali siyosat tufayli mehnat migrantlari oilalari moliyaviy rivojlanishi, aholi uchun eng zarur bo'lgan ehtiyojlari qoplanishi, uy, mashinaga ega bo'lishi, tuy marosimlarni o'tkazishi va farzandlari ta'limi uchun mablag'ga ega bo'lish bilan birga, oilaviy jamg'armaga ham ega bo'lishmoqda.

Respondentlarning 33%i ishlab topgan pullarini uy sotib olishga yoki ta'mirlashga sarflayman deb javob qaytargan bo'lishsa, 31% respondent tuy va boshqa tadbirlarga sarflashganini aytib o'tishgan, shuningdek 28% respondent oilaning ehtiyojlariga pul sarflanayotganini aytib o'tishgan. 22% respondentlar esa ishlab topgan pullarini bolalarini bilimni oshirishga sarflashlarini ko'rsatib o'tishgan. 15% respondent ishlab topgan pullarini hisobiga o'z bizneslarini yo'lga qo'yishga yo'naltirilganliklarini aytib o'tishgan. 2% respondent o'zlari ishlab turgan davlat fuqarologini olish uchun xarajat qilganliklarini ko'rsatib o'tishgan. Yana 1% respondent boshqa yo'nalishlarga pul sarflaganliklarini aytib o'tishgan.

Hulosa o'rnida aytish mumkinki, mehnat migratsiyasi jarayonlarini ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazardan tahlil qilsak, inson kapitali nazariyasiga tayanish mumkin, uning doirasida migratsiya ijobiy nuqtai nazardan baholanadi. Darhaqiqat, O'zbekistonda migratsiya jarayonlarida inson kapitalidan uning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash nuqtai nazaridan oqilona foydalanish zarur.

Shu o'rinda, mamlakatda mehnat migratsiyasi yo'nalishida milliy va xalqaro darajada muhim chora-tadbirlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, bu sohada hamon o'z yechimini kutayotgan bir qancha muammolar saqlanib qolmoqda.

4.2. Jamiyat hayotida migratsion jarayonlarning salbiy ta'siri va ijtimoiy muammolarni oldini olish bo'yicha tavsiyalar

Dunyoning barcha mamlakatlari xalqaro migratsiyaning faol ishtirokchisi sifatida xarakterlanadi. Bugungi kunda xalqaro migratsiya keng ko'lamli, murakkab, global, dinamik va ta'sirchan jarayon hisoblanadi. Dunyoning ko'plab mamlakatlari bir paytning o'zida ham donor, ham ratsipient davlat sifatida gavdalanadi. Asosan mehnat migrantlarining boradigan va tranzit bo'lgan mamlakatlarda migratsiya bilan bog'liq muammolar va yangi imkoniyatlar mavjudligi bilan izohlanadi.

Zamonaviy mamlakatlarda migratsiya siyosatining milliy va xalqaro miqyosda shakllanishida ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy barqarorligi darajasi dolzarb muammo hisoblanadi. Ushbu sohaning dolzarbligini aniqlashda migratsiya siyosatini makro darajada ilmiy yondashuvlar asosida o'rganishni talab etmoqda. Migratsiya siyosatining nomukammalligi (noaniqligi) uning salbiy oqibatlarini kuchaytiradi, jumladan:

- noqonuniy migratsiyaning ko'payishi;
- migrantlarning nokonstruktiv iqtisodiy faoliyati;
- iqtisodiy betartiblikning kuchayishi;
- ijtimoiy zo'riqishning kuchayishi;
- millatlararo, etnik nizolar, konfessiyalararo va boshqa nizolar xavfini oshirish;
- jinoyatchilikning shakllanishi kabi holatlarni kuzatish mumkin.

Hozirgi vaqtda Yevropa Ittifoqida ¹⁷⁵ ko'plab mojarolarning kuchayishi oqibatida migratsiya siyosatini davlat va jamiyat hayotiga salbiy ta'siridan himoyalash uchun aniq tizimli, mukammal davlat siyosatini yuritishni talab etadi.

Shuningdek, mamlakat aholisining mehnat muhojirlarini eng muammoli vaziyatlardan yana biri noqonuniy migratsiyaning ko'plab mamlakatlarda keng tus olganligidir. Buni asosiy sabablari quyidagilar:

- Mamlakat mehnat bozori potensialini kattaligi, mehnatga haq to'lash tizimining

¹⁷⁵ Integration of refugees in Austria, Germany and Sweden. January 2018 URL: http://www.europarl.europa.eu/RegData/etudes/stud/2018/614200/ipol_stu_p.24.

adolatli bo‘lmaganligi;

➤ Yosh va malakali kadrlar uchun munosib ish haqiga ega bo‘lgan ish joylarining yetarli tashkil etilmaganligi va kadrlar mehnatiga to‘lanilayotgan ish haq qoniqtirsizligi;

➤ mehnat migratsiyasiga ehtiyoj sezadigan rivojlangan mamlakatlar bilan bitim, kelishuv yoki memorandumlar imzolanmaganligi;

➤ Bunday kelishuvlar faqat qisman Rossiya Federatsiyasi va Janubiy Koreya Respublikasi bilan tuzilgan kelishuv barqaror amal qilgan bo‘lsada, Rossiya Federatsiyasi bilan tuzilgan mehnat migrantlariga oid hujjatni imzolanganligiga qaramasdan to‘liq amal qilinmayotganligi;

➤ Hanuzgacha rivojlangan mamlakatlar hamda bugungi kunda migrantlarning asosiy qismi intilayotgan AQSh, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan migratsiya bo‘yicha kelishuvlarning mavjud emasligi kabi omillar nolegal mehnat migratsiyasini o‘sib borishiga sabab bo‘lmoqda.

Shu o‘rinda, mehnat migratsiyasi zamonaviy voqelik uchun odatiy jarayon hisoblangan bo‘lsada, uning ayrim holatlaridagi muammoning jiddiyliги ortmoqda. Aslida migrantlar uchun psixologik shaxs uchun qiyin kechadigan jarayon sanalib, chunki u og‘ir ichki tajribalar bilan birga keladi, avvalo, mehnat muhojiri hayotining mutlaqo yangi muhiti va sharoitlariga moslashishi, o‘sha muhitda yashab mehnat qilishi kabi harakatlar bilan bog‘liqdir. Bu esa o‘z navbatida, ratsipiet mamlakatining tub aholisi mehnat muhojirlarga nisbatan diskriminatsiya va salbiy munosabatda bo‘lishi bilan birga shaxslararo nizolarga ham ta’sir qilishi mumkin.

Demak, yangi stimullarga muvofiq migratsion harakatda shaxsning o‘zgaruvchan muhitidan kelib chiqib shaxlar munosabatidagi stereotiplar, shaxsning xulq-atvor komponentini o‘zgartirishi uni moslashuvchanligidagi faol xarakatni o‘z ichiga oladi.

Shaxsning sotsial moslashuvi¹⁷⁶ - bu shaxsning yangi yashash muhitga moslashish jarayoni hisoblanadi. Ijtimoiy moslashuv yangi ijtimoiy sharoitga ijtimoiy jarayonlarga moslashishni, shaxsning psixologik xarakterdagi muammolarni ustida ishlashi yangi muhitga moslashishda, yaqin atrof-muhit bilan aloqa o‘rnatish, qadriyatlar va yangi madaniyatga hos bo‘lgan an’analar asosida yashashni o‘rganish kabi xususiyatlarni

¹⁷⁶ QOMUS INFO. ONLAYN ENSIKLOPEDIYA. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-i/ijtimoiy-moslashuv-uz/>

talab etadi.

Migrantlarda asosan quyidagi omillar yangi muhitga moslashishlarida turli hil sharoitlar ta'sida biroz qiyinchilikga sabab bo'ladi:

- iqlim sharoitidagi farq
- madaniyati va qadriyatlari
- munosabatlari
- ijtimoiy hayot muhitidagi farqlar

– mamlakatning tili, etnik va diniy qarashlardagi farqlar aholini yangi shaxslararo aloqalarni o'rnatishida, ko'plab moddiy va kundalik muammolarga uchraganda o'zlari yengish kerak bo'lgan og'ir stressli vaziyatlardan biri deb qaraladi.

Ushbu jarayonning murakkabligini anglagan T.G. Stefanenko ¹⁷⁷ ijtimoiy moslashishni shaxs va sotsial muhitning o'zaro ta'siri natijasi deb izohlaydi, bu esa shaxs va guruxlarning o'zaro munosabatlari ularning maqsadlariga ko'ra muhojirlarning qadr qimmatini belgilab beradi.

V.V.Konstantinov ¹⁷⁸ majburiy mehnat muhojirlarining yangi yashash muhitiga moslashish jarayonini o'rganar ekan, uni "majburiy mehnat migrantining yangi ijtimoiy muhit talablariga moslashuvida insonlar ehtiyojini qondirish jarayonida ijtimoiy muhit ta'siri shaxs xulq-atvor psixologiyasi va turmush tarzini qaytadan tuzishga intilishi" deb ta'riflaydi. Demak, har qanday maqsadda harakatlanayotgan migrantlar moslashuvida kuchli psixologik o'zgarishlar kuzatiladi.

Mamlakatimizda ayni paytda qayd etish joiz bo'lgan muammolardan biri-ming yillar davomida davom etib kelayotgan milliy qadriyatlarning migratsiya natijasida o'zgarishlarga uchrayotgani va insonlar psixologiyasidagi assimilyatsiya va marginallik xususiyatlarini shakillanishi holatlarini mavjudligi bilan izohlanadi.

Shu o'rinda ruhiy holat ta'sirini yuqoriligi migrantlar yaqinlariga qoldirgan farzandlar misolida kurishimiz mumkin. Migratsiya ta'siriga tushib qolgan bolalar tarbiyasiga ta'sirida kuzatilayotgan o'zgarishlar va ulardagi begonalashuv holatini ortib borishi kelajak avlodni ruhan tetik bo'lib kamol topishiga o'z ta'siri mavjudligi extimoli

¹⁷⁷ Стефаненко Т. Г. Этнопсихология. – М.: Институт психологии РАН, «Академический проект», 1999. – 320 с.

¹⁷⁸ Константинов, В.В. Зависимость успешности социально-психологической адаптации вынужденных мигрантов к новым условиям жизни от типа проживания дис. ... канд. психол. наук / В.В. Константинов. – Самара, 2004.24-28 с.

borligini ko'rsatadi. Bunda asosan, ota-onasi mavsumiy yoki vaqtinchalik migratsiyani amalga oshirib, bobo-buvisi yoki boshqa qarindoshlari qaramog'ida qolgan bolalarning tarbiyasida yuz beradigan o'zgarishlar. Bunday bolalarda tarbiya usullarining bir tekis bo'lmashligi kuzatilib, ularning ruhiyatida ham, ijtimoiy xatti-harakatida ham turli hil o'zgarishlar ro'y beradi. Yana shunday holatlardan, ota-onasi bilan birgalikda migratsiya holatini boshidan kechirgan bolalarda kuzatiladi. Ularning bolalarini yoshi qancha katta bo'lsa, yangi muhitga ko'nikish darajasi ham shuncha qiyin bo'lishini ko'rish mumkin. Ma'lumki, tashqi mehnat migratsiyasini amalga oshirgan migrantlarning farzandlari xorijiy mamlakatlar qadriyatlarini ta'siri ostida ulg'ayadi. Eng avvalo, ona tilining yo'qolishi eng fojeali holat hisoblanadi. Ona tilidan mahrum bo'lish yoki uni unitishi holati bolalar tarbiyasida alohida iz qoldiradi. Xususan, millat qadriyatlaridan biri kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsatish kabi fazilatlarni yo'qolishi, sharmu hayoli bo'lish, oilaviy qadriyatlarni saqlab qolishga e'tiborsizlik milliy tarbiyani izdan chiqarishi mumkin.

Aynan chet mamlakatda 3 yildan ortiq yashab kelgan migrantlarga beradigan savolimiz orqali ularning va oila a'zolari ruhiyatidagi o'zgarishlar darajasini aniqlashga imkon berdi. Shuningdek, mehnat migratsiyasi jarayonlari dinamikasiga ta'sir etuvchi omillar to'g'risida ham aholining turli kasb egalari vakillarining fikrlari o'rganildi. Tadqiqot asosini empirik ma'lumotlar, turli xil hujjat va materiallar mazmunini qiyosiy tahlil qilish tashkil etadi¹⁷⁹.

So'rovlarda Farg'ona, Andijon va Namangan, Surxandaryo viloyatlari va Toshkent shahri¹⁸⁰ da 18 dan 65 yoshgacha bo'lgan respondentlar ishtirok etdilar.

Tadqiqotda 1200 kishi ishtirok etdi, ulardan 59% erkak va 41% ayol. Respondentlarning aksariyati 31 yoshdan 40 yoshgacha (44%), o'rta maxsus (45%) va o'rta ma'lumotga (35%) ega bo'lganlar tashkil etdi. Shu bilan birga, oliy ma'lumotli respondentlarning ulushi 20% (bakalavr darajasini tugatgan 16%, 4% - magistratura)

¹⁷⁹ 2022 yil O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Davlat Statistika Qo'mitasi tomonidan taqdim etilgan statistik materiallar, shuningdek, ochiq manbalardan olingan ma'lumotlar.

¹⁸⁰ Andijon viloyati Andijon shahar, Layli MFY, Mirob, Shodlik ko'chasi
Namangan viloyati, Uychi tumani, Xozir obod MFY, ITTI fok ko'chasi, baxt ko'chasi, navruz ko'chasi
Fargona viloyati Bogdod tumani Bekobod MFY, Yukori maxalla, kuyi maxalla ko'chalari
Toshkent shahar Yashnabod tumani Aviasozlar, G'alabaniy 40-yilligi, Lisunova ko'chalari

tashkil etgan.

2017-2020 yillar oralig'idagi olib borilgan sotsiologik tadqiqot natijalarini qiyosiy tahlil qilganda, demografik ko'rsatkichlar bo'yicha ayollarning erkaklarga qaraganda ko'proq qonuniy ravishda chiqib ketishi aniqlangan. Bunda asosan shaxslarning huquqiy ongi haqidagi savollarga respondentlarning uchdan bir (ayollarda 34% va erkaklarda 28% mos ravishda) migrantlar migratsiya xizmatida qonuniy ravishda chet elda hujjatlarni rasmiylashtiradilar. Bu holda, 30% vositachilar orqali hujjatlarni sotib olishsa, 10% hujjatlar davlat organlarida ishlaydigan shaxslardan, yana 7% respondent migratsiya xizmatida ishlaydigan shaxslardan sotib olinganligini ta'kidlaydi. 6% ishtirokchilar mazkur savolga javob qaytarishmadi.


Huddi shundek savol bilan 2020-2023 yillar oralig'idagi mehnat migrantlaridan o'tkazilgan so'rov natijasiga ko'ra, demografik ko'rsatkichlari (qonuniy mehnat migratsiyasi) bo'yicha 2017 yilda 34%ni tashkil qilgan bo'lsa, 2023 yilga kelibayol migrantlar soni esa 39%ni tashkil qilib, ayollar salmog'i ortib ketganligini kuzatish mumkin. Shu o'rinda, ayol respondentlardan (ayollarda 39%) migrantlar qonuniy mehnat migratsiya xizmatida foydalanadilar. vositachilar orqali 34% zi hujjatlarni sotib olishsa, 12% hujjatlar davlat organlarida ishlaydigan shaxslardan, yana 8% respondent migratsiya xizmatida ishlaydigan shaxslardan sotib olinganligini ta'kidlaydi. 5% ishtirokchilar mazkur savolga javob qaytarishmadi.

Navbatdagi savol orqali (Chet mamlakatga oilaviy ketganmisiz? (er va xotin?)) chet mamlakatga oilaviy ketganlar aniqlanib, ularga quyidagicha savol bilan murojat qildik.

4.2.2. Diagramma.

Chet mamlakatga oilaviy ya'ni er-xotin birga ketgan bo'lsangiz farzandlaringiz kim bilan qoldi¹⁸¹?

¹⁸¹ 2020-2023 йиллар оралиғидаги меҳнат мигрантларидан ўтказилган социологик тадқиқот натижаси




Chet mamlakatga oilaviy ya'ni er-xotin birga ketgan bo'lsangiz farzandlaringiz kim bilan qoldi? Degan savolga respondentlarning 51% o'z farzandlarini o'z ota-onalari bilan qoldirib ketganliklarini aytishgan bo'lishsa, 13% respondent bolalar amakisi yoki ammasi bilan qolgan va 19% respondent bolalarini xolasiga qoldirib ketganliklarini ko'rsatib, 2%zi esa enaga bilan qolgan deb javob berishdi. Shu bilan birgalikda 3% respondent farzandlarini qo'shnilariga qoldirganliklarini ko'rsatib o'tishgan. Va 12% respondent oiladan faqat bir kishi ishlashga ketganligi uchun bolalar ota yoki onada qolganligini qayd etishgan.

Navbatdagi savolimiz orqali migratsiya ta'siriga tushgan bolalardagi ruhiy holatni tahlil qilish imkonini berdi.

4.2.3. Diagramma.

Sizningcha ular sizlardan yolg'iz xolda yashashlari bolalarning ruxiy holatiga ta'siri seziladimi?



Ushbu diagrammada ko'rsatilgan javoblarga ko'ra respondentlarning (2018 yilda 18%) 20% o'z farzandlarida agressivlik holati paydo bo'lganini aytib o'tishgan. Shuningdek (2018 yilda 26%) 24% respondent o'z farzandlarida boshqa bolalarga nisbatan tortinchoqroq holati vujudga kelganini sezishgan bo'lishsa, (22% 2018 yilda) 18% ota-onalar o'z bolalarining o'qishi bilan bog'liq muammolar vujudga kelgani ko'rsatib o'tishgan. Faqatgini (2018 yilda 34%) 30% respondent o'z farzandlarida hech qanday o'zgarish sezmagaliklarini qayd etib o'tishgan.


Albatta, yaqin insonlarning uzoq muddatda boshqa bir yurtda yashashi ota onalarning o'z farzandlari tarbiyasi bilan to'laqonli shug'ullana olish imkonidan maxrum qiladi bu esa oilaning bir biridan begonalashuv holatlarini keltirib chiqarishi natijasida bolalar nazorati cheklanadi. Shu bilan birgalikda, begona muxitning axlokiy mezonlariga moslashgan sobik migrantlar o'zining oilaviy muxitini kayta qabul qilishga kiynaladi, bu esa oila a'zolari va bolalari bilan xayotga karashlari farq qila boshlaydi. Uzoq vakt birgalikda yashamagan insonlarning xayotiy qarashlari bir-biridan begonalashadi. O'zaro munosabatdagi bu muammolar oqibati oilaviy janjallarga, xattoki ajrimga, farzandlarning otasiz yoki onasiz o'sishiga sabab bo'lishi mumkin.

Olingan rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yilda jami 30383 ta nikoxdan ajralish holati kayd etilib, undan 592 holatda ajralish sababini bevosita migratsiya jarayonlari bilan bog'liq deb ko'rsatib o'tilgan.

Shu o'rinda, respondentlarning farzandlarini qoldirib ketgan vakillariga bolalaringizga to'laqonli tarbiyani bera olish olmasliklariga nisbatan munosabatlarini

o‘rganishga maqsadida navbatdagi savol bilan murojat qildik. Respondentlar javoblariga ko‘ra 28% respondent ha, bera oladi deyishgan bo‘lishsa, 52% respondent aksincha, yo‘q, bera olmaydi lekin, ularda boshqa chora bo‘lmaganligi sababli farzandlarini qoldirib ketganliklarini ta’kidlab o‘tishgan deb javob berishgan.¹⁸²

4.2.3. Diagramma.



Olingan javoblardan ko‘rinib turibdiki, mehnat migrantlarining aksariyati noilajlikdan farzandlarini yaqinlariga qoldirishlari ma’lum bo‘ldi. Shuningdek, boshqa davlatda yashash shaxsning ruhiyatiga ham qanchalik ta’sir ko‘rsatishini o‘rganish maqsadida quyidagi savolga javob oldik.


Sizingcha xorijda ishlash, insonning ichki dunyosi va qarashlarini qay darajada o‘zgartiradi?

4.2.4. Diagramma¹⁸³

¹⁸²2021-2023 йиллар давомида меҳнат мигрантларнинг фарзандларини қолдириб кетган вакилларга тўлақонли тарбияси билан боғлиқ бўлган ҳолатларни вилоятлар кесимида таҳлил қилинган.

¹⁸³2021-2023 йиллар давомида меҳнат мигрантларнинг фарзандларини қолдириб кетган вакилларга тўлақонли тарбияси билан боғлиқ бўлган ҳолатларни вилоятлар кесимида таҳлил қилинган

Sizningcha, xorijda ishlash insonning ichki dunyosi va qarashlari



Sizningcha, xorijda ishlash insonning ichki dunyosi va dunyoqarashlarini juda kuchli o'zgartiradimi degan savolga respondentlardan (2019 yilgi taxlil 41%)¹⁸⁴ 44 foizi yo'q ruhiy holatimiz umuman o'zgarmaydi degan javobni belgilagan bo'lsa, kamroq ta'siri seziladi deb 5 % respondent qayd etgan. 20 foiz migrantlar o'rtacha darajada ta'sir qiladi deb fikr bildirishgan. Muxojirlik shaxslar ruhiyatini o'zgarishini anig'roq o'rganish istagida kuchli ta'sir etadi degan javobga 18 foiz, juda kuchli ta'siri bor degan javobni 15 foiz respondentlar tanlagan (kuchsiz 24% va o'zgartirmaydi javoblari yig'indisi 17%).

Anketadagi savol migrantlarning boshqa xududga moslashish (adaptatsiya) qilishlari uchun ta'sir etuvchi omillarini o'rganishga oid savolga berilgan javobdan quyidagi xulosaga kelindi:

➤ muhojirlarning jismoniy salomatlik holatiga o'zlarining munosabati (befarqligi), psixosomatik holatning salbiyligi, muxojirlar yashash muhitining ularning salomatligiga ta'siri kabi;

➤ ruhiy tetiklik (psixologik baquvvatlik) – atrofdagi salbiy, stressli vaziyatlarni bartaraf etish qobiliyati, depressiyaga tushmaslik (normal hissiy holatdaligi), o'z oldiga maqsad qo'yishi, ularga erishish yo'llarini topishi, o'z ustida ishlashi va maqsadiga

¹⁸⁴ Муаллиф томонидан 2018 -2020 йиллар давомида ўтказилган социологик тадқиқот натижалари тахлили, тўлик холда 1 -иловада ёритилган

erishishi. Bunda, biz antropolog olim Oberg ¹⁸⁵ tomonidan taklif etilgan “shok madaniyat” ¹⁸⁶ ya’niy shaxsning ma’naviyatiga xayratlanish, ta’jublanish kabi mezonlariga tayangan holda taxlil qilish imkoniga ega bo’ldik:

1. qaysi holatlar mehnat muxojirlar munosabatida vaziyatni qiyinlashtiradi;
2. qanday holatda mehnat muxojirlar diskriminatsiyani (o‘zlarini chet ellik) xis qiladi;
3. chet elda mehnat muxojirlarga osasan nima yetishmaydi (yaqinlarining mexri, do‘stlari, milliy taomlari v.k.);
4. mehnat muxojirlarni ta’jjublantiradigan holatlar (urf odatlari, madaniyati, qoidalaridagi farqlar, har xillik ularni xavotirga soladi, xarakteridagi agressiv holatlar, o‘ziga ishonchini yo‘qligi, jirrakiligi, ratsipient mamlakat aholisiga ishonchini yo‘qligi kabi omillar;

➤ shaxslararo munosabatlar - rasmiy va norasmiy ijtimoiy yordamning mavjudligi, xamkasabalar bilan munosabatlaridan va ishidan qoniqishi, mahalla va qo‘ni qo‘shnilar bilan aloqasining yaxshiligi, do‘stlari va tanishlari bilan munosabatidan ko‘ngli to‘lishi asosiy ish beruvchilar bilan kelisha olish holatlari mehnat muhojirlarini o‘sha muhitga adaptatsiya qilishlaridagi asosiy omil bo‘la oladi.

Shuningdek Amerikalik psixolog olim G.Triandis ¹⁸⁷ tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda, migrantlarning bolalari yangi madaniyatni o‘zlashtirishi va uni qabul qilishi yengil kechadi. Ularni qabul qilgan mamlakat bolalariga o‘xshashga xarakat qiladi. Bulardan ham ko‘ra muxojirlarning nabiralari ko‘proq etnik birlikni xis qiladi va shu mamlakat madaniyatiga to‘la kirishadi.

Demak, muollif tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi modelni taklif qilamiz:

✓ migrantlarning turli qatlamlarida (masalan, diplomatlar, turistlar, biznesmenlar, talabalar, kasallar) boshqa madaniyatni o‘rganishni ijobiy xissiyot bilan boshlaydilar. Ularni qayta bu yerga tez tez tashrif buyurishlari uchun turli hil tadbirlar va uchrashuvlar tashkil etishadi ;

¹⁸⁵ Л. Г. Почебут. Кросс-культурная и этническая психология: Учебное пособие. — СПб.: Питер, 2012. — 336с.

¹⁸⁶ Г. Триандис. Культура и социальное поведение. М.: Форум, 2007.с.325

¹⁸⁷ Почебут Л. Г./ Кросс-культурная и этническая психология: Учебное пособие. — СПб.: Питер, 2012. — с.92.

✓ muxojirlar til bilmasligi, yashash muxitining yaxshi emasligi va bolalari uchun mos maktab yoki kollejga joylashtirishdagi muommolar, shuningdek transport, moddiy ta'minot kabi kamchiliklar kuzatiladi.

✓ muxojirlar o'z vatandoshlari, yaqinlari bilan tez tez bog'lanishga xarakat qilishi oqibatida vatan sog'inchi kuchayishi, yaqinlarning mexri tobora yetishmay, depressiyaga tushush xolati paydo bo'ladi;

✓ eng murakkab holatlaridan biri muhojirlarning o'z vataniga qaytishni hohlashi, begona urf odatlarni moslashishlariga majbur bo'lishi va o'zlarini shu xolatga ko'nikishga undaydi;

✓ muxojirlar yangi ko'nikmalarga ega bo'ladilar va ularning xayotiy tarzini o'zlashtiradilar. Ulardagi depressiv holatlar zaiflashadi va optimizm hissi paydo bo'ladi.

✓ yakuniy bosqichda muxojirlar yangi madaniyatni to'la o'zlashtirishi oqibatida qabul qiluvchi mamlakat aholisi bilan munosabatlari va o'zaro tushinishlari iziga tushadi.

Ushbu model orqali muxojirlarni xissiy xolati turli shaklda o'zgarishi taxlil qilingan. Masalan:

- turistlar tez fursatda uyga qaytganligi uchun ularda yaxshi tasurot qoladi
- emigrantlarning ba'zilarida esa vatan sog'inchi hissi o'ta kuchayishi bilan uyga qaytish kuzatiladi
- yana ba'zilar esa barcha stress va qiyinchiliklar bilan kurasha oladi va o'sha mamlakatda ananalariga moslashib yashab ketadi buning natijasida o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishishi bilan izoxlanadi.

Ushbu model taxlili natijasida mamlakatimiz fuqarolarida etnik mansublik tolerantlik, o'z madaniyatiga sodiqlik, vatanparvarlik, hamjixatlik, dinlar aro bag'rikenglik tushunchalari ko'prog' singdirilishi zarurligi bilan isbotlanadi.

Shu o'rinda, navbatdagi savolga berilgan javoblar orqali respondentlarning qanchalik darajada vatanparvarlik xissi yuqori ekanini bilishga qaratilgan bo'lib, ushbu navbatdagi savol migrantlar o'z oila a'zolarini o'zi bilan birga boshqa mamlakatga olib ketishi istagini borligini bilishga qaratilgan.

4.2.5. Diagramma


«Fuqorolarning oilalarini xorijiy davlatga olib ketishga boʻlgan xoxishlari taxlili»



Shunday qilib, 2023 yilda respondentlardan olingan javoblar quyidagicha izoxlangan. 31% respondent meningcha yoʻq javobini belgilagan, 24%ni esa «hech qachon oʻzim bilan olib ketmayman» deb javob qaytarishgan. 20% respondent esa birinchi qulay imkoniyat bilan va 18% koʻrsatkich lekin birdaniga emas deb javob berishgan. Respondentlarning 7%zi javob berishga qiynalaman deb javob qaytarishgan boʻlsa, ushbu yilning ulushiga nisbatan past holatda (2020 yilda respondentlarning 25% yoʻq deb javob bergan) ekanligi namoyon buladi. Quyidagi ilovada navbatdagi javoblarda ham oʻzgarish tendensiyasini kuzatish mumkin. (1-Ilovaga qarang) .

Bundan koʻrib turibdiki, mamlakatimiz mehnat migrantlarining aksariyati boshqa mamlakatga butunlay koʻchib ketib, mamlakatni tark etish niyatida emas.

Shu oʻrinda, ratsipient mamlakatlar sizga oʻz fuqaroligini olish taklifini bersa qabul qilgan boʻlarmidingiz deb berilgan savolga 58% respondent qabul qilmasligini, va bu vaqtincha ishlash joyi ekanligini qayd etishgan. Yuqoridagilarning hammasi mehnat migrantlarida vatanparvarlik va ona zaminga muhabbat hissi borligini koʻrsatdi.



Shu bilan birga, xorijiy mamlakatlarda bo`lgan davrda migrantlar turli xil masalalar bilan bog`liq muammolarga duch kelishlari mumkin: ularning sha`nini ximoya qilinishi, mehnat va ijtimoiy huquqlarining buzilishi holati, ularning sog`lig`i bilan bog`liq tibbiy yordamning o`z vaqtida ko`rsatilishi, ish joyida va ish vaqtdan tashqari paytda muommolarning kelib chiqishi, shaxsiy hujjatlarini yo`qolishi, ksenofobiya va ta`qib unsurlari va boshqalar.

Migrantlar orasida eng ko`p uchraydigan muammo tilni bilmaslik muammosi 35% bo`lsa, keyingi o`rinda yashash joyini topish muammosi xisoblanib (30%) hamda ishga joylashishdagi qiyinchilik (28%) muammolari turadi. Shuningdek, 8% respondent qoniqtirmaydigan ish haqi deb javob bergan bo`lsa, 7% mahalliy boshqaruv organlari bilan munosabatlari va 5% respondentlar asabiy holatlar, hamda bolalarni maktabga/bog`chaga joylashtirish bilan bog`liq muammolarni ko`rsatib o`tishgan. 4% respondent tibbiy xizmatlarning mavjud emasligini hamda 3% respondent mahalliy aholi bilan munosabatlarni muammo sifatida ko`rsatib o`tishgan (2-Ilovaga qarang).

O`zbekiston fuqarolari uchun xorijda ishlashga ketishning asosiy omili ish haqining nisbatan pastligi 57%, munosib turmush tarziga erishish istagi 24%, o`zi istiqomat qilayotgan hududda ish o`rinlarining yetishmasligi 22,5% hamda o`z mutaxassiligi bo`yicha ish topa olmaslik kabi muammolar saqlanib qolmoqda (3-Ilovaga qarang).

Shuni alohida ta`kidlash joizki, 2021-yilda O`zbekistonning xorijdagi elchixonalari va konsullik muassasalari faoliyatiga nisbatan olib borilgan sotsiologik tadqiqot

natijalarida respondentlarning javoblariga ko‘ra migrantlarning ishonchi oshgan, ya’ni potentsial mehnat migrantlarining aksariyati 87,1%i chet elda bo‘lgan vaqtida o‘zlaridagi muammoli masalalar yuzagasidan ushbu tashkilotga murojat qilgan (ushbu ko‘rsatkich 2007 yil - 65,9%ni tashkil qilgan).

Bunday o‘zgarish mamlakatimiz hukumati tomonidan 2017-yildan boshlab O‘zbekistonning xorijdagi mehnat migrantlari manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha elchixonalari va konsullik muassasalarining O‘zbekiston Tashqi ishlar vazirligiga yuklangan vazifalari kengaytirilgani bilan bog‘liq.

Respondentlarga berilgan navbatdagi savol “Xorijda ishlash davomida bir oyda qancha miqdorda ish haqi olgansiz”% bilan murojat qildik. So‘rovda qatnashgan migrantlarning deyarli yarmining (46%) bir oylik ish haqi 500 AQSh dollargachani tashkil etdi. 35% da 500 dan 1000 AQSh dollari, 12% - 1000 dan 1500 AQSh dollarigacha bo‘lgan ishhaqi olishsa, 1500 AQSh dollaridan yuqorida maoshni 3% dan kamroq respondent olishini ko‘rsatib o‘tgan. Shuningdek, 4% mazkur savolga javob qaytarmagan. Ushbu ish haqi miqdori mamlakatimiz migrantlarining ko‘pchiligi past malakali sektorda ishlayotganligini ko‘rsatadi.

Hududiy kesimda esa Namangan (73%) viloyatilik respondentlar 500 AQSh dollarigacha ish haqi olishgan bo‘lishsa, 500 dan 1000 AQSh dollarigacha Farg‘ona (59%) viloyatidan borib ishlaydiganlar ish haqi olishlari aniq bo‘ldi. Toshkent shahri vakillari 1500 AQSh dollaridan yuqori ish haqi olishlarini ko‘rsatib o‘tishgan.

Agar mazkur ko‘rsatkichlarni xorijiy mamlakatlar kesimida tahlil etsak, quyidagi manzara yuzaga keladi. AQSh-500\$ gacha 7%,1000\$ gacha -12%, 1,500\$ gacha-24%, 5000\$ gacha 34%. Rossiya federatsiyasidan 500\$ -68%, 1000 \$-22%, 1,500\$ –gacha 5%, Koreya Respublikasi 500\$ -0%,1000 \$-12%,1,500\$ -22%,5000 \$gacha -66% deb respondentlar savolga javob berishdi¹⁸⁸. (4-Ilovaga qarang).

Tadqiqot natijalariga ko‘ra aksariyat migrantlar xorijda ishlashdan mamnun.

Sotsiologik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra respondentlarning aksariyati, O‘zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirligi Rossiya, Qozog‘iston kabi mamlakatlarning mehnat migratsiyasi xizmatlari bilan bog‘liq bo‘lgan barcha hujjatlarni rasmiylashtirishni

¹⁸⁸ 2020 йилги ўтказилган сўров тадқиқотида мигрантларнинг бир ойлик маоши тахлили умумлаштирилган.(4-иловага қаранг)

(patentlar, tillarni bilish uchun imtihonlarni topshirish, yashash sharoitlarini tartibga solish, tibbiy ma'lumotnomalar olish va h.k.) mamlakatimizda to'ldirish masalasini hal etish taklifini kiritgan. Shu o'rinda, qaytib kelgan migrantlar uchun o'z bizneslarini tashkil etishida sarmoya kiritishda tijorat banklarining bu boradagi faoliyatini qayta qurishni talab qiladi.

Respondentlar bildirgan fikrlarida ommaviy migratsiya kelajakda demografik vaziyatning murakkablashuviga olib kelishi mumkin deb qarashgan. Erkaklarning uzoq vaqt boshqa mamlakatda yashashi jamiyatimiz uchun, kelajak avlod uchun tahdiddir deb fikr yuritishgan.

Hulosa qilib aytganda, ommaviy migratsiyaning jamiyat hayotiga ta'sirini muntazam ravishda xukumat tomonidan nazorat qilish talab etilmoqda. Asosan xorijga ishlashga ketayotgan oila juftliklari farzandlarining aksariyat holatlarda qarovsiz qolishlari – vasiylarning bolalar bilan to'liq shug'ullana olmasligi holatlari kelajakda bir qator oldini olish mumkin bo'lmagan holatlarni keltirib chiqarishini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak bo'ladi.

4.3. O'zbekistonda jamiyat farovonligini ta'minlash va unda mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solishni takomillashtirish istiqbollari

Bugungi kunda globallashtirish mehnat migratsion jarayonlari ishtirokchisi sifatida xalqaro mehnat bozorlarini liberallashtirish, tovar ayirboshlashning kengayishi, sotsiomadaniy hamda xalqaro munosabatlarning turli jihatlarini integratsiyasi hamda mamlakatdagi demografik omillarning dinamik ko'rsatkichlar tahlili, mehnatga layoqatli yoshdagi va qariyalarni oshib borish tendensiyasi va bular bilan bog'liq holda davlat chegaralarini yanada kengroq ochilishi ko'zatilmoqda. Bu tendensiyalar mamlakatimizda mehnat migratsiya siyosatini amalga oshirishda yangicha yondashuv va mehanizmlarni ishlab chiqish zaruratini taqozo etmoqda.

Dunyo miqyosida insonlarning mobillik harakati ko'rsatkichi har qachongidan ham ko'tarilgan bo'lib, bu esa insoniyatning turmush tarzi va uning ijtimoiy, ma'naviy dunyosiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Shu jumladan, O'zbekistondagi ijtimoiy,

iqtisodiy taraqqiyotning barcha yunalishlarida ham global aholi migratsiyasining ta'sirini mavjudligi, mamlakatimizda aholi migratsiyasi va uning turmush tarzi, ma'naviy dunyoqarashi, ahloqi kabi holatlarni tadqiq qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, davlatning mehnat migratsiya siyosatini amalga oshirish uchun vazirliklar, mutassaddi idoralar, davlat qo'mitalari, mahalliy davlat hokimiyat organlari, turli jamoat va nodavlat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini takomillashtirish va ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorligini kuchaytirish orqali migratsiya jarayonlarini samarali tartibga solishga erishish mumkin.

Shu o'rinda, mehnat migratsion jarayonlarini tartibga solishni takomillashtirish maqsadida quyidagi mexanizmni taklif etamiz:



4.3.1. -Rasm. Mehnat migratsiyasi bilan bog'liq oqibatlarni tartibga solish usullari(dastaklari)

Yuqorida olib borilgan tahlillar natijasida mehnat migratsiyasi natijasida kelib chiqadigan turli xildagi oqibatlar muhim ahamiyatli ekani ilmiy izohlandi. Ulardan biri iqtisodiy omillar bo'lib, ularning oqibatlarini tartibga solishda sotsiologik, ma'naviy, huquqiy asoslar, iqtisodiy - moliyaviy dastaklar qo'llaniladi.

Ushbu mexanizm nazariy-uslubiy ahamiyatga molik bo'lib, u konseptual model hisobladi va ushbu mexanizmning barchasi ijtimoiy xususiyatga ega. Unda quyidagi

elementlar mavjud:

1) mehnat migratsiyasini tartibga solish mexanizmning elementlaridan biri sotsiologik dastak xisoblanadi. Bu dastak nodavlat notijorat tashkilotlari va diasporalar orqali amalga oshirilib, bunda migrantlarning eng zarur muommolari (hayoti va salomatligi, sha'ni, qadr-qimmatini, disskriminatsiya) oldi olinadi.

2) ma'naviy tadbirlar (migrantlarning har bir vakiliga ish beruvchi mamlakat an'analari, urf odatlari, tili, dini va turmush tarzini o'rganish ahamiyati ortadi.

3) iqtisodiy-moliyaviy mexanizm elementlari: - iqtisodiy usullar tashqi (mehnat muxojirlarining yuqori ish xaqqi oladigan ish bilan ta'minlanishi, qonuniy migratsiyani mustaxkamlanishi), mamlakat ichkarisida (oylik maoshlarni ko'tarish, ish o'rinlarni ko'paytirish, tadbirkorlarga imtiyozlarni oshirish va kerakli sharoitlar bilan ta'minlanish) kabi iqtisodiy usullarni qo'llagan holda aholini samarali mehnat faoliyatini ta'minlash mumkinligini ko'rsatadi;

4) xuquqiy mexanizm elementlari- O'zbekiston Respublikasi Qonunlarini ¹⁸⁹, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qaror va Farmonlarini, xalqaro tashkilotlar (Xalqaro mehnat tashkiloti, Xalqaro migratsiya tashkiloti) ¹⁹⁰ bilan tuzilgan memorandum va shartnomalarni, xorijiy mamlakatlar bilan imzolangan bitimlarni ko'rsatirishimiz mumkin.

Hususan, 2018 yil 5 iyuldagi P-3839-sonli «O'zbekiston Respublikasining tashqi mehnat migratsiya tizimini yanada takomillashtirish buyicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi ¹⁹¹, 2020 yil 11 avgustdagi PQ-4804-sonli «Kambag'al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-xunarga o'qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi¹⁹², 2020 yil 15 sentabrdagi P-4829- sonli «Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi¹⁹³, 2021 yil 30-iyuldagi PQ-5205-sonli «Xorijga tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasiga ketayotgan fuqarolarni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar

¹⁸⁹ <https://lex.uz/uz/docs>

¹⁹⁰ <http://insonhuquqlari.uz/uz/news/xalqaro-migratsiya-tashkiloti-bilan-hamkorlik-yanada-kengaymoqda>

¹⁹¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори, 2018 йил 5 июлдаги ПҚ-3839-сонли қарори

¹⁹² Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 2020 йил 11 августдаги ПҚ-4804-сон қарор

¹⁹³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 2020 йил 15 сентябрдаги ПҚ-4829-сон қарори

to'g'risida»gi ¹⁹⁴, 2021 yil 11 avgustdagi PQ-5220-sonli «Vatandoshlar» ¹⁹⁵ jamoat fondini tashkil etish to'g'risida»gi Prezident qarorlari kabi normativ-xuquqiy xujjatlar qabul qilindi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ushbu qaror, mamlakat Prezidenti Sh. M. Mirziyoev rahbarligida xalq turmush tarzi vat farovonligini oshirish, davlatimizning xalqaro reytingini ko'tarish, mehnat migratsiyasining noqonuniy xatti-xarakatini oldini olish va muommolardan xolos etishga qaratilgan dadil qadam bo'ldi. Lekin, Ushbu qarorlar soxaga amalga oshirilayotgan ishlar ko'lami keng bo'lsada, ushbu soxaga oid ba'zi muammolar hali ham mavjudligiga e'tibor karatilmagan.

Jahon tajribalarini kuzatkanimizda, Markaziy Osiyo mintakasidagi Qozogiston davlatida 2011 yil 22 iyulda «Axoli migratsiyasi tugrisida»gi, Qirgizistonda 2002 yil 30 iyulda «Tashki migratsiya tugrisida»gi, Tojikistonda 1999 yil 11 dekabrda «Migratsiya tugrisida»gi va Turkmanistonda 2012 yil 31 martda «Migratsiya tugrisida»gi konunlar kabul kilingan¹ bo'lib, ushbu xujjat mehnat migratsiyasi soxani tartibga soladigan yaxlit konun hisoblanadi.

Shu o'rinda, mehnat migratsiyasining ijtimoiy oqibatlarni tartibga solish uchun quyidagi tashkiliy va sotsiologik dastaklarni taklif etamiz:

1-usul. Ushbu bosqichda Ushbu bosqichda migratsiya ta'siriga tushib qolgan bolalar bilan ishlash Markazlarini tashkil etish. Ushbu markazlarni «Migratsiya va bolalar» deb nomlash taklif etildi.

Ushbu Markazning faoliyati ota-onasi xorijga vaqtinchalik va mavsumiy migratsiyani amalga oshirgan, ammo bola O'zbekistonda bobo-buvisi yoki boshqa yaqin qarindoshlari qaromog'ida qolgan bolalarning ruhiy holati va tarbiyasiga qaratilgan bo'ladi.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, migratsiya bolalarga turlicha ta'sir qiladi: bolalarni migrant ota-onalar vaqtincha tark etishadi; ular ko'chib kelgan ota-onalari bilan birga olib kelingan; va ular ota-onalari va kattalar vasiylaridan mustaqil ravishda yolg'iz ko'chib ketadilar.

Respondentlarga «Ayingchi sizdan yirog'da yashagan paytida bolalarizga

¹⁹⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори 2021 йил 30-июлдаги ПҚ-5205-сон қарори


¹⁹⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 2021 йил 11 августдаги ПҚ-5220-сон қарори

atrofdagilarni munosabati qanday bo‘lgan?» deb berilgan ochiq savolimizga ularning javoblari quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘lgan: o‘z ota-onamizni qo‘liga qoldirganimiz uchun ularga yaxshi munosabatda bo‘lishgan – 42%, ammasi yoki xolasi farzandlarimizga o‘zlarini farzandlari singari munosabatda bo‘lishgan deb 34%, javob qaytargan bo‘lishsa, 14; respondent farzanlarini birovni qo‘lida qoldirib ketganlari uchun afsusda ekanliklarini aytib o‘tishgan bo‘lishsa, qolgan 10% respondent mazkur savolga javob qaytarishdan bosh tortishgan.

Sizningcha, **ota-onani xorijda ishlashi** bolalarning ichki dunyosi va qarashlari juda kuchli o‘zgaradi deb 12% respondent qayd etgan bo‘lsa, 18% respondent kuchli ta’sir qiladi deb javob qaytarishgan. Shu bilan birgalikda, 41% respondent insonning ichki dunyosiga ta’sir qilmaydi deb javob qaytarishgan (kuchsiz 24% va o‘zgartirmaydi javoblari yig‘indisi 17%). 29% respondent o‘rtacha o‘zgaradi deb javob qaytarishgan.

Na ham anig‘rog‘ ma’lumotga ega bo‘lish istagida, navbatdagi savolga respondentlardan quyidagicha javob oldik.

4.3.2-Diagramma



“Aytinchchi sizdan yirog‘da yashagan paytida bolalarizga atrofdagilarni munosabati qanday bo‘lgan?” berilgan ochiq savolimizga ularning javoblari quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘lgan: o‘z ota-onamizni qo‘liga qoldirganimiz uchun ularga yaxshi munosabatda bo‘lishgan – 42%, ammasi yoki xolasi farzandlarimizga o‘zlarini farzandlari singari munosabatda bo‘lishgan deb 34%, javob qaytargan

bo'lishsa, 14% respondent farzanlarini birovni qo'lida qoldirib ketganlari uchun afsusda ekanliklarini aytib o'tishgan bo'lishsa, qolgan 10% respondent mazkur savolga javob qaytarishdan bosh tortdi.

